

Ibragimov R.Z.

# O'RTA OSIYO ARXEOLOGIYSI

63.4ya<sup>7</sup>

168a

1-14

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI  
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

**IBRAGIMOV R.Z.**

**O'RTA OSIYO ARXELOGIYSI**  
5120400-Arxeologiya yo`nalishi talabalari uchun

**TOSHKENT – 2020**

**“Asian Book House”**

ISBN 978-9943-5878-5-4


Mas'ul muharrir: t.f.d., akad. Sagdullaev A.S.

Taqrizchi: . t.f.d., Abdullaev.

Darslikda O'rta Osiyoning qadimgi tosh asridan to o'rta asrlargacha bo'lgan davr ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlari boy va yangi arxeologik ma'lumotlar asosida yoritilgan. Mintaqaning turli davrlariga oid lokal madaniyatlari arxeologiyasi batafsil bayon qilingan.

В учебнике освещены социально-экономические и культурные процессы Средней Азии начиная с древнекаменного века до позднего средневековья на базе богатых и новейших археологических источников. Детально характеризуются локальные культуры различных эпох региона.

This manual is based on the latest archaeological research and shows the development of material culture in the history of the population of Central Asia from the Stone Age to the late Middle Ages. In details Characterized the individual cultures of different eras of the region.



## MUQADDIMA

“O'rta Osiyo arxeologiyasi” darsligi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'limga muassalari “Arxeologiya” yo'nalishi talabalari uchun mo'ljalangan. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'limga vazirligi tomonidan 6.02.2014-yilda tasdiqlangan “Davlat ta'limga standarti”ning “Ixtisoslik fanlar” blokiga kirgan “O'rta Osiyo arxeologiyasi” fanining o'quv dasturiga muvofiq 5120400-Arxeologiya yo'nalishi talabalari tayyorlangan.

Darslikni yozishda Respublikamizda nashr qilingan o'quv adabiyotlari chet et o'quv adabiyotlari ilmiy va uslubiy tajribasidan keng foydalaniб, asos qilib olindi.

Darslik Oliy ta'limga muassasalarining o'quv adabiyotlarini yaratishuning ke'p yiliк an'anaviy usullari tajribasi negizida, fanining zamонавиy o'quv uslubiy, mintaqaning arxeologiyasi fani sohasida erishilgan katta yutuqlardan keng foydalilanigan holda yozildi. Zamонавиy pedagogik texnologiyalar talablariga amal qilinib, yangi innovatsiya g'oyalari bilan boyitishga harakat qilindi. Keyingi ellik yil davomida arxeologiya fani sohasida amalga oshirilgan keng ko'lamli tadqiqot ishlarining natijalari darslikda aks ettirildi. Shuningdek, darslikda insoniyat sivilizatsiyasida vatanimiz tarixi va madaniyatini tutgan o'rnini talabalar ongiga chuqur singdirish orqali milliy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan.

Darslikda uslubiy, ilmiy va boshqa kamchiliklar bo'lishi mumkin. Yo'l qo'yilgan xatolar yuzasida fikr va mulohazalarini bildirgan o'quvchilarga mualif oldindan o'z minnandorchiliginini bildiradi.

## KIRISH

*Tayanch so'zlar: manba, shurj, yodgorlik, stratigrafiya, planigrafiya, davrlashdirish, tadqiqot usullari.*

Kishilik jamiyat tarixi uzoq davom etgan murakkab madaniy-tarixiy jarayonlardan iborat bo'lib, ularni o'rganish va qayta tiklash qadimshunoslik fanining muhim vazifasidir. Ma'lumki, insoniyat tarixi manbalar asosida o'rganiladi. O'tmishdan qolgan jamiki narsalar manba hisoblanadi. Manbalarning moddiy va yozma turi ajralib turadi. Insoniyat tarixinining 99,8 % dan ko'proq qismi yozuvsiz davriga to'g'ri kelib, dastlabki yozuv ma'motlari taxminan besh ming yil avvalgi davrga oid. Lekin qadimgi yozma hujjalarni kishilik jamiyat tarixini to'liq yoritib bera olmaydi. Shuning uchun insoniyatning yozuvgacha, qisman yozuv paydo bo'lgandan keyingi davr tarixini o'rganishda moddiy manbalarga chitiyoj tug'iladi. Natijada insoniyatning yozma manbalar yoritib bera olmagan davri va sohalarini o'rganishga asoslangan *arxeologiya* fani vujudga kelgan.

Arxeologiya atamasi antik davridayoq ma'lum bo'lib, tarixchi Fukidid o'zining "Peloponess urushi" (mil. avv. V asrda) asarida keltirgan. Qadimgi yunon saylasusü Platon (mil. avv. 427-347 yillar) arxeologiya (*arxayos - qadimgi, logos - fan*) so'zidan qadimgi davr tarixini bayon qilish maysadida foydalangan. Uning fikriga ko'ra o'tmish to'g'risida hikoya qiluvchi arxeologiyaning vazifasi qadimgi inshootlar va san'at yodgorliklarini o'rganish va ularni sharhlashdan iborat bo'lgan. Antik davrida arxeologiya atamasi paydo bo'lib qolmasdan, insoniyatning o'tmish tarixini o'rganish yo'llida ham daslabki qadamlar qo'yiladi. Bu davrda yashagan rimlik mutafakkiri Tit Lukretsiy Kar "Narsalarning tabiatini to'g'risida" nomli asarida (mil. avv. I asr) insoniyat tarixini tosh, mis, bronza va temir davrlariga bo'lib, arxeologiya bilimiga tamai toshini qo'ygan edi.

Arxeologiya fanining predmeti jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy, etno-madaniy, diniy-g'oyaviy munosabatlarni o'zida mujassam etgan moddiy va ma'naviy

madaniyat yodgorliklari hisoblanadi. Bir so'z bilan aytganda jamiyat tarixidan darak beradigan jamiki moddiy ashyolar arxeologiya fanining predmetidir. Umuman, arxeologiya kishilik jamiyatining qadimgi va qisman o'rta asrlar davr tarixini moddiy manbalar asosida o'rganadigan fan bo'lib, tarix fanining tarkibiy qismini tashkil etadi.

*Arxeologiya manbaları.* Kishilik jamiyatining taxminan 3 min.-yildan ortiq tarixining atigi yuzdan 0,02 % qismi yozuvli davriga to'g'ri keladi. Insoniyatning yozuvsiz davrdagi tarixini o'rganishda moddiy ashyolar asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Dunyodagi ko'pchilik xalqlar yaqningacha yozuvni bilmagan. Ularning o'tmish tarixini faqat moddiy manbalar asosida o'rganish mumkin.

Arxeologiya insoniyatning ibtidoiy davr tarixini to'liq, keyingi davrlarining yozma manbalar ochib bera olmaydigan masalasi ni o'rganishga asoslangan fandir. Qadimgi va qisman o'rta asr yozma manbalari tarixning ayrim tomonlarini, xususan, ijtimoiy-siyosiy hayotini yoritish imkoniyatiga ega. Tarixning ko'pgina ijtimoiy-iqtisodiy masalalari mavjudki, ularni faqat moddiy manbalar asosida tiklash mumkin.

Moddiy manbalarning ikki turi mavjud. Birinchisi, qazilma odamlar va bayvonlarning suyagi hamda o'simliklarning qoldig'idan iborat tabiiy manbalar. Ularni paleoantropologiya, paleozoologiya va paleobotanika fanlari o'rganadi. Tabiiy manbalar antropogenez jarayoni, eng qadimgi davr faunasi, florasi va ular asosida shakllanadigan xo'jalik xususiyatini o'rganadi.

Moddiy manbaning boshqa bir muhim turi insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy ashyolar, ya'ni narsalardir. Ular ilk palcolit davriga oid oddiy tosh qurolidan tortib, qadimgi va o'rta asr davri ko'hna shaharlari xarobasida saqlangan mahobatli qurilish imoratlari, ishlab chiqarish inshootlari, turli xildagi narsalar yoki yuksak mahorat va estetik did bilan ishlangan amaliy san'at namunalari-yu hamda boshqa moddiy ashyolardan iborat.

Arxeologiyada moddiy manbalarning sinonimi sifatida "yodgorlik" atamasi

ham qo'llaniladi. Yodgorlik so'zi tosh davri makonlari, qishloqlar, qabr-qo'rg'onlar, shahar xarobalari, yerning usiki qismida saqlanib qolgan me'moriy obidalar va boshqalarga nisbatan ishlatiisada, insoniyat tafakkurining mahsuli bo'lgan barcha moddiy ashyolarni ham ifodalaydi.

Moddiy manbalar joylarda olib borilgan tadqiqot ishlari natijasida to'plaradi. Tadqiqot ishlari maxsus ilmiy muassasalar: arxeologiya ilmiy tadqiqot instituti, oliy o'quv yurtlarning arxeologiya kafedrasi va ilmiy muzeylari tomonidan amalga oshiriladi. Arxeologiya qidiruv, qazishma va nazorat ishlari maxsus vakolatga ega bo'lgan muassasalar tomonidan amalga oshirish O'zbekiston Respublikasning "*Arxeologiya merosi obyektlarini nuhofaza qilish va ulardan foydalanish*" to'g'risidagi qonunning 20-moddasida qat'iy belgilab qo'yilgan. Tadqiqot ishining vazifasi ma'lum yodgorlik yoki yodgorliklarni o'rGANIB, aniqlangan moddiy manbalar asosida mahalliy budud tarixini yoritishdan iborat.

*Arxeologik tadqiqotlar tarixi.* Insoniyatning o'tmish tarixini o'rganishga qiziqish qadimgi davrdan boshlangan. Mil. avv. VI asrda Bobil podshosi Nabonid ajdodlari barpo eigan saroy va ibodatxona imoratlarning mahobatini emmaga ko'rsatish maqsadida ularning qoldiqlarini qazib ochgan.

Yevropada o'yg'onish davrida (XIV asr oxiri - XVI asr) qadimgi osori-atiqalar va antik davr madaniyati, tasviriy san'ati namunalariga qiziqish boshlangan. Uyg'onish davri haykaltaroshlari, rassomlari antik davrda yashab o'tgan hamkasblarining ijod namunalari ta'sirida va hatto ularga taqlid qilgan holda o'zlarining asarini yarata boshlagan. Natijada o'sha davr jamiyatining nufuzli tabaqasi vakillari orasida qadimgi dunyo, ayniqsa, antik davrga oid esori-atiqalarning asl nusxasini to'plash va ularni "*kolleksiya*" qilish ishlari boshlanib ketgan.

XVII asrga kelib bu sohada dunyoviy bilimlar muhim o'rIN tuta boshlaydi. yevropaning ilg'or ilmiy jamoatchiligi moddiy manbalarni izlash va ularni o'rganishga kirishadi. Ilmiy yutuqlarga erishish maqsadida yodgorliklarda

qazishma ishlarini tashkillashtira boshlaydilar. XVIII asrda Vezuvey vulqoni tagida qolib ketgan Pompey va Gerkuanum shaharlaringin xarobasi ochilib, arxeologik qazishma usuli shakllana boshlangan.

XVIII asrda ilmiy tahlil qilishga qaratilgan dastlabki fundamental tadqiqot ishlar vujudga kelgan. Iogann Ioxim Vinkelmanning ilmiy ishlari shunday tadqiqotlardan biri bo'slib, uning "Qadimgi san'at tarixi" (1762) va "Antik davri noma'lum yodgorliklari" (1767) kabi asarlari antik davri tarixiga oid materiallarni ilmiy o'rganishga asos solib, yevropada klassik arxeologiya fani taraqqiyotida muhim iz qoldirgan.

XIX asrda amalga oshirilgan muhim kashfiyotlar arxeologiya fanida ilmiy bitimlarning shakllanishini boshlab beradi. Asr boshida Jak Fransua Shampalyon Rozettidagi toshlarga bitilgan ieroglif yozuvlarni o'qishga muvaffaq bo'slib, Qadimgi Misr yozma merosini o'rganishda o'zining ulkan kissasini qo'shamdi. 1840-yillarda Mesopotamiyada arxeologik tadqiqot ishlarida boshlanadi. Unda ingлиз arxeologi Ostin Hyenri Leyyard Frot daryosi bo'yidagi tepalikda qazishma ishlar olib borib, qadimgi saroy xarobasini va Neneviyadagi Ashshurbanapalning barelefli tasviri, haykallar, sopolga mixxat yozuvda bitilgan hujjatlar saqlangan kutubxonani ochib o'rgangangan. Arxeologiyada ilmiy bilimlar ko'laming o'sishida fransuz olimi Jak Bush de Pertning hissa katta. 1837-1846-yillarda tosh davriga oid yodgorliklarni o'rgangan tadqiqotchi "Ketilar va to'songacha qadimiyat" nomli asarida tosh qurollarining yasalish usuliga ko'ra tosh asrini alohida paleolit va neolit davrlariga ajratadi.

XIX asrning ikkinchi yarmida arxeologiya fani sohasida olamshumail kashfiyotlar amalga oshiriladi. Genrix Shliman Troya shahri xarobasi (1870-1873-yillar) va Mikendagi podsholar qabrida qazishma olib borgan. Ayniqsa, ulardan hukmdor Agamemnon dafn etilganligi taxmin qilingan qabrning (1876) o'rganilishi arxeologiya fanining o'z davridagi muhim yutug'i edi.

O'rta Osiyo arxeologiyasiga qiziqish XIX asrning ikkinchi yarmida boshlangan. Chor Rossiya tomonidan bosib olingandan so'ng, bu yerga tashrif

buyurgan ziyoiliar orasida o'lkanning moddiy madaniyatiga qiziquvchi olimlar ham bor edi. Sharqshunos va havaskor olimlardan V.V.Bartold, V.A.Jukovskiy, N.I.Veselovskiy, A.L.Kun, V.L.Vyatkin, I.T.Poslavskiy, N.P.Ostromov va boshqalarning o'lka tarixini o'rganishdagi xizmati beqiyos. Ularning vatanimiz tarixini o'rganish yo'lida olib borgan amaliy faoliyatida mahalliy aholi vakillari orasidan chiqqan Akrom Asqarov, Mirza Abdulla Buxoriy, Abu Said Maxsum kabi qadimgi tarixga qiziquvchi kolleksioner, havaskor o'ikashunoslarning ko'rsatma va maslahati muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Turkiston o'lkasidagi manzilgohlarda dastlab arxeologik qazish ishlari sharqshunos olim N.I.Veselovskiy tomonidan amalga oshirilgan. U 1883-yilda Afrosiyobda to'rt oy mobaynida yuzdan ortiq joyda kichik hajmli qazishmalar olib borgan. 1884-yili To'ytepa shahri yaqinidagi Ulkanto'ytepa yodgorligida uch kun mobaynida arxeologik qazishmani amalga oshirgan. Uning qazishmalar arxeologik ilmiy me'yorlarga asoslanmagan bo'lsada, o'z davrining muhim tadqiqot ishi hisoblanar edi. Ayniqsa, tadqiqotchi yaratgan Afrosiyob topografik xaritasi hozirgacha ahamiyatini ye'qotmagan.

1895-yilda sharqshunos olim V.V.Bartold rahbarligida o'lkanning qadimgi tarixi va madaniyatini o'rghanishga qaratilgan "*Turkiston havaskor arxeologlar to'garagi*" tuziladi. Amalda 1917-yilgacha faoliyat yuritgan to'garakning asosiy vazifasi Turkiston o'lkasidagi qadimiy yodgorliklarda tekshirish ishlarini olib borish, turli xil qo'lyozmalar, numizmatika va etnografiyaga oid moddiy ashyolarni topib o'rghanishdan iborat edi.

To'garak a'zolarining yodgorliklarni tekshirish, sirtidagi moddiy ashyolarni yig'ish va ayrim hollarda qazish ishlarini tashkil etish kabi havaskorlik mazmuniga ega izlanishlari o'z davrining muhim yutug'i edi. Mazkur izlanishlar ma'lum ilmiy-uslubiy mc'yorga asoslanmagan bo'lsada, to'plangan ma'lumotlarning keyingi davrda olib borilgan tadqiqot ishlarning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

O'rta Osiyoda yodgorliklarni *stratigrafik* jihatidan o'rghanish dastlab o'igan

asrning boshida (1904-yil) amalga oshirilgan. Amerikalik olim R.Pampelli va nemis arxeologi G.Schmidtler Janubiy Tukmanistonning Anovtepada olib borgan qazishma ishida manzilgohning madaniy qatlami, uning davri va bosqichlarini ajratib ko'rsatgan edi.

XX asrning 20-40-yillarida V.L. Vyatkin, B.P. Denike, M.ye.Masson, V.V.Grigorev, V.D.Jukov, A.Yu.Yakubovskiy, V.A.Shishkin, Ya.G'.G'ulomov, S.P.Tolstov va A.P.Okladnikovlarning Zarafshon, Toshkent va Surxon vohalarida hamda Amudaryoning quyi oqimi hududida olib borgan arxeologik tadqiqotlarning ahamiyati beqiyosdir. Ular yodgorliklarning topografik holatini o'rganish, xaritasini yaratish bilan birga qazishma ishlarini hai amalga oshirganlar.

1940-yilda O'rta Osiyo davlat universiteti (hozirgi O'zMu) tarix fakultetida M.ye.Masson tashabbusi "O'rta Osiyo arxeologiyasi" kafedrasining ochilishi nafaqat ta'lim sohasida, balki mintaqada ilmiy tadqiqot ishlarining rivojlanishiga turki bo'ldi. Kafedra malekali arxeolog mutaxassislar tayyorlaydigan, tadqiqot ishlarni olib boradigan o'quv va ilmiy muassasaga aylanadi.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng dunyoning barcha hududida arxeologik tadqiqotlar ko'lamni kengayadi. Bu davrda meddiy manbalarni atroficha ilmiy tahlil qilishga asoslangan yangi yo'nalish shakllanadi. Bu yc'nalishning g'oyaviy rahnomalari ingliz va amerikalik olimlar edi. Ular kishilik jamiyatni tarixiga oid moddiy manbalarni o'rganishda tizimli yondashuv usulini qo'llaydi. Bu davrda tabiiy fanlar yutug'idan keng foydalana boshlaydi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin O'rta Osiyoda arxeologiya yodgorliklarini o'rganishga e'tibor yanada kuchayadi. Joylarda maxsus ilmiy ekspeditsiyalar tashkil etiladi. Quyi Aynudaryoda "Xorazm arxeologik va etnografik ekspeditsiyasi" (XAEE) faoliyati davom ettilib, tadqiqot ko'lamni kengayadi.

1946 -yilda "Janubiy Turkmaniston arxeologik kompleks ekspeditsiyasi" (JTAKE) tashkil etiladi. Ekspeditsiya faoliyati qadimgi tosh asridan o'rta asrlargacha tarix va madaniyatini o'rganishga qaratilib, arxeologiya sohasida

katta yutuqlarga erishiladi. Ayniqsa, neolit davridan rivojlangan o'rta asrlar davrigacha bo'igan yodgorliklarda olib borilgan qazishma ishlari natijasida O'rta Osiyoning ilk ishiab chiqaruvchi xo'jalikning vujudga kelishi, shaharsozlik madaniyatining shakllanishi va taraqqiyotiga doir muhim kashfiyotlar amalga oshirilgan.

O'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab Afrosiyob yodgorligini o'rganishga e'tibor kuchayib, Samarcand shahrining shakllanishi va taraqqiyot bosqichlariga oid madaniy qatlamlar o'rganiladi. 50-yillarning oxirlarida O'zbekiston San'atshunoslik ilmiy tekshirish instituti Surxon vohasining qadimgi va o'rta asrlar davri yodgorliklarini o'rganishga kirishgan. 1963-yilda Qashqadaryo arxeologik-topografik ekspeditsiyasi (KATE) tashkil etiladi. Ekspeditsiyasi faoliyatida vohada keng ko'lamli tadqiqotlar olib borilib, qadimgi va o'rta asrlar davri yodgorliklari o'rganilgan va ularning xaritasi shakllantirilgan. XX-asrning 50-70-yillarda Choch-Iloq ekspeditsiyasi yangi qurilish hududida (Tuyubo'g'iz, Chordara) keng tadqiqot ishlarini olib borgan.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini e'lon qilgandan so'ng vatanimiz tarixini xolisona o'rganish, moddiy manbalarini yangicha ilmiy yondashish asosida tadqiq etishga katta e'tibor berila boshladi. Bu borada ko'hna shahar xarobalarini o'rganish va ularning tub ildizlarini aniqlashda muhim yutuqlarga erishildi. Samarcand shahrining 2750, Qarshi va Shahrisabz shaharlarining 2700 yillik, Buxoro, Termiz va Xiva shaharlarining 2500 yillik, Toshkent shahrining 2200 yillik tarixi ilmiy isbotlanib, keng nishonlandi.

Hozirgi paytda O'zR FA arxeologiya, tarix va san'atshunoslik ilmiy tadqiqot institutlari, davlat universitetlerining tarix fakultetlari hamda davlat muzeylari o'ndan ortiq chet mamlakatlarning nufuzli ilmiy muassasalari bilan hamkorlikda Respublikamizning turli joylarida olib borayotgan tadqiqot ishlari vatanimiz tarixi va madaniyati sahifalarini yangi ilmiy ma'lumotlar bilan boyitib, dunyo sivilizatsiyasi tarixida tutgan o'rmini belgilashda ulkan ishlarni bajarilmoqda.

*Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:*


1. O'rta Osiyo arxeologiyasi fanini o'rganish qanday aharniyatga ega?
2. O'rta Osiyo arxeologiyasi vazifasi nimadan iborat?
3. Arxeologiya tadqiqotlar qanday amalga oshiriladi?
4. Arxeologiyani rivojlantirish borasida qanday amaliy ishlar bajarilmoqda?
5. O'zbekistonda arxeologiya faning rivojlanish bosqichlarini ko'rsatib bering?
6. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi yillarda vatanimizning qadimgi tarixini o'rganishda qanday yutuqlarga erishildi?

## Birinchi bo'lim

### **TOSH ASRI**

*Tayanch so'zlar: antropogen, villyfrank, glyasiyalı, intergyasialı, klekton, kliver, levalhu, neogen, nukleus, pleystotsen, eopleystotsen.*

Tosh davri kishilik jamiyatining eng qadimgi va uzoq davom etgan bosqichi bo'lib, toshdan yasalgan dastlabki qurol paydo bo'lgandan ilk metalleneolit davrigacha davom etgan. Tosh asri xronologik jihatdan taxminan mil. avv. 3/2,6 mln. yillikdan-mil. avv. VI/V ming yilliklarga davom etgan.



Tosh asri qadimgi-paleolit, o'rta-mezolit, yangi-neolit davrlariga bo'linadi. Tosh asri davomida insoniyat yangi yerlarni o'zlashtirib, ularning yashaydigan hududi doimiy kengaytirib borgan. Agar palcolit davrining ilk bosqichida odamlar faqat Afrikaning sharqiy va janubiy qismida yashagan bo'lsa, uning oxiriga kelib quruqlikning asosiy yerlarini egallaydi.

Bu davrda insoniyat uzoq va murakkab tarixiy yo'lni bosib, muhim kashfiyotlarga erishgan. Odamzod sun'iy olovni hosil qilish, kiyim tikish, boshpana qurish, kamon va o'q-yoyni ixtiro qilishdek, o'z davrining o'ta muhim va murakkab kashfiyotlariga erishadi. Tosh asrinining oxirida odamlar joydan idishlar yashash va matolar to'qishni o'rganadi. Ular turli xil o'simliklar va hayvonlarning soydali xususiyati va sisflarini o'rganib, kishilik jamiyatini ijtimoiy-iqtisodiy hayotida tub burilish davrini boshlab bergan ishlab chiqaruvchi xo'jalik shakl-dehqonchilik va chovrachilikga asos soladi.

Umuman, insoniyat tarixining poydevori bo'lgan tosh asrinining ahamiyati shunchalik yuqoriki, odamzod bu davrni bosib o'tmasdan keyingi taraqqiyoti va

zamonaviy sivilizatsiyaga erishish mumkin emas edi.

### I. Bob. Paleolit davri

Paleolit (*yun. paleyos-qadimgi, lot. litos-tosh*) qadimgi tosh davri bo'lib, dunyo miqiyosida mil. avv. 3/2,6 *mln.*-12 ming yilliklar bilan sanalanadi. O'rta Osiyo hududida esa paleolit mil. avv. 1 *mln.* yillikdan, ashel davridan boshlangan.

Yer shari paydo bo'lgan buyon buyon dam sovib, dam isib turgan. Antropogen davrida ham bu jarayon davom eigan. Paleolit davrida yer sharieing shimoliy qismida bir necha muzliklar-glyasiali (*dunay, gyuns, mindel, riss va vyurm*) va ular oralig'iда issiq va namchil iqlimi muzlik oralig'i-interglyasial davrlari (*dunay-gyuns, gyuns-mindel, mindel-riss, riss-vyurm*) davrlari hukm surgan.

Bo'linish	Muzlik davrlari	Cheksiz sanasi ming yillik	Tosh asrining davrlari
<i>Golosien</i>		9-5	mezolit-neolit
	Vyurm	80-9	o'rta paleolit-ilk mezolit
	Riss-vyurm	120-80	o'rta paleolit
	Riss	200-120	so'nggi ashel
	Mindel-riss	350-200	o'rta ashel
	Mindel	500-350	
	Gyuns-mindel	700-500	ilk ashel
	Gyuns	1000-700	
	Dunay-gyuns	1900-1000	olduvay

*Ashel davri.* Bu davrda yer yuzida ikkita muzlik oralig'i va ikkita muzlik (*gyuns-mindel-muzlik oralig'i, mindel-muzligi, mindel-riss-muzlik oralig'i va riss-muzligi*) davrlari faoliyat yuritgan.

Ashel davrinining ilk bosqichida yer yuzining iqfimi olduvay davridagi kabi issiq, o'simlik va hayvonot dunyosi boy bo'lgan. Bunday qulay iqtim sharoitda eng qadimgi odamlarning soni ko'payib, yashash hududi kengayib borgan.

Ashel davrinining keyingi bosqichida (mil.avv. 500-350 ming yilliklar) ob-

havo sovib, yer sharida navbatdagi *mindel* muzligi boshlangan. Iqlimning keskin sovushi yer yuzining shimoliy qismidagi o'simlik va hayvonot dunyosi manzarasining o'zgartirib yuboradi. Issiq iqlim sharoitida yashagan hayvonlarning o'mini sovuqqa chidamli yirik jussali, jundor hayvonlar egallaydi. Ularni o'ljaga tushirish uchun ibtidoiy odamlardan uyushqoqlik va epehillik talab etilgan. Jamoa bo'lib ov qilish zarurati va sovuq iqlim sharoitida olovdan umumiy foydalanish ibtidoiy odamlarning birlashishiga sabab bo'lgan.

Ashel davrida eng qadimgi odamlar moddiy madaniyat sohasida katta yutuqlarga erishadi. Tosh quollarining turi ko'payib, ularga ishlov berish usuli muntazam takomillashib borgan. Yirik tosh quollarini foydalanish saqlanib qoladi va kichik hamda ixcham quollarining soni ko'payadi.


Ashel davrining o'rtalaridan boshlab tosh quoliga ishlov berishning *levallua* usuli vujudga keladi. Tosh quoliga retushlash yordamida ikkitamchi ishlov berish usuli paydo bo'ladi. Levallua usuliga ko'ra gardishsimon yoki toshbaqa zirhi shaklli nukleusdan tosh bo'lagi sindirib olingandan keyin retushlash orqali unga qayta ishlov berilgan. Retushlash, deganda nukleusdan sindirib olingen tosh parchasining tig'ini urib sindirib, tekishlash va o'tkirlash tushuniladi. Bunday usuldan foydalanish boshlangandan keyin tosh quroli takomillashib, turi ko'payadi.

Hozirgi paytda O'rta Osiyoda ashel davrining barcha bosqichiga oid yigirmaga yaqin yodgorliklar ma'lum. Selungur va Kuldara makonlari ashel davrining ilk bosqichiga oid. Ashel davrining o'rta bosqichiga oid yodgorliklar kamchilikni tashkil etadi. Bu davrga oid Janubiy Qozog'istonning Qoratov etagidagi Tanirqazgan, Bo'riqazigan joy makonlari joylashgan. Qiziltov, Oqko'l I va Kazangap, Toshkent vohasidagi Ko'bulloq, Janubiy Tojikistondagi Qoratov I, Lohutiy I makonlari ashel davrining so'nngi bosqichiga oid.


O'rta Osiyoning eng qadimgi yodgorlik hisoblangan Selengur makoni Oloy tog' tizmasining So'x daryo vohasi Haydarkon botig'idagi Chashma qishlog'i yaqinida, dengiz sathidan 2000 m. balandlikda joylashgan. Selengur makoni

umumiyligi 8,5 m. dan iborat beshta madaniy qatlamga ega. Makondan besh mingga yaqin tosh qurollari va ularni yasash jarayonida hosil bo'lgan tosh siniqlari, eng qadimgi odam suyaklari hamda o'ttizga yaqin turdag'i yovvoyi hayvonga tegishli suyaklar topilgan.

Selengur makoni tosh qurollari qayroqtoshdan yasalgan chopper, *bifas*-*qo'l* cho'qmori, *kliver*-*qo'l*olta, sanchqi, chopqilardan iborat. Hayvon suyaklari ayiq, bo'ri, cho'chqa, buqa, tur, ot, arxar, bug'uga tegishli.



Selungur makoni



eleng 'ur-makoni tosh qurollar (*qo'l* cho'qmori va *qo'l*olta).

Eng qadimgi odam suyaklari makonning uchinchi madaniy qatlidan topilgan. Suyak topilmalari bosh chanoq, yelka suyagining bo'lagi va bir nechta tishlardan iborat bo'lib, ular ikki yoki uch nafar arxantroplarga tegishli bo'lgan. Suyak topilmalarini O'islomov dastlab ashel davring o'rta bosqichi, keyinchalik olduvay davri bilan sanalagan. Boshqa bir mutaxassis olimlar (V.A.Ranov, A.Ye.Dodonov, A.P.Derevyanko) ashel davring so'nggi bosqichiga oid, deb hisoblaydilar.

Janubiy Tojikistondagi Obimozor vohasida joylashgan Ko'ldara makoni ashel davrining ilk bosqichiga oid muhim yodgorlik hisoblanadi. Makondan qayroqtoshdan yasalgan kichik o'lchamli tosh qurollari topilgan. Uiar nukleus, qirg'ich va sanchqi va tosh quroli yasash jarayonida hosil bo'lgan uchrindilardan iborat. Yodgorlik paleomagnit usulida tekshirish natijasiga ko'ra mil. avv. 800 ming yillik bilan sanalangan.

O'rta Osiyoda o'rta pleystotsen davriga oid makonlar soni juda kam. Mazkur davrga oid madaniy qatlamlari aniq bir yodgorliklar ko'rsatilmagan. Janubiy Qozog'istonning Qoratov hududida arxeolog olim X.A.Altpisbaev paleolit davriga oid Bo'riqazigan va Tanirqazigan yodgorliklarini o'rgangan. Tadqiqotchi Kichik Qoratov tizmasi Kamer tog'ining janubiy yonbag'irda Ko'ktol daryosining sharqidan yer yuzasining sirtidan ko'p sonli tosh quollarini terib olgan. Ko'kimir-qora rangli chaqmoqtoshdan yasalgan quollar orasida chopper va chopping namunalari ko'pchilikni tashkil etadi. Qo'l cho'qmori, har xil shakl va o'lchamiga ega bo'lgan uchirindi namunalari ham mavjud. Tosh quollari shell-ashel davriga usulda yasalgan.

Shuningdek, tadqiqotchi Kichik Qoratovning shimoli-sharqiy qismidagi Takali va Qizilrisbek makonlarining sirtidan tosh quollarini terib olgan. Ular chaqmoqtoshdan girdishsimon, ikki zarb maydonchali va uchburchak shaklli


nukleus va boshqa tosh qurollaridir. Levallua usulida yasalgan ayrim tosh qurollarining ayrimlari ashel davriga oid.

O'rta Osiyoda aniqlangan makonlarning ko'pchilik qismi o'rta ashel davrining oxiri bosqichi va so'nggi ashel davriga oid bo'lib, o'rganilgan yodgorliklar asosan O'zbekiston va Tojikiston Respublikalari joylashgan.

*Ko'lbuloq makoni.* Ko'lbuloq makoni Toshkent viloyati Angren shahridan 12 km. g'arbda Ohangaron daryosining irmog'i Jarsoyning o'ng tomonidagi soy bo'ylab uzunasiga joylashgan tepalikning qiyalangan joyda, shu nomdagi buloq yaqinida joylashgan. Ko'lbuloq makonini arxeolog olim M.R.Qosimov (1962-1990-yillar) o'rgangan. Makonda tadqiqot ishlari O'zbekiston-Rossiya qo'shma ekspeditsiyasi tomonidan asrimiz bosh arida davom ettirgan. Makondaa qalinligi 19 metrdan iberat 49 ta madaniy qatlam (M.R.Qosimov 41 ta madaniy qatlami qayd etgan) aniqlangan. Makonning quyi qismidagi 22 ta madaniy qatlami (1-22 qatlamlar) ashel davriga oid.

Ashel davri madaniy qatlamida amalga oshirilgan kichik ko'lamli qazishma ishlari natijasida kam sonli tosh qurollari va hayvon suyaklari topilgan. Tosh qurellarining 21 tasi chaqmoqtoshdan, 2 tasi chaqmoqlashgan stanetsdan, bittasi esa obsidiandan yasalgan. Ularning yasalish usulida ashel davrining so'nggi bosqichi oid afomatlar mavjud. Tosh qurolarining sirtiga yig'ilib, qotib qolgan tuzlar ularning holating buzilishiga sabab bo'lgan.

Ashel davriga oid madaniy qatlamidan kam sonii tosh qurolliari va hayvon suyaklari topilgan. Tosh qurollarining ko'pchilik qismi chaqmoqtoshdan va kamchilik qismi chaqmoqlashgan stanetsdan yasalgan. Ular qo'pol qilib yasalgan tosh qurollari, nukteuslar va uchrindilardan iberat. Tabiiy ta'sir natijasida tosh qurollariga zarar yetgan. Ularning sirtiga tuz yig'ilib, qotib qolishi natijasida asl holati buzilgan. Mazkur qatlama obsidiandan yasalgan yagona tosh quroli topilgan. O'rta Osiyoning boshqa yodgorliklarda bunday tosh quroli uchramaydi. Obsidian vulqon harakati faoli bo'lgan Kichik Osiyo va O'rta Sharq hududida tarqalgan.



Makondan arxar, ot va boshqa hayvonlarning suyagi topilgan. Ko‘ibuloqliklarning xo‘jaligida yetakchi o‘rinni ovchilik tashkil etgan.

Ko‘ibuloq makoni yaqin atrofida ham paleolit davriga oid bir nechta yodgorliklar joylashgan. Ohangaron daryosining o‘ng tomonida bo‘r davri yotqizig‘ining ochilib qolgan joyida hozirgi paytda Qizilolmasoy 2, G‘ishtsoy, Qorabog‘soy, Jarsoy kabi yodgorliklar o‘rganilgan. Ulardan eng qadimgisi Qizilolma 2 yodgorligi ashel davriga oid. U Qizilolmasoyning o‘ng sohilidagi neogen davri chaqmoqtosh va chaqmoqlashgan ohaktosh yotqiziqlaridan iborat tosh konidir.

Yodgorlikdan qurol ishlansiga ega bo‘lgan 214 dona tosh artefakt topilgan. Ularning ayrimlari Ko‘ibuloq makoning quyi qatlamidan topilgan qurollar bilan o‘xshash. Qizilolma 2 yodgorligi ko‘ibuloqliklarning tosh qurollar yasash xomashyo qazib oladigan koni manbai bo‘lgan.

Arxeolog olim M.Xo‘janazarov Qizilqum cho‘lining shimolida, hozirgi paytda o‘zani qurib qolgan Ko‘kayozning shimoliy qirg‘og‘idagi bir necha joydan 100 dan ortiq tosh qurolini topib o‘rgangan. Tosh qurollari terib olingan joylar shartli ravishda Ko‘kayoz qishlog‘i nomi bilan (Ko‘kayoz I,II,III makonlari) yuritiladi.

Ko‘kayoz I makoni qishloqdan 1,5 km. g‘arbda joylashgan. Makondan chaqmoqtoshdan yasalgan ko‘p zarb maydonchali, ikki zarb maydonchali va girdishsimon nukleus, bodomsimon bifas, yirik uchirindi hamda qirg‘ichlar topilgan. Arxeolog olim B.Sayfullaev tosh qurollarining yasalish usulidagi arxaik shakliga asoslanib, ularni ashel davrining so‘nggi bosqichiga oidligini taxmin qilgan.

Makondan hayvonlarning suyagi uchramaydi. Bu hududda ashel bosqichining oxiri-*riss-vyurm* muzlik oralig‘i davrida issiq iqsim sharoitida yashaydigan qo‘shqo‘rg‘on faunasidan iborat yovvoyi hayvonlar tarqalgan. Ibtidoiy odamlar hayvonlarni ov qilib, o‘simliklarni terib kun kechirgan.

Qaratov 1 va Lohutiy 1 makonlari ashel davrining keyingi bosqichlari oid

yodgorliklaridir. Qaratov I yodgorligi Dushanbe shahridan 50 km. janubi-sharqda Yaven Qoratovi hududida dengiz sathidan 1125 metr balandlikda joylashgan. Yodgorlikning madaniy qatlami yemning tektonik siljishi oqibatida tuproqning tagiga ko'milib ketgan.

Makondan chopper, qirg'ich, to'g'nag'ich va boshqa tosh qurollari topilgan. Ular qayroqtosh va qisman chaqmoqtoshdan yasalgan. Yodgorlikning davri termolyuminescent usulida tekshirish natijasiga ko'ra mil. avv. 200 ming yillik bilan sanalangan.

Lobutiy I makoni ashel davrining so'nggi bosqichiga oid. Yodgorlik Obikiyikning o'ng irmog'i Xashar daryosi bo'yida joylashgan. Makondan chopper, girdishsimon, bir zarb maydonchali va bir tomonli nukleuslar hamda tishli, o'yiq shaklida yasalgan tosh qurollari topilgan. Tosh qurollari qayroqtoshdan yasalgan bo'lib, Qoratov I qurollariga nisbatan ancha takomillashgan va yasalish usuliga ko'ra levallua alomatini saqlanib qolgan. Makon termolyuminessent usulida tekshirish natijasi bo'yicha mil. avv. 120-130 ming yilliklar bilan sanalangan.

Janubiy Tojikistonning ashel davri yodgorliklari asosan o'z davrida o'simlik va hayvonot olamiga boy tabiiy sharoitiga ega bo'lgan tog'li hududlarda joylashgan. Bunday tabiiy muhit ashel davri ibridoiy odamlarining yashashi uchun qulay sharoit edi. Ibtidoiy odamlar to'dasi mahalliy sharoitda yashaydigan hayvonlarni ov qilib, iste'mol qilish mumkin bo'lgan o'simlik va ularning mevasini terib kun kechirishgan.

Turkmaniston Respublikasi Turkman (ilgargi Krasnavodsk) yarim orolidagi Yangaja I va Qora Tengir temir yo'l stansiyalari o'rjasidan arxaik shaklga ega bo'lgan uchirindi va ikki dona keskich topilgan. Shuningdek, bu yerda joylashgan Qasqirbuloq va Junurpa yodgorliklaridan ashel davriga oid tosh qurollari topib o'rganilgan.

O'rta Osiyoning cho'l qismining ilk palcolit davridagi o'simlik va hayvanot olamiga boy tabiatini eng qadimgi odamlarning yashashi uchun juda qulay sharoit

yaratgan. Hozirgi Qizilqum va Qoraqum cho'llarining ashel davri issiq iqlimli, sharoitida yashagan eng qadimgi odamlarning kam sonli makonlari saqlangan. Mazkur hududda aniqlangan Qizilnura I, Ko'kayoz I, Qizilbo'ron, Olamko'l, Begarslandag, Qoraquduq, Shaxpaxt, yesen 3 va boshqa makonlar eng qadimgi ajdodlarinizing ibtidoiy davr tarixidan darak beradigan muhim yodgorliklardir.

*O'rta paleolit davri.* O'rta paleolit-muste davri (mil.avv. 120/100-40 ming yillik) ikki bosqichda rivojlangan. Ilk bosqichi - *riss-vyurm* va rivojlangan bosqichi-*vyurm* muzligi davriga to'g'ri keladi. *Riss-vyurm* mezlik oralig'i davrida yer yuzida ashel davridagi kabi harorat issiq va yog'ingarchilik miqdori yuqori bo'lgan. yer yuzida ashel davriga xos villifrank (issiqsevar) fauna vakillari tarqalib, ibtidoiy odamlar yashashi uchun qulay sharoit hisoblangan. yer yuzining shimolida igna bargi, janubida esa keng yaproqli o'rmon egallagan.

O'rta paleolit davrining ikkinchi bosqichida yer yuzi sovib, muzlik davrining *vyurm* bosqichi boshlanadi. Muzlikning chegarasi yer sharining 45-48 shimoliy kenglidan o'tib, yevropa, Amerika shimoliy hududlarini egallagan, uning chegarasi Qozog'istonning shimoligacha hududlariga qadar kelgan. Muzlik davrida ob-havo keskin sovib, muzlanish yuqori darajaga chiqadi. Muzlik oldi yerlarda ob-havo ancha sovuq bo'lgantundrani tashkil etgan. Muzlikdan chekkada joylashgan janubiy o'lkalarda namchil-*phuvial* iliq iqlimi ob-havo sharoiti hukm surgan. Muzlik davri boshlangandan so'ng ibtidoiy odamlar g'orlarni makon sifatida o'zlashtira boshlaydilar. Tabiiy g'orlar uchrameydigan tekislik hududlaridagi ibtidoiy kishilari sovuqdan saqlanish uchun sun'iy boshpana barpo etishga majbur bo'lganlar.

O'rta paleolit davrida odamlarning soni ko'payib, ular yashaydigan hududlar doirasini kengayib boradi. Ibtidoiy odamlar ashel davriga qaraganda kengroq huduclarni egallaydi. Ular yevrosiyoning chekka hududiga, hatto shimoliy qutbgacha yetib borib, sovuq iqlim sharoitiga moslashadi. Yevrosiyoning alohida mintaqalarda o'rta paleolit davriga oid yuzlab yodgorliklar topib o'rGANILGAN. Masalan, birligina O'rta Osiyoda 300 ga yaqin

turli yedgorlik ma'lum.

Bu davrda moddiy madaniyat yanada rivojlanadi. Bu jarayon ko'proq tosh qurollariga ishllov berish usulining takomillashishi, turi va sonining ko'payishi hamda ibtidoiy kulbalarni qurishda namoyon bo'ladi.

O'rta paleolit davrida tosh qurollariga ishllov berishning levaflua texnikasi yanada mukammallashadi. Tosh qurollari zarb maydonchasi tekis nukleusdan sindirib olingen silliq tosh bo'lagidan yasala boshlaydi. Muste davrida yasalgan ixcham tosh qurollari ilgargi nusxasidan ishslash uchun qulayligi va ish samaradorligining yuqoriligi bilan farq qilgan.

Tosh quroliga ikkilamchi ishllov berish, ya'ni *retushlash* usuli yanada takomiliashadi. Retushlashda biror vositalar: suyak, shox yoki toshlardan foydalanilgan. Tosh bo'lakechasini retushlash jarayonida tosh qurol tig'i tishli yoki arrasimon shakl hosil qilgan. Qurolning tig'ini siqib, yoki ushatib retushlash usuli paydo bo'ladi. Retushlash natijasida hosil bo'lgan tishli yoki arrasimon tig'i, ularning ish samaradorligini yanada oshirgan. Retushlashni faqat chaqmoqtoshdan yasalgan qurolga nisbatan qo'llash mumkin bo'lgan. Chaqmoqtosh yevrosiyoning barcha yerlarida uchramaydi, bunday tosh navi mintaqaning g'arbiy qismida tarqalgan. Chaqmoqtosh uchramaydigan janubiy o'lkalarda tosh qurolini yasash uchun tosh chaqmoqlashgan navi, qayroqtosh va daryo toshidan foydalanilgan. Bunday turdag'i tosh navlariga ikkilamchi ishllov berish imkoniyati bo'limganligi uchun ulardan yasalgan tosh qurollariga ishllov berishning arxaik usuli saqlanib qoladi. Shuning uchun paleolitshunos olim H.L.Movius tosh qurollarining ishlanish usuliga ko'ra ikki asosiy guruhga, ya'ni shimolda chaqmoqtosh va janubda qayroqtoshlar asosida ishlangan qurollar turiga ajragan.

O'rta paleolit davrining ikkinchi yarmida *vyurm* muzligi davri boshlangandan so'ng eng qadimgi odamlar sovuqdan saqlanish uchun tabiiy g'orlarni egallaydi. Muzlik davrida tabiiy olov ibtidoiy odamlarni sovuqdan saqlaydigan issiqlik manbai va yirtqich hayvonlardan himoyajanish vositasi

bo'lishdan tashqari, ibtidoiy to'daning jipsligini mustahkamlashga ham yordam berган. Ayniqsa, olovda pishirilgan go'sht mahsuloti ibtidoiy odamlar tafakkurining o'sishiga ijobji ta'sir qilgan.

O'rta paleolit davriga kelib, eng qadimgi odamlar O'rta Osiyoning barcha hududini egallaydi. Bu davrga oid makonlar Kaspiy bo'yidan sharqda Pomir tog'ining baland qismigacha, shimolda Qozog'istondan janubda Turkmanistonning Kopetdog' etaklarigacha, shimolda Ustyurtgacha bo'lgan yerlarda tarqalgan. O'rta Osiyoning o'rta paleolit davriga oid makonlarining ko'pchilik qismi O'zbekiston va Tojikiston respublikalarining tog' va tog' oldi hududida joylashgan. Arxeolog olim V.A.Ranov O'rta Osiyoning paleolit davri yodgorliklaridan topilgan tosh qurollarining yasalish usuliga ko'ra, ularni levallua, levallua-muste, tog'li muste, muste-saon madaniyatları yoki guruhiylarga ajratgan. Keyinchalik M.R.Qosimov Toshkent vohasidagi Ko'lbuloq makoni tosh qurollariga asosan tishli muste usulini kiritgan. R.X.Suleymanov esa mazkur davr tosh qurollari ishlanish usuliga ko'ra ikki guruhdan iborat, deb hisoblaydi.

O'zbekiston hududagi o'rta paleolit davriga oid Ko'lbuloq, Obiraxmat, Teshiktosh, Omonqo'ton, Qo'tirbuloq, Zirabuloq makonlari madaniy qatlami, arxeologik jihatdan yaxshi o'rganilgan yodgorliklar hisoblanadi.

**Ko'lbuloq makoni.** Makonning o'rta qismidagi 24 ta madaniy qatlami (4-27 qatlamlar) muste davriga oid. Bu davrga oid tosh qurollar chaqmoqtosh, chaqmoqtoshli slancis, kvars va boshqa tosh navlaridan yasalgan. Tosh qurollari o'rta paleolit davrida ko'p uchraydigan har xil nukleus, plastinka, qirg'ich, sanchqilaridan iborat. Nukleuslarining ko'pchilik qismi gardishsimon bit va ko'p zarb maydonchali. Muste davrining dastlabki bosqichida levallua usulida yasalgan tosh qurollarining soni ko'pchilikni tashkil etgan. So'nggi bosqichda to'g'nag'ichlar, sanchqilar va o'yiq-tishli qurollari soni ortib boradi. Tosh qurollari ikkilanchi ishlov berish natijasida tishli yoki o'yiq shakl hosil qilgan. Ko'lbuloqda yashagan ibtidoiy odamlar ovchilik va termachilik kabi xo'jalik

shakllari orqali kun kechirgan.

*Obirahmat g'or-makoni.* Toshkent shahridan 100 km. sharqda Tyanshan tog' tizmasining janubi-g'arbiy qismida joylashgan. G'or-makon 10 m. dan iborat 21 ta madaniy qatlama ega. Tosh qurollari ohaktoshli chaqmoqtoshdan prizmasimon usulda yasalgan. Qisman levallua usuiida yasalgan tosh qurollari ham uchraydi.

Obiraxmat g'or-makondan ham muste va so'nggi paleolit davrining ilk bosqichida yashagan ibtidoiy odamning bosh chanog'i va tishlari topilgan. Antropolog olimlar suyaklar neandertal va zamonaviy odam oralig'idagi bo'g'inni tashkil qiladi, deb hisoblaydi. Obiraxmatlik ibtidoiy odamlar yovvoyi echkisi, tog' echkisi (kiyik), bug'u. arxar va cho'chqa kabi hayvonlarni ov qilgan.

G'or-makonning yoshi cheksiz davrlashtirish usullari natijasiga ko'ra mil. avv. 125-42 ming yilliklar bilan sanalanadi. Ibtidoiy odamlar g'orda muste davri va so'nggi paleolitning ilk bosqichida yashagan.

*Teshiktosh g'or-makoni.* O'zbekistonning janubidagi Teshiktosh g'or-makoni o'rta paleolit davrining dunyoga mashhur yodgorliklaridan biri hisoblanadi. G'or-makon Boysun tog'inining janubiy yonbag'tida Turgandaryoning (Sheraboddaryoning yuqori oqimi) chap tomonida Zovtalashgansoy yoqasida, dengiz sathidan 1500 metr balandlikda joylashgan. G'or-makondan qalinligi 1,5 metrdan iborat beshta madaniy qatlami aniqlangan. Makondan qurol ishlamasiga ega bo'lgan 2859 dona tosh namunalari topilgan. Ulardan 2520 donasi tosh qurollarni yasash jarayonida hosil bo'lgan uchirindi va 339 donasi kundalik hayotda ishlatalgan tosh qurolini tashkil etadi. Turollari asosan chaqmoqtoshli ohaktosh va qisman yashmasimon chaqmoqtoshdan yasalgan. Ularning aksariyati nukleus va plastinkalardir. Nukleuslarning sirti notekis shaklga ega. Ikki tomonli va uch burchak shaklli nukleuslar ham mavjud.

Maqsadli ishtlangan tosh qurollaridan to'g'nagich, qirgich va sanchqilar muhim o'rin egallaydi. Ular nisbatan yirikroq uchirindilardan yasalgan bo'lib,

ikkilamchi ishlov berish, ya'ni retushlash jarayonida tekis va qavariq tig' hosil qilgan. Uchburchak va bir tomoni qavariq, qarama-qarshi tomoni esa qayrilgan shakldagi sanchqlar ham mavjud. Bunday tosh qurollaridan yovvoyi hayvonlarni ov qilish va daraxt novdasiga ishlov berishi vazifasini bajarishda foydalanilgan. Yirik o'lchamli uchirindidan yasalgan to'g'nagich, qirg'ich va sanchqi kabi tosh quollari ham mavjud. Tosh qurollar retushlangan, hosil bo'lgan tekis va qavariq tig'i, ularning ish unumdorligini yanada oshirgan. Ulardan sanchqi muhim qurol hisoblanib, hayvonlarni o'ljaga olish va o'simlikliklarning ildizinikovlab olishda foydalanilgan.



1




2



3



4



5



6

Teshiktosh g'or-makom:

1.Makonning umumiyo ko'rinishi. 2.Makonning rejasি. 3.Neandertal odam suyaklari. 4.Neandertal bola.  
5,6.Tosh qurollar.

G'or-makonidan tog' echkisi (kiyik), qisman bug'i, ot, ayiq, giena, leopard, quyon, kemiruvchilar va qushlarning suyagi topilgan. Teshiktoshliklar ko'proq kiyik ovlagan. Imkoniyat va zaruratga ko'ra boshqa hayvonlar ov

qilingan. Xo'jaligining ikkinchi tarmog'i termachilik bo'lib, tog' sharoitida o'sadigan ozuqabop o'simlik va ularning mevalarini terib iste'mol qilishgan. Termachilik mavsumiy xususiyatiga ega bo'lgan.

Teshiktoshning yuqori madaniy qatlamidan ibtidoiy odamning bosh chanog'i topilgan. Suyak maxsus chuqurga dafn qilinib, atrofiga tog' echkisining bir juft shoxi terib qo'yilgan. Antropolog olim M.M.Gerasimov maydalanih ketgan bosh chanoq suyagini qayta tiklashga erishgan. Suyak o'rta paleolit davrining ilk bosqichida yashagan 8-9 yoshdag'i neandertal bolasiga tegishli ekanligini aniqlagan.

Neandertal odamining qabri Yevropa va Yaqin Sharqdagi ko'pgina yodgorlikda aniqlangan. Neandertallarda dafn etish malakasi qanday paydo bo'lganligi aniq emas. Bu borada olimlar o'rtasida turli ilmiy munozara davom etmoqda. U birinchidan gigiena talabidan kelib chiqilgan bo'lsa, boshqa tomondan neandertallar ongida narigi dunyo to'g'risidagi tushunchaning mavjudligidan darak berishi mumkin.

Neandertallar marhumni o'zлari yashab turgan g'or atrofida chuqur kovlab dafn qilgan. Marhum g'ujanak holda yonbosh yotqizilib, oyoq va qo'llari bukilgan va kaftlari yuziga qo'yilgan. Bu bir tomonda uxlayotgan holatni, boshqa tomondan xomilani eslatadi, ehtimol unga taqlid qilingan bo'lishi mumkin.

Zarafshon vohasida o'rta paleolit davriga oid Omonqo'ton g'or-makoni, Go'rdara, Qo'tirbuloq, Zirabuloq, Olmabuloq va Xo'jamazgil kabi ochiq joy makonlari joylashgan. Bu makonlar o'rta paleolit davrining barcha bosqichlari tarixidan darak beradi.

Samarqand shahridan 45 km. janubda Zarafshon tog' tizmasi yonbag'ridagi Omonqo'ton qishlog'i yaqinida joylashgan. G'orning og'zi shimoliy-g'arbga tomon qaragan bo'lib, kengligi 1,5 m., balandligi 0,9 m. va ichi 25 m. dan ibora, taxminan yarnidan boshiab, ikki qismga ajralgan. Madaniy qatlami g'orga kirish joyda bo'lgan. G'or-makonning madaniy qatlami butunlay qazib olingan.

Qazishma paytida o'choq va gulxan izlari aniqlangan. Topilmalar chaqmoqtosh, kvars, diorit kabi toshdan yasalgan qurollar va hayvon suyaklaridan iborat. Uchli paykon, plastinkasimon qurol, chopqi, nukleus va uchrindilar asosiy tosh quroli hisoblanadi.

Suyaklar arvar (muflon), qo'ng'ir ayiq, giena, tog' echkisi va mayda kemiruvchilarga tegishli. O'rta paleolit davrida bu joylar tog' florasiga xos o'rmonni tashkil etib, yovvoyi hayvon, mevali daraxt va ozuqabop o'simliklarga boy bo'lgan. Bunday sharoitda yashagan ibridoiy odamlar yovvoyi hayvonlarni ovlab, o'rmon mevalari va o'simliklarni iste'mol qilib kun kechirishgan. Muflon va qo'ng'ir ayiq suyaklari ko'pchilikni tashkil etadi. Ayniqsa, ayiq kabi yirtqich hayvoni o'ljaga tushirish uchun ovchilar guruhidan uyushqoqlik talab etilgan.

**Takalisoy g'ori-makoni.** Omonqo'ton g'origa yaqin yerda joylashgan o'rta paleolit davrining so'nggi bosqichiga oid makon. Makondan kam sonli tosh qurollari: nukleus, uchrindi va kesish maqsadida ishlatilgan tosh qurollari topilgan. G'or-makonda sayyoh ovchilar ov paytida vaqtincha yashagan bo'lishi mumkin.

Zarafshon tog' tizmasidagi o'rta paleolit davriga oid yodgorliklardan biri Go'rdara makoni hisoblanadi. Makon teg'ning shinioli-sharqiy qismida baland tepalik qiyalangan yerda joylashgan. Makondan nukleuslar, ishlov berilgan yupqa tosh siniqlari va turli o'lcharmlı uchrindilar topilgan.

**Qo'tirbuloq makoni.** Qo'tirbuloq makoni Samarcand shahridan taxminan 100 km. janubi-g'arbda, Zirabuloq tog'i etagidagi buloq yonida joylashgan. Makon beshta madaniy qatlama ega bo'lib, undan chopper, chopping, nukleus, qirg'ich, teshgich, nayza uchi va uchrindilar topilgan. Ular chaqmoqtosh, diorit, kvarsit va daryo toshlaridan yasalgan. Suyaklar ot, buqa (tur), buxoror bug'usi, qulon va kabi hayvonlarga taalluqli. Suyaklarning yarmidan ortig'i otga tegishli. Shuningdek, filning pastki jag' suyagi ham mavjud. Qo'tirbuloqlik ibridoiy ovchilarining asosiy ov o'ljasidagi yovvoyi et hisoblangan. Keyingi o'rinda to'da bo'lib yashaydigan bug'u, quion va boshqa hayvonlar ov qilingan. Termachilik

Xo'jalikning yordamchi tarmog'ini tashkil etgan.

Qo'tribuloq makonidan 1 km. sharqda, Zirabuloq chashmasi yonida shu nomli makon joylashgan. Makondan 1000 dan ortiq tosh qurollari topilgan. Ular o'lchami har xil nukleus, qirg'ich, nayza uchi, pichoq va randa sifatida ishlatiilgan tosh qurollaridan iborat. Tosh qurollari o'rta paleolit davrining rivojlangan bosqichiga oid usulda yasalgan.

Zarafshen vohasining boy tabiatи eng qadimgi odamlarning yashashi uchun qulay sharoit hisoblanib, o'rta paleolit davrining barcha bosqichiga oid yodgorliklar aholining muntazam yashaganligidan dalojat beradi.


*Angillak g'or-makoni.* G'or-makon Qoratovning janubi-sharqiy tomonidagi Oyoqchisoyning yuqorisida, uning shimoli-g'arbiy qismida joylashgan. G'or-makon ayyonsifat ko'rinishiga ega bo'lib, janabi-sharq tomonga qaragan. G'or-makonda olib borilgan qazishma ishlari natijasida madaniy qatlarni aniqlangan. Arxeologik topilmalar Qazishma davomida ko'p sonli tosh qurollari, hayvon suyaklari va odam oyog'i kaft suyagining bir bo'lagi topilgan. Tosh qurollari kvars, kvarsit va qayroqtoshdan yasaigan. Ularning o'lchami ancha kichik.

G'or-makon hududida sun'iy kulba qoldiqlari aniqlanmagan. Angillak g'orida yashagan ibridoiy odamlar g'or avyonni atrofida barpo qilgan yengil kulbada yashagan. So'nggi tadqiqot ishlarida g'or-makonni muste davri bilan sanalangan.

*Ko'knyoz 2 joy-makoni* tekislikda yashagan ibridoiy sayyor ovchilarning manzillaridan biri hisoblanadi. Ko'knyoz qishlog'idan 15 km. sharqda joylashgan ochiq joy-makonining yuza qismidan tosh qurollari terib olingan. Ular nukleus, uchrindi, bifas, pichoq va qurol yasash jarayonida hosil bo'lgan tosh siniqlaridan iborat. Tosh qurollari ko'kimtir va jigar rangli chaqmoqtosh, ohaktosh va kvarsdan ashel davridagi kabi levallua usulida yasalgan. Xo'jalik faoliyati bilan bog'liq ashyoviy manbalar topilmagan.

Janubiy Tojikiston Respublikasi tog' va tog' oldi vodiysi dagi O'zbekchik, Qorabura va Oqjar, Qirg'iziston respublikasi hududidagi Tissor va Georgiy

do'ngligi kabi makonlar o'rta paleolit davrining muhim yodgorliklaridir. Ulardan turli xil tosh qurollari va hayvon suyaklari topib o'rganilgan. Ushbu makonlarda yashagan odamlar mahalliy tog' hududida tarqalgan hayvonlarni ov qilib, o'simliklarni terib-temachilab kun kechirgan.



O'rta paleolit davriga kelib odamlar yashaydigan hududlar chegarasi kengayib, yevrosiyoning barcha yerlarini egallaydi. Moddiy madaniyat va xo'jalik sohalarida katta yutuqlarga erishiladi. Xususan, tosh qurollariga ishlov berish usuli takomillashib, ularning turi yanada ko'payadi. Ijtimoiy munosabatlar murakkablashadi, urug' jamoasining dastlabki kurtaklari shaklliana boshlaydi.

*So'nggi paleolit.* So'nggi paleolit (mil. avv. 40-12 ming yilliklar) davrining muhim xususiyati *homo sapiens sapiens*, ya'nizamonaviy qiyofaga ega bo'lgan ongli odamning shakllanishidir.

Se'nggi paleolitda hukm surgan muzlik davrining sovuq iqlim sharoiti odamlardan turmush tarzi va mehnat faoliyatini takomillashtirishni talab etar edi. Ular qo'proq tosh qurollarining yasalish usuli, uy-joy qurilishi va ibtidoy xo'jalikni tashkil etish faoliyatlarida namoyon bo'ladi.

O'rta Osiyoning so'nggi paleolit davri yedgorliklari muste davriga nisbatan yaxshi o'rganilmagan. Hozirga qadar aniqtangan yodgorliklarning soni kamchilikni tashkil etadi. Ma'lumki, bu davrda ibtidoiy odamlar yer yuzining tekislik qismida sun'iy qurilgan kulbalarda yashay boshlaydi. U yerdagi makonlarning madaniy qatlami keyinchalik tabiiy hodisalar ta'siri va zamonaviy yer o'zlashtirish oqibatida buzilib, bizgacha yetib kelmagan yoki saqlanib

qolganlari hozircha topilmagan bo'lishi mumkin.

O'rta Osiyoning barcha hududidan so'nggi paleolit davriga oid Obirahmat, Ko'lbuloq, Samarcand, Angillak, Siyobcha, Shugnov, Xo'jag'or, Yangaja 2, Ko'kayoz 3 va boshqa yodgorliklar yaxshi o'rganilgan mukim yodgorliklardir. Toshkent vohasidagi Ko'lbuloq va Obiraxmat so'nggi paleolit davrinining muhim makonlari hisoblanib, ularning yuqorgi madaniy qatlamlari so'nggi paleolit davriga oid. Ko'lbuloq makoning so'nggi paleolit davriga oid yuqorgi uchta madaniy qatlamidan tosh qurollari, hayvon suyaklari, uchoqlamining izi va kul qoldiqlari topilgan.

Tosh qurollari muste davrinining oxiriga oid o'yiq-tishli shaklda yasalgan. Qurollar majmuasi to'g'ning ich, sanchqi va o'yiq-tishli qurollardan iborat. Hayvon suyaklari hug'u, ot, giena va yovvoyi qo'yilarga tegishli. Makonning mazkur davrga oid madaniy qatlamlari radiokarbon tekshirish usuliga asosan mil. avv. 24 ming yillik bilan sanalangan.

*Samarqand makoni.* Samarcand makoni shahar markazida Siyobcha soyining o'ng sohilida joylashgan. Makonning madaniy qatlami joylarda 3-7 metr dan iborat bo'lib, uch madaniy qatlama ega. Makondan eng qadimgi odamlar qurib, yashagan sun'iy kulbaning o'rni, tosh qurollari, odam, hayvon suyaklari, o'simlik qoldiqlari, gulxan izlari va boshqa ashyolar topib o'rganilgan.

Makonda 100 kr. m. joyni egallagan yog'och ustunli qurilmaga ega chayla uyning o'rni ochilgan. Chaylani o'z davrida ko'tarib turgan yog'och ustunlarining o'rni saqlanib qolgan. Ustunlarning sirti shox-shabbalar va qamish bilan yopilgan. Uning ichkarisida o'choq izlari va ma'lum yumushlarni bajaradigan maydonchaning o'rni mavjud.

Makondan 8 mingdan ortiq artefakt topildi. Topilmalar tarkibida turli xil tosh qurollari, nukleuslar, qo'l boltalar, qirg'ich va randaclar, nayza uchlari, pichoqsimon qurollar, ishlov berilgan va ishlov berilmagan turli xil o'lchamli uchrindi kabi buyumlardan iborat. Ulardan o'lchami 16 sm. tosh bolta va tesha

sifatida ishlataligantosh quroliari alohida ahamiyati ega. Bunday tosh qurollar O'zbekistonning so'nggi paleolit davriga oid boshqa makonlarida uchramaydi. Barcha tosh qurollari chaqmoqtesh, diorit va xalsedondan yasalgan. Chaqmoqtohdan qurollar yasash jarayonida hosil bo'lgan uchirindilarning ko'piigiga qaraganda qurollarni yasash ishlari bevosita makonning o'zida bajarilgan. Suyakdan yasalgan qurol yoki anjomlar ham mavjud.

Makondan zamонавиқи қиёғали-*homo sapiens sapiens* одамларига tegishli suyaklar topilgan. Ulardan biri chamasi 25 yoshdagи ayol jinsiga tegishli yelka suyak, pastki jag'inинг 9 ta tishi va boshqa tishlaridan iborat. Keyinchalik taxminan 35 yoshdagи erkak yoki ayolning 10 ta tishidan iborat pastki jag'i topilgan.

Ibtidoiy odamlarning asosiy xo'jalik mashg'uloti ovchilikni tashkil qilgan. Makondan yovvoyi ot, so'nggi paleolit davrida yashagan eshak, tur, tuyu, Buxoro bug'usi, kam sonli qo'y, jayron, toshbaqa, bo'ri va qushlarning suyaklari topilgan.

Termachilik bu yerda yashagan ibtidoiy odamlarning yordamchi mashg'uloti bo'lgan. Nabobat va hayvonot olamiga boy bo'lgan Zarafshonning o'rta oqimining to'qayzor, cho'l va tog' oldi hududlari ibtidoiy odamlarning hayot kechirishi uchun qulay sharoit yaratgan.

O'rta Osiyoning cho'l hududi insoniyat ajdodlari muntazam yashab kelgan maskan hisoblangan. So'nggi paleolit davriga oid Ko'kayoz 3 yodgorligi Ko'kayoz 2 dan 5 km. sharqda joylashgan. Yodgorlikda madaniy qatlam uchramaydi. U yerdan topilgan kam sonli tesh qurollari yerning yuzasidan terib olingen. Tosh qurollarining yasalish usuliga ko'ra muste davri shakli saqlanib qolgan. Tosh qurollari orasida prizmasimon nukleuslar ham uchraydi. Arxeolog B.Sayfullaev tosh qurollarini yasalish usuliga ko'ra muste va so'nggi paleolit davrlariga oid turlarini ajratib ko'rsatgan. Makondan tosh qurollardan boshqa ashyoviy manbalar uchramaydi. Hozirgi cho'l sharoitida yashagan ibtidoiy jamaoa a'zolari yovvoyi hayvonlarni ovlab, ozuqbop o'simliklar va ularning

mevalarini terib kun kechirganligi tabiiy.

*Yangaja II yodgorligi.* Yodgorlik Turkmaniston Respublikasining Turkmanboshi (Krasnovodsk) yarim orelsida joylashgan bo'lib, paleolit davrida xomashyosi qazib olingen tosh koni hisoblanadi. Kondan tosh qurolini yasash uchun zarur xomashyo qazib ofingan. Yodgorlikdan nukleus, uchrindi, keskich va boshqa tosh qurollari topilgan. Ulardan nukleussimon qirg'ichga o'xshash tosh quroli Falastinning so'nggi paleolit davriga oid yodgorligining quyi qatlamida uchraydi. Bu bevosita ikkala hudud o'ttasidagi ma'lum aloqa bo'lganligidan dalolat beradi.

Tojikiston Respublikasi hududidagi Xo'jag'or makoni ham so'nggi paleolit davrining muhim yodgorliklaridan biridir. Yodgorlikdan oq, qora va ko'k rungdagi chaqmoqtoshdan yasalgan mehnat qurollari to'plami topilgan. Ular nukleus, qadama va paraqlardan iborat. Tosh qurollari orasida parmalash va teshish maqsadida ishlatalgan ish arjomlari ham mavjud.

Pomir tog' tizmasidagi Darvoza tog'ining g'arbiy qismida ko'p qatlamlı Shugnov joy-makoni joylashgan. Makonda umumiy maydoni 500 kv.m. joyda olib borilgan qazish ishlari natijasida so'nggi paleolit davriga oid to'rta madaniy qatlam aniqlangan.

Shug'nov makoni sayyor ovchilarning ov mavsumida vaqtinchalik yashash uchun qo'nim vazifasini bajargan bo'lishi mumkin. Unda odamlar doimiy yashagan kulba izlari mavjud emas. Qadimgi odamlardan kun kechirishlari uchun uzoq joylarga borib ov qilib, oziq-ovqat topish talab etilgan.

Makonda uchraydigan tosh qurollari nukleus, plastinka, qirg'ich va uchrindidan iborat. Hayvon suyaklari ot, qora mol yoki qo'tes, qo'y va echkilarga tegishli. Qadimgi ovchilar tog'da o'sadigan yong'oq, bodom, pista va boshqa o'simlik ozuqalarini ham terib yig'ishgan.

O'rta Osiyoning so'nggi paleolit davriga oid yodgorliklari pasttekistlikdan tortib, baland tog' tizmasigacha bo'lgan hududdan topib o'rganiigan. Ular so'nggi paleolit davrida yashagan qadimgi odamlarning turmush tarzi, xo'jaligi

va moddiy madaniyatı to‘g‘risida qimmatlı ma’lumotlar beradi.

***Mayzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:***

1. O‘rta Osiyoning ashel davri xususiyatlari nimalardan iborat?
2. O‘rta Osiyoning ashel davri yodgorliklarini tavsiflang?
3. O‘rta Osiyoning muste davri xususiyatlarini izohlab bering?
4. O‘rta Osiyoning muste davri yodgorliklarini izohlab bering?
5. O‘rta Osiyoning so‘nggi paleolit davri haqida ma’lumot bering?
6. O‘rta Osiyoning so‘nggi paleolit davri yodgorliklarini tavsiflang?
7. Paleolit davri moddiy madaniyatı xususiyati nimalardan iborat?
8. O‘rta Osiyoda paleolit davrida ijtimoiy munosabat qanday bo‘lgan?


## **II. Bob. Mezolit davri**

*Tayanch so'zlar: Golotsen, vyurm, makrolit, mikrolit, fauna, flora, epipaleolit, o'q-yoy.*

**Mezolit davri umumiy tavsifi.** Mezolit davri (*yun. mezos-o'rta, lot. litos-tosh*) - o'rta tosh davri. Mezolit davriga kelib tabiiy-geografik muhit keskin o'zgaradi. Taxminan 13,5-13 ming yillar oxirgi *vyurm* muzligi erib, yer yuzi isiy boshlagan, pleystotsen golotsen bilan almashadi. Paleoklimatologik sohasi mutaxassislarining ma'lumotlarga ko'ra byolling (13,2-12,3 ming yillar ilgari) va alleryod (11,9-10,3 ming yillar ilgari) bosqichlarida Yevropa hududida harorat yozgi harorat hozirgiga ancha yaqin bo'lgan, qishki harorat esa maksimum muzlanish holatiga yetgan. yevropaning shimoliy hududlarida qayin, qarag'ay va nina bargli daraxtlar o'sgan, janubiy hududlarida, issiqsevar daraxtlar masalan, zaytun daraxti o'sgan. yer yuzida yangi sovish-drias davri (ilk, o'rta va so'nggi bosqichlari)da davomida yevropa hududida mil. avv. 18 ming yillikdagi iqlim sharoiti tiklanib, so'nggi muzlanishning maksimum holati (iyul oyi harorati -6-8 S.) qaror topadi. Muzlikdan keyingi davrda harorat keskin ko'tariladi (10,3-10,2 ming yillar ilgari). Ko'pchillik olimlar bu davrni (so'nggi drias) golotsen davrining boshlanishi, deb hisoblaydilar.

Golotsen boshlanishi bilan iqlim sharoitida keskin o'zgarib, harorat hozirgiga nisbatan issiq va namgarchil bo'lgan, hatto Sahara cho'llarida yillik yog'angarchilik miqdori 300-400 mm. (hozirgi paytda 6 mm.) ni tashkil etgan. yer yuzi muzlikdan bo'shangandan so'ng asosan uning shimoliy mintaqalari va ayrim holtarda tog' hududlari relef, faunası va florasi o'zgarib ketadi.

Muzlik oldi hududlarida yashovchi hayvonlarning ayrimlari, xususan jundor jundor karkidon, mamont, qo'ybuqa so'nggi paleolit davrining oxirlaridayoq va keyinchalik esa boshqa turdagilari qirilib ketadi, qolgan qismi esa shimolga ke'chadi. Hayvanot olamidagi o'zgarishlar, ya'ni yirik hayvonlarning o'miga tez chopar, zivjatda yolg'iz yashovchi hayvonlar turining ko'payishi palcolit



davri ovchilik an'analarining qiyinlashti. Natijada bu turdag'i hayvonlarga ov qilish uchun yangi vosita o'q-yoydan foydalanish va yakka ovchilik mavqeyining oshishiga olib keldi. Mazkur hududlarda va janubiy mintaqalarning tog'li hududlarida ot, ho'kiz, sayga, yovvoyi eshak o'tmen hududlarda esa los, bug'u, cho'chqa, bo'ri, tulki va boshqalar yashashgan, yer yuzining janubiy mintaqalarida mazkor davr tabiiy-geografik jihatdan keskin o'zgarishlar sezilmaydi va fauna va florada tub o'zgarishlar kuzatilmaydi. Ushbu iqlim o'zgarishlari yer yuzi landshafti xilma-xilligi va insoniyat madaniyat o'zgarishlariga jiddiy ta'sir etib, dunyoning mezolit davri madaniyatini manzarasini belgilab bergan.

Mezolit davrida moddiy va xo'jalik sohalarida katta o'zgarishlar sodir bo'ladi. Tosh qurollari takomillashib, yangi turdag'i qurollar turi - *mikrolitlar va makrolitlar* paydo bo'ladi. Mikrolitlar kamon paykoni va o'roq qadamasi sifatida ishlatalgan.

Iqlimning isib ketishi hayvanot olamining o'zgarishiga sabab bo'ladi. Sovuqqa moslashgan, jundor yirik hayvonlarning o'miga tz chopar, ziyrak va yolg'iz yashovchi hayvonlar turi ko'payadi. Bunday hayvonlarni ov qilish uchun vosita o'q-yoydan foydalanish zarurati tug'ilib, yakka ovchilik xo'jaligi rivojlanadi.

*O'rta Osiyoning mezolit davri madaniyatları.* Hozirgi paytda O'rta Osiyo hududida mezolit davriga oid ikki yuzdan ortiq yodgorliklar aniqlanib, ular madaniy qatlamlari va terma moddiy ashyolariga ega bo'lgan g'or-makon, ochiq joy-makon va mavsumiy makonlardan tashkil topgan.

O'rta Osiyoning mezolit davriga oid o'rganilgan yodgorliklarni tadqiqotchi olimlar ma'lum madaniyat, madaniy majmuai yoki variantlarga ajratgan. Kaspiy dengizining sharqiy hududdagi yodgorliklarining tosh qurollariga ishlov berish usuliga asoslanib, arxeolog olima G.F.Korobkova Balxanbo'yni va Zarzi alomatiga ega bo'lgan Sharqiy Kaspiybo'yni majmulariga ajratgan.

Shuningdek, u Farg'onan vodiysidagi yodgorliklarini ham ikki guruhg'a: tog'


hududida g'or-makonlar asosida (Obishir) va tekislik (Farg'ona) variantlari yoki madaniy majmualariga bo'lган. Tog'li hududdagi g'or-makonlarni umumiy Obishir nomi bilan ilk bosqichiga va tekislikdagi yodgorliklarni Farg'ona nomi bilan rivojlangan bosqichiga oidligini qayd etgan. U.Islomov ularni umumiy Obishir madaniyati nomi bilan yuritish taklifini bildirgan. Qo'shilish va Machay g'or makonlarini o'rgangan olim Toshkent va Surxondaryo hududlarini ham alohida arxeologik madaniyat sifatida qayd etgan. A.V.Vinogradov markaziy Qizilqumda Lavlakon madaniyati, M.Jo'raqulov Samarcand viloyatida so'nggi mezolit davriga oid Sazag'on madaniyati, ye.B.Bijanov Ustyurtda mezolitning oxirida faoliyat yuritgan alohida majmuani qayd etishgan.

Janubiy Tojikistonning mezolit davri yodgorliklarni V.A.Ranov tekislik va tog' hududdan iborat Vaxsh va Pomirda Markansu madaniyatlari ajratgan. Tekislikdagi yodgorliklar tosh qurollarining yasalish usuliga ko'ra to'rtta madaniy majmuaga, tog'dagi yodgorliklar Markansuv va Istiq majmulariga ajratilgan.

*Sharqiy Kaspiybo'yи mezoliti* (mil. avv. XI-VIII ming yilliklar). Bu hududning mezolit davri yodgorliklari *Krasnovodsk* yarim oroli, Balxanbo'yи, Qorabo'g'iz va Quyi O'zboy hududlarida tarqalgan. Bu yerda yaxshi o'rGANilgan madaniy qatlamlı Jebel, Kaylu va Damdamchashma I, II kabi to'rtta g'or-makon va 30 dan ortiq ochiq joy makonlar mavjud. Defichig'anoq, Xo'jasuv va Qorailm joy makonlari ham qazib o'rGANilgan.

Sharqiy Kaspiybo'yи hududida joylashgan makoniardan topib o'rGANilgan tosh qurollarining yasalish usuliga ko'ra ikki guruh Balxanbo'yи (ilk, o'rta va so'nggi bosqichlari) va Sharqiy Kaspiybo'yи (ilk va so'nggi bosqichlari) kabi ikki madaniy majmua yoki guruhga ajratilgan. Ularning har ikkalasining tosh qurollari plastinkasimon uchirindidan yasaigan. Sharqiy Kaspiybo'yи hududidagi yodgorliklardan topilgan qurollarining o'lchami nisbatan kichkina bo'lib, mikrolidlashish jarayoni kechayotganligidan dalolat beradi. Sharqiy Kaspiybo'yи (Damdamchashma I, Damdamchashma II ning IV madaniy qatlami, Qaylu va

Xo'jasuv) yodgorliklaridan topilgan qurollari asosan mikrolit alomatiga ega bo'lган plastinksimon tosh bo'lagidan yasalgan. Mikrolitdan kamon o'qi va yirik tosh bo'lagidan nayza uchi sifatida foydalanilgan.



Sharqiy Kaspiy bo'yи (Jebel va Damdamchashma).

Mezolit davining eng qadimgi davriga oid oddiy ashyolar Damdamchashma I g'or-makoni madaniy qatlamidan topilgan. Makonning quyi qatlamidan aniqlangan o'choq atrofidan nukleuslar, nukleusimon qurollar, yupqa pichoqlar, teshgichlar, qirg'ich va boshqa xildagi tosh qurollari topilgan. Mazkur qatlamda qizil oxra izlari saqlanib qolgan. Damdamchashma I g'or makoni birinchi makon yaqinida joylashgan. G'or-makon eng quyi qismidagi sarg'ish tuproqli qatlamda makonga kelib yashagan dastlab odamlar tomonidan qoldirilgan topilmalar ko'zga tashlanadi. Tosh qurollari prizmasimon nukleuslar, yupqa tosh qurollari, qirg'ichlar, tig'i o'tkir orqasi to'mtoq sigmentsimon tosh qurolliari topilgan. Qaylu makonining quyi qatlamida tosh qurollari serob. Tosh qurollari majmuasi nukleuslar, yupqa tosh qurollari, qirg'ichlar, teshish maqsadida

ishlatilgan tosh qurollari va uchrindilardan iborat. Shuningdek, makondan topilgan tosh qurollari orasida Damdamchashma II g'or-makonida uchraydigan tig'i o'tkiz orqasi to'mtoq segmentsimon tosh qurollari ha mavjud.

Sharqiy Kaspiy bo'yisi aholisi xo'jalikning ovchilik, baliqchilik va termachilik bilan kun kechirgan. Yodgorliklardan yovvoyi qo'y, echki, qulon va baliq (Damdamchashma II), qoramol, jayron, mushuk (Jebelning quyi qatlami) suyagi topilgan. Damdamchashma II g'or-makonning mil. avv. VIII-VII ming yilliklarga oid IV-“quyi” madaniy qatlamidan topilgan qo'y va echki suyaklarni paleozolog olim V.I.Salkin xonaki hayvonlarga tegishli, deb hisoblaydi. Sharqiy Kaspiybo'yisi hududida yashagan ibridoiy odamlar mezolit davrining oxirida yovvoyi hayvonlarni qo'lga o'rqaшиб, xonaki chorvachilikga asos soғan.


Ayniqsa namchil va issiq iqlimli ushbu hudud ozuqabop boshoqli don o'simiiklariga boy bo'lib, termachilikning zhamiyati ham yuqori o'rinda turgan. Bu yerlardagi tabiiy suv havzalarida baliqlar ko'p bo'lgan. Yodgorliklardan baliq suyaklari ham mavjud. Ular mezolit davrida baliqchilik xo'jaligi ahamiyatidan darak beradi.

Teriga ishtov berish va ufardan kiyim bosh tikish, suyak va yog'ochdan zaruriy anjomlar yasash, chig'anoq va toshidan taqinchoq yasash kabi ishlar bu yerda yashagan odamlarning kundalik mashg'uloti bo'lgan.

*Ustyurt mezoliti* (mil. avv. VIII-VI ming yilliklar). Ustyurtida mezolit davriga oid 20 dan ortiq yodgorlik o'rjanilgan. Ular asosan Aydabolquduq va Jayronquduqlarining atrosida guruh-guruh holda joylashgan ochiq turdag'i doimiy, muddatli va mavsumiy makonlardan iborat. Makonlar alohida joylarda guruhlardan tashkil to'planganligi ular ibridoiy ovchilarning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan o'zaro bog'liq bo'lgan kichkina guruhini tashkil etgan sodda tuzilmadan iborat bo'lgan.

Arxeolog Ye.B.Bijanov Ustyurtning mezolit davri makonlarni Sharqiy Kaspiybo'yisi va Janubiy Ural hududi madaniyatining ma'lum ta'sirida shakllangan, deb hisoblaydi. Ustyurtning tosh qurollarining yasalish usuliga

ko'ra ular ikki guruhi ajralib turadi. Ilk (rivojlangan mezolit) - mil. avv.VIII-VII ming yilliklar va so'nggi (so'nggi mezolit va ilk neolit) mil. avv.VII-VI ming yilliklar.



Ustyurning mezolit davri yodgorliklari tosh qurollari.

Ustyurning madaniy qatlamga ega bo'limagan makonlar xo'jaligini tiklashni cheklaydi. Hududning tabiiy sharoiti va mazkur davr xususiyatlariga asoslanib, ustyurtlik ibtidoiy aboli xo'jaligida ovchilikning mavqeyi yuqori bo'lgan, keyin o'rinnarni termachilik va baliqchilik egallagan.

*Toshkent vohasida Qo'shilish makoni.* O'rta Osiyorning mezolit davri madaniyatları orasida Toshkent vohasidagi Qo'shilish makoni (mil. avv. X-IX ming yilliklar) alohida o'ringa ega. Toshkent shahrining g'arbida qadimgi Bo'zsuv anhorining chap sohilidagi jarlik bo'yida joylashgan makonni 1967 yili arxeolog olim U.Islamov o'rgangan. Makon madaniy qatlamining bir qismi yomg'ir suvida yuvilib, buzilib ketgan. Saqlanib qolgan qismidan 200 dan ortiq chaqmoqtoshdan yasaigan mehnat qurollari topib o'rganilgan. Ular kam sonli nukleus va kichik parakcha, qirg'ich, pichoq, hamda uchirindilardan iborat.

Makondan qora mol, qo'y va echki suyaklari topilgan. Qo'shilish

makonida yashagan aholi xo‘jaligida ovchilikning ahamiyati ustun bo‘lgan. Termachilik yordamchi xo‘jalik tarmog‘ini tashkil etgan.


Toshkent vohasining boshqa joylaridan ham mezolit davriga oid makonlar mavjud. Bo‘zsuv anhorining Qoraqamish jarligiga quyiladigan joyiga unchalik uzoq bo‘limgan Shoimko‘prikda shartli ravishda Bo‘zsuv I, deb nomlangan makondan mezolit davri tosh qurollari topilgan. Tosh qurollari nukleus, plastinkasimon tosh qurofi va mikrolitlardan iborat. Vohaning boshqa joylarida ham kozirgi payda aniqlanmagan mezolit davri makonlari mavjud bo‘lganligi, tabiiy. Bu yerning boy tabiatli mezolit davri jamoasining rivojlanishi uchun qulay sharoit edi.

*Obishir madaniyati.* Farg‘ona vodiysida mezolit davriga oid 40 dan ortiq g‘or-makon va ochiq joy makonlar qayd qilingan. Ular tog‘ hududidagi kam sonli g‘or-makonlar va Sirdaryo bo‘ylaridagi qadimgi ko‘llar atrofida joylashgan ko‘p sonli ochiq joy makonlardan iborat. G‘er-makonlardan So‘x daryosining yuqori oqimida joylashgan Obishir I, V va Toshko‘mir g‘or-makonlari yaxshi o‘rganilgan. Ularning madaniy qatlamlaridan tosh qurollar (mikrolit, qirg‘ich, qadama, o‘roq-randa, nukleus va boshqalar), suyakdan yasalgan anjomlar, chig‘anoq, tosh va suyakdan yasalgan taqinchoq hamda yovvoyi hayvon suyaklari topib o‘rganilgan. Toshko‘mir makonidan Obishir g‘ori tosh qurollariga o‘xshatib yasalgan namunalari topilgan.

Farg‘ona vodiysi tekisligida esa mezolit-neolit davrlariga oid sal kam yuzga yaqin joy-makonlar o‘rganilgan. Ulardan vodiyning markaziy tekisligida qadimgi ko‘llar bo‘yida joylashgan Ashiko‘l 2, 3, 16, Yangiqadam 1, Toyloq 3,5,7 boshqa yodgorliklar nisbatan yaxshi o‘rganilgan.

Makonlarning ustki qismidan chaqmoqtosh, slanets va qayroqtoshdan yasalgan mehnat qurollari terib olingan. Ular turli o‘lchamli nukleus, qirg‘ich, qadama va uchirindilardan iborat tosh qurollari. Makonlardan topilgan tosh qurollari asosan mikroplastinka shaklidagi tosh bo‘lagidan yasalgan. Geometrik shakldagi mikrolit tosh qurollari uchramaydi.

U.Islomov Farg'ona vodiysining mezolit davriga oid barcha yodgorliklarini umumiy Obishir (IX-VIII ming yilliklar) madaniyatini nomi bilan yuritgan. Vodiyning tog' qismida ilk-Obishir (g'or-makon) va so'nggi-Farg'ona (tekislik) - bosqichidan iborat ikki majmuadan tashkil topgan. Har ikkala majmuuning tosh qurollari plastinksimon shakldagi tosh bo'lagidan yasalgan.



Obishir madaniyatiga oid qorollar majmuasi.

Obishir madaniyatining ilk bosqichida ibtidoi jamoa a'zolari vodiyning tog' qismidagi g'orlarda yashab, ovchilik va termachilik xo'jaligi orqali kun kechirishgan, rivojlangan bosqichda aholi Sirdaryobe'yni tekisligiga kelib joylashadi. Tekislikdag'i ko'llarning atrofida ko'pgina yerto'la uylarining o'mi

saqlanib qolgan. Bu yerda yashagan ibtidoiy odamlar termachilik va baliqchilik bilan kun kechirgan.

Demak, Obishir madaniyatining ilk bosqichada ibtidoiy odamlar tog'larda yashab, xo'jalik faoliyatida ovchilikning mavqeyi yuqori bo'lgan. Mezolit davrining oxiriga kelib tekistiklikga kelib joylashgan aholining xo'jalikda o'zgarish sodir bo'lgan. Bu yerda baliqchilikaing mavqeyi yuqori o'rning chiqgan. Moddiy madaniyat sohasida ham yutuqlarga erishilgan.

*Zarafshon mezoliti.* Qoratepa tog'inining shimaliy tomonidagi adirliklarda joylashgan Sazag'on I, Ohalik va Urgut hududida Zamichatosh makonlari mezolit davri tarixiga doir qimmatli ma'lumotlar berdi. Samarcand shahridan 27 km. janubiy-g'arbda, Qoratovning tog' oldi hududida Sazag'on qishlog'iga yaqinida joylashgan Sazag'on I makoni so'nggi mezolit davriga (mil. avv. VII ming yillik) oid madaniy qatlamlı muhim yodgorlik hisoblanadi. Makondan mikrolit, qirg'ich sifatida ishlataligan kichik tosh qureti, o'q-yoy paykeni, qalamisfat va prizma shaklli nukleuslar, har xil uchrindilar, ushatgich, teshgich va kesuvchi qurollar topib o'rGANILGAN.

Bu yerning aholisi yarim yerto'la uylar va chaylasimon kapalarda yashagan bo'lsa kerak. Makonda o'choq izlari ham saqlanib qolgan. Makondan tog' echkisi, qo'y, jayra, bo'ri, tulki va parranda suyaklari topilgan. Zarafshon tog' tizmasi yon bag'irlarida mezolit davrining oxiriga oid Zamichatosh makoni va Qorakamar g'or-makon o'rGANILGAN.

Qizilqum cho'lida Chorbaqtı vohasining (Gazli shahri yaqinida) mezolit, neolit davri jamoalariga oid 60 dan ortiq makoni topilgan. Ulardan Chorbaqtı 11, 23, 27, 41 makonlari mezolit davriga oid. Bu makonlardan topilgan tosh qurollari paraqali uchrindidan iborat plastinkasimon texnikaga asoslangan. Zarafshon vohasida yashagan aholining tirikchilik manbaining asosini ovchilik tashkil etgan. Termachilik xo'jaligi qo'shimcha ozuqa manbai hisoblangan. Mazkur hududlarda tarqalgan yodgorliklar alohida madaniyat sifatida ajratilmagan. Ular moddiy madaniyatini, xususan, tosh qurollarining yasalish

usuliga va xo'jalik yuritish xususiyatlariga ko'ra o'zaro farq qilgan.

*Mochay g'or makoni* (mil. avv. VII-VI ming yilliklar) Boysun tog'ining janubiy-g'arbida Turkandaryoning (Sheraboddaryoning yuqori oqimi) o'ng sohilida qishloq yaqini joylashgan. Yodgorlik G.V.Parfionov, M.V.Voronets, A.P.Okladnikov va U.Islomovlar tomonidan o'rjanilgan.

G'or-makon ikkita madaniy qatlama ega. Uning har ikkala madaniy qatlamidan tosh va suyakdan yasalgan mehnat qurollari, hayvonlarning suyagi topilgan. Yuqoridagi ikkinchi madaniy qatlamidan esa ibtidoiy odam suyagi ham topilgan.

Toshdan yasalgan qurollari nukleus, pichoq, kesgich, geometrik shakldagi (trapetsiya, segment) mikrolit, nayzaning uchi va boshqalardan iborat. Suyaklarining ko'pchiligi arxar va kichik tuyoqli hayvonlarga tegishli. Tadqiqotchilar makonning yuqoridagi madaniy qatlamidan topilgan suyalarni xonaki hayvonlarga tegishli, deb hisoblaydilar. Lekin mezolit davrida g'or-makon sharoitida yashab, chorvachilik xo'jaligini yuritish shubhali holat. Boshqa tomondan esa, Machoy g'or-makonida yashagan aholi madaniyati an'analarining davomiyligi mahalliy hududda kuzatilmaydi. Makondan topilgan suyaklarning ko'pchilik qismi qo'y tegishli. G'or-makonda shuningdek, yovvoyi cho'chqa, qora mol it va suyaklari ham mavjud.

G'or-makonning yuqorisidagi ikkinchi madaniy qatlamidan katta yoshdagi erkak, ayol va ikkitata yosh bolaning suyagi topilgan. Antropolog olimlar V.Ya.Zezenkova va T.K.Xodjayovlar suyaklarni *yevropeoid* irlarining Sharqiy O'rta yer dengizi guruhiga oid, deb hisoblaydi. Ularning yuzi qisqa, boshi uzun, ya'ni dolixokran qiyofali odamlar bo'lgan.

Mochaylik ibtidoiy jamoa a'zolari o'zlashtirovchi xo'jalikning ovchilik va terib termachilik shakllari bilan shug'ullanib, kun kechirgan. Ular ona urug'iga asoslangan kichik jamoani tashkil etgan.

*Janubiy Tojikistonning mezolit davri madaniyatları.* Bu hududning mezolit davri jamoalar Kofirnahr, Vaxsh, Panj daryolari vodiylarida va Pomir

tog'ining baland qismida ham yashagan. Janubiy Tojikistonda mezolit davriga oid 30 ga yaqin yodgorliklar aniqlangan. Ko'pgina joy-makonlarning madaniy qatlami buzilib ketgan.

Janubiy Tojikistonning mezolit davri yodgorliklaridan Tutqovul III, Chilchorchashma, Darai Sho'r, Quyibulyon, Obikiyik, Oshxona, Alichur va boshqalar yaxshi o'rganilgan. Bu yerning mezolit davri madaniyatlar tekislik va tog'oldi hududidan iborat ikki yo'nalishda faoliyat yuritgan. Ular mil. avv. XI-VII ming yilliklar bilan sanalanadi. Janubiy Tojikiston hududidagi yodgorliklarini tadqiqotchilar turli davr va madaniyatdan iborat to'rtta arxeologik majmuaga ajratgan. Bu hududning mezolit davri yodgorliklari mil. av. XI-VIII m. yy. bilan sanaladi.

Shartli ravishda Tutqovul madaniyati nomi bilan yuritiladigan birinchi majmua (mil. avv. XI/X-VIII ming yilliklar) Tutqovul 3, Chilchorchashma va boshqa yodgorliklarida o'z aksini topgan.

Vaxsh madaniyatidan iborat ikkinchi majmua (mil. avv. VIII-VII ming yilliklar) Daraisho'r, Tutqovulning ikkinchi madaniy qatlamida o'z aksini topgan. Bu madaniyat neolit davri Hisor madaniyatining shakllanishida muhim o'rin tutgan.

Obikiyik nomi bilan yuritilgan uchinchli majmua (mil. avv. VIII-VII ming yilliklar) Quyi Bulyon va Obi Kiyik yodgorliklarida aks etgan. Bu makonlardan faqat chaqmoqtoshdan yasalgan mikrolit va plastinkasimon qurollar topilgan.

To'rtinchi Shugnov majmuasi (mil. avv. X ming yillik yoki XI ming yillik ham bo'lishi mumkin) shu nomdag'i makonining 0 madaniy qatlami moddiy topilmalarida aks etgan.

Janubiy Tojikistonning mezolit davriga oid ushbu madaniyatlar (majmualari) xo'jaligi va moddiy madaniyati, xususan, tosh qurollarining ishlanish usuliga ko'ra umumiy va o'ziga xos jihatiga egaligi bilan ajralib turadi.

Bu madaniyat egalari ovchilik, baliqchilik va termachilik kabi o'zlashtiruvchi xo'jalik shakl orqali kun kechirishgan. Asosiy ov quroli nayza va

o'q-yoy hisoblangan. Baliq ovlaydigan qurollar topilmagan. Garpun asosiy quroli bo'lgan.

Tojikistonning mezolit davri makonlarida bir vaqtda faoliyat yuritgan Shimoliy Afg'oniston, Falastin, Suriya va Old Osiyoning boshqa hududdagi manzilgoh tosh qurollari bilan o'xhash belgilari kuzatgan tadqiqotchilar ular o'rtasida qandaydir genetik aloqadorlik bo'lishi mumkinligini taxmin qilgan.

*Sharqiy Pomir mezoliti.* Bu mezolit davri yodgorliklari Markansuv madaniyati (Alichur va Oshxona makoni) va Issiq madaniyati yoki issiq majmuasidan (Issiq g'or-makoni) iborat. Pomir tog'i yodgorliklar dengiz satididan 4000-5000 metr balandlikdag'i hududda joylashgan. Ular mil. avv. VII ming yillikga oid.

Oshxona makonidan bir davrga oid uchta madaniy qatlam aniqlangan. Ulardan dag'al, nozik ishlangan yirik va kichik o'tchamli tosh qurollari topib o'rganilgan. Makondan silliq toshlardan qurilgan ikkita o'choqning izi va ularning atrofida ibridoiy odamlar yashashi uchun no'ljallangan tekis joyning o'tni ochilgan. Bu joy chayla shaklidagi yengil boshpananing o'rni bo'lsa kerak. U markansuvlik ibridoiy ovchilarning ov mavsumida ma'lum muddat yashashgan makoni bo'lgan. Ovchilar yovvoyi hayvonlarni o'ljaga olish barebarida tog'da o'sadigan iste'molga yaroqli quruq va ho'l mevalarni yig'ib olishgan.

Markansuv madaniyatining ildizlari aniqlanmagan, tadqiqotchilarning taxminiga ko'ra Pomir tog'idan tashqarida shakllangan. Ular tosh qurollarining ishlanish usuliga ko'ra mahalliy hudud bilan bog'laydi.

O'rta Osiyoning mezolit davri madaniyatlari va majmualari o'ziga xos va umumiy jihatlariga ega. Ular avvalombor so'nggi paleolit davri mahalliy madaniyat an'anasing davom etish natijasida kelib chiqqan bo'lsada, qo'shni hududlarning madaniy ta'siri bo'lgan. Ayrim tadqiqotchi olimlar tosh qurollarining yasalish usuliga asoslanib, ayrim mahalliy madaniyatlarni ildizini uzoq o'lkalar bilan bog'lashgaharakat qilgan.

*Mezolit davri tasviriy san'ati.* O'rta Osiyodagi tasviriy san'at namunasining kamchilik qismigina mezolit davriga oid. Ulardan Zarautkamar (Surxondaryo), Siypontosh (Qashqadaryo) va Shaxta (Sharqiy Pomir) tasvirlari orqali mezolit davri xo'jalik va g'oyaviy qarashlari to'g'risida qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin.


Zarautkamar yodgorligi Surxondaryo viloyati Sherobod shahridan 30 km. shimoliy-sharqda Ko'hitang tog'ining janubi-sharqiy yonbag'i rida Zarautsoy bo'yida joylashgan. Kamarda madaniy qatlamlar uchramaydi. Tasviriy san'at na'munalari qoya shiftlari va yon devorlarida joylashgan. Qizil bo'yodqa chizilgan tasvirlar mezolit davrining oxiri va ilk neolit davriga oid. Ulardan ov manzarasi tasvirlangan uchta komnozitsiyasi diqqatga sazovor. Birinchi tasvir 19 kishidan iborat ovchilarning yovvoyi buqalarni xalqa bo'lib ov qilayotgan holati tasvirlangan. Hayvonlarning ikkitasi qochishga urinayotgan holati chizilgan. Ikinchi tasvirda ovchilar oldidan jayronlarning qo'hib ketayotgan va ular birining jarohatlangan holati tasvirlangan. Uchinchi tasvirda esa yovvoyi echkilarga qilinayotgan ov manzarasi aks ettirilgan. Bu yerda mezolit davri jamoasining real hayoti tasvirlangan bo'lib, ularda ibtidoiy odamlarning g'eyaviy qarashlari o'z aksini topgan. Zarautkamar tasvirlarida chizilgan odamlarning tasviri tasviri sxematik tarzda berilgan. Kamarda madaniy qatlarning uchramasligiga ko'ra tasvirlarda mezolit davri jamoasining xo'jalik faoliyati aks ettirilgan bo'lib, ular orqali musavvir ibtidoiy jamoa a'zolarining ov oldidan amalga oshirgan rasm-rusmlarini, ya'ni ov kultini aks ettirishga harakat qilgan.

Qashqadaryo vohasidagi Siypontosh tasvirlari koinot va astronomik belgilardan iborat. Kamarning shiftida qizil rang bo'yodqa chizilgan belgilari oy kunlarining hisobi va yulduzlar belgisi bo'lishi mumkin.

Tojikiston Respublikasi Pomir tog'i hududi joylashgan Shaxta g'oridagi tasviriarda bafand tog' tizmasida yashaydigan yirtqich hayvonlar, xususan, ayiq tasviri chizilgan. Makonning madaniy qatlamanidan topib o'rganilgan moddiy

ashyolar mezolit davriga oid. Tojikiston Respublikasi Pomir tog'i hududi joylashgan Shaxta g'orida baland tog' tizmasida yashaydigan yirtqich hayvonlar, xususan, ayiq tasviri chizilgan. Makonning madaniy qatlamidan topilgan moddiy ashyolar mezolit davriga oid.

Umuman mezolit davri qoyatosh tasvirlarida hayvonot dunyosi va xo'jalik xususiyati aks etib, ularda o'z davrining sodda dunyoqarash tushunchalari va diniy-dunyoviy mafkurasi yashiringan.



O'rta Osiyo mezolit davri qoyatosh tasvirlari. 1.Zarautkamar 2.Shaxta

Mezolit davrida sodir bo'lgan iqlim o'zgarishlari kishilik jamiyatni xo'jalik va moddiy madaniyatiga jiddiy ta'sir qilib, muhim ijobil yutuqlarga erishishi sabab bo'ladi. Natijada kishilik jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotida burilish davrini boshlab beradi.

*Mavzuni mustahkamash uchun savol va topshiriqlar:*

1. O'rta Osiyoda qanday tabiat o'zgarishlari sodir bo'lgan?
2. Sharqiy Kaspiybo'yini mezoliti xususiyatini yoritib bering?
3. Obishir madaniyati haqida ma'lumot bering?
4. Mochay g'or-makonining o'ziga xos xususiyatini ko'rsating?
5. Janubiy Tojikistonning mezolit davri mahalliy madaniyatlari qanday xususiyatga ega bo'lgan?
6. O'rta Osiyoning mezolit davri tasviriy san'ati ahamiyatini yoritib bering?

### **III. Bob. O'rta Osiyoning neolit davri arxeologiyasi**

*Tayanch so'zlar: Antropomorf, zoomorf, lavlakon plynviali, motiga, neolit ingilobi, liman usuli, motiga, shamot.*

**Neolit davri tafsifi.** Neolit - (yun. *neos-yangi*, lot. *litos-tosh*, yangi tosh asri) tosh davrining so'nggi bosqichi. Neolit davri sanasi mahalliy hududlarning tabiiy-geografik sharoiti, xo'jalik va moddiy madaniyati xususiyatiga ko'ra mil. VIII-IV ming yilliklar doirasida sanalanadi, yer yuzining ayrim hududida neolit davri an'anlari mil. avv. III/II ming yilliklarda ham davom etadi.

Neolit davrining iqlimi hozirgidan ancha farq qilgan. Uning dastlabki bosqichida namchil va issiq iqlimli sharoit hukmror bo'lgan bo'lsa, keyinchalik *atlantika* bosqichida (taxminan mil. avv. VII-IV ming yilliklar) ob-havo isib, iqlim quruqlashib borgan. Ilgarigi namchi! iqlimli o'rmonzor hududlarda qurug'oqchilik kuchaygan. Masalan, mezolit davrida sersuv va o'rmonzor bo'lgan Sahara qurg'oqchilik tufayli cho'iga aylanadi.

Neolit davri ekologik o'zgarishlar oqibatida Osiyoning tabiiy sharoiti qulay va issiq iqlimga ega bo'lgan subtropik mintaqalarida mezolit davridagi ixtisoslashgan termachilik va ovchilik asosida ishlab chiqaruvchi xo'jalik-dehqonchilik va *chorvachilikning* vujudga keladi. Xo'jalikning ishlab chiqaruvchi shakli o'tish dastlab Yevrosiyoning issiq iqlimli janubiy o'lkalarida sodir bo'lgan. "Serumum yarimoy hududi"ni tashkil etgan Yaqin Sharq, Mesopotamiyaning shimoli va Kichik Osyo yerlarida mil. avv. IX/VIII ming yilliklardoq o'simliklarni madaniylashtirish va hayvonlarni xonakilashtirish boshlanadi.

**O'rta Osiyoning neolit davri tabiiy sharoiti.** O'rta Osiyoda muzlikdan keyin harorat ko'tarilib, iliq va namchil iqlim qaror topadi. Qizilqum hududida yillik yog'ingarchilik miqdori 250-450 mm., iyul oyining o'rtacha harorati  $+21+23^{\circ}\text{S}$  ni tashkil etgan. Tabiiy suv havzalari: daryo va ko'llarga boy yashil o'rmonzordan iborat bo'lgan. Qizilqumda mil. avv. VII-III ming yilliklarda

hukmron bo'lgan bunday tabiiy iqlim sharoiti "Lavlakon namgarchiligi" davri nomi bilan yuritiladi. Amudaryoning quyi oqimi, Ustyurt va O'zboy o'zani atrofida yerlarda ham shunga yaqin iqlim sharoiti hukm surgan.

*Janubi-g'arbiy Turkmanistonning tabiiy sharoiti nisbatan quruq va issiq, subtropik iqlim hukmron bo'lib, yanvar oyining harorati o'rtacha +4 °S va iyulda +28 °S ni tashkil etgan. Kopetdagdan oqib keladigan kichik daryo va soy o'zanları to'qayzor bo'lgan. Tog' va cho'l oralig'idagi voha hududining chegarasi hozirgiga nisbatan ancha keng bo'lgan.*

Neolit davrida O'rta Osiyoning janubi-g'arbiy chegarasida *Joytun va Jebel madaniyatlari*, Amudaryoning quyi oqimi, O'zboy o'zani, Sariqamish ko'li atrofi, Orolbo'yı va Qizilqum hududlarida *Kultaminor madaniyati majmuasi*, Zarafshonning o'rta oqimida *Sazag'on madaniyati*, Farg'ona vodiyisida *Markaziy Farg'ona madaniyati*, O'zbekiston va Tojikistonning janubiy tog' va tog' oldi hududlarida *Hisor madaniyati* faoliyat yuritgan.

*Joytun madaniyati* (mil. avv. VII-VI ming yilliklar). Joytun O'rta Osiyoning neolit davriga oid ilk o'troq dehqonchilik madaniyati. Bu madaniyat Turkmanistonning janubi-g'arbiy qismida Kopetdag va Qoraqum cho'li oralig'ida qadimda o'troq dehqonchilik xo'jaligini yuritish uchun qulay bo'lgan issiq iqlimali hududda vujudga kelgan.

Janubiy Turkmanistonning neolit davri ilk ishlab chiqaruvchi xo'jalik madaniyatiga oid dastlabki yodgorlik Ashgabat shahridan 30 km. shimolda qum barxani ustiда joylashgan Joytun manzilgohini o'rganishdan boshlangan. Joytun manzilgohida dastlab arxeolog olim B.A.Kuftin qazishma ishlarini boshlagan va keyinchalik V.M.Masson to'liq ochib o'rgangan. Hozirgi qadar Joytun madaniyatiga oid yoki neolit davri madaniy qatlamiga ega bo'lgan 20 ga yaqin manzilgoh qayd qilinib, ularni B.A.Kuftin va V.M.Masson, O.K.Berdiev, A.A. Marushenko boshqa arxeologlar o'rgangan.

Joytun madaniyatiga oid manzilgohlar hududiy jihatdan markaziy, g'arbiy va sharqiy guruhlarga bo'linadi. Manzilgohlardan topilgan moddiy ashyolarga

asosida mazkur madaniyatni tadqiqotchilar (O.Berdiev-sopol buyumlari, G.F.Korobkova-tosh qurollari) ilk, rivojlangan va so'nggi bosqichlarga ajratgan.

Joytun madaniyatiga oid yodgorliklardan Joytun, Cho`pontepa va To`g`aloqtepa yodgorliklarining quyi qatlami-iik bosqichiga, Monjuqlitepa, Bomi, Chagillitepa, Giyovjiktepa, Kelyata va Yangi Niso yodgorliklarning quyi qatlarni rivojlangan bosqichiga, Bomi, Chagillitepa yodgorliklarning yuqori qatlami esa se'nggi bosqichiga oid oid.

O'rta Osiyoning neolit davri aholisi mahalliy hududlarning tabiiy-geografik sharoiti, fauna va flora xususiyatidan kelib chiqib xo`jalik shaklini tashkil etgan. Mintaqaning chekka janubi-g`arbida xo`jalikning ishlab chiqaruvchi shakllari vujudga kelgan bo`lsa, boshqa joylarida xo`jalikning ilg`or shakllariga neolit davrining oxirida o'tilgan.


O'rta Osiyoning g`arbida mezolit davri ixtisoslashgan o'zlashtiruvchi xo`jalik asosida ishlab chiqaruvchi xo`jalik vujudga ke`igan. Turkmanistonning janubi-g`arbiy qismida dehqonchilik va chorvachilik, g`arbiy qismida, Sharqiyo Kaspiy bo'yini hududida chorvachilik xo`jaligi vujudga kelgan.

*Joytun madaniyati*(mil. avv. VII–V ming yilliklar). O'rta Osiyoning neolit davri iik o'troq dehqonchilik madaniyati. Bu madaniyat Turkmanistonning janubi-g`arbiy qismida Kopcidaq va Qoraqum cho`li oralig`ida, qadimda o'troq dehqonchilik xo`jaligini yuritish uchun qulay bo`lgan hududda vujudga kelgan.

Joytun madaniyatiga oid 20 ga yaqin manzilgohlar aniqlangan. Ularning maydoni 0,2-2,0 ga. dan iborat bo`lib, madaniy qatlami 2-5,5 m. ni tashkil qiladi. Joytun madaniyati manzilgohlarida paxsa va bulkasimon xom g`ishlardan barpo etilgan tarhi kvadrat yoki to`g`ri to`rtburchak shaklli bir xonalid uylar aniqlangan. Uylarning ichkarisida devor yonida oval shaklli xo`jalik o`chog'i joylashgan. Uylarning sathi loy yoki ganch suvoq qilingan. Dastlabki bosqichda uylarning eshibi qamishdan to`qilgan bo`yra yoki teri bilan yopilgan.

Joytun manzilgohi Ashgabat shahridan 30 km. shincholda, qum barxani ustida joylashgan. Joytun dastlabki o'rganilgan manzilgoh bo`lib, neolit davriga

Idk o'trog dehqonchilik madaniyatı shu nom bilan yuritiladi.




Joytun manzilgohining balandligi 5,5 m. dan iborat tepalikni tashkil etib, unda qalinligi 2,5 m. joyda 5 ta madaniy qatlama aniqlangan. Manzilgohning quyi madaniy qatlamida kvadrat shaklida tartibsiz qurilgan 30 ta uy-joy majmuasining o'rni ochilgan. Umumiy hovlidan iborat majmua tarkibida yashash xonasi, qo'shimeha xo'jalik qurilishi va g'alla saqlash uchun mo'ljalangan o'ralar o'rin olgan. Yashash xonalarining ko'hami  $13\text{-}39\text{ m}^2$  ni tashkil etadi. Uy devorlari  $60\text{-}70\times20\text{-}25\times10\text{-}12\text{ sm}$ . o'lchamidagi bulkasimon shakldagi xom g'isht va paxsadan barpo qilingan. G'ishtlarning loyiga somon qo'shilgan. Yashash xonalarining ichki devori va yeri loysuvoq qilinib, usti qizil rangda bo'yagan.

V.M.Masson taxminiga ko'ra Joytun manzilgohidagi uylarining har birida 5-6 nafar kishidan iborat just oila a'zolari yashagan. Qishloq aholisining umumiy soni 150-180 nafar kishini tashkil etgan.

Monjuqlitepa manzilgohi Joytun madaniyatining rivojlangan bosqichiga

oid bo'lib, undan 40 dan ortiq hovlining o'rni ochilgan. Ular yashash va xo'jalik xonalaridan tashkil topgan. Bu bosqichda ibtidoiy dehqonlarning qurilish sohasida malakasi oshib, muhim yutuqlarga erishadi. Imoratlariga muntazam yangilik va qo'shimchalar kiritib borilgan. Barcha xonalarda eshikning tosh tagligi uchraydi. Neolit davrining rivojlangan bosqichidan boshlab, uylarga yog'och eshik o'rnatila boshlaydi.

### Joytun madaniyati uy-joylarining rejasi



1.Joytun manzilgohi o'rni olgan joy 2.Uyning o'rni 3.Pesejiktepa manzilgohidagi ibodatxonaning rejasi 4.Ibodatxenanining ichki ko'rinishi

Chagillitepa manzilgohi Joytun madaniyatining so'nggi bosqichi oid. Manzilgohda to'rtburchak g'ishtdan barpo qilingan 12 ta uy-joy imoratining o'rni ochilgan. Uylar ichkarisida kvadrat va to'rtburchak o'choq o'rni olgan. Uylarning qurilish usul ko'ta rivojlangan bosqichidagi an'anasini davom ettirgan. Xonalarning yeri loysuvoq qilingan, ayrimlari bo'yalgan yoki bo'yra

to'shalgan. Umumiy hovli ilgargidek yashash, xo'jalik xonasi va o'rasiдан tashkil topgan.

Neolit davrining dastlabki bosqichida Joytun madaniyatiga oid qishloqlardagi uy-joylarning qurilishi juda sodda bo'lgan, keyinchalik odamlarning estetik qarashlari o'zgarib, qurilish sohasidagi amaliy tajribalari oshib boradi. Uy-joy imoratlarining ichki qulayligi va shinamligiga alohida e'tibor qarata boshlaydi. Ayrim yashash xonasining ichki devoriga turli xil rang-bo'yoqlarda naqsh chizish an'anasi kuchayadi. Devoriy naqshlar oq, qora va qizil rang bo'yoqda chizilgan geometrik shakl va o'simlik tasviridan iborat bo'lgan. Pessejiktepa manzilgohidagi imoratlar devoriga uchburchak, romb va daraxt tasviri chizilgan.

Joytun madaniyatining boshqa bir yodgorliklari Pessijiktepa va Chigillitepa manzilgohilaridan maydoni nishbatan kattaroq imoratlar ochilgan. Bu imoratlar devor turli rang-tasvirlar bilan bezatilgan. Ularda yashash xonalarida uchraydigan moddiy ashyolar aniqlanmagan. Tadqiqotchi O.Berdiev Pessijiktepa manzilgohida joylashgan ushbu inshootni Kichik Osiyoning Chatal Huyuk manzilgohida joylashgan ibodatxona bilan qiyoslab, mahalliy aholining sig'inish joyi bo'lgan, deb hisoblaydi. Neolit davri ibodatxonalarini mahalliy aholining toat-ibodat, qurbanlik keltirish amallarini bajarishga mo'ljallangan diniy imorat bo'lisdidan tashqari o'troq dehqon aholisining g'oyaviy markazi ham hisoblangan. Ibodatxonada qadimgi o'troq dehqon aholisining katta yoshidagi a'zolari yig'ilib, umumjamoaga tegishli ishlar muhokama qilingan.

Joytun madaniyatini aholisi marhumlarni manzilgoh ichkarisida, yashash xonasining ichida yoki hovlida o'ng va chap biqini bilan gujanak yotgan holatda dafn etganlar. Marhumlar bilan birga ularning hayotlik davrida foydalangan tosh qurollari, sopol tuyumlari va boshqa narsalar qo'shib ko'milgan. Qadimgi odamlarning tasavvurida marhumlar narigi dunyoda qayta tirlilib, moddiy narsalarga cintiyoj tug'iladi, degan tushuncha mavjud bo'lgan.

Joytun madaniyatiga mansub aholi yevropeoid irqining sharqiy o'rta yer

dengizi guruhiiga xos qisqa va cho'ziq yuzlii-dolixokran shaklli aholi vakillari bo'lganlar.

*Joytun madaniyati xo'jaligi.* Joytun madaniyati aholisi dehqonchilik va chovrachilik bilan shug'ullangan. Dehqonchilik liman usulida sug'orishga asoslangan bo'lib, ekinlar bahor fasli yomg'ir suvi bilan ikki-uch marta sug'orilib, yiliga bir marta besil olingan. Dehqonchilikda bir va ikki qatorli bug'doy va arpa ekilgan. Ekin yerlariga motiga bilan ishlov berilgan. Hosiqadama-tosh o'roq bilan o'rib olingan. Manzilgohlardan topilgan mikrolit toshlar yog'och va suyakka qotirilib, o'roq sifatida ishlatalgan. Don mahsulotlari o'rallarda saqlangan. Xo'jalik o'ralar har bir hovlida mavjud bo'lgan.

Joytun madaniyatining dastlabki bosqichda echki va qo'y, oxirida esa ehtimol qora mol xonakilashtirilgan. Joytun madaniyatining rivojlangan bosqichda cherva mollarining soni ko'payib, ushbu xo'jalikning ahamiyati yanada o'sgan. Ovchilik xo'jaligining mavqeyi saqlanib qoladi. Jayron, qulon, yovvoyi cho'chqa, tulki kabi yovvoyi hayvonlar ov qilingan.


Mehnat qurolining asosiy qismini plastinkasimon chaqmoqtoш parchasidan yasalgan qurollar va mikrolitlar tashkil etgan. Mikrolitlardan kesish maqsadida ishlatilgan har xil ro'zg'or anjomlari, o'roq qadamasi va kamon paykoni siftida foydalanilgan. Toshdan yasalgan bolta, tesha, yorg'uchchoq, keli va sopi ham mavjud. Poloxmon toshining ko'p nusxalari uchraydi. Poloxmon ov quroli va g'allani pishib yetilishi arafasida qushlardan himoya qiladigan vosita vazifasini bajargan.

Suyakdan turli xil anjomlar yasalgan. Suyakdan bigiz, pardozlagich va qamishdan bo'yra to'qish anjomni sifatida foydalanilgan. Tosh va suyakdan zeb-ziynat buyumlari, xususan, munchoq hamda taqinchoqlar yasagan. Chig'anoqdan ham munchoq sifatida foydalanilgan. Toshdan yasalgan odam va hayvon shakllari tumor vazifasini bajarib, taqib yurish uchun mo'ljallangan.

Sopoi buyumlar qo'lda tasmasimon usulida yasalgan va ayrimlarining sirti

silliqlangan. Ularning loyiga maydalangan somon qo'shitgan. Sopollarning naqshli va naqshsiz turilari mavjud. Naqshlar och-jigar, to'q jigar rangli bo'yodda chizilgan. Ilk bosqichida sopol buyumlarning sirtiga tik tushirilgan to'lqinsimon chiziq va qavssimon, qisman to'rsimon hamda uchburchak shaklli naqsh chizilgan. Sopollar kosa, lagancha va kubok shaklli idishlar iborat.

### Joytun madaniyatiga oid moddiy ashyolar



1. Sopol idishlar 2. Tosh qutoflari (silliqlangan qurollar va mikrolitlar)  
3. Motiga 4. Suyakdan yasalgan buyumlar

Rivojlangan bosqichidagi sopol buyumlari qo'lida tasmasimon shaklda sirti dag'al, tagi tekis qilib yasalgan. Buyumlarning yuqori qismi obdon pardozlangan. Ular naqshli va naqshsiz turi ega. Naqshlar jigarrang va kashtan rang bo'yodda tik tushirilgan to'lqinsimon chiziq va uchburchak shakklardan iborat. Bu bosqichda qizg'ish va sarg'ish rangda naqsh chizilgan sopollar ham paydo bo'ladi. So'nggi bosqichda sopol buyumlarining sirtiga chizilgan naqshining mazmuni murakkablashadi. Geometrik shaklli naqshdan tashqari o'simlik va zoomorf tasvirlar ham paydo bo'igan.

Joytun madaniyatiga oid sopol buyumlarining qalin va yupqa devorli turi ajralib turadi. Uy-ro'zg'or buyumlari yupqa devorli, mahsulot saqlash uchun mo'ljallangan katta hajmli buyumlari qalin devorli qilib yasalgan.

Loydan turli xil haykalchalar yasalgan. Ularning antropomorf va zoomorf shakllari ajralib turadi. Antropomorf haykalchalarda ko'proq ayollar tasviri aks ettirilgan. Ularning tik va o'tirgan holda yasalgan turi mavjud. Xonaki qo'y va echki tasvirlangan haykalchalar neolit davrining barcha bosqichiga oid qatlamida uchraydi. Neolit davrining oxiriga oid madaniy qatlamida qora mol tasvirlangan haykalchalar paydo bo'ladi. Bu bevosita ularning xonakilashtirilishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Hayvon haykatchasining ayrimlarining bosh qismi sindirib olingen. Ular neolit davri aholisining hayvonlarni qurbanlik keltirish udumiga taqlid qilish odati bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Joytun madaniyati jamoasi ona urug'iqa asoslangan just oilalardan tashkil topgan. Oila a'zolari bir xonadan iborat hovlida yashagan. Jamoaning mehnatga layoqatli barcha a'zolari yerga ishlov berish, hosilni yig'ishtirish va umumjamoaga tegishli qurilish ishlarini birgalikda bajargan.

*Jebel madaniyati* Turkmanistonning g'arbida Sharqiy Kaspiybo'yи hududida faoliyat yuritgan madaniyat. Bu madaniyat dastlabki o'rjanilgan Jebel yodgorligi nomi bilan yuritiladi. Jebel, Damdamchashma 1,2, Qaylu, Defichig'anoq va boshqa yodgorliklarning yuqorisidagi madaniy qatlamlari neolit davriga (mil. avv. VII-V ming yillik) oid.

Jebel madaniyati yodgorliklaridan tosh qurollari, hayvonlarning suyagi va sopol buyumlar topib o'rjanilgan. Qurollar tekis tomoniga ega bo'lgan prizmasimon nukleusdan sindirib olingen tosh bo'lagidan yasalgan. Plastinkasimon tosh parchasidan yasalgan tosh qurollari soni nisbatan ko'proq. Tosh qurollari majmuasida mikrolitlarning soni kamchilikni tashkil etadi. Toshdan yasalgan ko'pgina yorg'uchq namunalari ham mavjud. Sopol buyumlari qo'lda, tasmasimon usulida yasalgan.

Xo'jalikda chorvachilikning mavqeyi ustun bo'lgan. Topilgan suyaklarning

asosiy qismi xonaki echki va qo'ylarga tegishli. O'zlashtiruvechi xo'jalik ahamiyatini yo'qotmagan. To'qay va cho'l sharoitida to'da bo'lib yashaydigan hayvon va qushlar ov qilingan. Shuningdek, chuchuk suvda yashovchi baliq suyaklari ko'p uchraydi. Ma'lumki, bu davrda Qoraqumning g'arbiy qismida chuchuk suvli ko'llarga boy bo'lib, ularda baliqlar serob bo'lgan.

Umuman, neolit davri janubi-g'arbiy va g'arbiy Turkmaniston hududida neolit davri Joytun va Jebel madaniyatları faoliyat yuritadi. Ilk ishlab chiqaruvchi xo'jaligining dahqonchilik va chorvachilik shakllariga asoslangan mazkur madaniyatlar O'rta Osiyoning keyingi davr jamiyatı taraqqiyotida muhim o'rinni egallaydi.

*Kaltaminor tarixiy-madaniymajmuasi*(mil. avv. VII ming yillik oxiri-III ming yilliklar). O'rta Osiyoning neolit davri ixtisoslashgan o'zlashtiruvechi xo'jalik shakliga asoslangan Kaltaminor madaniyatiga oid jamoa a'zolari Quyi Amudaryoning Oqchadaryo o'zani hududida yashab qolmasdan, Ichki Qizilqum (Lavlakan), Quyi Zarafshonning eski o'zanlanlar (Moxandaryo, Echkilisoy, Oyoqog'itma Shimoliy Daryosoy va Chorbaqtinining o'rta o'zani), O'zboy va Sariqamish o'zani, Ustyurt, Shimoli-Sharqi Orolbo'y'i va Sirdaryoning quyi oqimi hududida ham tarqalgan. Bu yerlarda yashagan aholi ovchilik va baliqchilik xo'jalik asosida hayot kechirgan. Ularning xo'jalik shakllari va moddiy madaniyatidagi umumiylik *Kaltaminor tarixiy-madaniy majmuasi* nomi bilan atashga asos bo'lgan.

Bu madaniyat 1939 -yilda Quyi Amudaryoning Oqchadaryo o'zani hududida Yonbosh IV yodgorligining ochilishi bilan boshlangan. O'tgan astning 60-70 yillarida Kaltaminor madaniyat majmuasiga oid yodgorliklarni o'rganishniang yangi bosqichi boshlangan. A.V. Vinogradov Markaziy Qizilqumda keng ko'lamlı arxeologik tadqiqot ishlari olib borilib, ushbu madaniyatga oid yangi yodgorliklarni o'rganilgan. Hozirgi paytda Kaltaminor madaniyatini majmuasiga oid mingdan ortiq turli xil makonlar aniqlangan.

Kaltaminor madaniyatiga oid yodgorliklarni o'tgangan tadqiqotchi olimlar

xronologik va hududiy jihatdan ma'lum majmualarga ajratishga harakat qilganlar Tadqiqotchi A.V.Vinogradov tosh qurollarining yasalish usuliga ko'za Kaltaminor madaniyatini-*ilk, rivojlangan va so'nggi bosqichlarga ajratgan*. Bu madaniyat hududiy jihatdan Oqchadaryo, Lavlakon (Ichki Qizilqum) va Qeyi Zarafshon kabi mahalliy majmualardan iborat. Mahalliy majmualarni ham xronologik jihatdan o'z navbatida ilk, rivojlangan va so'nggi bosqichlarga ajratish mumkin.

1. *Ilk-Daryosoy bosqichi (ilk neolit)* (mil. avv. VII ming yillik oxiri-V ming yillik beshlari);
2. *Rivojlangan-Yonboshbosqichi (rivojlangan neolit)*— (mil.avv. V ming yillik o'rtafari-IV ming yillik birinchi yarmi);
3. *So'nggi bosqichi* (IV ming yillikning ikkinchi yarmi-III ming yillikning birinchi yarmini).

Kaltaminor madaniyatining ilk bosqichga oid yodgorliklar Ichki Qizilqum hududida tarqalgan. Bu yerdagi Sharqiy Oyoqog'itma va Katta Tuzkon hududining ilk bosqichi yodgorliklari (Uchashi 131, Daryosoyning ko'pgina yodgorliklari, Oyoqog'itma o'zanining ayrim yodgorliklari, Chorbaqtı 33, 47, 55, Daryosoyning yuqeri va o'rta oqimi, g'arbiy Oyoqog'itma o'zanidagi Echkilisoy hududining ayrim makonlari kiradi.

Daryosoy o'zani hududidagi Uchashi 131 makoni maydoni jihatdan eng yirigi hisoblanib, 1968 -yilda arxeolog V.A.Vinogradov tomonidan o'rganilgan. Yodgorlikdan yog'och qurilmaga asoslangan uy-joy qoldiqlari, tosh qurollari va sopol idishlarining parchalari topilgan. Makondan yog'och qurilmasiga ega bo'lgan uchta uy-joyning qoldig'i aniqlangan. Topilgan tosh qurollarining soni o'n uch mingdan ortiq bo'lib, ular asosan trapetsiya shaklli mikrolitlardan iborat. Sopol buyumlari soz tuproqdan mato qolipda, tagi dumaloq qilib yasalgan. Ularning loyiga *shamot*, kam hollarda xashak, maydalangan chig'anoq yoki qum qo'shib yasalgan. Sopollarning sirtiga to'lqinsimon, to'g'ri chiziqli va egrи chiziqli naqshlar o'yib chizilgan.

*Rivojlangan-Oqchadaryo bosqichiga* oid yodgorliklar Amudaryoning quyi oqitnida Janubiy Oqchadaryo o'zani hududida yaxshi o'rGANilgan. Bu yerdan Kaltaminor madaniyatiga oid 100 dan ortiq makonlar aniqlangan. Ulardan Yonbosh IV, Tolstov, Qavat IV makonlarida arxeologik qazishma ishlari olib borilgan.

Qoraqolpag'istonning To'rtko'l tumani hududida joylashgan Yonbosh IV makoni Kaltaminor madaniyatining tayanch yodgorligi sanaladi. Uning yaqinida Tolstov makoni joylashgan bo'lib, ular neolit davrining bitta urug' jamoasiga tegishli makonlar sanalgan.

Yonbosh IV makoni 1939 -yilda S.P.Tolstov tomonidan o'rGANilgan. Yonbosh IV makonida ikkita madaniy qatlam aniqlanib, pastki qatlamida moddiy topilmalar yaxshi saqlangan. Yonbosh IV Makonda ikkita madaniy qatlam mavjud bo'lib, asosiy moddiy topilmalar quyi qatlamida yaxshi saqlangan. Makondan umumiy maydoni  $290\text{ m}^2$  joyda ( $24 \times 17\text{ m.}$ ) yog'och qurilmasiga ega bo'lgan uy-joyning o'rni ochilgan. Bu kulba o'z davrida yonib kulga aylangan. Yog'och qurilmasiga ega qurilishdan iborat kulbaning yon tomonidagi yog'och ustunlarning izi saqlanib qolgan. Ustunlar o'rtasiga ko'ndalang shox-shabba tashlanib, astidan qamish bosilgan. Kulba ichkarining sovuqda issiq bo'lishi uchun qamish astidan chimi besilgan bo'lsa kerak. Makonning atrofida yonib kulga aylangan yog'och va qamish kuyindilarii saqlanib qolgan.

Chaylaning o'rtasida markaziy yirik o'choq (diametri 1,2 m.) joylashgan bo'lib, atrofidagi kichik o'choqlardan farq qiladi. Markaziy o'choqda doimiy olov yonib turgan. Uning atrofida moddiy ashyolar va oshxona chiqindilari uchramaydi. Xo'jalik o'choqlaridan farqli o'laroq markaziy o'choqda qalin toza eq kul qatlami saqlangan. Unda muqaddas olov doimiy yonib turgan. S.P.Tolstov katta uchoq kulbada yashagan aholining topinish odati uchun xizmat qilganligini bildirgan. Bu bevosita olov kulti bilan bog'liq bo'lib, kulbada yashovchi, ehtiimol kulba atrofidagi makonlarda yashovchi aholining sig'inish

joyi bo'lishi mumkin. Uning atrofida yig'ilgan katta yoshdag'i jamoa a'zolari qabilaning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti bilan bog'liq masalalarni muhokama qilingan. Kulbadagi yuzga yaqin kichik o'choglar joylashgan. Kichik o'choqlarning atrofida sopol parchalari va hayvonlar suyagining nusxalari uchraydi. Ular juft oilalarning atohida xo'jaligidan dalolat beradi. Kulbada taxminan 100-125 ta dislokal oiladan iborat ona urug'i jamoasi vakillari yashagan.

**Yonbosh IV makonidan** neolit davri uchun xos nukleus, nayza va kamon poykonlari, qirg'ich, plastinka, kamon o'qining uchi va boshqa tosh qurollar topilgan. Makondan yovvoyi cho'chqa, baliq, qirg'ovul, suv qushlarining suyagi, o'rdak va g'oz tuxumiing po'chog'i hamda jiylida danaklari topilgan.

**Tolstov makoni.** Yenbosh IV makonidan pastroqda, uning janubiy qismida joylashgan. Makon 1976 -yilda arxeolog A.V.Vinogradov tomonidan o'r ganilgan. Makondan ibtidoiy kulbalarning o'rni aniqlangan, tosh qurollari, sopol buyumlar, hayvon, parranda va baliq suyaklari topib o'r ganilgan. Bu yerdagi kulbalarning maydoni nisbatan kichik, to'g'ri burchak shakliga ega bo'lib, umumiy maydoni  $110-120\ m^2$ .

**Qavat 4 makoni.** Oqchadaryo o'zani hududida dagi Qavat 4 manzilgohi uy-joyning o'chami  $30-31 \times 18-19$  metrni tashkil etadi. Uy-joylar o'chami  $80\ m^2$  dan  $120-150\ m^2$  gacha bo'lgan to'g'ri burchakli yerto'sadar iborat. Uylarni qurishda mahalliy hududning tabiiy sharoiti va relefni e'tibor qaratilgan.

Zarafshonning quyi oqimi hududida neolit davriga oid 700 dan ortiq yodgorliklar aniqlangan. Ulardan Darvozaqir I, II, Katta va Kichik Tuzkon, Daraisho'r, Qorong'i Sho'r va Poykent makonlari arxeologik jihatdan yaxshi o'r ganilgan yodgorliklardir.

**Zarafshonning quyi oqimi** hududlaridan ham neolit davriga oid ko'pgina makonlar mavjud bo'lib, ulardan Darvozaqir I, II, Katta va Kichik Tuzkon, Daraisho'r, Qorong'i Sho'r va Poykent makonlarida arxeologiya qazishma ishlari amalga oshirilgan.

**Darbozaqir I** makoni hozirgi paytda qurib qolgan Janubiy Moxandaryo o'zanidagi Katta Tuzkon ko'lining shimoli-g'arbiy tomonida joylashgan. Qorako'sh shaharchasidan 40 km. shimoliy-g'arbda joylashgan. Makon 1961-yillarda Y.G'ułomov boshchiligidagi Moxandaryo ekspeditsiyasi tomonidan o'rGANILGAN. Makonda bir davrga oid uchta madaniy qatlarni aniqlanib, ularning yuqorisidagi ikkita madaniy qatlarni buzilib ketgan, yaxshi saqlanmagan. Madaniy qatlardan besh minga yaqin tosh qurollari, minga yaqin soppollar parchasi, shuningdek hayvon, parranda, baliq suyaklari, tosh va chig'aroqdan yasalgan taqinchoqlar topilgan. Makonning pastki qismidagi uchinchi madaniy qatlamidan  $81 \text{ m}^2$  ( $7 \times 11,6 \text{ m}$ ) joyni egallagan to'g'ri to'rtburchak shaklli kulbaning o'rni ochilgan. Bu kulba ham Yonbosh IV dagi kabi yer ustida joylashgan bo'lib, yog'och ustunlarga asoslangan chayladan iborat. Chaylaning o'rtaida o'z davrida chaylaning e'rtasidagi yog'och xarini ko'tarib turgan ikkita ustunning o'rni aylana shaklda saqlanib qolgan. Chayladan tashqarida o'choq qoldiqlari mayjud.

**Darbozaqir I** makondan topilgan topilmalarining qo'philigi chaqmoqtoshdan yasalgan qurollardir. Nisbatan sifatiroq bo'lgan oqish va sarg'itir-oqish rangli chaqmoqtoshdan yasalgan qurollar soni ko'philikni tashkil etadi. Qurollar yasash uchun xomashyo Nurota tog' tizmasining shumeliy yonbag'iridagi Chaqmoqtepadan olib keltingan. Tosh qurollarining asosiy ko'philik qismi picheqsimon plastinkadan yasalgan. Ular teri va yog'ochga ishlov berish maqadida ishlatalilgan o'lcharni kichkina tosh qurollari va kamon paykonlardan iborat. Tosh qurollari majmuasida kam sonli qirg'ichlar ham mavjud. Qirg'ichlar prizmasimon nukleuslardan yasalgan. Sirti silliqlanib, bolta sifatida ishlatalilgan tosh qurollari ham uchraydi. Nukleuslarning ikki xil prizmasimon va aylanasiga sindirib olib tururlari mayjud.

Makonning uchinchi madaniy qatlamidan topib o'rGANILGAN suyaklardan bigiz, juvoldiz va teshish maqsadida foydalanilgan. Sopol buyumlari qo'ida mato qolipda yasalgan bo'lib, naqshli va naqshsiz turlari ajratib turadi. Sopol

buyumlari soz tuproqdan, loyining tarkibiga asosan qum, kam hollarda xashak va maydalangan chig'anoq qo'shib yasalgan. Sopol idishlarining ko'pchilikning bo'yи baland, og'zi tashqariga biroz qayrilgan va tagi dumoloq yoki uchli. Og'zi tashqariga biroz qayrilgan tuxumsimon va noksimon shaklli idishlar ham mavjud. Sopollarning sirtiga solingan naqshlar o'tkir tig'li narsa bilan botirib ko'ndalang chizilgan har xil bezaklardan iborat.

*Darbozaqir II* Katta Tuzkon ko'lining shimoliy tomonida Darbozaqirning sharqiy yonbag'rida joylashgan yodgorligi neolit davriga oid bir qatlamlı makon. Bu makonda uy-joyning o'rni saqlanmagan. Topilmalar tosh qurollari va sopol parchalarini tashkil etadi. Tosh qurollari nukleus, tosh bolta, yorg'uchiq, pichoq, nayzaning uchi, paykon, o'roq-qadama va mikrolitdan iborat. Shuningdek, toshdan yasalgan munchoq va taqinchoqlar ham mavjud. Qo'lda yasalgan sopol buyumlari naqshli va naqshsiz. Sopol buyumlari Darbozaqir makoni buyumlaridan farq qilmaydi.

Katta Tuzkon ko'li atrofidan o'ttizdan ortiq, Kichik Tuzkon ko'li atorfidan uchta joydan, Echkiqiron va Qorong'isho'r neolit davri makonlaridan ibtidoiy jamoa a'zolari yashaganligidan darak beradigan xar xil tosh qurollari, sopol buyumlar, hayvon suyaklari va ularning ayrimlaridan o'choq izlari aniqlangan. Shuningdek, Poykent ko'li atrofidan ham o'nga yaqin joy makonlardan turli xil topilmalar terib olingan. ularning madaniy qatlami buzilib, saqlanib qolmagan.

*So'nggi bosqichi* (IV ming yillikning oxiri-III ming yillikning birinchi yarmi) Lavlakon namgarchiligi davrining oxiri bosqichiga to'g'ri keladi. Bu davrda iqlim quriqlashib, suv manbaining tortilib borishi oqibatida, tabiiy ozuqa zaxirasi kamayib ketadi. Natijada ibtidoiy jamoa a'zolarning yashash sharoiti qiyinlashib boradi. Bunday iqlim o'zgarishlari Kaltaminor madaniyatini jamoasi yashash hududining qisqarib ketishiga olib kelgan. Aholining ma'lum yerda yashashi mahalliy hududning tabiiy oziq-ovqat zaxirasiga bog'liq bo'lib qoladi. Kaltaminor madaniyatining oxirgi bosqichida hozirgi Qizilqum hududida

yashagan aholi oziq-ovqat izlab, yashash joylarini doimiy e'zganirib turishga majbur bo'lgan.

Kaltaminor madaniyatining so'nggi bosqichiga oid makonlar juda kamichilikni tashkil qiladi. Qizilqum hududidagi makonlarda aholi uzoq yashamagan. Ular aholi vaqtinchalik yashagan kichik makonlardan iborat. Shuningdek, bu davrda ilk bosqichga oid makonlarni qayta o'zlashtirish holatlari ham kuzatiladi. Kaltaminor madaniyatining so'nggi bosqichiga oid Daryosoy va Echkilisoylarning quyi oqimidagi Chorbakti 18 A, 26, 29, 51 makonlari yaxshi o'r ganilgan yodgorliklardir.

Kaltaminor tarixiy-madaniy majmuasining o'rta bosqichiga dafn inshootlari o'r ganilgan. Ular Tumek Kichikjiq (Sariqarnish havzası), To'istov (Oqchadaryo o'zani) va Kaskajal (janubi-g'arbiy Ustyurt) qabrlaridan iborat. Marhumlar oddiy chuqur qabrlarda oyoq-qo'lleri cho'zilgan holda chalqancha yotqizilib, ma'lum kuzatuv buyumlari bilan qo'shib ko'milgan. Marhumlarning ustidan oxra sepilgan. Kuzatuv buyumlari asosan ayol qabrlarida aniqlanib, ular hayvonlarning tishi va chig'anoqdan yasalgan taqinchoqlardan iborat. Marhumlar yevropeiod irqining "*sharqiy o'rta yer*" guruhiga mansub qadimgi aholi vakillari bo'lganlar.

Kaltaminor madaniyatining tosh qurollari chaqmoqteshdan yasalgan turli anjomillardan iborat. Unaing ilk bosqichida trapetsiyasimon va uchburchak shaklli tosh qurollaridan foydalanilgan. Rivojlangan bosqichida trapetsiya shakili tosh quroli va plastinkasimon kamon o'qining uchi paydo bo'ladi. Tosh qurollariga ikki temonlama ishlov berish usuli takomillashadi.

Kaltaminor madaniyatiga oid sopol buyumlari qo'lda yasalgan. Ular soz tuproq loyiga *shamot*, kam hollarda xashak, maydalangan chig'anoq yoki qum qo'shib yasaigan. Dastlabki ikki bosqichi sopollarining tag tuxumsimon shaklida yasalgan, keyingi bosqichida yassi tagli sopol buyumlari paydo bo'ladi. Sopollarining sirtiga to'lqinsimon, to'g'ri chiziqli va egri chiziqli naqshlar solinib, olovda pishirilgan.

Kaltaminor madaniyatining dastlabki ikki bosqichida tabiiy namgarchilik miqdori yuqori bo'lganligi sababli kichik suv havzalari, xususan, ko'llar ko'p bo'lgan. Daryo o'zanlari va ko'llar yaqinidagi to'qayzorlarda jayron, kichik bug'u, cho'chqa va qushlar yashagan. Suv havzalarida baliqlar serob bo'lgan. Ularning atrefidagi dashtlarda cho'l hayvonlari yashagan. Bunday tabiiy sharoitda o'zlashtiruvchi xo'jalikning barcha turlari rivojlangan.

Yonbosh 4 makonlardan yovvoyi cho'chqa, baliq, qirg'ovul, suv qushlarining suyagi, o'rdak va g'oz tuxumiing po'chog'i hamda jiyya danaklari topilgan. Quyi Zarafshon hududidagi yodgorliklardan esa to'qay va cho'l hududida yashaydigan cho'chqa, bug'u, jayron, qulon, ot va baliq suyaklari topilgan.

Kaltaminor madaniyati aholisi to'qay va cho'l hayvonlarini ov qilish, baliqchilik va terib termachilik bilan kun kechirgan. Baliqchilik o'zlashtiruvchi xo'jalikning ikkinchi tarmog'i hisoblangan. Cho'tan, laqqa va zog'ara baliqlarining suyaklari Oqchadaryo o'zani hududagi makonlarda ham, Zarafshonning quyi oqimidagi makonlarida ham ko'plab uchraydi. Baliqlar suyak garpun va qarmoqlarda ovalangan. Baliq ovida ehtimol mikrolit garpun ham ishlatalgan bo'lishi mumkin.

Lavlakon namgarchiligi davrida Kaltiminor madaniyati egalari yashagan huduqlarda keng yaproqli o'rmonzor va to'qayzorni tashkil etib, mevali daraxtlarga boy bo'lgan. Daraxt mevalari aholini yoz-kuz mavsumida ozuqa bilan ta'milagan. Terib termachilikda o'simliklar va daraxtlarning mevasi va dukakli o'simliklarning boshog'ini o'zlashtirganlar. Katta Tuzkon makonlaridan mikrolit toshlar yasalgan o'roq qadamlari va yorg'uchchoqlar topilgan. O'roq qadamalari neolit davri aholisining boshqoqli don ekinlarining boshog'ini o'rib olishda keng foydalanganligi arxeologik jihatdan o'z tasdig'ini topgan. Donlar yorg'uchchoqda yanchib iste'mol qilinganligi to'g'risida aniq fikr bildirish qiyin.

O'tgan asrning 90-yillarida O'zbekiston-Polsha qu'shamma ekspeditsiyasi tadqiqotlari natijasida Qizilqum hududidagi Oyoqog'itma makonidan

xonakilashtirilgan hayvon suyaklari topib o'rganilgan. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra Kaitaminor madaniyatining ikkinchi bosqichida qora mol va ehtimol qo'y va echki boqilgan. Oxirgi bosqichida tuyalar O'zbekiston hududida xonakilashtirilgan.

Kaltaminor madaniyati mil.avv. III ming yillikning ikkinchi yarmida inqirozi uchraydi. Kaltaminor madaniyati tarqalgan keng hududda yashagan aholi tili, xo'jaligi, moddiy madaniyati va diniy qarashlari yaqin bo'lgan umumiyoj jamoani tashkil etgan. Ular o'rtaida ma'lum genetik yaqinlik bo'lgan.

*Ustyurt neoliti.* Ustyurt yassi tog'ining janubi-sharqiy tekisligida hozirgi paytda qurib qo'lgan Churuk, Aydabol, Oqtayloq va Istay kabi ko'llar atrofidan neolit davriga oid 150 yaqin doimiy, muddatli va mavsumiy makonlar aniqlangan. Ularda arxeolog ye.Bijanov tadqiqot ishlarini olib borgan. Yodgorliklarning hozirgi paytda qurib qo'igan Churuk, Aydabol, Oqtayloq va Istay kabi ko'llar atrofida joylashgan.

Y.Bijanov tosh qurollarining yasalish usuliga ko'ra Ustyurt yodgorliklari taraqqiyotining uchta bosqichini ajratib ko'rsatgan. 1.So'nggi mezolit-ilk neolit (mil.avv. VI-V ming yilliklar)-Oqtayloq 1, Churuk 2, 7, Sulama va boshqalar. 2. Rivojlangan neolit (mil.avv. V-IV ming yillikning boshlari)-Sumbitemir, Daxli, Qo'shxotin, Oqtayloq 4,5 va boshqalar. 3. So'nggi neolit (mil.avv. IV- III ming yillikning boshlari)-Churuk guruhi yodgorliklari Sam 1,4, Qo'shbuloq, Kaskajal, Oqtushuq va boshqalar.

Yodgorliklarda madaniy qatlam yaxshi saqlanmagan. Topilmalar makonlarning sirtidan terib olingan tosh qurollari, sopol parchalari, chig'anoqdan yasalgan taqinchoq va kam son hayvon suyaklaridan iborat. Tosh buyumlari paraqali va mikrolit qurollarni tashkil etadi. Sopol buyumlari horizontal o'yma naqshla chizilgan. Kam sonli suyak topilmalari cho'i faunasiga xos qulon, sayg'oq, qo'y va echkilarga tegishli. Ustyurt hududida yashagan nolit davri jamoalarini e'zlashtiruvchi xo'jalik shakllar-ovchilik va terib

termachilik bilan kun kechirganlar.

Ustyurtning neolit davri madaniyati mahalliy mezolit jamoalarining davomi hisoblanadi. Ustyurt yodgorliklaridan topilgan moddiy ashyolarda Kaltaminor madaniyati, Sharqiy Kaspiybo‘yi hududi va G‘arbiy Qozog‘iston hududlari topilmalari bilan o‘xshashlik mavjud. Boshqa tomonidan ular o‘rtasida genetik yaqinlik bo‘lgan.

*Sazag‘on madaniyati* (mil. avv. VII-IV ming yilliklar.) Zarafshon tog‘ tizmasining g‘arbiy qismida, Qoratepa tog‘ining shimaliy yonbag‘irida mezo-neolit davrlarida faoliyat yuritgan madaniyat. Bu madaniyatga oid yodgorliklar arxeolog M.Jo‘raqulov, N.Xolmatov tomonidan o‘rganilgan.

Sazag‘onsoy va Egrikulchasoyning tog‘ oldi qismidan so‘nggi mezolit va neolit davrlariga oid 30 dan ortiq makonlar aniqlangan. Sazag‘on 1,2, Tepaqul 3-5, Lolab, Qorakamar, Jangal 1 va Ochilg‘or makonlari Sazag‘on madaniyatining asosiy yodgorliklari hisoblanadi. Ulardan Sazag‘on 1,2, Tepaqul 3,4,5 va Jangal 1 makonlari madaniy qatlamga ega. Boshqa yodgorliklarning yuza qismidan neolit davriga oid moddiy ashyolar terib olingan.

Sazag‘on 2 makoni hududida keyingi davrlarda ekin ekilib, uning madaniy qatlamiga ziyon yetgan. Neolit davri madaniy qatlami qisman saqlangan. Makonining quyi madaniy qatlamidan yirik tosh bo‘laktari va gulxan qoldig‘i aniqlangan. Bu joylar qadimgi yarim yerto‘la kulbaning o‘mi bo‘lishi mumkin.

Sazag‘on 2 makonidan echki va qo‘y, qisman yirik tuyqli-qora mol, ot, eshak va tuya, it kabi hayvonlarning suyaklari topib o‘rganilgan. Hayvonlardan echki, qo‘y va itlar xonakilashtirilgan.

Sazag‘on madaniyati xo‘jaligida ovchilik ahamiyati saqianib qoladi. Jayron, qisman qulon va buxoro bug‘usi asosiy ov o‘ljasini tashkil etgan. Shuningdek, makonlardan bo‘ri va tulki kabi hayvonlarning suyagi ham topilib, ular muynasi uchun ov qilingan. Tog‘oldi hududida o‘sadigan ozuqabop o‘simlik va daraxt mevalari terib yeyilgan. M.Jo‘raqulov Sazag‘on madaniyati egalari dehqonchilik xo‘jaliga asos solgan edi, deb hisoblaydi.

Sazag'on madaniyatiga oid tosh qurollari asosan mikrofitlardan iborat. Plastinkasimon tosh parchasidan yasalgan qurollar ham mavjud. Sogol buyumlari mato qolipda tagi dumaloq shaklda yasalgan, sirtiga sodda naqsh chizilgan. Jundan ip egirib, mato to'qish, teriga ishlov berish, suyakdan turli anjomlar yasash kundalik bajariladigan mashg'ulotlar sanalgan.

Qoratepa tog'ining shimoli-sharqiy etaklarida Ohatik, Zamichatosh va boshqa makonlar joylashgan. Ulardan tosh va suyakdan yasalgan qurollar hamda yovvoyi hayvon suyaklari topilgan. Mazkur makonlar chtimol sazag'onlik aholining mavsumiy makoni bo'lgan.

Neolit davrining oxirida Sazag'on madaniyati inqirozga uchraydi. Mahalliy hududning iqlimi quruqlashib, tabiiy ozuqa zaxirasining kamayib ketishi natijasida aholi yashash hududini o'zgartirishga majbur bo'lgan.

*Markaziy Farg'ona madaniyati.* Markaziy Farg'ona cho'lidan neolit davriga oid 80 dan ortiq makon aniqlangan. Ular Farg'ona vodiysining shimoli-sharqiy qismida joylashgan Madiyor, Sariqsuv, Mingbuloq guruhi makonlari, janubiy qismida Zambar, Toypoq, Sigirchilik, Yangisuv guruhi makonlari, markaziy qismida esa Yangiqadam, Darozko'l, Xonobod guruhi makonlaridan iborat. Bu makonlarda qadimgi odamlar doimiy yashamagan. Ularning hayoti mahalliy hududning tabiiy ozuqa zaxirasiga bog'liq bo'lib, bir joyda turg'un hayot kechirmagan.

Markaziy Farg'ona madaniyatiga oid makonlarning uylari ham Kaltaminor madaniyatidagi kabi yerto'la shaklida qurilgan. Ulardan topilgan tosh qurollari plastinkasimon shaklda bo'lib, mikroplastinkalarning salmog'i yuqori. Kam sonli geometrik shaklli (trapetsiya va segment) mikrolit qurollarning nusxasi ham uchraydi. Ulardan o'roq qadamasi, kamon o'qining uchi sisatida foydalanilgan. Kam sonli tosh quroli uchrindidan yasalgan. Ular asosan kesish, qirish va teshish maqsadida ishlafilgan qurollardir. Tosh qurollari chaqmoqtosh, slanets va qayroqtoshdan yasalgan. Topilmalar orasida toshdan yasalgan yorg'ucheq va taqinchoqlar ham mavjud.

Markaziy Farg'ona hududida yashagan aholi o'zlashtiruvchi xo'jalik asosida hayot kechirgan. Aholining qadimgi ko'llar atrofida yashab baliqchilik va termachilik xo'jaligini yuritish juda qulay bo'lган. Mahalliy hududning o'simlik va hayvonat dunyosiga boy tabiiy sharoiti aholining ishlab chiqaruvchi xo'jalik shakliga o'tishi uchun ehtiyoj bo'lмаган.

*Hisor madaniyati*(mil.avv. V ming yillikning oxiri – III/II ming yillik) Tojikiston respublikasining janubiy tog'li hududida tarqalgan neolit davri madaniyati. Tojikistonning g'arbiy tog' oldi hududidagi Hisor madaniyatiga oid 100 dan ortiq neolit davri makonlari aniqlagan. Ular doimiy, qisqa muddatli va mavsumiy makoniardan iborat. Hisor madaniyati aholisining doimiy yashaydigan makonlari Kofirnahar va Vaxsh vohasi hamda ularning irmoqlari atrofida joylashgan. Tog' oldi hududida qisqa muddatli va mavsumiy makonlar aniqlanib, ular aholining ov mavsumida vaqtincha yashagan kulbasi hisoblanadi.

Hisor madaniyati Norak shahri yaqinida Tutqovul, Dang'ara atrofidagi Quyi Bulyon va shimoli-g'arbiy Tojikiston hududidagi Oqtangi makonlarida yaxshi o'rGANilgan.

Hisor madaniyatiga oid mehnat qurollari asosan qayroqtosh va qisman chaqmoqteshdan yasalgan. Ulari chopper, yirik uchrindi va qo'pol ishlanmali plastinkasimon anjomlardan iborat. So'nggi bosqichda tosh qurolining turi ko'payib, ularga ishllov berish usuli yanada takomillashadi. Hisor madaniyatiga oid makonlardan ikki tomoni urib ishlangan kamon o'qining uchi, silliqlangan bolta, kelisop, havvonchalar topilgan.

Sopol buyumlari mato qolipda, tagi tuxumsimon shaklda yasalgan, sirti silliqlangan. Ayrim sopollarning ichki tomonida mato izlari saqlanib qoigan. Matolar junistan to'qilgan.

Hisor madaniyatining xo'jaligi dastlab ovchilik va termachilik bo'lgan. Neolit davringiz oxirida xo'jalikning ishlab chiqaruvchi shakli-chorvachilik va dehqonchilikka o'tgan.

Hisor madaniyatining so'nggi bosqichiga oid Tutqovul makonidan xonaki

hayvonlarining suyagi topib o'rganilgan. Quyi Bulyon, Kangurttut makonlarida esa o'troq dehqonchilik xo'jaligini yuritgan aholining yer ustida barpo etilgan uylari va moddiy ashyo'lар aniqlangan. Bu yerlar Sopolli madaniyatiga oid o'troq dehqon jamoasining hududining kengayib borishi natijasida o'zlashtirilgan.

Demak, neolit davrida Tojikistonning janubi-g'arbiy qismi va Janubiy O'zbekistonning tog' va tog' oldi hududida tarqalgan Hisor madaniyati sohiblari dastlab ovchilik va termachilik orqali hayot kechirib, so'nggi bosqichida ishlab chiqaruvchi xo'jalikka o'tgan. Bu bosqichda tosh qurolining turli ko'payib, ularning yasalish usuli takomillashgan. Hisorliklar kulolchilik, to'qimachilik va toshga ishlov berish kabi sodda hunarmadchilik turlarini yuritgan.

Neolit davrida O'rta Osiyoning turli tabiiy-geografik sharoitga ega bo'lgan mahalliy hududida turli madaniyatlar faoliyat yuritgan. Ular xo'jalik shakllari va moddiy madaniyat xususiyatiga ko'ra umumiy hamda o'ziga xos jihatni bilan ajralib turgan.

#### *Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:*

1. O'rta Osiyoda neolit davrida qanday xo'jalik shakllari qaror topgan?
2. Joytun madaniyati shakllanish omillarini izohlab bering?
3. O'rta Osiyoning ishlab chiqaruvchi xo'jaligi to'risida ma'lumot bering?
4. Neolit davri iqlimining jamiyatga ta'sirini bayon qiling?
5. O'zlashtiruvchi xo'jalik xususiyatlarini yoritib bering?
6. Neolit davri moddiy madaniyatini tavsiflang?

## Ikkinchchi bo‘lim

### **PALEOMETAL DAVRI**

#### **I. Bob. Eneolit davri**


*Tayanch so‘zlari: nom, en, xalkolit, metallurgiya, ilk sivilizatsiya, monoxrom, polixrom, sag‘ana, yorg‘uchqoq, kelitosh. Geoksur.*

**Eneolit davri umumiy tavsifi.** *Eneolit* - (“eneus” - mis, “litos”-tosh) – *mistosh davri* mil. avv. VI ming yillik yillikning boshlari - III ming yillikning boshi bilan sanalanadi. Bu davrga nisbatan *xalkolit* (xalko-mis) atamasi ham qo‘llaniladi.

**O‘rta Osiyoning eneolit davri arxeologiyasi.** O‘rta Osiyoning eneolit davri ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti notekis kechgan. Bu davrda mintaqaning ilk sivilizatsiya markazlariga yaqin bo‘lgan chekka janubiy-g‘arbiy qismida va Zarafshonning yuqori oqimi hududida sug‘orma dehqonchilik madaniyati zaminida ilk sivilizatsning dastlabki kurtaklari namoyon bo‘igan bo‘lsa, boshqa joylarida neolit davriga xos ixtisoslashgan o‘zlashtiruvchi xo‘jalik shakllari saqlanib qolgan edi.

Janubiy Turkmanistonda Kopetdag bilan Qoraqum cho‘li oraliqda tog‘dan oqib tushadigan bir necha kichik muvaqqat daryolar va seifgalar: Dushak, Loinsuv, Archinyansuv, Miansoy va Chaachasoy joylashgan. Ulardan sharqda Tajang daryosining quyi oqimi hududida Geosur vohasi mavjud. Hozirgi paytda qurg‘oqchil hududga aylangan bu joylarda o‘z davrida yog‘ingarchilik miqdori ancha yuqori, daryo o‘zanlar sersuv bo‘lib, fauna va flora sihami ancha boy, o‘troq dehqonchilik xo‘jaligini yuritish uchun qulay bo‘lgan. Bunday qulay sharoit bu yerlarda eneolit davri o‘troq dehqon jamoalari madaniy-xo‘jalik taraqqiyotini ta‘minlay oladigan tabiiy sharoit hisoblangan. Bu esa c‘lkada o‘troq dehqonchilik madaniyatining yanada rivojlanib, aholining va ular yashaydigan manzillarning ko‘payishi, hududiy jihatdan kengayib, tuzilishi murakkablashib borishiga olib keladi. Janubiy Turkmaniston hududida eneolit davriga oid 36 dan ortiq yodgorliklar saqlanib qolgan. Yodgorliklarning egallab

turgan maydoniga ko'ra kichik, o'rtacha va yirik o'lchamli turlari ajralib



mavjud.

Ulardan Anovtepa, Chaqmoqlitepa, Ovadantepa, Gavachtepa, Monjuqlitepa, Qoratepa, Nomozgohtepa, Yassitepa, Oltintepa, Yilginlitepa, Ya'lang'ochtepa, Mullalitepa, Dashlitepa; Geoksur 1 va Xapuztepalar eneolit

Janubiy Turkmanistonning yodgorliklari xaritasi

davrinining muhim yodgorliklariidir. R.Pampelli va G.Shmitlar Anov yodgorligi madaniy qatlamiini quyidagi xronologik ketma-ketligini belgilaganlar: 1. Anov I – ilk eneolit, 2. Anov II – rivojlangan eneolit, 3. Anov III – bronna 4. Anov IV – ilk temir davrlari. Keyinchalik Nomozgohtepa yodgorligida arxeologik qazishma ishlari etib borgan B.A. Kustin yodgorlikning oltita majmuasini (Nomozgoh I-VI) ishlab chiqadi. Shulardan Nomozgoh (*davomida NMZ*) I-III bosqichlarini eneolit davrlari bilan belgilagan. V.M.Masson esa Anov majmuasining ikki (Anov IA va, IB) bosqichda rivojlanganligini qayd etib, ularidan birinchisi ilk eneolitning birinchi yarmida, keyingisi esa ikkinchi yarmida NMZ I bosqichi bilan bir davrda faoliyat yuritganligi to'g'risidagi ma'lumot bilan to'ldiradi.

Janubiy Turkmanistonning eneolit davri arxeologiyasi xronologik jihatdan uch bosqichga ajratilib, quyidagicha davrlashdiriladi:

No	Eneolit davri bosqichlari	Arxeologik majmualar	Davriy sanasi (ming yillik hisobida)
1	Ilk	Anov I A	Mil.avv. 4900-4400
		Anov IB,NomozgohI	Mil.avv. 4300-3900
2	Rivojlangan	Anov II, Nomozgoh II	Mil.avv. 3800-3400
3	So'nggi	Nomozgoh III	Mil.avv. 3300-2900

*Ilkeneolit.* Ilk eneolit davrinining dastlabki bosqichiga oid yodgorliklar Turkmanistonning janubi-g'arbiy qismida kichik daryo vohalarining yuqori oqimida tarqaladi. Dastlabki bosqichiga oid Anov IA majmuasi mahalliy Joytun madaniyati an'anasisiga o'xshamaydi. Bu majmua moddiy topilmalari, xususan, sopol buyumlari Erонning shimolida joylashgan ilk eneolit davri Chashmai Aliva Sialka yodgorligidan topilgan spool buyumlar bilan o'xshashlikka ega. Tadqiqotchilar Anov IA majmuasiga asos solgan aholi Shirnoliy Erondan keiganligini taxmin qiladilar. Ilk eneolit davrinining keyingi bosqichiga oid Anov IB (NMZ I) majmuasi esa mahalliy Joytun madaniyatining davomi hisoblanadi.

Janubiy Turkmanistonda ilk eneolitning Anov I A bosqichiga oid taxminan 11 ta manzilgoh qayd qilingan. Anov I A ning boshida aholi uy-joylari neolit davri Joytun imoratlari qurilish an'anasining davomida ayrim qo'shimchalar bilan boyitilgan tartibsiz joylashgan imoratlardan iborat bo'lgan. Bu bosqichga oid uy-joy imroatlaring o'rni Monjuqlitepa yodgorligida yaxshi o'r ganilgan. Manzilgohning o'tasidan kesib o'lgan markaziy ko'cha bo'y lab joylashgan alohida hovlilardan tashkil topgan. Uylar 50-40x20x10-8 sm. o'lchamli g'ishtlardan barpo etilgan. Uylarning devorlari va sathi loysuvoq qilingan, ularning ayrimlarini qora, qizil rangli bo'yoqlarda bo'yalgan. Yashash uchun mo'ljallangan uylarning bir tomonida xo'jalik o'chog'i joylashgan.

Anov 1A ning keyingi ikkinchi bosqichida ko'p xonali uy-joy imoratlari barpo etila boshlaydi. Imoratlар odatda uy-joy va xo'jalik maqsadlarida foydalaniłgan xonalardan tashkil topgan. Ayrim yashash xonalari ichki devorlaring sirtiga qora va qizil bo'yoqlarda solingan geometrik naqshlarning izlari saqlanib qolgan.

Ilk eneolitning boshida misdan keng foydalana boshlanadi. Mis dan yasalgan sanchqi va bigiz kabi buyumlar ko'proq uchraydi. Topilmalar orasida ikki tomonlama tig'ga ega bo'lgan pichoq nusxasi ham mavjud. Keyingi bosqichida esa misdan yasalgan buyumlar soni ko'payadi. Mis dan yasalgan nayzaning uchi topilmaning muhim namunalaridan biridir.

Bu davrda tosh qurollari ahamiyatini to'liq saqlab qolgan. Tosh qurollari majmuasida chaqmoqtoshdan qadama sifatida ishlatalgan geometrik shaklli mikrolitdan yasałgan buyumlar ko'pchilikni tashkil etadi. Shuningdek, toshdan boshoq o'simliklarning donini tuyish, ezish va yanchish uchun yorg'uchiq, keli tosh, yerlarni yumshatish vazifalarini bajargan motiganing uchi va boshqa qurollarni yasashda foydalaniłgan.

Sopol buyumlari hududiy jibatdan g'arbiy va sharqiy guruhlarga bo'linadi. G'arbiy hudud soppollari qizil taglikning sirtiga qoramti्र jigar yoki

qora rangdagi bo‘yoqlarda naqshlar berilgan. Sharqiy guruhdagи sopolarning sirtiga yorqin rangdagi tagliklarning ustiga shunday rangdagi naqshlar solingan. Yirik hajmli sopol buyumlarning loyiga maydalangan somon, kichiklarinikiga esa qum aralashtirilgan.

Qadimgi o‘troq dehqon jamoasi eneolit davrining ilk bosqichidayoq mis bilan tanish bo‘lgan. Misdan yasalgan sanchqi, kam sonli bigiz va ikki tomonlama tig‘ga ega bo‘lgan pichoqlar topilgan. Tosh qurollari ahamiyatini saqlab qolgan. Chaqmoqtoshdan yasalgan mikrolitlarning soni ko‘pchilikni tashkil etadi. Mikroitlar o‘roq qadamasi va kamoning o‘qi sifatida ishlataligan. Toshdan yorg‘uchiq, keli tosh, motiganing uchi va boshqa anjomlar yasalgan.

Anov IB yoki NMZ 1 bosqichida aholi soni ko‘payib, qishloqlarning maydoni kengayib boradi. Bu davrda aholi kichik daryo vohalarining quyi oqimidagi yerlar o‘zlashtirilgan. Ilk eneolit davrining oxirida aholi Geoksur vohasi yerlariga ko‘chib o‘tib, yangi qishloqlarga asos solgan. Ilk bosqichning oxirlarida o‘rtacha manzilgohlar shakllanadi. Yangi aholi manzilari qaror topadi. Mazkur bududda NMZ 1 bosqichiga oid taxminan 30 ga yaqin arxeologik yodgorliklar qayd qilingan. Qurilish sohasida ma’lum yutuqlarga erishindi. Ko‘p xonali uylar qurish emmalasha boshlaydi. Ular kichik oilaga tegishli bir xonali uylardan tortib, katta patriarxal oilalar yashaydigan ko‘p xonali uy-joy majmualarini tashkil etgan.

Ilk eneolit davrida marhumlar neolit davridagi kabi yashash uylarining ichkarisida joylashgan qabrлarda dafn qilingan. Marhumlar oyoq-ko‘llari bukiлgan holda yon tomonga qaratib, ma’lum kundalik ehtiyoj buyumlari bilan birga dafn etilgan. Buyumlari tosh qurollari, sopol idishlar va boshqa kundalik ehtiyoj anjomlaridan iborat.

Ilk eneolit davri aholisi neolit davridagi kabi liman usuli dehqonchilik xo‘jaligini yuritgan. Ehtimol ilk eneolit davrining oxiridan Geoksur vohasiga ko‘chib o‘tgan aholi sug‘orma dehqonchilikka o‘tgan bo‘lishlari mumkin. Dehqonchilikda arpa va bug‘doy ekilgan. Chorvachilik xo‘jaligi rivojlanib,

ahamiyatli oshib borgan. Qo'y, echki va qora mol boqilgan. Ovchilik ahamiyatini yo'qotmagan.

NMZ I bosqichida mis buyumlarining soni va turi ko'payadi. Bu bosqichiga oid misdan yasalgan nayzaning uchi mubim topilma hisoblanadi. Sopol buyumlarining loyiga somon aralashirilib, devori qalin qilib yasalgan. Ularning sirtiga qizg'ish yoki ko'kimtir-oqish taglik ustiga qoramfir jigar rangli geometrik naqshlar chizilgan. Sopol idishlari tuvaksimon chuqur tovoq, kattakichik kosalardan iborat.

To'qimachilik ham hunarmandchilikning alohida turi sisatida rivojlangan. Ilk encolit davri madaniy qatlamlaridan loydan ishlangan ko'plab urchuqbosh musxalari topilgan. To'qimachilikda asosan jun egirish va ulardan matoiar to'qishdan iborat bo'lgan. Teriga ishlov berish hunari bo'yicha yetarli ma'lumotlar uchramaydi.

Eneolit davri aholisining amaliy san'atida haykaltaroshlik muhim o'rinnegallagan. Antropomorf va zoomorf shaklli haykachalar o'zida qadimgi dehqon jamoasining real hayoti va g'oyaviy qarashlarini aks ettiradi. Nufuzli ayolning tik turgan holati tasvirlangan haykalchalar soni ko'payadi. Hosildorlik va ona ma'budasi siymosi tasvirlangan haykalchalarning ahamiyati oshadi. Ularning bo'ynidagi rangli munchoqlari va tanasidagi ramziy belgilari go'yo tabiat bilan hamnafasdek ko'rindi. Hayvonlar tasvirlangan haykalchalar ham ko'p uchraydi.

Ilk encolit davrida o'troq dehqon jamoasi hududi kengayib, jamiyat taraqqiyoti murakkablashib boradi. Xo'jalik va moddiy madaniyat sohalarida yangi yutuqlarga erishiladi.


**Rivojlangan eneolit.** Namozgoh II (Anov II) bosqichida manzilgohlar keng hududga tarqaia boshiydi. Bu davrda Kopetdag oldi hududlarida yashovchi aholi sharqqa tomon kengayib, Geoksur vohasini to'liq o'zlashtiradilar. Bu davrida o'troq dehqonchilik hududining kengayib borishi bilan yangi qishloqlarning soni ko'paygan. Hozirgi paytda mazkur davrga oid yoki madaniy

qatlamiga ega bo'lgan o'ttizga yaqin yodgorliklar aniqlangan.

Dehqonchilik qishloqlari ilgaridan rejalashtirilgan soyha asosida qurilgan imoratlardan iborat. Ayrim aholi manzillarining atrofi yupqa devor bilan o'tab elingan. Mo'llalitepa va Yalang'ochtepa manzilgohlarining atrofi minorasifat aylana xonalarga ega bo'lgan devoriga ega.

Ko'cha bo'yida joylashgan to'rburchak va aylana shakldagi alohida hovlilar xom g'ishdan (47-48x23-25x10-12, 40-42x23-25x10 sm.) qurilgan bir va ko'p xonali (12-15 xonadan) uylardan tashkil topgan. Hovlilar yashash va xo'jalik uchun mo'ljallangan xonalardan iborat. Uylarning xonalarida kvadrat va xalqa shaklida o'choqlar bo'lgan. Uylarning devorlari va sathi loysuvq qilinib, ayrimlari qora va qizil ranglar naqshlar chizilgan. Yassitcpa uylari devorlari geometrik naqshlar bilan bezatilgan. Uylarning yonida don saqlanadigan alohida xonalar va molxonalar joylashgan.

Yassitcpa va Dashlijitepada boshqa manzilgohlariga nisbatan maydoni katta bo'lgan qurilish imoratlari joylashgan. Ularda aholi yashash joylarida uchraydigan moddiy ashyolar uchramaydi. Ularning ichidagi o'choqda doimiy olov yonib turgan. Qadimgi Shumerning eneolit davri Ubeyd madaniyati oid yodgorliklarda olov kultiga asoslangan ibodatxonalar faoliyat yuritganligi ma'lum. Bu inshootlar eneolit davri o'troq dehqon aholisining dastlabki umumjamoa ibodatxonasi vazifasini bajarganligi ehtimoldan hol emas.



Shahriga va Tolyg'ochta manzilgohlar (ta'qibga osish)

Rivojlangan eneolit davrida ham marhumlarni uylarning ichida chiqur qazib, dafn etish an'anasi davom etadi. Marhuunlar gujanak holatda, boshi janub va janubiy-g'arb tomonga qaratib, ma'lum kuzatuv buyumlari bilan ko'milgan. Ushbu eneolit davriga nisbatan kuzatuv buyumlarining soni ko'payib, qimmatbaho buyumlar bilan boyigan. Qoratepa manzilgohida o'rGANILGAN qabrdan lazurit, serdolik toshlaridan yasalgan munchoq, oltindan yasalgan bir dona munchoq topilgan.

Ma'lumki, eneolit davriga kelib Yevrosiyo hududida iqlim quruqlashib boradi. Osiyoning dehqonchilik erta qaror topgan subtropik iqlimga ega bo'lgan allyuvial hududlarida bahor faslida boshoqli don ekinlarining o'sib yetilishini ta'minlaydigan tabiiy namlik darajasi pastligi sababli ularni sun'iy usullarda sug'orish zarurati tug'iladi. Janubiy Turkmanistondagi Geoksur vohasidan ekin dalalarini suv bilan ta'minlaydigan dastlabki ariqlarning o'rni aniqlangan. Geoksurlik dehqonlar ashyoviy ma'lumotlarning guvohlik berishiga ko'ra yumshoq bug'doy, ikki va olti qatorli arpa ekishgan. Sug'orma dehqonchilik paydo bo'lganidan so'ng boshoqtii don o'simliklari hosildorligi o'sib boradi.

Ishlab chiqaruvchi xo'jalikning ikkinchi tarmog'i-chorvachilikning ahamiyati yanada ortadi. Chorva mollaridan qo'y, echki, qora mol va cho'chqa boqilgan. Oltintepa va Geoksur vohasidagi manzilgohlaridan topilgan xonaki hayvon suyaklari orasida qo'yga tegishli namunalari ko'pchilikni tashkii etadi. Suyak topilmalari eneolit davrinining rivojlangan eneolit davrida chorvachilik xo'jaligi ahamiyatining oshganligidan dalolat beradi.


Rivojlangan eneolit davrda metalga ishlov berish texnologiyasi takomillashgan. Dastlab misni olovda toblab ishlov berilgan bo'lsa, ikkinchi bosqichda yopiq holda eritib, quyish usulidan soydalinish boshlanadi. Misdan yasalgan ish anjomlarning turi ko'payib, arra, bolta va boshqa murakkab qurollar paydo bo'lgan.

Bu davrda zargarlik san'atining ahamiyati o'sadi. Qimmatbaho, rangli (oltin, kumush) metallar va turli toshlardan yasalgan zeb-ziynat buyumlarining

ko'pgina nusxasi topilgan. Ushbu topilmalar zargarlik san'ati taraqqiyotidan dalolat berib, hunarmadchilikning alohida turiga aylanganligini ko'rsatadi.

Tosh qurelining ahamiyatini ilgargiga nisbatan pasayib ketadi. Toshdan kamon o'qi, o'toq qadamasi, yorg'uchoq, keli, hovoncha va boshqa qurollar yasalgan. Marmarsimon ohaktoshdan turli xil idishlar va haykalchalar yasalgan.

Sopol buyumlarining yasalish usuli mukamallahib, ularning turi ko'payadi. Sopollarning sirtiga chizilgan naqshlar mazmunan boyib boradi. Monoxrom va polixrom naqshlar yorqin va qizil taglik ustidan chizilgan qora, jigar rang yoki ularning biri ishlatalgan bezaklardan iborat. Sopol buyumlari yarimsferik va konussimon shakldagi kosa va xurmachalarni tashkil etadi.



Rivejlanga necropolis pottery


Eneolit davri madaniy taraqqiyotida tasviriy san'atining ahamiyatini yanada oshadi. Haykal taroshlik va rang-tasvir san'atini g'oyaviy va estetik qarashlarining aks etishi sifatida kishilar ijtimoiy hayotining ajralmas qismiga aylanadi. Haykalchalar ilk eneolit davri usulida antropomorf va qisman zoomorf shakllarda yasalgan. Antropomorf haykalchalarning o'tirgan va tik turgan holatlari ajralib turadi. Ayo'llar tasvirlangan haykalchalarning sirtiga aylana belgilari chizilgan bo'lib, ular bevosita samoviy tushunchalar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bu davrda erkak aks ettirilgan haykalchalar ham paydo

bo'ladi. Erkak haykalchasi kiyim boshi bilan tasvirlangan. Haykaltaroshlikda dubulg'a kiygan shaxs tasvirlangan haykalcha muhim ahamiyatga ega bo'lib, qabilalar o'rtasidagi ziddiyatdar darak beradi.

Bu davrda rang-tasvir san'atiga e'tibor kuchaygan. Amaliy san'atining ushbu tur'i uy devorlarining sirtiga chizilgan naqshlarda o'z aksini topgan. Yassitepa ibodatxonasi devori sodda naqshiar bilan bezatilgan. Ular qora va qizil bo'yonda chizilgan kvadrat va uchburchak shakli naqshlardir.

Rivojlangan eneolit davrida dehqon jamoasi yashagan hududlar doirasi kengayib, manzilgohlar soni ko'payadi va qurilish-me'moriy usuli murakkablashib boradi. Dehqonchilik sohasida erishilgan muhim yutuq jamiyaning barcha sohalarida ijobji o'zgarishga olib kelgan.

*So'nggi eneolit.* So'nggi eneolit (NMZ III) davrga oid o'ttizdan ortiq manzilgohlar faoliyat yuritgan. Bu davrda katta-kichik qishloqlardan tashqari maydoni ancha yirik dehqonchilik markazlari paydo bo'ladi. Nomozgochtepa, Oltintepa, Qoratepa, Yilginlitepa va Geoksur 1 manzilgohlar kengayib, maydoni 12-20 ga. ga yetadi. Manzilgohlarning me'moriy-qurilish tuzilmasi murakkablashadi, Qadimgi Sharqning ilk dehqonchilik markazlariga xos qurilish inshootlari quriladi. Bunday alomatlar arxeologik jihatdan boshqa yodgorliklarga nisbatan yaxshi o'r ganilgan. Oltintepa manzilgohida to'liq namoyon bo'ladi. Manzilgohda aholi uy-joy imoratlari, diniy-g'oyaviy va ishlab chiqarish inshootlaridan iborat alohida mahallalardan tashkil topgan. Uy-joylar jamoa a'zolarining jamiyatda tutgan o'rni va mavqeyiga qarab, bir va ko'p xonali (20 gacha) imoratlardan iborat. Bu davrda



Qadimgi Shumerda markaziy manzilgohga bo'ysungan kichik dehqonchilik qishloqlaridan iborat ma'muriy-hududiy tuzilma shakllangan. Atrofi mustahkam mudofaa devori bilan o'rab olingen markaziy manzilgoh ibodatxona, aholining turli tabaqasiga tegishli uy-joylar va hunarmandchilik ishlab chiqarish mahallasidan iborat shahar markazini tashkil qilgan. Oltintepa manzilgohlarda ham Qadimgi Shumerning ilk shahar markazlarida bo'lgani alomatlar namoyon bo'ladi.

Bu davrda umumjamoia ibodatxonasi bilan birga katta patriarchal oilaning sig'inish xonasi-*sajdagohi* mavjud bo'lgan. Geoksur I manzilgohda ko'p xonali uyda katta patriarchal oila tegishli kichik ibodatxona joylashgan. So'nggi eneolit davrida ko'p xonali uylarining tarkibida sig'inish xonasining bo'lishi an'anaga aylanadi.

Eneolit davrining so'nggi bosqichida dafn inshootining bir necha turi paydo bo'ladi. Marhumlar oddiy qabrlardan tashqari, sag'analar va jamoaviy qabrlarga dafn qilingan. Qoratepa va Geoksur I manzilgohlarida aniqlangan qadimgi sag'analar kvadrat va cho'ziq shaklida bo'lib, ichki tomoni xom g'isht bilan terib chiqilgan. Sag'analarning tepasi xom g'isht bilan gumbaz shaklida yopilgan. Bunday sag'analarda o'troq dehqon jamoasining nufuzli a'zolari dafn etilgan.

Qabrlardan marhumlar bilan qo'shib ko'milgan sopol buyumlar, tosh qurollar, mis buyumiar, toshdan yasalgan munchoq va haykalchalar topilgan. Sag'analardan topilgan buyumlar soni, miqdori va sifati jihidan oddiy qabrlardagidan farq qiladi. Jamoaviy qabrlarga kam sonli sopollar, savatlar va zeb-ziynat buyumlar qo'yilgan. Qabrlardan topilgan buyumlarning o'zar o'rniga farqlanishi marhumlarining hayotiylik davridagi muksiy va ijtimoiy tengsizligidan darak beradi.

So'nggi encolit davrida sug'orma dehqonchilik xo'jaligi rivojlanib, sun'iy sug'orish tizimi takomillashadi. Geoksur vohasida kichik suv omborning o'rnini aniqlangan. Chuqurligi 3 m. dan iborat omborda taxminan 1100 m<sup>3</sup> hajmiga ega suv zaxirasi saqlangan.

Dehqonchilikda sug'orish tizimidan foydalaniш boshlangandan so'ng suvg'a to'yingan boshoqli don ekinlari mutatsiyaga uchrab, hosildor navfari paydo bo'ladi. Natijada hosildorlikning o'sishiga olib kelgan


Geoksur vohasi manzilgohlaridan yumshoq bug'doy, ikki va olti qatorli arpa qoldig'i topilgan. yetarli suv zaxirasiga ega bo'lgan dehqonlar yiliga ikki marta ekin ekib, hosil olish mumkin edi. Birinchi hosil yig'ib olingandan keyin ikkinchi marta ekin ekib, qo'shimcha hosil olish imkoniyati paydo bo'ladi. Natijada oziq-ovqat mahsulotlar yetishtirish hajmi bir necha barobar ko'payadi.

Metallurgiya sohasida crishilgan yutaq, ya'ni metalni yopiq usulda eritish texnologiyasi vujudga kelgandan keyin shakli murakkab ish qurollari paydo bo'ladi. Metalni eritish texnologisi vujudga kelgandan keyin hunarmandchilikning ixtisoslashishi va alchida sohalarga ajralishi boshlangan.

Metalldan yasalgan turli buyumlar, xususan, ornoch so'qasi, bolta, tesha va boshqa buyumlarning kam sotli namunasi saqlangan. Metall zaxirasingning noyobligi sababli yaroqsiz holga keiib qolgan barcha buyumlar xomashyo sifatida qayta ishlangan. Ularning kichik o'lchamli namunasi saqlanib qolgan. Misdan yasalgan oyna, iskana, to'g'nag'ich va bilakuzik kabi buyumlar topilgan.

Qimmatbaho va rangli metallardan har xil zargarlik buyumlari yasalgan. Oltin, kumush va misdan yasalgan zeb-ziynat buyumlar topilgan. Feruza, serdolik va lazuritdan yasalgan ko'pgina zeb-ziynat buyumlari uchraydi. Zargarlik alohida hunarmandchilik turi sifatida shakllanib, *usta-zargarlar* ajralib chiqqan. Qadimgi dehqon jamoasi a'zolari o'rtasida mulkiy tabaqalanish jarayoni boshlanadi. Jamiyat malakali hunarmand zargarlardan aholining davlatmand va nufuzli qatlami vakillarining ehtiyojini qondiradigan zeb-ziynat buyumlarni yasash talab etar edi.

Tosh qurollarining inqirozi davom etsada, ularga bo'lgan ehtiyej saqlab qoladi. Chaqmoqtoshlardan kamon o'qlari, o'roq qadamalari, ohaktoshdan yorg'uchiq, keli, havvonchalar yasalgan. Toshdan yasalgan muhriar paydo bo'ladi. Muhr jamiyat a'zolari o'rtasida mulkdorlar tabaqasining shakllanganini ko'rsatadi.



Songgi eneslit davri xumdoni (Geoksur vohasi).



Se'aggi eneolit davri soplari

Mazkur davrga oid madaniy qatlamda loydan yasalgan arava nusxalari uchraydi. Oltintepa manzilgohidan bir o'qli aravaning loydan nusxasi topigan. Arava o'troq dehqon jamoasining dastlabki transport vositasi bo'lib, undan rivojlangan eneolit davridayoq qadimgi shumerlik aholi foydalanishni boshlagan edi. Arava dastlab ho'kizlarga qo'shilib, allyuvial tekisliklarda qisqa masofadagi yuklarni tashishda foydalanilgan.


Yuqori darajali haroratni ta'minlaydigan xumdonlar paydo bo'lada. Dastlabki xumdonlar ikki tabaqali bo'lgan. Xumdonda pishirilgan sopol buyumlari oldingi davrdagiga nisbatan mustahkam va pishiq bo'lgan. Sopollarining sirtiga chizilgan naqshlarining mazmuni murakkablashadi. Naqshlar ko'p tabaqai xoch shaklidan iborat bo'lgan. Hayvonlar, xususan, echki va mushukning ham tasviri uchraydi. Sopol buyumlari katta-kichik kosalardan iborat. Marmarsimon ohaktoshdan ham kosalar yasalgan.

Haykalchalar tasviriy san'atning yetakchi turi hisoblangan. Oldingi davrdagi kabi erkak va ayolning tasviri aks etgan haykalchalarini yasash an'anasi davom etadi. Ayol haykalchalarining tana qismiga turli bezaklar yopishtirilgan, erkakning soqol-mo'ylovi va bosh kiyimi jonli ifodalangan. San'atining rang-tasvir turi uylarning devori sirtiga chizilgan bezaklada o'z ifodasini topgan. Bu davrda ilgargi sodda qilib chizilgan devoriy rang-tasvirlarning mazmuni boyigan va murakkablashgan. Devoriy naqshlar aniq geometrik shakllar, hayvon va qushlarning tasviridan iborat bo'lgan. Hayvonlar echki, olachipor mushuksimon hayvon, eftimol gepart, uzun qanotli burgut va kichik qushlardan iborat. Devor sirtiga chizilgan odamlar va hayvonlarning tasviri ramziy belgilari bilan uyg'unlashib ketgan. Hayvonlar tasviri eneolit davrining dastlabki ikki bosqichida totemizm bilan bog'liq bo'lsa, so'nggi bosqichida esa ujar hayotiy mazmun kasb eta boshlaydi.

So'nggi eneolit davrida qadimgi o'troq dehqon aholisi jamiyat taraqqiyotining barcha sohasida ajdodlaridan ilgarilab ketadi. Metallning insoniyat ijtimoiy hayotiga chuqur kirib borishi va sug'orma dehqonchilik xo'jaligi ahamiyatining o'sishi, so'nggi eneolit davri jamiyat tarraqqiyotining muhim omili bo'lgan. Bu esa mahalliy hududning ilk sivilizatsiya markazlariga xos taraqqiyot yo'lida rivojlanayotganidan dalolat berar edi.

### *Sarazm madaniyat.*

Sarazm Zarafshon daryosining yugori oqimida eneolit va bronza davrlarida faoliyat yuritgan madaniyat. Sarazm Samarqand shahridan 30 km. sharqda Panjikent shahri



1. Raykechilar 2. Tubulz' xiyagan kishi 3. Buqa (raamay) 4. Sepot ko'xa

yaqinida joylashgan o'nta kichik tepaliklardan iborat manzilgoh. Manzilgohning quyidagi eneolit (Sarazm I, II) va bronza (Sarazm III, IV) davrlariga oid quyidagi to'rta bosqichi ajralib turadi:

*Sarazm I* - mil. avv. 3500 – 3300 yillar.

*Sarazm II* - mil. avv. 3200 – 2900 yillar.

*Sarazm III* mil. avv. 2900 – 2700 yillar.


*Sarazm IV* mil. avv. 2700 – 2000 yillar.

Qadimgi dehqonlarning zimmasida dehqonchilik xo'jaligini yuritishdan tashqari kundalik hayot ehtiyoji uchun zarur bo'lgan metall zaxirasini izlab topish vazifasi turgan. Turkiston tog' tizmasidagi metall konlari geoksurlik dehqonlarning Zarafshonning yuqori oqimiga ko'chib kelib joylashishiga sabab bo'lgan.

Sarazm manzilgohining quiyi qismidagi madaniy qatlardan guvala va paxsadan barpo qilingan ikki va uch xonali uy-joylarning o'rni aniqlangan. Atrofi yupqa devor bilan o'tab olingen alohida hovlilarda yashash xonasi, oshxona va xo'jalik xonalarzi o'rin olgan. Yashash xonalarining ichkarisida o'choqlar mavjud. Shunga o'xhash o'choqlar Geoksur vohasidagi Anov II bosqichiga oid yodgorliklarda ham uchraydi.

Sarazm mazilgohining quiyi qatlama uy-joy imoratlari bilan birgalikda toshdan aylantirib terilgan (diametri 10 m.) o'ziga xos dafn inshooti aniqlangan. Undagi mayit gujanak holda yotqizib ko'milgan. Bunday dafn inshooti O'rta Osiyoning o'troq dehqonchilik madaniyatlarida kuzatilmaydi, bu odad nisbatan keyingi davrga oid Afanasev madaniyati aholisi orasida tarqalgan.

Qabr atrofiga aylantirib tosh terish odati quyoshni aks ettirgan. Olov qadimgi xalqlar e'tiqodida quyoshning farzandi yoki uning yerdagi timsoli hisoblangan. Qadimgi Sharqning ilk sivilizatsiyasi markazlari ibodatxonasida olovning ahamiyati yoki quyosh bilan bog'liq unsurlar yuqori o'rin egallagan.



Qabr inshootti (so'nggi eneolit)

Sarazm manzilgohining quiy qatlamidan topilmalarining guvohlik berishiga qaraganda Zarafshonning yuqori oqimidagi yerlarga qadimgi davrdan janubdan o'troq dehqon jamoasi va shimaldan ko'chmanchi chorvador qabilalarning kelib joylasha boshlaganligini ko'rish mumkin.

Sarazmning ikkinchi (Sarazm II) bosqichida manzilgohida qo'shimcha uy-joy imoratlari qurilib, uning maydoni ancha kengayadi. Bu davriga oid madaniy qatlamidan 8 ta mahalla aniqlanib, ulardan 36 ta uy-joy imoratining o'mi ochilgan. Mahallalar o'zaro ko'chalar bilan ajralib turgan. Alovida oilalarga tegishli hovlilar yashash va xo'jalik qismlaridan tashkil topgan. Ayrim hovlidagi xonada aylana o'choq joylashgan bo'lib, ulardan ibodat maqsadlarida foydalanilgan bo'lishi mumkin. Imoratlarning qurilishida paxsa, guvala, ayrim hollarda to'g'ri to'rburchak xom g'isht ishlatilgan. Devorlar somonli loy suvoq qilinib, sirtiga rang-tasvirlar chizilgan.

Sarazm madaniyati xo'jaligining asosini dehqonchilik, chorvachilik, to'qimachilik tashkil etgan. Dehqonchilikda arpa, bug'doy ekilgan. Bog'dorchilik ekinlari to'g'risida ishonchli ma'lumotlar uchramaydi. Chorvachilikda qo'y va echki boqilgan.

Manzilgohning ilk bosqichga oid madaniy qatlamidan misdan yasalgan uzun soqli xanjar va uch qalin uzun to'g'nagich topilgan. So'nggi eneolit davrida misdan yasalgan buyumlarning soni va turi ko'payadi. Misdan yasalgan

ikki tig'li xanjar, pichoq, qarmoq, bigizlar topilgan. Topilmalar orasida metall eritish qozoni-*tigel* bo'laklari ham uchraydi. Sarazm madaniyatining ikkinchi bosqichida Sharqiy Turkiston tog'idagi mis konlari asosida metall hunarmadchiligi rivojlanadi. Toshdan urchuqbosh, kelitosh, yorg'uchiq va boshqa xo'jalik buyumlari yasalgan.

Sarazmnning quyi qatlamidan topilgan (Sarazm I) sopol buyumlari qo'lda yasalgan. Ularning sirtiga qizil va qora rangli bo'yodda geometrik naqsh chizilgan. Bunday turdag'i sopolarning namunasi Geoksur vohasining Anov II bosqichiga oid madaniy qatlamida ko'p uchraydi.

So'nggi eneolit (Sarazm II) sopolari qo'lda yasalib, ikki tomonlama silliqlangan. Sopoliarning sirtiga naqsh chizish an'anasi davom etadi. Naqshlar sarg'ish rangli tag ustidan qizil va qora bo'yodda chizilgan. Bu bosqichda nashsiz sopolilar ham yasalgan. Shuningdek, Kaltaminor madaniyatiga xos tag qismi dumaloq qilib, o'tasidan o'tgan chiziq bo'ylab romb shakli tushirilgan sopolilar ham topilgan. Kulotchilik charxida yasalgan sopol buyumlari parchasining kam sonli nusxalari uchraydi. Bunday sopolilar ayrim tadqiqotchi larning fikriga ko'ra Belujistondan keltirilgan.

Sarazmnning so'nggi eneoit davri madaniy qatlamidan topilgan urchuqbosh nusxalari to'qimachilik hunaridan guvohlik beradi. Bu davrda matelar jundan to'qilgan. Jun kalavasi urchuqboshda yigirilgan.

Zarafshonning yuqori eqimida yashagan eneolit davri aholisi Geoksur vohasi, Kaltaminor, Afanasev madaniyati aholisi va Belujiston madaniyatları bilan o'zaro madaniy aloqada yoki genetik yaqinlikka ega bo'lgan. O'rta Osiyoning qolgan joylarida bu davrda neolit davri o'ziashtiruvchi xo'jalik shakllariga ega bo'lgan mahalliy madaniyatlardan faoliyati yuritayotgan edi.

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:**

1. O'rta Osiyoning eneolit davri taraqqiyoti omillarini ko'rsating?
2. Janubiy Turkmanistonning ilk eneolit davri xususiyati nimalardan iborat?

3. Janubiy Turkmanistonda rivojlangan eneolit davrida qanday o'zgarishlar sodir bo'lgan?
4. Janubiy Turkmanistonning so'nggi eneolit davri jamiyatida qanday yutuqlarga erishilgan?
5. Eneolit davri moddiy madaniyati xususiyati nimadan iborat?
6. Janubiy Turkmanistonda xo'jalik sohasida qanday o'zgarishlar sodir bo'lgan?
7. O'rta Osiyo eneolit davri aholisi diniy qarashlariga ega bo'lgan?
8. Sarazm madaniyati qanday xususiyatlarga ega bo'lgan?

## I.Bob. Bronza davri

*Tavanch so'zlar: angob, bronza, zikkurat, ibodatxona, ilk shahar, ixtisoslashgan hunarmandchilik, mirta, plyastr, saroy, torevtika, qabr-qo'rg'on, xaoma.*

**Bronza davrining umumiy tafsifi.** Bronza davri metallurgiya taraqqiyotining to'rtinchı bosqichiga to'g'ri keladi. Bronza-misga qo'shimcha (mishyak, qo'rg'oshin, qalayi, 9:1 nisbatda) qo'shib eritish asosida hosil bo'lgan metall. Insoniyatning bronzadan foydalana boshlangan davrdan ilk temir asrigacha tarixi **bronza davri**, deb nomlanadi. Metalning bu turidan foydalanish yer yuzining barcha joylarida bir xil kechmagan. Bronza quyish texnologiyasi dastlab qadimgi sharqda, xususan, Mesopotamiyada mil. avv. IV ming yillikning oxirida vujudga kelgan. Bu yerdan qo'shni hududlarga yoyilib, yer yuzining boshqa joylariga tarqalgan. Yevrosiyoning chekka hududida bronza davri nisbatan kechroq boshlanib, mil. avv. I ming yillikning o'rtalarigacha davom etgan. Yevrosiyo hududida bronza davrini mil. avv. III-II ming yilliklar doirasida sanalash qabul qilingan.


Jamiyatning ilg'or shakllari erta qaror topgan yevrosiyoning junubiy huđudida shahar markazlarining ijtimoiy-iqobiliy va madaniy markaz sisatidagi ahamiyati ortib boradi. Shahar markazlarida hunarmandchilik rivojlanib, ixtisoslashish jarayoni chiqurlashadi. Ixtisoslashgan hunarmandchilik sohalari rivojlanib, birinchi ijtimoiy mehnat taqsimoti dehqonchilikdan hunarmandchilik ajralib chiqadi. Hunarmandchilik sohalaringin rivojlanishi savdo munosabatlari shakilanishiga olib keladi. Bu davrda savdo munosabatlari tovar ayrboshlash shaklida bo'lgan. Zaruriy xomashyolarga bo'lgan chtiyoj xalqaro savdoning rivojlanishi va madaniy aloqalar takomillashishiga olib kelgan. Bu o'z navbatida qadimgi xalqlar o'tasida texnologiya yangiliklarning almashish jarayoni kuchaytiradi.

Jamiyat iqtisodiy sohasida ro'y berayotgan ijobjiy o'zgarishlar ijtimoiy

hayotiga ham ta'sirini o'tkazadi. Jamiyat a'zolari orasida mulkiy tengsizlik va ijtimoiy tabaqalanishni chuqurlashdirib yubordi. Aholi o'rtasida qarama-qarshilik kuchayadi, siyosiy ziddiyatlar vujudga keladi. Jamiyatda sodir bo'layotgan mazkur jarayonlar bronza davri ilk sivilizatsiyasi, qolaversa, davlatchilik shakllanishining muhim omillari hisoblangan.

**Janubi-g'arbiy Turkmaniston.** Mazkur hududning bronza jamiyati eneolit davri mahalliy NMZ III majmuasi davomida rivojlangan. Manzilgohlarning ilk bronza (NMZ IV) davriga oid madaniy qatlaming qalinligi 4-9 m. dan iborat. Manzilgohlar egallab turgan maydoniga ke'ra uch xil turi mavjud. Maydoni 25 ga. ortiq yirik manzilgohlar (Oltintepa, Nomozgoh), maydoni 2-10 ga. dan iborat o'rtacha manzilgohlar (Toychonaqtепа, Sho'rtepa, Xopuztepa, Ulug'tepa) va kichik manzilgohlar maydoni 1 ga. gacha (Oqtepa, Sho'rtepa).

Yirik manzilgohlardan Nomozgohtepa va Oltintepa yodgorliklari nisbatan yaxshi o'r ganilgan. Nomozgohtepa manzilgohida arxeologik qazish ishlari qisman amalga oshirilgan. Manzilgohda tor ko'chalar bilan ajratilgan ko'pxonali uyflarning o'rni va kulolchilik xumdonlari ochilgan.



1.Oltintepa manzilgohining kirish darvozasi. 2.Zikkurat.

Oltintepa manzilgohi alohida joylashgan bir necha tepaikklardan iborat bo'lib, umumiy maydoni 26 ga. ni tashkil etadi. Eneolit davrining oxirida har tomonlama rivojlangan Oltintepa manzilgohi bronza davrida mahalliy hududning yirik markaziga ayangan. NMZ IV bosqichining boshida manzilgohning atrosida mudofaa devori barpo etiladi. Keyinchalik birinchi devorga ikki marta qo'shimcha devor qurilib, qalinligi oshirilgan. Kirish darvozasi chetidagi *pilon-minorasifat* inshootlar ham barpo etilgan. Ularning

devori “*plyastr*” bilan bezatilgan. Uchinchi bosqichida, ya’ni ilk bronzaning oxirida muhofaza devori ichkarisidan yangi devor qurilib, uning qaliligi 6 m.ga yetgan. Devorining tashqarisida yarim aylana burjlar qurilib, uning mudosaa qudrati kuchaytiriladi.

Manzilgohning kirish darvozasi arava va piyodalar uchun alohida yo’taklarga ajratilgan. Darvozadan boshlangan markaziy ko’chagasopol sinqlari to’shab chiqilgan. Unga tutashgan kichik ko’chalar mahallalarni o’zaro ajratib turadi. Manzilgoh kulollar, misgarlar, davlatmand shaharliklar, zodagonlar mahallasi va diniy markaz qismlariga bo’lingan. Mahallardagi uy-joy imoratlari xonodon egalarining jamiyatda tutgan mavqeyiga qarab bir va ko’p xonali qilib qurilgan. Uylarning ko’lami va shinamligi jihatdan bir-biridan farq qiladi. Ulardan topib o’rganilgan moddiy ashyolar o’rtasida katta tafovut mavjud.

Oltintepaning sharqiy qismidagi tepalikda zinasimon qilib qurilgan o’ziga xos ibodatxona inshooti joylashgan. Inshoot faoliyati davomida uch marotaba qayta qurilgan. Rivojlangan bosqichida minoraning balandligi oshirilib yirik ko’rinishga kelgan. Uning uzunligi 21 m., eni 8-10 m., balandligi 12 m. bo’lib, shimoqdan janubga tomon mo’ljallab qurilgan. Ibodatxonaning yonida “*kohin uyi*” deb nomlangan imorat joylashgan.

Ibodatxona majmuasi toat-ibodat, yashash joylari va xo’jalik qismalaridan tashkili topgan. Majmuuning toat-ibodat uchun mo’ljallangan xonasida devoriga tutashtirib qurilgan “*olov-mehrobi*” joylashgan. Ibodatxonadan buqa va bo’rining oltindan yasalgan haykalchasi topilgan. Buqaning shoxi kumush, ko’zi esa lazuritdan ishlangan. Ibodatxonada yulduz belgilari aks ettirilgan narsalar uchraydi. Bu ibodatxona inshooti Qadimgi Shumerining Ur davri zikkuratlarini eslatadi. Old Osiyo hududidagi ibodatxonalarda buqa boshini tasvirlash an’anaga aylangan. Tadqiqotchilarning fikriga qaraganda buqaning boshi tasvirlangan ibodatxona oy xudosiga bag’ishlangan. Qadimgi shumerliklar asotirida buqa yerga guyoki oydan tushgan va uning sharafiga ibodatxona barpo etish an’anaga aylangan.

Bronza davrida qabrlar manzilgoh ichkarisida, uylarning atrofida joylashgan. Qabrlarning bir nechta turi aniqlangan. Ular bir kishi ko'milgan oddiy chuqur qabrlar, ichki tomonidan xom g'isht terib chiqilgan xonada ketma-ket dafn etilgan jamoaviy qabrlar va aholining nufuzli a'zosi dafn etilgan sag'analar. Zikkuratning ibodat majmuasida ham kohinlar jamoasiga tegishli sag'ana joylashgan. Marhumlar bilan birga ma'lum buyumlar, ovqat solingan idishlar, chiroq va boshqa buyumlar bilan birga qo'shib ko'milgan.

Ilk bronza davrida hunarmandchilikning bir nechta turi faoliyat yuritgan. Metall hunarmandchiligi ancha rivojlanadi. Oltintepa manzilgohidan misga ishlov berish ustaxonasi aniqlangan. Misgarlik alohida hunarmandchilik turi sifatida faoliyat yuritgan.

Ilk bronzaning dastlabki bosqichda misga mishyak va keyin qo'rg'oshin aralashtirib bronza hosil qilingan. Mis va bronzadan uy-ro'zg'or buyumlari, mehnat qurollari va boshqa kundalik ehtiyoj anjomlari yasalgan. Misdan yasalgan igna, bigiz, qarmoq, ikki tig'li pichoq topilgan.

Ayniqsa, zargarlik hunari yaxshi rivojlangan. Oltin, kumush kabi rangli va qimmatbaho metallardan turli xil zeb-ziyatlari va ilohiy buyumlar yasalgan. Oltindan yasalgan buqa va bo'ri boshi tasvirlangan topilmalar zargarlik san'atining yuksak namunasidir. Qimmatbaho toshlardan ham taqinchoqlar yasalgan.

Hunarmandchilikda kulolchilik yetakchi o'rinni egallaydi. Oltintepa manzilgohdan o'rin olgan kulollari mahallasidan 60 dan ortiq ikki qavatl xumdon ochilgan. Kulolchilik hunarmandchilik ishlab chiqarishida yetakchi o'rinni egalilagan.

Bu davrda sekin aylantiradigan, ya'ni qo'l charxidan foydalanish boshlangan. Sopoliarning sirtiga eneolit davri zoomorf tasvirlarning o'mida geometrik shaklli monoxrom naqsh chizish urf bo'lgan. Sopol buyumlarning uch xil turi ajralib turadi: naqshli, naqshsiz va ko'kish rangli. Kulolchilikda charx va xumdonidan foydalanish hunarmandchilik ishlab chiqarish o'tishga olib kelgan.

Toshdan yasalgan qurollarga bo'lgan ehtiyoj qisman saqlanib qoladi. Toshdan yasalgan turli xil mehnat qurollari, uy-ro'zg'or buyumlar topilgan. Chaqmoqtoshdan bargsimon kamon paykoni yasalgan. Toshdan yorg'uchchoq, keli sopi, havoncha va muhriar yasalgan. Terrakota muhrlari ham mavjud. Haykalchalarda ayol, erkak va hayvon timsoli aks ettirilgan.



Nomogoh IV davri soppolları

*Rivojlangan bronza davri* (NMZ V) Bu davrdagi yodgorliklarning madaniy qatlami 2,5 m. tashkil etadi. Manzilgohlarning maydoni kengayib, ichki tuzilmalari murakkablashgan. Ularning egallagan maydoni jihatdan uchta guruhi ajralib turadi. Maydoni 46-70 ga. yirik manzilgohlar (Nomozgohtepa va Oltintepa), maydoni 10 ga. dan ortiq o'rtacha (Ulug'tepa, Xopuztepa) manzilgohlar va maydoni 2-3 ga. kichik (Toychanoqtepa, Qo'shktepa va Sho'rtepa) manzilgohlar faoliyat yuritgan.

Rivojlangan bronza davrida qurilish-me'morechilik sohasida muhim yutuqlarga erishilgan. Aholining turli tabaqa vakillari ehtiyojiga mos uy-joy imoratlar barpo qilingan. Yirik manzilgohlarda aholining davlatmand va amaldor tabaqasi vakillariga tegishli ko'p xonali shinam uy-joy imoratlar qurilgan. Bunday uylarning maydoni (180 kv. m. gacha) juda katta. Hunarmand ustalarining bir xonali uylarining maydoni ancha kichik. Yashash uy-joylarining farqlanishi rivojlangan bronza davri aholisi o'rtasida mavjud mulkiy va ijtimoiy tafovutdan darak beradi.

Bronza davrining rivojlangan bosqichi sopollari kulolchilik charxida yasalgan. Sopol buyumlarining sirtiga qizg'ish-oq, sariq yoki qisman pushti rangli angob surlilgan. Bu bosqichda sopollarining sirtiga naqsh chizish an'anasi yo'qolib, asosiy e'tibor ularning sisati va soniga qaratila boshlaydi. Bu bevosita kulolchilik sohasida ixtisoslashish jarayoning chuqurlashganligini ko'rsatadi. Tovoq, kosa, tuvak, xum, choynak va boshqa sopol buyumlari yasalgan. NMZ V bosqichda oyoqli yorqin tagli vazalar paydo bo'ladi. Ularning ayrimlarining novsimon jumragiga ega bo'lган. Bunday sopollar kulolchilik buyumlari orasida kamchillikni tashkil qiladi.

Rivojlangan bronza davri tasviriy san'ati yuksalgan. Tasviriy san'at namunalari ko'pgina yodgorliklardan topib o'rganilgan. Antropomorf va zoomorf shaklli haykalchalar o'zida bronza davri madaniyati, diniy qarashlari bilan birgalikda iqtisodiy munosabatlarini aks ettirgan.

Bronza davrida ayol ma'budasini yangi shakldagi timsolida aks ettirilgan haykalchalar paydo bo'lgan. Rivojlangan bronza davrida ayol haykalchalarining bir necha turi paydo bo'lib, ular aholisi orasida bir necha ayol ma'budalarga e'tiqod qilish odati mavjudligidan dalolat beradi. Erkaklar aks ettirilgan haykalchalarini kam uchraydi.

Oltintepa manzilgohidan old tomoniga tuyaning boshi yopishtirib yasalgan to'rt g'ildirakli arava nusxasi topilgan. Bu topilma bronza davri aholisi aravani tortishda ho'kiz bilan birga tuya kuchidan foydalanganini ko'rsatadi.

Oltintepa manzilgohidan topilgan ayrim sopollarning sirtiga Qadimgi Sharqning ilk markazlarida (Shumer, Elam, Hindiston) uchraydigan ilk yozuvga o'xshash belgilar chizilgan. Bu belgilar ilmiy jihatdan maxsus o'rganilmagan. Terrakota haykalchalarining sirtiga chizilgan turli xil belgilarni V.M.Masson hafta, oy va yilni ifodalovchi taqvim bo'lishi mumkinligini taxmin qilgan.


Fil suyagi va lazurit toshdan har xil buyumlar yasalgan. Janubiy Turkmanistonning naqshli sopollariga o'xshash namunalar Moxenjadaro manzilgohidan ham topilgan. Bunday soper namunalari Hindiston bilan olib borilgan savdo va madaniy aloqaning yo'lga qo'yilganligidan dalolat beradi.

Muhrlar asosan tosh, qisman mis va bronzadan yasalgan. Janubiy Turkmanistonning bronza davri muhrlardagi tasvirlarning shakli va uslubi Mesopotamiya muhrlariga o'xshash. Dastlab muhrlarga geometrik shakllar tushirilgan. Keyinchalik hayvonlar yoki fantastik mavjudotlar aks ettirilib, ramzi murakkablashadi va guruh tasvirlar ko'paygan.

Bronza davri Nomozgohtepa, Oltintepa va boshqa yirik manzilgohlarning mudofaa devori bilan o'rabi olinganligi, mahobatli imoratlar, xususan, diniy-g'oyaviy markaz hisoblangan ibodatxonaning mavjudligi, ixtisoslashgan ishlab chiqarishning rivojlanishi, tabaqalanish jarayonining barcha sohalarda namoyon bo'fishi, xususiy mulkdan darak beruvchi muhrlarning paydo bo'lishi va boshqa belgilariga ko'ra ularni Qadimgi Sharqning ilk shaharlari sirasiga kiritish mumkin. Ular nafaqat iqtisodiy, madaniy markaz balki, ma'lum bir hududning

g‘oyaviy-ma‘muriy markazi bo‘lgan.

NMZ V bosqichining oxirda Janubiy Turkmaniston hududidagi yirik manzilgohlar inqirozga uchraydi. Oltintepa va Nomozgohtepa manzilgohlari tashlandiq holga kelib qoladi. Mutaxassis olimlar inqiroz sababini qurg‘oqchil iqlim sharoiti bilan bog‘laydi.



Nomozgoh V davri sopolları.

Oltintepa manzilgohining yuqori madaniy qatlamidan topilgan suyaklar kichik tuyaoqli mollariga tegishli, qoramol suyaklari esa uchramaydi.

Qurg'ochilik tufayli yem-xashak zaxirasi kamayib, qora molni boqish uchun yetarli imkoniyat bo'lмаган. Ikkinci tomondan esa dalalarda bir necha ming yillar davomida muntazam ekin eklishi oqibatida yerlar sho'rланib, yaroqsiz holga kelib qolgan va hosildorlik pasayib ketgan. Bu albatta aholining yashash joyini tashlab, yangi yerlarga ko'chishiga sabab bo'ladi.

Janubiy Turkmaniston hududida bronza davri ilk shahar shaklidagi manzilgohlar inqirozga uchrasada, hayot qisman davom etadi. Oltintepa manzilgohining "tepalik", deb nomlangan qismida, Yangiqal'a qabristonida va boshqa manzilgohlarda so'nggi bronza davri jamiyati taraqqiyoti izlari saqlangan. NMZ VI bosqichi kulolchilikda oyoqli sopollar salmog'i yetakchi o'rinni egallaydi. Bunday sopollar Nomozgohtepa, Tokkemtepa, Anovicpa va Yangiqal'a qabristonlaridan topilgan

O'rta Osijoning janubi-g'arbiy hududining rivojlangan bronza davri jamiyati ilk sivilizatsiya markazlariga o'xshash usutida rivojlangan. O'lkadagi Oltintepa, Nomozgohtepa va boshqa yirik manzilgohlarda qadimgi sharqning ilk shaharlariga xos arxeologik alomatlar mavjud. Bu yerda arxeologik ma'lumotlarga qaraganda jamiyatni diniy usulda boshqarish tizimi hukmon bo'lган. Dunyoviy hokimiyat shakllanib ulgurmasdan jamiyat inqirozga uchragan.

*Murg'ob vohasining bronza davri arxeologiyasi.* Afg'onistondan oqib keladigan Murg'ob daryosi Amudaryoga yetmasdan Qoraqum cho'lida qurib qoladi. Daryoning quiqi oqimidagi yerlar qadimdan dehqonchilik uchun juda qulay bo'lган. Bu yerlar encolit davrining oxirida Geoksur vohasidan ko'chib kelgan aholi tomonidan o'zlashtiriladi.

Bronza davrida vohaga boshqa bir etnik guruh kelib joylashadi. V.M.Masson Turkmanistonning janubi-g'arbiy hududining rivojlangan bronza davri jamiyati inqiroziga uchragandan keyin, aholi bu yerga ko'chib kelgan, degan fikri bildirgan edi.

V.I.Sarianidi esa yangi etnik guruh ildizlarini Shimoliy Suriya va Janubiy

Anatoliya hududiga bog'laydi. Uning fikricha mil. avv. IV ming yillikning o'rtalaridan O'rta yer dengizining shimoli-sharqiy qismidan Eron tog'lariiga qadar cho'zilgan keng hududda yog'ingarchilik kaimayib, qurg'oqchil iqlim sharoiti qaror topadi. Qurg'oqchilik Shimoliy Suriya va Anatoliyada yashagan aholi hayotiga jiddiy ta'sir qilgan. Natijada Oronto vohasining ilk shahar markazlari inqirozga uchrab, ularda yashagan aholi ko'chishga majbur bo'ilgan. Ko'chib kelgan aholining asosiy qismi Murg'ob vohasiga, bir qismi esa Surxon va Balxob vohalariga joylashadi. Qolgan qismi esa yurishni davom ettirib, Sharqiy Turkisten hududigacha borgan.

Marg'iyona va Baqtriya hududida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlardagi umurniylikdan kelib chiqib arxeologiya fani sohasida BMAK (Baqtriya va Marg'iyona arxeologik majmuasi) atamasi qo'llaniladi. BMAKning bronza davri xronologiyasi mil. avv. 1800/1700-1100 yillar doirasida belgilangan. Oxirgi o'tkazilgan radiokarbon tekshirishlari mazkur xronologik ko'rsatkichni taxminan 500 yilga, ya'ni mil.avv. 2300/2150 - mil.avv. 1500 yillikka qadimiylashtirdi.


Murg'ob daryosining bronza davri arxeologik yodgorliklari alohida ariqlar bilan sug'orilgan 8 ta mikrovooha hududida tarqalgan. Keleli (markazi-Keleli-1), Gonur (Gonur), To'g'aloq (To'g'aloq 1), Taxirboy, Ajiquyi, Toip, Odambosan (Odambosan 1) va Avchin kabi mikrovohalarning har birida o'rtacha 10-30 tadan manzilgoh o'rin olgan. Mikrovohalar alohida xo'jalik turmani yoki kichik ma'muriy hududiy tuzilmani tashkil etgan. Egribogaz hududi ham alohida mikrovohani tashkil etgan bo'lishi mumkin. Shuningdek, Ovchin mikrovohasining shimoli-sharqiy qismida Andronovo madaniyatiga xos chorvadorlarga tegishli dafn inshootlari aniqlangan.

Murg'ob vohasidagi arxeologik yodgorliklarning umumiy maydoni 0,02-25 gektardan iborat bo'lib, ularning shakli va vazifasiga ko'ra bir necha turi mavjud. Ular ilk shahar shaklidagi manzilgohlar, qal'a-qo'rg'onlar, dehqonchilik qishloqlari, ishlab chiqarish va diniy inshoot-ibodatxonalar hamda

dafn inshootidan iborat. Birinchi guruh yodgorliklar maydoni 12-25 ga. dan iborat ilk shahar shaklidagi (Gonorarpa va To'g'aloq 21) manzilgohlar. Ular qal'a va aholi yashaydigan qismlardan tashkil topib, atrofi qalin mudofaa devor bilan o'rab olingan. Devor to'g'ri to'rburchak burjlar bilan kuchaytirilgan.

Ikkinci guruh yodgorliklar baland tagkursi ustida qurilgan va mustabkam mudofaa tizimiga ega bo'lgan qal'a qo'rg'onlar. Ulardan Keleli 3, Keleti 4 yodgorliklari yaxshi o'rganilgan. Uchinchini turdag'i yodgorliklar o'troq dehqonchilik qishloqlaridir. Murg'ob vohasining asosiy ko'pchilik manzilgohlari dehqonchilik qishlog'ini tashkil etadi. To'rtinchi guruh yodgorliklar ishlab chiqarish inshootlari. Besinchi guruh yodgorliklarga alohida joylashgan diniy inshoot-ibodatxonalar kiradi. Yodgorliklarning boshqa bir guruhi-dafn inshoot bo'lib, ularning bir nechta turi mavjud. Vohadagi eng yirik yodgorlik Gonurtepa manzilgohi hisoblanadi. Manzilgohning asosiy qurilish imoratlari qal'a va uning yaqinidagi ibodatxona majmuasidan iborat. Gonurtepaning markaziy qismidagi kvadrat shakidagi ichki qal'a ilgaridan rejalashtirilgan loyiha asosida barpo etilgan. Qal'a ikki qator mudofaa devori va to'g'ri to'rburchak burjlarga ega. Devorlar orasidagi yo'lakcha orqali burjlarga kirilgan. Burjlarning ichkarisida murakkab qurilishga ega o'choq mavjud. V.I.Sarianidining fikriga ko'ra bu o'choqlarda diniy marosimlar paytda inuqaddas olov yoqilgan. Qal'a ichida joylashgan sal kam kvadrat shakidagi (120x125 m.) dunyo tomonlariga moslab qurilgan saroy majmuasi asosiy o'rinnutadi. Saroyning atrofi mudofaa devori bilan o'rab olingan. Ichkaridagi imoratlari juda tig'is qurilgan. Uning atrosida mahalliy hukmdor va saroy amaldorlari uchun xizmat qilgan ibodatxona joylashgan. Bu yerdag'i ibodatxona olov va suvga sig'inish, qurbanlik keltirish, in'om qilish odatiari uchun xizmat qiluvchi umumiy majmuani tashkil etgan. Manzilgohni V.I.Sarianidi "Ibodatxonalar shahri" deb ataydi. Shaharda aholi uy-joy imoratlari, ishlab chiqarish inshootlari joylashgan. Shaharning sanitariya qoidalariga qat'iy amal qilingan. Bu yerda shaharga sopol quvurlarda ichimlik suvi olib kirilgan. Uy-

joylar aholining jamiyatda tutgan mavqeyiga qarab bir va ko'p xonali bo'lgan.



1.Gonur 2.Keleli 3. Keleli 4. Gonur 1 (saroy) 5.To'g'aloq 21  
ibodatxonasi (umumiy ko'rinishi) 6.To'g'aloq 21 rejası  
7.To'g'aloq 1 qishloq ibodatxonasi

Murg'ob vohasining boshqa bir yirik manzilgohi To'g'aloq 1 hisoblanib,

umumiyl maydoni 12 ga. dan iborat. Manzilgohning markazida balandligi 4 m. tag kursi ustida qurilgan inshoot joylashgan. Manzilgoh To'g'aloq mikrovohasining markazi hisoblangan.

Keleli 3 yodgorligi baland tag kursi ustida dunyo tomonlariga moslab barpo etilgan kvadrat shaklidagi (128x18 m.) manzilgoh. Atrofi ikki qator devori bilan o'rab olingan, ortasida yo'lakcha mavjud. Mudofaa devori tashqi tomendan burjlar bilan kuchaytirilgan. Barcha tomonlarda oltitadan mudofaa burjlari mavjud. Manzilgohning to'rt tomonidagi devorlarning ortasida kirish darvozalari joylashgan. Darvozalarning ikki chetda ham mudofaa burji bilan kuchaytirilgan. Manzilgohning ichkarisidan kesib o'tgan ariqning ichki tomoniga xom g'isht terib chiqilgan.

Keleli 4 yodgorligi baland tag kursi ustida barpo etilgan kvadrat shaklidagi (29,5x29,5 m.) manzilgoh. Atrofi ikki qator, ortasida karidorsifat yo'lakchaga ega mudofaa devori bilan o'rab olingan. Tashqi devorning qaliligi 1 m., ichki devorniki 0,3 m. Mudofaa devori tashqi tomondan beshta to'g'ri to'rburchak burjlar bilan kuchaytirilgan. Manzilgoh ichkarisida xom g'ishtdan qurilgan 45 ta uy-joy imoratlari joylashgan. Uch-to'rt xonadan iborat uylar kirish eshlari orqali o'zaro bog'lanib, xonalarning birida xo'jalik o'chog'i joylashgan. Majmuuning shimofiy qismida ochiq joyda to'rtta yirik o'choq mavjud. Tadqiqotchilarning taxminiga ko'ra o'choqlarda metalga ishlov berish ishlari bajarilgan. Keleli 4 manzilgohi ko'rinishdan Murg'ob vohasi aholisining hunarmand toifasi vakillari yashaydigan qishloq bo'lgan.

Murg'ob vohasidagi markaziy manzilgohlarda joylashgan ibodatxonalar jamoatchilik inshoetlari orasida mavqeyi jihatdan muhim o'rin egallaydi. Gonurtepa, To'g'aloq 21 va To'g'aloq 1 manzilgohlarida o'rganilgan ibodatxonalarda olov va muqaddas ichimlik kultlari muhim o'rin tutadi. Gonurtepa manzilgohidagi ibodatxona majmuasi olev, muqaddas ichimlik kulti, qurbanlik keltirish qislardan tashkil topgan. Bu yerdan xaoma tayyorlash maqsadida o'simlikni yanchadigan keli toshlar va o'simliklardan

tayyorlanadigan ichimlik saqlangan idishlar topilgan. Shuningdek, ko'knori va nasha urug'lari ham saqlanib qolgan. Narsalarning sirtiga chizilgan o'simlik orasida efedra daraxtining tasvirlari ko'p uchraydi.

Murg'ob vohasi aholisini orasida olovga topinish va muqaddas ichimlik kulti keng tarqalgan. Muqaddas ichimlik kulti mitraga sig'inish odati bilan bog'liq. O'rta Osiyoning qadimgi aholisini mitraga sig'inishda quyosh xudosi sifatida qaragan. Qadimgi xalqlar tasavvurida mitra quyosh chiqishning sherigi sifatida aks etgan. Avestoda mitra yomg'irni chaqiradi, o'simliklarning o'sishiga va butun hosilga yordam berishi to'g'risida yozilgan.

Boshqa turdag'i manzilgohlar dehqon jamoasi qishloqlaridan iborat. Mikrovohalarda joylashgan yodgorliklarning asosiy ko'pchilik qismi dehqonchilik qishlog'i hisoblanadi. Uiarda asosan o'troq dehqon jamoasining uy-joylari va qisman hunarmandchilik inshootlari joylashgan.

Bronza davriga yodgorliklar orasida dafn inshootlari muhim o'ringa ega. Manzilgohining nekropol qismidan, ya'ni Janubiy Gonurdan uch mingdan ortiq qabrlar aniqlangan. Nekropolda asosan katta yoshdagilar ko'milgan. Qabrlarning bir nechta turi oddiy qabrlar, sag'ana yoki sistalardan iborat. Barcha qabriar uchun xos bo'lgan xususiyat marhumlarning tanasi yerga tegmaslik uchun mayitning atrofiga qum to'kilgan yoki sun'iy tuproq qatlami ustiga yetqizilgan. Jismoniy kamchiligi bor odamlar har kuydirilgan qabrlarga ko'milgan.

Murg'ob vohasining bronza davri aholisining amaldor qatlami vakillari qatlami g'ishtdan yasalgan maxsus yasamalar ustida ko'milgan. Hukmdor yoki hukmdor oila a'zolari sistlarda dafn etilgan.

Qabrlarning 85% ni shaxtali qabriar tashkil etadi. Bu qabrlar tik qazilgan chuqurlikdan tashkil topgan bo'lib, devorlari suv bilan yuvilib turilgan. Murlarning boshi shimol tomonga qaratib, qo'li va oyog'lari bukilgan holda ko'milgan. Qabrlarning ustidan xom g'isht terib yopilgan. Shaxta qabrlar O'rta Osiyoning hech bir joyida uchramaydi, ular faqat Suriya va Falastin hududi

uchun xos.

To'g'aloq manzilgohidan o'rganilgan qabrlarning biridan ham qabrga hayvon qo'shilgan aravani yetaklab kirgan kishining qo'llari orqasiga majburan qayrilib, o'ldirilgan odam suyaklari topilgan. Qabrlar aholi mavqeyiga ko'ra ma'lum kuzatuv buyumlari bilan ko'milgan.

Vohada hunarmandchilik ishlab chiqarishi yaxshi rivojlangan. Hunarmandchilikning metalsozlik, kulolchilik, to'qimachilik, zargarlik, toshlarga ishlov berish kabi turlari faoliyat yuritgan. Metall buyumlar ikki xil usulda, bolg'lash va quyish usulida yasalgan yasalgan. Quyish usulida yasalgan buyumlar salmoqlı o'tinni egallaydi. Quyib yasalgan buyumlar bir xil turlariga qo'shimcha ishlov berilgan, boshqalariga ishlov berilmagan. Umumiy buyumlarning uchdan ikki qismi quyish orqali yasalgan. Ish qurollari, qurel yarog'lar, pichoqsimon buyumlar va ayrim zeb-ziynat buyumları quyilgan. Idish tavoqlar, muhrilar, ayrim taqinchoqlar quyilgandan keyin qo'shimcha ishlov berilmagan.

Gonurtepa manzilgohining shimoliy va g'arbijy qismida joylashgan kulollar mahallasida ikki yarusli xumdonlarining o'rni ochilgan. Sopol buyumlar tez aylantiradigan kulolchilik charxida yasalgan. Sopol buyumlar ko'proq kulolchilik charxida yasalgan yuqori sifatlari buyumlardan iborat. Sopol buyumlar yaxshi qorilgan va tindirilgan loydan yasalgan. Buyumiarning sirtiga yorqin ko'kish va yorqin qizg'ish rangli angob surtilgan. Sopol buyumlarning asosiy ko'pchilik qismi naqshsiz. Ayrimlarining bo'g'zidan pastgi qismiga siniq chiziqli yoki ilon izi shaklli rang-bo'yoqlarda naqshlar chizilgan. Kamchillik sopollarga daraxt va uning yaqinida echki tasviri tushirilgan. Sopellarning dastasi mavjud emas, ayrimlarida ilgaksimon tastaga ega. Baland tagli vaza va qadahlar ko'pchilikni tashkil etadi. Konussimon va yarimsferik kosalar, kuvalar, gorshoklar, miskalar, xumlar ko'pchilikni tashkil qiladi.

Oshxona idishlari qo'lda yasalgan. Ularning loyiga maydalangan kvars tosh va maydalangan sopol qo'shiigan. Qozon, tova, choynak. Bir turdag'i

sopollarning loyiga qizg'ish-oqsariq shamot aralashitirilib, qo'lida yasalgan turii ham mavjud. Ular yirik miskalar, og'zi ochiq kosalar, labi tashqariga qayrilgan baland tuvaksimon idishlardir. Sopollarning kamchilik qismini dasht hududlariga xos qo'lida yasalgan kulrang buyumlar tashkil etadi.

Murg'ob vohasining bronza davri moddiy madaniyatida muhrlar alohida ahamiyatga ega moddiy topilma hisoblanadi. Muhr-tumorlar tosh, loy va qisman metalldan yasalgan. Ular aylana, kvadrat va zoomorf shaklida yasalgan. Aylana muhrlarda ko'p gulbargli naqshlar uchraydi. Kvadrat muhrlarda xochsimon, ayrim hollarda murakkab o'simlik naqshga ega. Zamorf muhrlarda mushuksimon yirtqich hayvonning tasviri tushirilgan. Barcha muhrlarning orqa tomonida ilmog'iga ega.

Muhr-tumorlarga zoomorf: ilon, chayon, qurbaqa, burgut, xoch, sitomorf: nina bargli daraxt, chamasi efedra, lola yoki ko'knori va geometrik naqshlar, xususan, sevastika tasvirlari tushirilgan. Ularning orqasida taqib yurish uchun me'ljallangan teshikchalari mavjud bo'lgan.

Marg'iyonada muhr-tumorlardan tashqari Mesopotamiya usulida yasalgan silindr muhrlar ham tarqalgan. Bunday muhrlarning butun saqlangan nusxasi juda kam uchraydi. Bunday muhrlarning singan kichik bo'laklaridan tashqari narsalarda ularning izlari saqlanib qolgan. Muhrlarning birida ikki o'rakchli tuya-baktrianning jilovidan ushlab turgan odam odam tasviri muhim o'rinn tutadi.

Bronzadan yasalgan mehnat qurollari va uy-ro'zg'or buumlari, xususan, diniy maqsadlarda foydalanilgan idishlar topilgan. Diniy inarosimlarda foydalanish maqsadida bronzadan yasalgan idishlarning labiga ilon, chayon, hayvonlar tasviri tushirilgan.

To'g'aloq vohasidagi manzilgohdan kam sonli temir bo'laklari, xususan, munchoqlar topilgan. Oltin va kumushdan yuksak mahorat va did bilan yasalgan buyumlarning namunalari ko'plab uchraydi. Murg'ob vohasi aholisi hayotida zargarlik alohida o'ringa ega bo'lgan.

Marg'iyonaning bronza davri aholisi orasida otashparastlik va muqaddas

ichimlik kultiga sig'inish odati mavjud bo'lgan. Ularga bag'tishlab yirik ibodatxonalar barpo qilingan. Soma-Parjana (momoqaldiroq) ning farzandi sifatida namoyon bo'ladi. Shunda Soma osmon va yer farzandi sifatida aks etgan. Qadimgi xalqlar e'tiqodida oy erkaklarning ibtidosi, yer ayollarning ibtidosi sifatida qaralganligi aniqlangan. Tilshunoslar xaoma o'zida qurbanlik keltiruvchi iloh, kohin va narsani mujassam etgan, deb hisoblaydilar. Xaoma zardushtiylik diniy odati va liturgiyasining muhim qismi bo'lib, bu ichimlik hayotni tortiq qiladi. Avestoning biror joyida ibodatxonalarning mavjudligi to'g'risida ma'lumot keltirilmagan. Dashli 3 mahobatli imorat majmuasining aylana ibodatxonasini K.Yittmar Avesto varasiga qiyoslagan. Uning yaqinida joylashgan imoratni B.Brentes indoariylarning "mandaliga" qiyoslaydi.

Qadimgi Sharqning ilk markazlari shumer, hind mixxat yozuviga o'xshaydigan belgililar uchraydi. Bu belgililar maxsus tadqiq etilmagan.

Murg'ob vohasining bronza davri jamiyatni Mesopotamiya, Misr, Eron va Hindistonning ilk sivilizatsiyasi markazlariga xos yo'nalishda rivojlangan. Gonurtepa yodgorligini o'rgangan V.I.Sarianidi Marg'ob vohasining bronza davri jamiyatini qadimgi sharqning beshinchи-*Margush sivilizatsiya*, degan fikri ilgari suragan. Boshqa bir tadqiqotchi Sh.Shayduilaev bronza davrida BMAK hududida *Xarali* davlati faoliyat yuritganligini bildirgan. Yuksak darajada taraqqiy etgan mazkur jamiyat bronza davrining oxirida inqirozga uchraydi.

*Baqtrianing bronza davri arxeologiyasi.* Baqtriya hududda ilk o'troq dehqonchilik madaniyati bronza davrida shakllangan. Ilk dehqonchilik madaniyatiga oid manzilgohlar Surxon vohasi va Shimoliy Afg'oniston hududidan topib o'rjanilgan. Janubiy Tojikistonda ilk o'troq dehqonchilik madaniyati Dushanbe atrofi hududida bronza davrining so'nggi bosqichida vujudga kelgan. Kofirnahr va Vaxsh vohasida so'nggi bronza davrida chorvador qabilalar madaniyati faoliyat yuritadi.

Baqtrianing bronza davrida faoliyat yuritgan o'troq dehqonchilik

manzilgohlari dastlabki o'rganilgan yodgorliklarga nisbatan janubda - *Dashtli*, shimolda esa - *Sopolli* madaniyati nomlari bilan yuritiladi.

**Janubiy Baqtriya.** Janubiy Baqtriya hududining bronza davri arxeologiya yodgorliklari alohida dehqonchilik vohalarida joylashgan. Bu yerda Davlatobod, Dashtli, Farukobod va Nichkin dehqonchilik vohalari ajralib turadi. Davlatobod mikrovohasida joylashgan Tikar 1-3 Tikar 4 (Girdaytepa), Dashli mikrovohasidagi Dashtli 3 yodgorligi yaxshi o'rganilgan.

Davlatabod mikrovohasidagi yodgorliklarning maydoni 0,4-1,0 ga. ni tashkil etadi. Tikar 4 yodgorligida (100x95 m.) mudofaa devori va to'rti burchagida burjlari mavjud. Mazkur hududdagi arxeologik yodgorliklarini o'rgangan olim V.I.Sarianidi Afg'onistonning bronza davrini Tikar va Girday bosqichlariga ajratgan.

Janubiy Baqtriyaning bronza davri yodgorliklari orasida Dashtli vohasidagi Dashtli 3 manzilgohi yaxshi o'rganilgan. Dashtli 3 manzilgohi aylana shakldagi ibodatxona va kvadrat shakldagi saroy-ibodatxonadan iborat ikkita majmuani tashkil etadi. Ibodatxona majmuasi ikki qator mudofaa devori bilan o'rabi olingan. Saroy-ibodatxonasi esa kvadrat shaklda barpo qilingan. Qadimgi yevropa xalqlari afsonasida aylana shakli quyosh, kvadrat esa yer tornonlarini aks ettiradigan. Mudofaa devori tashqarisida ikki qator xalqani tashkil etgan aholi uy-joy imoratlari qurilgan.

Dashtli 3 majmuasi koinot tushunchasi bilan bevosita uzviy bog'liq bo'lib, aholini tartibga solib turuvchi ma'muriy-g'oyaviy markaz vazifasini bajargan. Majmuada aholining g'oyaviy-ma'muriy boshqaruv tizimi aks ettib, davlatchilikning ilk shakllarini namoyon qiladi.

Janubiy Baqtriyaning bronza davri yodgorliklari orasida daftn inshooti ham muhim o'rin egallaydi. Daftn inshootlari lahat (katakomba) qabrlardan iborat. Marhumlar bilan birga turli xil buyumlar qo'shib ko'milgan. Ko'pchilik qabrlardagi kuzatuv buyumlari bronza davridayoq talon-taroj qilinib, hozirgi paytda saqlanib qolmagan.

Shimoliy Baqtriyaning bronza davri arxeologiyasi dastlabki o'rganilgan yodgorlik nomi bilan *Sopolli* madaniyati, deb yuritiladi. Bu madaniyat shartli ravishda *sopolli*, *jarqo'ton*, *ko'zali*, *molali*, *bo'ston* kabi bosqichlarga ajratilgan.

	<i>Bosqichlar</i>	<i>An'anaviy sanasi</i>	<i>Yangi radiokarbon</i>
1	Sopolli	Mil. avv. 1700-1500 yillar	Mil.av. 2150-2000 asr
2	Jarqo'ton	Mil. avv. 1500-1350 yillar	Mil. avv XIX-XVII asrlar
3	Ko'zali	Mil. avv. 1350-1200 yillar	Mil. avv. XVI asr
4	Mo'lali	Mil. avv. 1200-1100 yillar	Mil. avv. XV asr
5	Bo'ston	Mil. avv. 1000-900 yillar	Mil. avv. XIV asr

*Sopolli bosqichi*. Muzrabod cho'li hududidagi Ulanbuлоqsoy o'zanida joylashgan Sopollitepa manzilgohi Janubiy O'zbekistonning bronza davri o'troq dehqonchilik madaniyatining ilk bosqichi oid yodgorlik hisoblanadi. Yodgorlikning umumiy maydoni 4 ga<sup>z</sup> dan iborat bo'lib, markazida atrofi uch qator mudofaa devori bilan o'rabi olingen, tomonlari 82x82 m. qal'a joylashgan. Mudofaa devori dushmanni chalg'itish maqsadida labirint shaklidagi qurilgan. Qal'aning haqiqiy darvozasi janub tomonida bo'lgan. Mudofaa devorining boshqa tomonlaridagi darvozasifat ochiq joylar dushmanni chalg'ituvchi qopqon vazifasini bajargan. Murakkab harbiy-muhandislik qurilmasidan tashkil topgan mudofaa devori mazkur sohada ilgaridan yuqori malakaga ega bo'lgan quruvehilar tomonidan barpo etilgan. Bunda qurilish inshootlari O'rta Osiyoning boshqa joylarida uchramaydi.

Qal'a ichkarisida aholi uy-joylari va ishlab chiqarish inshootlari o'rinni olgan 8 ta mahalla joylashgan. Mahallalar qal'a darvozadan boshlangan asosiy ko'chaga tutashgan kichik ko'chalar orqali o'zaro ajralib turadi. Mahailalarda dehqon jamoasi aholisining uy-joylari, xo'jalik imoratlarining qoldig'i ochib o'rganilgan. Sopollitepada uchta qurilish davri aniqlangan. Barcha qurilish davrida uy-joy imoratlariga qoshimchalar kiritilgan, aholi uy-joylari soni

o‘zgarib borgan.

Manzilgoh o‘rtasida ochiq joy mavjud. Qurilish imoratlar bir, ikki va uch xonali uylardan tashkil topgan. Uylarning xonalaridan biri yashash xonasi, ikkinchisi xo‘jalik qismini tashkil etgan. Uchinchi xona esa ishlab chiqarish vazifasini bajargan bo‘lishi mumkin. Uy-joylar va mudofaa devori turli o‘lchamli standart xom g‘ishtdan (42x22x12, 44x22x12, 46x24x13, 40x20x12 sm.) barpo qilingan.


Sopollitepa atrofida cho‘l o‘zlashtirilishi davrida tekislanib, o‘rnida sopol parchalari, hayvon suyaklari va kul qoldiglari saqlangan Kultepa va Kichiktepa yodgorliklari bo‘igan. Bronza davrida Sopollitepa atrofida manzilgohlarning soni ko‘proq bo‘lgan bo‘lsa kerak.

Sopollitepa manzilgohida yashagan qadimgi aholi olamdan o‘tgan yaqinlarini o‘zları yashab turgan uy-joylarning ichkarisida dafn etganlar. Sopollitepa manzilgohidan jami 138 ta qabr olib o‘rganilgan. Ulardan 125 tasi yakka, 13 tasi jamoja qabrlardan iborat bo‘lib, ularda 158 ta mayit ko‘milgan. Shuningdek, 4 ta qabrdagi hayvonlar ko‘milgan, 6 tasi kenotaf. Qabrlar lahat yoki yorma va kam hollarda oddiy chuqurdan iborat. Qabrlarning mayitxonasi shimoldan janubga qaratilgan. Chuqur qabrlarda asosan yosh bolalar, kam hollarda katta yoshdagilar ko‘milgan. Erkaklar o‘ng va ayollar chap yoni bilan gujanak holatda yotqizilgan. Yosh bolalar ham jinsiga qarab yotqizilgan. Marhumlarning barnoqlari ayrim hollarda yuziga yaqin joylashgan. Marhumilar bilan birgalikda ularning hayotiylik davrida foydalangan narsalari qo‘sib ko‘sib ko‘milgan. Moddiy ashyolar asosan yorma va lahat qabrlardan topilgan. Oddiy chuqurlarda buyumlari qisman uchraydi yoki umuman uchramaydi.

Asosiy buyumlar sopollardan iborat. Erkaklar qabrlaridan sopol buyumlardan tashqari mehnat qurollari: pichoq, tesha, bolta, quroq yarog‘lar: nayza va kamon paykonlari, xanjar, ayollarnikidan esa ko‘proq qimmatbaho metall va toshlardan yasalgan turli xil taqinchoqlar, oyna, surmadon, igna, urchuqboshlar uchraydi. Ayollarning qabrlaridagi buyumlar erkaklarga

qaraganda boy.


Sopollitepa manzilgehidan topilgan moddiy ashyolar tosh, metall  
þuyumlari va turli suyaklardan iborat. Toshdan kamon paykonlari, yorg'uchchoq,  
keli, keli sopi, pichoq, bolta va teshalar yasalgan.



Sopollitepa boy.

Kamon paykonlari siqib retushlash usulida bargsimon shaklda yasalgan. Bronzadan yasalgan kam sonli kamon paykoni uchraydi. Bronza qurog'lar-xanjar, *kamon o'qi*; uy-ro'g'or buyumlar-pichoq, bolta, teshu, bigiz va pardoz-andoz buyumlari-oyna, *surmadon hamda* toshdan yasalgan urchuqboshlar topilgan. Urchuqboshlar qo'proq loydan qilingan.

Sopollitepaning barcha mahallalarida kulolchilik xumdonlari joylashgan. Xumdonlarning turli xil shakllari mavjud. yer ustida ikki kamerali va ikki yarusli. Ikki yarusli xumdonning mahsulot pishirish xonasasi o'txonasining yonidan, nisbatan 40 sm. baland qilib qurilgan. Ikki yarusli xumdonning pastki qismida olovxonasi, yuqorisida gumbazsimon mahsulot pishirish xonasasi joylashgan. Sopol pishirish xonasiga issiqqlik tor tesbikiardan o'tgan.



Sopollitepa muzeyizgohidasi topilgan bronza buyumlari.

Sopol idishlar kulolchilik charxida va qisman qo'lda yasalgan. Kulolchilik charxida yasalgan idishlarning sirtiga och sariq va qizil angob surtilgan va yuqori haroratda pishirilgan. Sopol buyumlarining kamchilik qismi qo'lda yasalgan. Qo'lda asosan ovqat pishirishga mo'ljallangan yirik va devori qalin qozonlar tovalar va yarim sferik kosalar yasalgan. Sopollitepadan topilgan barcha turdag'i sopol buyumlarining shakliga qarab o'n to'rt xil turi ajralib turadi. Ular baland oyoqli va aylana tagli vazalar, konussimon tog'ora va kosalar, vazasimon kosalar, baland oyoqli kubiklar, krinkalar, gorshoklar, xumlar, choynak, ko'zalar, miskalar, chumaklı kosalar, lagan va tovalardan

iborat.

Turli toshlardan ham idishlar yasalgan. Miska, kosa va ko'zalar marmar va *mergel ohaktoshidan yasalgan*. *Metalдан oshxona idishlari va grafiga o'xhash* juda kichkina idishlar, ehtimol surmadon yasalgan. Bunday idishlar qabrlardan chiqqan. Bronza va misdan yasalgan ko'za va kosalarning kam sonli nusxalari uchraydi. Shuningdek, yog'ochdan va teridan yasalgan idishlar ham mavjud.

Zeb-ziynat buyumlari turli xil toshlar va metalldan yasalgan. Bronzada oyna, igna, bigiz, to'qish anjomi yasalgan. Oynalar aylana shaklda bo'lib, ayrimlari baldoqli. Bronzadan yasalgan surmadonlar juda kichkina va nozik qilib ishlangan. Munchoqlar lazurit, serdolik, agat va feruzadan yasalgan. Munchoqlarning shakli aylana, romb, cho'zinchoq bo'lib, o'ttasida ip o'tkazish uchun mo'ljallangan teshiklari mavjud. Baldoqlariga simmetrik joylashgan ilon tasviri tushirilgan. Toshdan yasalgan taqinchoqning to'rt tomonida ilonning tasviri tushirilgan. Ayollar soch turmagiga taqib qo'yish uchun mo'ljallangan uchi o'tkir uzun to'g'nagichning bosh qismida turli hayvon: kiyik, bug'u, ilon va boshqa hayvonlarning tasviri tushirilgan.

Muhrlar mergej ohaktoshi, loy va metaldan yasalgan. Ularning sirtiga har xil geometrik shakl, ilon, chayon, tog' echkisi, gul va boshqa narsalarning tasviri tushirilgan. Aylana shaklli muhrning birining yuzida qanotiarni yozib turgan holda tasvirlangan burgut tasviri, boshqa bir muhrda echkisining tasviri tushirilgan. Sopollitepa muhrlari yuridik ahamiyatga ega bo'Imagan. Muhrlar o'zida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni aks ettirib, aholi o'ttasida mulkiy tabaqlanishning vujudga kelganligidan darak beradi. Ulardagi tasvirlar esa diniy dunyoqarash tushunchasi bilan bog'liq hodisadir.

Atrofi uch qator mudosaa devori bilan o'rabi olingan Sopollitepa manzilgohi va uning yaqinidagi dehqonchilik qishloqlari qadimgi sharq o'troq dehqonchilik markazlarining eneolit-bronza davri *nomlarini* eslatadi. Ulardan farqi Sopollitepa manzilgohida diniy-g'oyaviy markaz hisoblangan ibodatxonalar mavjud emas.

Sopollitepa manzilgohi va uning atrofida yashagan qadimgi aholi vakiilari dehqonchilik, chovachilik va xonaki hunarmandchiligi bilan shug'ullanganlar, Dehqonchilikda arpa, bug'doy, *javdar*, *tariq* ekilgan. Ulonbuloqsoydan bosh olgan ariqlar orqali ekin dalalari ekilgan. Bog'dorchilik xo'jaligi xususiyati to'g'risida ma'lumotlar juda kam.

Sopolli madaniyati egalarining xo'jaligi sug'orma dehqonchilik, chovachilik, hunarmandchilikdan iborat bo'lgan. Oziq-ovqat mahsulotlarining bir qismi ovchilik orqali qondirilgan. Sug'orma dehqonchilik xo'jaligi faoliyati pakana bug'doy, yumshoq bug'doy qoldilarini topilgan. Uzum donlari topilgan. Dehqonchilikning iqtisod sohasida ustunligini toshdan yasalgan yorg'uchiq, kel, kelsop va motiganing uchi kabi anjomlar guvohlik beradi. Ekin dalalari qanday shudgor qilinganligi va ariqlar qanday qazilganligi noaniq. Sopolli manzilgohidan motigaga o'xshagan bir nechta predmetlar topilgan. Ular toshdan yasalgan motiganing yirik uchi va yerni yumshatish uchun foydalanilgan suyakdan yasalgan ikkita motiga topilib, uning uchi yerni shudgorlash paytida siliqlanib qolgan. yerni shudgor qilishda qattiq metaldan yasalgan qurollarning uchramasligiga qaraganda qadimgi bobodehqonlar hayvon shoxi va yog'ochdan foydalangan bo'lsalar kerak.

Sopollitepa manzilgohidan topilgan hayvon suyaklarining sal kam uchdan ikki qismini kichik tuyeqli hayvon suyaklari, to'rtdan bir qismidan ko'prog'ini qora mol suyaklari va qisman cho'chqa, eshak va boshqa hayvonlarning suyaklari tashkil etadi.

Chovachilikda kichik tuyeqli mollar: qo'y va echki salmog'i ustun bo'lgan. To'rtta qabrdan beshta uy hayvonning butun tanasi topilgan. Ulardan birida juft hayvon qo'yilgan. Barcha qabrdagi uy hayvoni suyaklari uchraydi. Qablarga so'yilgan hayvonning ma'lum qismi, asosan orqa oyoqlari, bir nechta qovurg'asi, kuragi va ayri hollarda to'shi qo'y'i qo'yilib, qolgan qismi iste'mol qilingan.

Bronza davri hunarmandchiligidagi metallurgiya yaxshi rivolangan soha

hisoblanadi. Bronza asosiy xomashyo sifatida ishlab chiqarish faoliyati kundalik hayotining barcha soholarini egallab oladi. Bronzadan. Nafaqat mehnat qurollari va qurol yarog'lar, idish-tavoqlar, pardoz-andoz anjomlari va e'tiqod buyumiari yasalgan. Sopollitepadan bronzadan yasalgan bolta, tesha, pichoq, nayza, bigiz, to'quv simi, to'g'nag'ich, muhr, oyna, idishlar topilgan. Sopollitepada metalluriyadan tashqari boshqa uy hunarmadchiliklari: toshga, suyakka, teriga, yog'ochga ishkoy berish, to'qimachilik va boshqalar rivojlangan.

Sopolli bosqichining oxirida Ulonbuluoqsoy vohasi aholisi yashash joylarini tashlab, Sherobod vohasiga ko'chib o'tgan.

*Jarqo'ton bosqichi.* Sopollitepa manzilgohida yashagan qadimgi o'troq dehqon jamoasi aholisining soni ko'payib borishi natijasida yangi yerlarni o'zlashtira boshlaydilar. Ular mil. avv. II ming yillikning boshlarida Sherobod vohasidagi Jarqo'ton, Ko'hitang tog' yon bag'irida Tillobuloq va Arabuloq manzilgochlariiga asos solingan.

Jarqo'ton manzilgohi Sherobod daryosining hozirgi paytda suvsizlanib qolgan irmog'i Bo'stonsoning chap sohilida joylashgan. Manzilgoh bir nechta kichik tepaliklardan tashkil topib, mudofaa devori bilan o'rabi olingan ark va uning sharqiy va janubiy tomonlarida aholi yashaydigan shahriston o'rinni olgan. Shahristondan janubda 20 ga. maydonni egallagan joyda jarqe'tonliklarning qabriston joylashgan. Jarqo'tonning umumiy maydoni 100 ga. dan iborat. Soyning qarama-qarshi tomonida arxeologik jihatdan sopolli madaniyatining so'nggi bosqichiga oid Bo'ston VI nomi bilan yuritiladigan qadimgi qabriston mavjud.

Manzilgohning shimoli-g'arbiy qismida dunyo tomonlariga moslab qurilgan ark, ya'ni ilk shaharning qal'asi joylashgan. Qal'aning umumiy maydoni 4 ga. dan iborat bo'slib, atrofi somonli xom g'ishdan sal kam 3 m. qalinlikda qurilgan mudofaa devori bilan o'rabi olingan. Mudofaa devori bir metrgacha saqlanib qolgan. Devor ma'lum masofada joylashgan kvadrat shaklli mudofaa burjlari bilan kuchaytirilgan. Kirish darvozasi janub tomonida. Uning g'arbiy qismida

tomonlari  $42 \times 42$  m. keladigan mahobatli imorat joylashgan. Uning atrofi ham eni  $4$  m. xom g'ishtdan qurilgan mudofaa devori bilan o'ralgan olingan. Devor kvadrat shaklli 13 ta mudofaa burjlar bilan kuchaytirilgan. Kirish darvozasi janubiy devorning o'rtasida bo'lib, ikki tomonida burjlar mavjud. Ushbu mahobatli imorat ichkarisidagi xonalar mudofaa devori bo'ylab qurilgan. Imoratning markaziy qismida keng stupa ( $12,8 \times 13,8$  m.) joylashgan. Bu inshootni tadqiqotchi olimlar ilk shaharning saroyi bo'lgan, deb hisoblaydi. Shuningdek, Jarqo'tonning ark qismida metall eritish o'choqlari aniqlangan. O'choqlar tigellar-qozon yordamida mis va qalayini eritib, bronza metalli hosil qilingan. O'choqlar o'txonasining devori uzoq muddat olov yonishi oqibatida ko'kimir tusli toshqolga aylanib ketgan. Unda qalin kul qoldiglari saqlab qolgan.

Manzilgohning sharqiy va janubiy tomonidagi tepaliklar o'rnidagi shahristonda ibodatxona, aholining uy-joylari, hunarmandchilik inshootlari joylashgan. Aholining uy-joylari kishilarning jamiyattdagi mavqiega ko'ra bir va ko'p xonali uy-joylardan tashkil topgan.


Jarqo'tonda baland tagkursi ustida, dunyo tomonlariga moslab qurilgan ibodatxona majmuasi (tomonlari  $60 \times 44,5$  m.) manzilgohning mahobatli imoratlardan biri hisoblanadi. Ibodatxona qalinligi  $5$  m. mudofaa devori bilan o'rab olingan. Uning kirish darvozasi janubiy devorida joylashgan. Majmua toat-ibodat xonasasi, xizmatkorlar yashash xonalari va xo'jalik qismidan tashkil topgan. Toat-ibodat xonasida muqaddas olov mehrobi asosiy o'rinn tutgan. Hovlida suv saqlanadigan quduq mavjud bo'lgan. Qadimgi Sharq xalqlari diniy tasavvurida olov insонning tanasini yovuz ruhlardan halos etuvchi, suv esa ulardan tozalovchi vazifasini bajargan.

Jarqo'ton ibodatxonasi yaqinida vino tayyorlanadigan maxsus xonaning o'rni ochib o'rganilgan. Ehtimol, jarqo'tonlik aholi diniy aqidasida muqaddas ichimlik sifatida vino iste'mol qilingan. Ma'lumki, O'rta Osiyoning qadimgi xalqlarida muqaddas ichimlik *mitraga* sig'inish odatining ishorasi hisoblangan.

Ibodatxona Murg'ob vohasining Gonurtepa manzilgohi ibodatxonasi bilan umumiyligga ega. O'rta Osiyoning bronza davri o'troq dehqonchilik vohalari aholisi diniy dunyoqarashida muqaddas olov va ichimlik kulti yuqori o'rinni egallagan. Olov quyoshning yerdagi aksi bo'lib, keyingi davrda mahalliy aholi orasida tarqalgan mitraga sig'inishni o'zida aks etirgan.

Shahristonning janubiy va janubi-g'arbiy tomonidagi tepaliklarda Jarqo'ton aholisining qabristoni o'rin olgan. Shahriston bilan qabristonni tabiiy jarlik ajratib turadi. Ma'lumki, sopolli madaniyatining jarqo'ton bosqichidan boshlab, marhumlarni manzilgohdan tashqarida ko'mish odatiga amal qilina boshlaydi. Manzilgohda qisman, ayniqsa, yosh bolalar dafn qilingan. Qabriar sopolli madaniyatining jarqo'ton, ko'zali, molali bosqichiariga oid. Jarqo'ton qabristonidan ikki mingdan ortiq go'rlar aniqlangan. Qabrlar katakomba, o'ra go'rlardan iborat. Xumlarga solib ko'mish odati va kenotaf qabrlar mavjud. Mayitlar yen tomoni bilan gujanak holatda sharq tomoniga qaratib ko'milgan. Erkaklar o'ng, ayollar chap tomoni bilan yetqizib ko'milgan. Marhumlarning yoniga jinsi, yoshi va hayotiylik davridagi ijtimoiy holatiga qarab sopol buyumlar, tosh va metaldan yasalgan mehnat qurollari, qurol yarog'lar va taqinchoqlar qo'yilgan.

Mis va bronzadan mehnat qurollari, qurol yarog'lar va zeb-ziynat buyumlari yasalgan Toshdan otish quroli, kamon paykoni, keti, keli sopi, bolta, tesha, yorg'uchiq va boshqa buyumlar yasalgan. Kulolchilik buyumlari sopolli bosqichidan unchalik farq qilmaydi. Sopol buyumlarining sifatida biroz pasayish kuzatiladi. Jarqo'ton bosqichida e'tiqod buyumlaridan antropomorf va zoomorf haykalchalar. Antropomorf haykalchalar ko'proq homildor ayol aks etirilgan. Erkaklarning haykalchalari kamchilikni tashkil etadi. Hayvonlarning haykalchalari loy va toshdan yasalgan.



Janub'ia bosqichi nesillari

Bronzadan yasalgan rozetkasimon ilgakli muhr muhim o'rini egallaydi. Old tononida gorbatly tumshug'i va stilizovanniy dum'i va qanoti bilan tasvirlangan. Qanotlarida ikkita ilon tasvirlangan bo'lib, boshi qushninch boshi bilan birlashgan. Muhrlarning yasalish usuli va tasvirlarning berilishi sopolli an'analaridan unehalik farq qilmaydi.

*Ko'zali bosqichi.* Bu bosqichida Jarqo'ton manzilgohida rivojlanish jarayoni davom etib, xo'jalik va moddiy madaniyatida avvalgi bosqichiga an'analar davom etadi. Kulochilik ayrim o'zgarishlar sodir bo'ladi. Sopol buyumlari tez aylantiriladigan charxda yupqa va bejirim qilib yasala boshlaydi. Ko'zalarning sirti bezatila boshlaydi. Ko'zali bosqichiga kelib marhumlar bilan birga mehnat qurollari va quroq yarog'lar o'miga ularning kichik nusxalarini qo'yishga odati tus oladi. Qabrlarga qo'yilgan moddiy ashyolarning soni va turi ko'payadi. Moddiy topilmalarning guvohlik berishiga qaraganda aholi o'rtasida mulkiy tengsizlik va tabaqalanish jarayeni kuchayib, ijtimoiy munosabatlar chuquriashadi.

*Mulali bosqichi.* Oltinsoy tumani hududidagi Mulalitepa (8-9 ga.) va Buyrachi I (10 ga.) va boshqa kichik (0,2-2 ga.) manzilgohlar o'rganilgan. Mullali bosqichlarda sepolli madaniyati tarqalgan hudud doirasasi niheyatda kengayib, Surxon vekhasining Sangardak mikrovohasi hududigacha bo'lgan yerlar o'zlashtirilgan bo'lsa, mazkur bosqichning oxirida Janubiy Tojikistonca

Dushanbe shahrigacha bo'lgan yerlarga tarqaladi. Dushanbe shahri yaqinidagi Kangurtut manzilgohining quyi qatlamidan Sopolli madaniyatiga xos uy-joy imoratlari va moddiy topilmalar aniqlangan.

Sopolli madaniyatining Mollali bosqichida ko'mish bilan birga *krematsiya*, marhamiarni yoqib, kulini ko'mish odati ham tarqalgan. Krematsiya Yevrosiyoning shimaliy dasht hududi, xususan, Andronovo madaniyatiga uchun xos. Sopolli madaniyatiga qo'shni bo'lgan Beshkent madaniyatiga oid qabrlarda ham *krematsiya* odati uchraydi. Ular Andronovo madaniyatiga oid aholi vakillari bo'lgan.




Mollali bosqichidagi sopolli.


Hunarmandchilikda ixtisoslashish jarayoni chuqurlashadi. Metallarga ishlov berish yuqori darajada rivojlanadi. Brooza quyishi texnologiyasi takomillashib, buyumlarga obdon ishlov berila boshlaydi. Savdo-iqtisodiy munosabatlar chuqurlashib boradi. Bu bosqichga kelib kulolchilik ishlab chiqarish darajasi yuqori ko'tariladi. Kulolchilikda tez aylanadigan charxdan foydalanila boshlaydi va mahsulotni pishirish usul yanada takomillashadi. Sopol buyumlarining shakli o'zgaradi. Yupqa devorli sopol buyumlar ko'payadi. Sopol buyumlarining sirtiga to'q-qazg'ish rangli angob surtilgan. Ayrim hollarda sopollarning sirti ko'kish rangli oqiziqlar bilan bezatilgan. Sopollarning asosiy shakkular vazalar va ko'zalardan iborat. Sopollarning shakkular o'zgarib boradi. Ularning hajmi kichiklashib, vazni yengillashib boradi.

Jarqo'tonning mollali bosqichga oid qatlamidan topilgan fil suyagidan yasalgan buyumlar Hindiston bilan savdo va madaniy aloqasidan darak beradi. Bu davrda aholi o'rtaida mulkiy tengsizlik va ijtimoiy tabaqalanish jarayoni yanada chuqurlashib boradi.


Jarqo'ton manzilgohida Qadimgi Sharqning ilk sivilizatsiyasi (Shumer, Misr, Elam va boshqalar) markazlarining ilk shaharlariiga xos alomatlar mavjud. Jarqo'tonning katta maydoni, mahobatlari imoratlarning (ibodatxona, sarey) mavjudligi, mudofaa tizimi, ixtisoslashgan hunarmandchilik ishlab chiqarishi va savdo munosabatlari, jamiyatning ijtimoiy stratifikatsiyasi, ya'ni tabaqalanish jarayonining mavjudligiga qaraganda ko'ra manzilgoh qadimgi sharq mamlakatlarining ilk shaharlariiga juda yaqin turadi. Jarqo'tonni o'rgangan tadqiqotchi olimlar mazkur yodgorlikda mavjud bo'igan arxeologik alomatlarni hisobga olib, manzilgohni ilk shahar toifasiga kiritadi.




1



2



3



4

Baqtriyasing bronza davri yodgorliklari: 1-2. Ibedatsxon, 3. Saray-Ibedatsxon (Dashtli 3), 4. Sepolitepa,

Qadimgi Baqtriyada ilk shahar hokimiysi diniy-g'oyaviy shaklga ega bo'lib, bu davrda aholi o'rtaida harbiy ziddiyat shakllanmagan edi. Manzilgoh va qabrlarda harbiy qurol-yarog'lar kam uchraydi. Baqtriyada moddiy ashyolarga boy qabrlar ayollarga tegishli. Bunday jamiyat mahalliy aholi tomonidan qebul qilingan urf-odat va marosimlar asosida boshqarilgan.

Jamiyatning barcha sohasida rivojlangan taraqqiyotga ega bo'lgan BMAK bronza davrining oxirida inqirozga uchraydi. Inqiroz sababini tadqiqotchilar turlicha talqin qiladilar. Ayrim tadqiqotchilar ekologik vaziyat bilan bog'lasa, boshqalar shimalidagi Sibir dashtlarida yashagan Andronovo madaniyatiga oid chorvador aholining janubga siljishi natijasi, deb hisoblaydi.

*So'g'dning bronza davri arxeologiyasi.* Bronza davrida So'g'd hududida

turli madaniyatlar tarqalgan. Zarafshonning yuqori oqimida Sarazm madaniyati (Sarazm III-IV bosqichlari), To'qayli, Zarcha Xalifa, Dashti Qozi, Sazog'on 2 manzilgobi, Mo'minobod, Chakka qabrlari va Jukov diniy me'moriy majmualari mahalliy aholi madaniy an'anasi bilan birga shimoliy dasht hududlarda yashagan aholi madaniyatini aks ettirgan. Zarafshonning quyi oqimi hududida Zomionbobo madaniyati tarqalgan.

Sarazm madaniyatining uchinchi (Sarazm III) bosqichida moddiy madaniyat va xo'jatik sohasida yangi yutuqlarga erishilgan. Bu davrda manzilgohda aholi soni ko'payib, yangi uy-joy imoratlari quriladi. Xom g'ishtdan tomonlari 15x15 m. keladigan o'n ikki xonali mahobatli qurilish majmuasi barpo qilingan. Xanjar, nayzaning paykoni, Sopol buyumlari charxda yasalgan, sirtiga naqsh chizilgan. Kul rang sopollar o'rnida yorqin tagli va qizil angob surtilgan idishlar soni ko'payadi. Misdan yasalgan buyumlar turi va soni ko'payadi.

Sarazmning so'nggi (Sarazm IV) bosqichida manzilgoh inqirozga alomatlar kuzatiladi. Bu davrga oid ayrim xonalarning burchagida ikki tabaqali kulolchilik xurndoni joylashgan bo'lib, chtimel xonaning boshqa joylari kulolarning mahsulot tayyorlaydigan joyi bo'lishi mumkin. Sarazm IV ning oxirida manzilgohning barcha arxeologik majmularida chovador qabilalar madaniyati namoyon bo'ladi.

Bu davrda hunarmandchilik ishlab chiqarishi rivojlanadi. Mazkur davr madaniy qatlamicha metall buyumlar soni va turi ko'payadi. Qo'rg'oshin qazib olish va ishllov berish texnologiyasi o'zlashtiriladi. Bronzadan pichoq, xanjar, bolta, tesha, qarmoq va zeb-ziynat buyumlari yasalgan. Metalldan yasalgan buyularning barchasi o'troq dehqon jamoasi aholisiga tegishli. Toshlardan turli uy-ro'zg'or buyumlari, xususan, kichkina idishlar yasalgan. Muhrilar qo'rg'oshin, tosh va loydan yasalgan. Muhrlarning sirtiga geometrik naqshlar va zoomorf tasvirlar tushirilgan. Ulardan birining sirtiga sigir yoki buqa tasviri muhim o'rinn tutadi. Muhrilar O'rta Osiyoning o'troq dehqonchilik madaniyati

an'anasini aks ettiradi. Toshdan yasalgan silindr shaklli boshqa bir muhr Mesopotamiya madaniyat uchun xos.

Sopol buyumlar charxda va qo'lda yasalgan. Sopol buyumlarining sirtiga sariq, yorqin-qizg'ish rangli angob surtilgan. Sopol buyumlari majmuasida qisman kul rang va naqshli sopollar ham mavjud. Kul ran sopollar qozon, choynak, sut pishirish idishi, naqshli buyumlar esa turli xil kosalardan iborat. Shuningdek, shimoliy choryadorlarga xos sopol buyumlari ham mavjud.arning sisati pasayib ketadi.

*Zarcha Xalifa.* Zarafshon daryosining chap sohilida, Sarazm yodgorligi yaqinida Zarcha Xalifa qabri topib o'rganilgan. Yorma usulida qazilgan qabrdan odam skleti bilan birgalikda har xil buyumlari ham mavjud. Marhum bilan birgalikda shoxli qo'y ham dafn qilingan. Marhum yon tomoni bilan gujanak holda, boshi shimoli-g'prbga qaratib ko'milgan. Marhumning bosh qismidan tilladan yasalgan xalqa va munchoq topilgan. Mayitxona atrosida asosan bronza, tillo, tosh, suyakdan yasalgan buyumlar va sopol buyumlar joylashgan. Sopol idishining biri sharsimon shaklida bo'lib, bo'g'zi tor, labi qayrilgan, ikkiechisiaing ham shakli birinchisi kabi bo'lib, bo'g'zi nisbatan uzun. Oltindan yasalgan kichkina sfrik shaklli kosa yupqa listdan chetlar ichkariga qayrilgan holatda yasalgan. Suyakdan yasalgan suvluq. Lazurit toshdan yasalgan munchoqiar ham mavjud. Jarqo'tondan topilgan gulli metall idishlarga o'xshash idishlar ham uchraydiyu Zarchai Xaiifa moddiy ashyolari yasalish usuliga ko'ra sopolli madaniyatining jarqo-ton bosqichi buyumlariga juda o'xshash.

*Dashti Qozi.* Dashti Qozi Zarafshon daryosining o'ng sohilida Panjikent shahridan shahridan 45 km. sharqda joylashgan. Bu yerda jami 27 qabr o'rganilgan. Ularda jami 39 ta marhum dafn etilgan bo'lib, 21 tasi yakka, 4 tasi juft, 1tasi uch nafar va yana birida yetti nafar marhum dafn etilgan. Qabrlar chuqur va unchalik chuqur bo'lmanan yormadan iborat. Marhumlarning boshi shimolga va shimoli-sharqqa qaratib ko'milgan. Qabrga yaqin joyda o'choqlar mavjud qabrning ichida olov izlari va oxra saqlangan. Ko'rinishdan qabrn

mayitni qo'yishdan oldin yovuz ruhlardan tozalash maqsadida olov yoqilgan. Oxra esa qon bilan qurbanlik keltirish odatiga ishora bo'lsa kerak. Qabrlarda kuzatuv buyumlari uchramaydi. Sopol buyumlari kulrang, loyiga qum va ohak qo'shilgan. Ular bankasimon shakliga ega bo'lib, sirtiga o'yib naqshlar chizilgan. Naqshlar geometrik shaklda, ko'proq uchburchak. Bronza va qisman tilloдан turli xil zeb-ziynat buyumlari: sirg'a, baldoq, bilakuzuk va boshqalar yasalgan. Kuzatuv buyumlariga boy qabrlar ayollarga tegishli. Guruh qabrlarda modiy topilmalar uchramaydi.

*To'qayli manzilgohi.* Samarqand shahridan sharqda joylashgan To'qay qishlog'ida bronza davriga oid to'g'ri to'rburchak shaklli yerto'la uyning o'rni ochilgan. yerto'la uy qadimgi manzilgohning bir qismi be'lishi mumkin. yerto'laning ichidan hayvon suyaklari, tosh va bronzadan yasalgan mehnat qurollari hamda sopol buyumlar topilgan. yerto'la yaqinidan metall eritish o'chog'ining o'rni, metall toshqollar saqlangan. To'qayli manzilgohi mil. avv. II ming yillikning boshiga oid metallga ishlov beruvchi usta-hunarmandlarning manzilgobi bo'lgan. Bu yerdan topilgan sopollar Sarazmning yuqori qatlami sopollari va Andronovo madaniyatiga oid sopollarga o'xshaydi.

Zarafshon vohasida mil.avv. II ming yillikda Sarazm, Baqtriya va Andronovo madaniyatlariga oid manzilgohlar tarqalib, bu yerda mahalliy aholining janubdan kelib joylashgan o'troq dehqon, shime'dan kelgan chorvador to'qnashgan.

*Zamonbobo madaniyati.* Zarafshonning quyi oqimida hududida mil. avv. III ming yillik oxiri - II ming yillik birinchi yarmida Zamonbobo madaniyati faoliyat yuritgan. Qorako'l tumani markazidan 15 km. shimoli-g'arbda Zamonbobo ko'lining shimoliy schilida qabriston va uning yaqin atrofida ikkita manzilgoh o'rGANILGAN. Birinchi manzilgoh Zamonbobo ko'lidan 0,5 km. sharqda, Gujayli (Gurdush) ning qurib qolgan o'zani sohilida, ikkinchi manzilgoh ko'lidan 7 km. g'arbda, qurigan o'zanning bo'yida joylashgan.

Manzilgohlardan biri ikki tomonidan qir bilan, soy o'zani tomoni esa

qalitligi 2 m. val devori bilan o'rab olgan. Devor qoldiqlar 25-30 sm. gacha saqianib 40 m. joyi ochib o'rganilgan. Manzilgohdan yarim yerto'la uzun uyning o'mi, xumdon va bir nechta xo'jalik o'ralari aniqlangan. Yerto'laning uzunligi 23,5 m., kengligi 9 m.dan ortiq. chuqurligi 1 m. ga yaqin. yerto'la uyning maydoni 170 kv. m. dan iborat bo'lib, atrofiga o'rnatilgan yog'och ustunlarining izi saqlanib qolgan. Uyning ichida, devoriga yaqin joyda o'choqlar va ichki tomondan loysuvoq qilingan xo'jalik o'ralari o'tin olgan. Manzilgohda ikkita kulba va ikki yarusli xumdon (diametri 90 sm.) aniqlangan. Kulbalarlardan birida hunarmand kulol yashagan bo'lsa, ikkinchisi sopol buyumlar yasaydigan ustaxonasi bo'lishi mumkin. Ikkinchini manzilgohning madaniy qatlami deyarli saqlanmagan. U yerdan terib olingan moddiy ashyolar birinchi manzilgoh va qabrlardan topilgan moddiy ashyolar bilan bir xil.

Zamonbobo qabristonida jami 46 ta lahat qabr aniqlanib, ularda toq, juft va ko'pchilik mayit joylashgan. Juft qabrlarda erkak va ayol, ayrim hollarda erkak va ayollar bilan birga yosh bolalar dafn qilingan. Marhumlar yon tomoni bilan gujanak hoftada boshi sharqqa, shimoli-sharqqa va shimolga qaratib ko'milgan. Ayrim qabrlar 10-50 sm., ayrimlari esa, 70-130 sm. chuqurlikda ko'milgan. Chuqur qabrlarga qo'yilgan kuzatuv buyumlarining boyligi bilan farq qiladi. Barcha qabrlarda marhumlarning bosh tomoniga bittadan sopol buyumlari qo'yilgan. Erkakiar qabrida sopol buyumlari, chaqmoqtoshdan yasalgan kamon, nayza paykonisi va boshiqa buyumlar, ayollar qabridan esa qimmatbaho toshlardan (agat, seruza, lazurit, serdolik) va oltindan yasalgan munroqlar, misdan ishlangan ko'zgu, ayol haykalchalari topilgan. Moddiy topilmalar chaqmoqtosh mikrolitiar, yorg'uchiq bo'laklari, sopol parchalari va hayvon suyaklaridan iborat.

Zamonbobo madaniyati xo'jaligining asosini lalmi dehqonchiligi va uy chovachiligi tash kil etgan. Ma'lumki, Zamonbobo madaniyati mahalliy Kaltaminor madaniyati jamoasining qurg'oqchilik tufayli o'troqlashishi natijasida vujudga kelgan. Qizilqum cho'lida mil. avv. III ming yillikning

oxirida vujudga kelgan qurg‘oqchil iqlim sharoiti o‘zlashtiruvchi xo‘jalik bilan kun kechirgan aholining hayotiga jiddiy ta’sir qiladi. Tabiatdagi tayyor ozuqa manbai asosida kun kechirib kelayotgan aholi xo‘jalik shaklini o‘zgartirishga majbur bo‘lib, ishlab chiqaruvchi xo‘jalik shakliga o‘tadi.


Dehqonchilik xo‘jaligidan dalolat beradigan ma’lumotlar kesaklarning ichida saqlangan arpa va bug‘doy donlarining izi hamda dehqonchilik xo‘jaligidan dalolat beradigan anjomlar orqali guvoh bo‘lish mumkin. Dehqonchilikda bahori arpa va bug‘doy ekilgan. Ekinni yomg‘ir suvini dailariga boshqarib, sug‘orish usulidan foydalangan bo‘lishi mumkin. Hayvon suyaklari asosan xonaki-*qo‘y*, *echki*, *qora mol* va *eshakka* tegishli. Ularning barchasi xonaki chorva moli hisoblangan.

Zamonbobo aholisi hayotida o‘zlashtiruvchi xo‘jalik shakli ahamiyatini yo‘qotmagan. Ularda to‘qay sharoitida yashaydigan yovvoyi hayvonlar: to‘qay bug‘usi, cho‘chqa va jayronlarni ov qalgan. Bu davrda neolit va eneolit davrlariga nisbatan ko‘p bo‘lmasada, suv havzalari saqlanib qolgan. Ko‘llarda yashaydiga laqqa va cho‘rtan baliqlar ov qilingan.

Zamonbobo madaniyati sohiblari hayotida metalni eritish va undan turli buyumlar va anjomlar yasash yaxshi rivojlangan. Yodgorliklardan topilgan oyna, pichoq, igna, qarmoq metalga ishlov berish taraqqiyotidan darak beradi. Zeb-ziynat buyumlari qimmatbaho toshlar: feruza, agat, lazurit va seradolikdan yasalgan. Ularning aylana, silindr, romb, xoch, yarim oyshaklli nusxalari ajralib turadi. Qimmatbaho va yarim qimmatbaho metallardan yasalgan buyumlar ham qisman uchraydi. Oltindan yasalgan munchoq va kumushdan yasalgan naycha topilgan.

Chaqmoqtosh mikrolitlardan o‘roq qadamasi va kamon paykoni sifatida ishlataligan. Toshdan yorg‘ichoq va keli yasalgan. Toshdan yasaigan urchuqboshlar ham mavjud. Terrakotadan yasalgan urchuqboshlar ham mavjud. Bronza va misdan uy-ro‘zg‘or, xo‘jalik buyumlari, oltin, turli qimmatbaho toshlar, xususan lazuritdan zeb-ziynat buyumlari yasalgan.

## Zomonbobo madaniyatiga oid moddiy ashyolar



1-12. Tosh buyumlar 13-25.Sopol buyumlar

Sopol buyumlari ko'lda, qisman charxda yasalgan. Barcha sopol buyumlarining o'n to'rt xildagi turi ajralib turadi. Ulardan tuxumsimon oshxonalar, yarimsferik turli o'lchamli kosalar, tuvaksimon chuqur idishlar,

piyolalar, to'g'ri burchakli buyumlar va boshqalardan iborat. Sopol buyumlarining ko'pchiligining tagi tuxumsimon qilib yasalgan. Ayrim qabrlardan charxida yasalib, sirtiga naqsh solingan sopol buyumlarining kam sonli nusxalari ham uchraydi. Ular Janubiy Turkmanistonning Nomozgoh IV bosqichi oxiriga oid o'troq dehqon jamoasi sopolariga o'xshash.

Zamonbobo madaniyatiga oid yodgorliklardan charxida yasalib, sirtiga naqsh solingan kam sonli sopol buyumlari va lazurit toshidan yasalgan munchoq nusxalarining topilishi qaraganda aholi yaqin hududlarda yashagan aholi bilan qo'shnichilik aloqalarini olib borganmi yoki u yerlardan aholi vakillari Qizilqum hududiga kelib joylashganligidan dalolat beradi.

Hozirgi paytda Zamonbobo madaniyatiga oid ikkita manzilgoh aniqlangan. O'z davrida ularning soni qancha bo'lganligi noma'lum. Alovida manzilghlarda istiqomat qilgan aholi vakillari patriarchal oilalardan iborat kichik urug' jamoasini tashkil etgan. Tili, madaniyati va xo'jalik xususiyatlari jihatdan yaqin bo'lgan alovida urug'lar o'z sardorlariga ega bo'lgan. Urug'lar jamoalari o'rtaida qarama-qarshilikdan dalolat beradigan hyech qanday moddiy manbalar uchramaydi. Urug' jamoalari o'rtaida qo'shnichilik aloqalari olib borilgan.

*Suvyorgan madaniyati.* O'tgan asr asrning o'rtalarida S.P.Tolstov Amedaryoning quyi oqimi, Shimoliy Oqchadaryo o'zanidagi Qamishli hududida mil. avv. III ming yillikning oxiri-II ming yillikning boshiari bilan sanalangan Qamishli 1 va 2 makonlarini o'rgangan. Keyingi yili o'nlab yodgorlikni tadqiq etgan arxeolog Qamishli madaniyati faoliyati to'g'risidagi fikrni ilgari surgan edi. Keyinchalik bu makonlar Suvyorgan madaniyatiga oidgi aniqlanadi. Kaltaminor madaniyatining oxirida iqlim sharoiti qurib borishi natijasida mahalliy aholi xo'jalik shaklini o'zgartirgan bo'lishi mumkin. Lekin makonlardan ishlab chiqaruvchi xo'jalik faoliyatidan darak beradigan moddiy ashyolar uchramaydi.

Bu madaniyatga oid yodgorliklar va moddiy madaniyati sust o'rganilgan.

Suvyorgan aholisining neolit davridagi yashash tarzini saqlanib, yengil uylarda istiqomat qilgan. Ishlab chiqaruvchi xo'jalik shakllariga o'tganliklari to'g'risida yetarli moddiy topilmalar mavjud emas. Aholi an'anaviy o'zlashtiruvchi xo'jalik: ovchilik va baliqchilik shakiini saqlab qolgan.

Suvyorgan madaniyatiga oid makonlardan kam sonli tosh quollar va sopol buyumlari topib o'r ganilgan. Chaqmoqtoshdan paykon, pichoq, qirg'ich va teshgich kabi anjomlar yasalgan. Sopol buyumlari qo'lda yasalib, sirtiga qizil angob surtilgan. Suvyorgan madaniyati egalari mil.avv. II ming yillikning ikkinchi yarmida o'troqlashib, Quyi Amudaryo hududida bronza davriga oid yangi bir madaniyatning shakllanishida ishtirot etadilar.

*Tozabog'yob madaniyati.* (mil.avv. II ming yillikning ikkinchi yarmi) Amudaryoning quyi oqimida yashagan ovchilik va baliqchilik xo'jalik shakllarini yuritgan qabilalar o'troqlashib, dehqonchilik va chorvachilik xo'jalik shakliga o'tadilar. Tozabog'yob madaniyatiga oid yodgorliklar Amudaryoning quyi oqimi hududida tarqalgan. Dastlab Oqchadaryo o'zani hududida joylashgan yodgorliklar o'r ganilgan.

Tozabog'yob madaniyatiga oid 50 dan ortiq yodgorlik o'r ganilgan. Ular Ko'kcha, Qavat va Anka, Jenbos guruhi va boshqa yodgorliklardan tashkil topib, Anka 5, Qavat 4 makonlar va Ko'kcha 3 qabristoni yaxshi o'r ganilgan. Aholi uy-joylari to'g'ri to'rtburchak shaklli yarim yerto'ladan iborat. Uylarning atrofiga yog'och ustun o'rnatilib, tepasi yog'och to'sinlar bilan yopilgan. Kulbalarning o'rtasida markaziy o'choq joylashgan. Uylarning o'lchamni o'rtacha  $10 \times 12$  m.,  $12 \times 15$  m. dan iborat. Ularning atrofida moddiy topilmalar aniqlanmagan. Kulba devorlari yonida xo'jalik o'ralari bo'lgan.

Qavat 3 qabrlarida yakka va juft mayitlar dafn qilingan. Ularning ayrimida marhumlar bir davrda, boshqalari esa turli davrlarda dafn etilgan. Erkaklar o'ng, ayollar chap tomon bilan bukchaytirib, juft mayitlar esa yuzma-yuz yotqizilgan holatda qo'yilgan. Marhumlarni yuzma-yuz dafn qilish Andronove madaniyati aholisiga xos odat hisoblanadi. Umri yo'ldoshi vafot etgandan so'ng xotin eri

bilan narigi dunyoga ketishi yoki qolishi o'zining xohishi hisoblangan.

Marhumlar bilan birgalikda ma'lum buyumlar ham qo'shib ko'milgan. Ayollar qabridan turli zeb-ziynat buyumlari, ko'proq bronza bilakuzuk, erkaklar qabridan sopol buyumlari va bronzadan yasalgan qurollar topilgan.

Moddiy topilmalar tosh qurollar, sopol buyumlar va bronzadan yasalgan buyumlar hamda hayvonlarning suyagidan iborat. Sopollar qo'lda tagi tckis qilib yasalgan. Ularning loyiga somon va maydalangan chig'anoq qo'shilgan. Idishlar tuvaksimon shaklida, bo'g'zi biroz toraytirib, yasalgan. Ayrim sopollarning sirti silliqlangan. Sopollarning sirtiga uyib geometrik shaklli naqshlar chizilgan. Naqshlar yuqorida pastga tomon qator joylashgan.

Bronzadan yasalgan bir tig'li pichoq va suyak dastali iskana topilgan. Ayollar dasn qilingan qabrda bronzadan yasalgan zeb-ziynat buyumlari, xususan, bilakuzuklar topilgan. Tozabog'yob madaniyat aholisi hayotida metalga ishlov berish hunarmandchiligi yaxshi rivojlangan. Qavat 3 makonidan bronza quyish va qurollar yashash ustaxonasining qoldiqlari saqlangan. Bu yerdan metalli quyish uchun mo'ljallangan qolip, metall bo'laklari va metaldan yasalgan qurol parchasi topilgan. Toshdan nayzaning uchi, yorg'uchchoq va boshqa anjomlar yasalgan. Qavat 3 yodgorligi yaqinida qadimgi dehqon jamoasi ekin maydonining o'rni saqlanib qolgan.

Tozabog'yob madaniyat egalari sun'iy qurilgan yerto'la uylarda istiqomat qilib, chorvachilik va dehqonchilik xo'jaligini yuritgan. Bu madaniyat taraqqiyotining dastlabki bosqichda chorvachilik xo'jalikning mavqeyi yuqori bo'lgan. Bu yerda qoramol, qo'y va ot boqilgan. Keyinchalik aholining o'troqlash natijasida dehqonchilik xo'jaligining ahamiyati o'sib boradi. Bug'doy, arpa, tariq va poliz ekinlari ekilgan.

Tozabog'yob madaniyat egalari Amudaryoning o'ng sohili hududida yashab qolmasdan, kengroq hududlarni egallaydi. Bu madaniyat oid topilmalar Amudaryoning chap sohili hududigi O'zboy o'zani va Sarigamish ko'li atrofida ham uchraydi. Tozabog'yob madaniyat xo'jaligi, moddiy madaniyat va diniy

qarashlarida Ural bo'yи hududida tarqalgan Srib va Sharqi Sibirda tarqalgan Andronovo madaniyatları bilan o'xshashlik mavjud. Tozabog'yob madaniyati Yevroсиyo dashtlarida yashagan Srib va Andronovo madaniyatiga oid bir guruh aholining Amudaryoning quyi oqimiga ko'chib kelib, keyinchalik Kaltaminor madaniyati zaminida vujudga kelgan mahalliy Suvyorgan madaniyati aholisi bilan aralashishi natijisida vujudga kelgan.

*Amirabod madaniyati.* Amirobod madaniyati mil.avv. X-VIII asrlarda Amudaryoning o'ng sohili hududida qadimgi Oqchadaryo o'zaning janubiy yerlerida faoliyat yuritgan. Mazkur madaniyatga oid makonlar Qoraqolpog'iston Respublikasining To'rtko'l, Beruniy va Ellikqal'a tumanlari hududida joylashgan. Yodgorliklardan Yakkaparson II va Qavat II makonlari arxeologik jihatdan yaxshi o'r ganilgan.

Uy-joy imoratlari yarim yerto'la va yer usti chayla kubbalardan iborat. Yarim yer to'ja uy-joylarning katta, o'rtacha va kichik o'chamli turlari ajralib turadi. Ularning maydoni 28 m. kv. dan 165 m. kv. m. gacha bo'lган. Aholi yilning issiq fasli mavsumida chayla kubbalarda yashagan.

Amirabod madaniyati egalari dehqonchilik-chorvachilik bilan kun kechirgan. Amudaryodan chiqarilgan ariqning o'rni saqlanib qolgan. Chorvachilikda yetakchi o'rinni qora mol egallagan. O'zlashtiruvchi xo'jalik ahamiyatini saqlab qolgan. To'qay hayvonlari, cho'lda to'da bo'lib yashovchi hayvonlar asosiy ev o'jasini tashkil etgan. Suv havzasiga yaqin joyda yashagan aholi baliqchilik bilan kun kechirgan.

Moddiy topilmalar bronza buyumlari, tosh qurollari va sopol buyumlaridan iborat. Bu davrda bronzadan yasalgan anjomlarning turi ko'payadi. Bronzadan o'req, pichoq, bigiz, igna, paykon va zeb-ziynat buyumlari yasalgan. Yakkaparson manzilgohidan topilgan tosh qoliplarda o'req, pichoq va paykonlar quyilgan.

Amirobod madaniyatiga oid sopol idishlar qo'lda yasaigan. Ayrim sopollarning sirti silliqlangan va qizil rangli bo'yodda naqsh chizilgan. Naqshlar

uchburchak, egri chiziq va archa tasviri shaklidan iborat. Sopol buyumlari xumlar, katta va kichik kosalardan iborat.

Amirabod madaniyati aholisi ijtimoiy munosabatlari to‘g‘risida aniq xulosa chiqarish qiyin. Sug‘orish inshootlarini barpo etish va ularni nazorat qilish ishlari jamiyatda ma‘lum tashkilot boshqaruvidan daolat beradi.

*Chust madaniyati.* Farg‘ona vodiysi Sirdaryoning yuqori oqimi hududida joylashgan bo‘lib, janubdan Oloy va Turkiston, sharqdan Farg‘ona va Oto‘ynoq hamda g‘arbda Chotqol-Qurama tog‘lari bilan o‘rab olingan. Bu yerda so‘nggi bronza davrida (mil. avv. II ming yillikning ikkinchi yarmi) Chust madaniyati shakllanadi. Chust madaniyati tadqiqotchilarining sikriga ko‘ra mahalliy Andronovo madaniyati chorvador aholisining o‘troqlashishi natijasida paydo bo‘lgan. Boshqa bir olimlar Sharqiy Turkistonning Tarim vohasidan ko‘chib kelgan aholi asos sofgan, deb hisoblaydi.

Chust madaniyati taraqqiyotining ikki bosqichi ajralib turadi. Ilk bosqichi so‘nggi bronza davriga, rivojlangan bosqichi ilk temir davriga oid. Chust madaniyatining ilk bosqichiga yodgorliklar vediyning sharqiy yerlarida tarqalgan. O‘sh manzilgohi, Dalvarzintepa, Ashqoltepa, Dehqon va boshqa manzilgohlarning quyi madaniy qatlami Chust madaniyatining ilk bosqichiga oid bo‘lib, so‘nggi bronza davrida o‘zlashtirgan. Quyi madaniy qatlamidan yerto‘la shaklidagi uy-joylarning qoldiqlari, xo‘jalik o‘raiari va boshqa moddiy ashyolar o‘rganilgan.

Chust madaniyati aholisi dehqonchilik va chorvachilik xo‘jaligi bilan kun kechirgan. Ular kulolchilik, to‘qimachilik, bronza quyish ishlari bilan yaxshi tanish bo‘lgan. Manzilgohlardan qo‘lda yasalgan sopollar, tosh, suyak va metaldan yasalgan buyumlar topilgan. Kulolchilik buyumlari qo‘lda yasalgan, sirtiga och qizil va qizil randa angob surtilib, ularning ayrimlariga qora yoki jigarrangda geometrik naqshlar, ba’zilariga hayvon tasviri chizilgan. Kulolchilik buyumlari ochiq joylarda pishirilgan bo‘lsa kerak. Mis va bronzadan uy-ro‘zg‘or anjomlari va quroq yarog‘lar yasalgan. Chustliklar marhumlarning uylarning poli

va devorlarning tagiga yoki tashlandiq uy-joylarga ko'mishgan. Marhumilar oyoq-qo'llari bukilgan holda yon biqini bilan yotqizib ko'milgan.

O'sh manzilgohining quyi madaniy qatlamidan olingen kuyindi namunalarini radiokarbon usulida tekshirish natijasiga ko'ra Chust madaniyatining ilk bosqichi mil. avv. XV/XIV asrga teng ekanligi aniqliangan.

*Qayroqum madaniyati* (mil. avv. II ming yillikning oxirgi choragi). Farg'onanining janubi-g'arbi, Tojikistonning shimoliy yerlarida va Toshkent vohasining chekka janubi-sharqiy hududida tarqalgan madaniyat. Bu madaniyatga oid kichik manzilgohlarda cho'ziq shaklli bir necha yarim yerto'la uylar o'rganilgan.

Qayroqum madaniyati egalari chovachilik va dehqonchilik bilan shug'ullangan. Metall quyish ishlari ham qayroqumlik aholining hayotida muhim o'rinn tutgan. Bu madaniyatga oid manzilgohlarida metall eritish o'choqlarining o'rni saqlanib qolgan. Metallar Qoramozor tog'idagi konlardan qazib osingan. Kulolchilik buyumlari yassi tagli, o'yiq chiziqli naqsh bilan bezatilgan.

Qayroqum madaniyatida Tozabog' yob va Andronovo madaniyatlarining ta'siri ko'rindi. Shuningdek, Chust va janubdag'i o'troq dehqonchilik madaniyatları bilan ham aloqada bo'lgan.

*Janubiy Tojikistonning so'nggi bronza davri madaniyatları.* Janubiy Tojikistonda hududida bronza davrida turli xil xo'jalik shakli va moddiy madaniyatiga ega bo'lgan mahalliy madaniyatlar faoliyat yuritgan. Ushbu hududning shimoliy qismida mi'avv. II ming yillikning oxirgi choragida o'troq dehqonchilik madaniyati vujudga kelgan bo'lsa, janubdag'i Kofirnahan va Vaxsh vohalarida chovador qabilalar yashagan.

Bronza davrida mahalliy Hisor madaniyati oid aholi o'troqlashib, xo'jalikning ishlab chiqaruvchi xo'jalik shakliga o'tilgan. Shuningdek, bu davrda Sopollı madaniyatiga oid aholi yashaydigan hudud chegarasi Dushanbe hududi tomonga kengayib boradi. Sopollı madaniyati o'troq dehqon jamoasiga

tegishli moddiy ashylar Ko'ngirtut va Teguzak manzilgohlaridan topilgan.

Janubiy Tojikistonning Kofirnahr va Vaxsh vohalarida so'nggi bronza davrida chorvador qabilalar yashagan. Bu yerdagi chorvadorlar madaniyati shartli ravishda Bishkent va Vaxsh madaniyati nomi bilan yuritiladi. Kofirnahr daryosining quyi oqimida, tog'li Bishkentda ilk Tulxar va Aruktov, Vaxsh vohasida Tigrovaya Balka, Oyko'l, Jarko'l, Makonimor, Qizilsuv va boshqa qabrlar ushbu madaniyatlarning muhim yodgorligidir. Ularning oddiy chuqur va lahat kabi turi ajralib turadi. Chuqur qabrning ayrimida marhumlar dafn qilingan bo'lsa, boshqalarida *krematsiya* odati bo'yicha mayitni kuydirib, uning kuli ko'milgan. Krematsiya odati faqat Bishkent madaniyati uchun xos bo'lib, Vaxsh madaniyatida uchramaydi. Marhumilar bukchaygan holatda yotqib ko'milgan. Ikkita mayit birga ko'milgan qabrlar ham mavjud. Ular erkak va ayol jinsiga mansub bo'lgan.

Marhumlar bilan birga kuzatuv buyumlari ham qo'shib ko'milgan. Ular qo'lda yasalgan sopol idishlar, bronzadan yasalgan turli xil buyumlardir. Ayrim qabrlarda kulolchilik charxida yasalgan sopol buyumlari uchraydi. Kulolchilik charxida yasalgan sopollar chetdan keltirilgan. Bishkent madaniyati egalari yevropeiod irqiga mansub aholi vakillari bo'lgan. Ularning qiyofasida Andronovo aholisiga o'xshashlik alomatları mavjud. Shuningdek, ikki jinsli kishilarning bitta qabrdagi dafn etish odati ham Andronovo madaniyati uchun xos.

Vaxsh vohasida marhumlarni ko'mish odatiga amal qilgan. Ko'pchilik qabrlardagi buyumlari keyinchalik talon-taroj qilingan. Butun qolgan qabrlardan qo'lda, qisman charxda yasalgan sopol buyumlar va bronzadan yasalgan uyro'zg'or anjomlari, oyna, zeb-ziynat buyumlari: bilakuzuk, uzuk, munchoqlar topilgan.

Bishkent va Vaxsh madaniyatları xo'jaligi asosan chorvachilik va qisman dehqonchilik bo'lgan. Chorvachilikda kichik tuyoli mollar boqilgan. Dehqonchilik qo'shimcha mashg'ulot sanalgan. Metalga ishlov berish yaxshi rivojlangan. Sopollari qo'lda yasalgan. Kulolchilik charxida yasalgan sopol

buyumlar Sopolli madaniyatining Mulali bosqichiga oid.

So'nggi bronza davrida Janubiy Tojikiston hududida bir necha etnik guruhg'a oid madaniyatlar faoliyat yuritgan. Mahalliy Hisor madaniyatining o'troqlashishi, g'arbdan Sopolli madaniyatining mulali bosqichida hududi kengayishi va aloqalari hamda shimoldan Andronovo madaniyatiga oid aholining ko'chib kelishi natijasida ularning o'zaro to'qnashishi sodir bo'ladi.

#### **Muvzani mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:**

1. Bronza davri jamiyati taraqqiyot omili nimalardan iborat?
2. Oltintepaning shaharsozlik xususiyatlarini yoritib bering?
3. Oks sivilizatsiyasi to'g'risida ma'lumot bering?
4. Gonurtepa jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotida qanday o'rni tutadi?
5. Jarqo'ttonning ilk shahar markazi sifatidagi ahamiyatini yoriting?
6. So'g'dning bronza davri madaniyatlarini tavsiflang?
7. Chorvador qabilalar madaniyati xususiyatini yoriting?
8. Bronza davri ijtimoiy munosabatlari to'g'risida ma'lumot bering?

**TEMIR ASRI**

**I. Bob. O'rta Osiyoning ilk temir davri arxeologiyasi**

*Tayanch so'zlar: Qadimgi shahar, qadimgi podsholik, urbanizatsiya, ark, shahriston, mudosaa devori, tag kursi, xandak, yozma manbalar.*

*O'rta Osiyoning ilk temir davri etno-madaniy jarayontları. Yozma manba ma'lumotlarida keltirilishicha temir metalidan soydalanishiň daslab xett o'zlishtirishgan. Temir to'g'risidagi eng qadimgi yozma ma'lumot ham xettlarning mixxat yozuvlarida uchraydi. Mil. avv. XI-XVII asrغا oid "Anitti" matnida Xurrit shahar-davlat hududidagi Purusxonди hokimi o'z vassali Anittiga temir taxta aso sovg'a qilinganligi keltirilgan. Temirning qiymati boshqa metallardan bir necha o'n va hatto yuz barobar qimmat hisoblangan.*

Temir arxeologik artefakt sisatida mil. avv. IV-III (V-IV) ming yilliklarga oid madaniy qatlamlarda uchrab boshlaydi. U dumoloq shaldagi 14 dona munchoqdan iborat. Bu munchoqlar meteorit temirdan yasalgan. Temir rudasidan yasalgan eng qadimgi moddiy ashyo Shimoliy Iroqdagi Samarre qabristonidan topilgan mil. avv. XXX-XV asrlarga oid to'rt qirrali quroq hisoblanadi. Mil. avv. III ming yillikka oid temir buyumlar Mesopotamiya, Kichik Osiyo, Misrda ham uchraydi. Mil. avv. III ming yillikning oxiriga oid temir buyumlarning ko'pgina namunasi Kichik Osiyoning Alaja Xuyuk (Xett) yodgorligidan topib o'rganilgan bo'lib, ular meteorit temir va ruda temiriidan yasaalgan. O'rta Osiyo hududidagi Gonur, To'g'aloq 21, Jargo'ten yodgorliklarining so'nggi bronza davri qatlamidan temir buyumlari namunasi topib o'rganilib, qadimgi ajdodlarimiz metallurgiya sohohasidagi muhim texnologik yangiliklarni erta o'zlashtirganliklaridan dalolat beradi. Ma'lumki, temir 1530 S issiqqlikda eriydi. O'rta Osiyoning ilk temir davriga oid yodgorliklardan anovtepa va dalvarzintepa manzilgohlaridan dastlabki temir buyumlar topib o'rganilgan.

Taxminean mil. avv. II ming yillikning oxirgi choragida Atlantikadan Tinch okeanigacha yerdarda tarqalgan bronza davri madaniyatlarining inqirozga uchrashi yoki shaklini o'zartirish holati sodir bo'ladi. O'rta Osiyoning janubiy hududida ham shunday jarayon kechgan. U bronza davrining yuksak darajada rivojlangan ilk shahar madaniyati inqirozga uchrab, uning o'mida yangi madaniyat qaror topadi.

Ilk temir davrida vujudga kelgan madaniyat ayrim alomatlari bilan so'nggi bronza davri an'anasidek farq qilgan. Birinchidan, ilk shahar turidagi yirik manzilgohlar inqirozga uchrab, ularning o'rniда kichik dehqonchilik qishloqlari paydo bo'ladi. Ikkinchidan, kulolchilikda sopollarni qo'sha yasab, sirtiga geometrik naqshlar berish an'anasi qayta jonlanadi. Uchinchidan, bu davrda yuksak darajada rivojlangan badiiy san'atning torevtika va gliptika kabi tulari uchramaydi. To'rtinchidan, marhumlarni qabrda dafn etish an'anasi yo'qoladi.

O'rta Osiyoning janubiy hududida sodir bo'lgan mazkur jarayonlarni tadqiqotchi olimlar ko'chmanchi chervador qabilalarning migratsiyasi bilan bog'laydilar. Ular shimalda yashagan Andronovo madaniyatiga mansub aboli vakillari bo'lishgan. XX asrning boshida (1904) Anovtepada qazishma ishlarni olib borgan olimlar (R.Pampeli, G.Smidt) manzilgohining bronza davri qatlamida kuzatilgan inqiroz sababini varvarlar istilosini oqibati, deb hisoblagan. V.M.Masson Murg'ob vohasidagi Yoztepa manzilgohida olib borgan qazishma ishlariiga asoslanib, so'nggi bronzadan va ilk temir davriga jarayonini madaniy transformatsiya natijasi sifatida baholagan. Ilk temir davrining birinchi bosqichi arxeologiyada "naqshli sopollar madaniyati" nomi bilan yuritiladi. Dastlabki o'rganilgan yodgorlikning birinchi madaniy qatlamiga nisbatan Yoz I bosqichi sifatida qabul qilingan.

V.M.Masson Murg'ob vohasidagi ilk temir davriga oid Yoztepa manzilgohning quyidagi xronologik ustuni ishlab chiqqan:

Yoz I mil. avv. 900-650 yillar

Yoz II mil. avv. 650-500 yillar

### **Yoz III mil. avv. 500-350 yillar**

Ushbu stratigrafiya (madaniy qatlarni) ustuni Markaziy Osiyoning sinxron yodgorliklarning davrini belgilash uchun andaza bo'lib qolgan. 70-80- yillarda Baqtriya va So'g'd hududlarida tadqiqot ishlarini olib borgan A.A.Asqarov (Kuchuktepa), A.S.Sagdullaev (Qiziltepa, Sangirtepa), R.X., Suleymanov R.H. (yerqo'rg'on), M.X.Isamiddinov (Afrasiyob, Ko'ktcpa) va boshqalar olimlar Yoztepa yodgorligi ustuniga bo'yicha ularni mil.avv. 1000-350 yillar doirasida belgilaganlar. Lekin Janubiy Baqtriya hududidagi Tillatepa yodgorligini V.I.Sarianidi 300 yilga qadimiylashtirgan.(Tilla I mil. avv. 1300-1000 yilliklar). Shuningdek, Chust madaniyatiga oid yodgorliklarning quyi madaniy qatlarni Yu.A.Zadneprovskiy so'nggi bronza davriga oid, deb hisoblagan.

Turkman-engliz qo'shma ekspeditsiyasining Yoztepada olib borgan tadqiqot ishlarida amalga oshirilgan radiokarbon tekshirishi bo'yicha manzilgohning (Yoz I) quyi qatlarni 400 yilga qadimiylashtirib, uning quyi sanasini mil. avv. XIV asr bilan belgilagan edi. Keyinchalik Yozdepa bilan zamondosh yodgorliklarda ham radiokarbon tekshirishlari o'tkazilib, mazkur natijalar olinigan. Ushbu natjalarga asoslansa, O'rta Osiyoning o'troq dehqonchilik hududi ilk temir davri arxeologik majmuasini quydagicha davrashtirish mumkin:

- 1) Yoz I-ilk temir – mil. avv. XIV/XIII-IX asrlar;
- 2) Yoz II- ilk arxaik mil. avv. VIII-VI asrning birinchi yarmi;
- 3) Yoz III-arkaik – mil. avv. VI asr ikkinchi yarmi-IV ast boshlari.

Yoz I ilk temir davrining boshiga kelib, O'rta Osiyoning barcha tarixiy-madaniy viloyatlarida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida muhim o'zgarishlar sodir bo'ladi. Birinchidan, o'lkaning janubiy viloyatlariga shimoldan yangi etnik guruhning kirib kelib joylashishi sodir bo'ladi. O'troq dehqonchilik vohalarida sug'orish tizimi yanada takomillashtirilib, dehqonlar temonidan yangi yerlar o'zlashtiriladi. Manzilgohlarning soni ko'payib, ularning maydoni kengayadi hamda ichki strukturasi murakkablashib, Yoz II davrida

qadimgi shahar markazlari shakllanadi. Bunday shaharlar hududiy davlatlar-podsholiklar va ularning ma'muriy bo'linnalarining ma'muriy-iqtisodiy va madaniy markazlari sifatida rivojlanadi.

Ilk temir davrda O'rta Osiyoning ilk o'troq dehqonchilik o'lkalari hududi kengayib borishi barobarida, yangi o'troq dehqonchilik vohalari shakllanadi. Mintaqada ilk temir davrida mavjud bo'lgan tarixiy-madaniy viloyatlar, ilk davlat birlashmalari, aholining ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari, diniy qarashlari to'g'risidagi ma'lumotlar "Avesto", Qadimgi Eron manbaari va yunon-rim mualliflarining asarida keltirib o'tilgan. Aryanam Vayjo yoki Ariyoshayona Xaralli (Aralli)

№	Avesta		Qadimgi fors manbalari	Yunon-rim manbalari
	<i>Yashi</i>	<i>Vedevdat</i>		
1	Mouru	Mouru	Margush	Margiana
2	Suguda	Suguda	So'g'diyona	Sogdiana
3	Xvarizam	Xvarizam	Xvarazmish	Xorasmiya
4	-	Baxdi	Baqtrish	Baktriana
5	-	Nisaya	Parfiена	Parfiya

Massagetlar, saka tara-daryaya, saki tigraxuda, saka xoumavarka, amurgiya saklari, so'g'd orti saklari, daryo orti saklari, daxlar, derbiklar, issidonlar, passianlar.

O'rta Osiyoning dehqonchilik vohalari atroflarida hamda uning shimoliy, sharqiy va g'arbiy hududida ko'chmanchi chovvachilik xo'jaligiga asoslangan qabilalar yashagan. Chorvadorlarga oid yodgorliklar Orolbo'y, Sirdaryoning quiy oqimi, Sariqamish hududi, Pomir-Oloy tog' tizmalari va Tangri tog' oidi hududlarida tarqalgan. Chorvador qabilalaining makonlari asosan qabr-qo'rg'onlar va qisman manzilgohlardan iborat.

*Marg'iyona.* Murg'ob vohasining quy oqimi yerlarini egallagan madaniy-

tarixiy o'lka. Bu yerda ilk temir davri yodgorliklari bronza davridagi kabi alohida ariqlar (kanal) bo'yidagi mikrovohalar hududida o'r ganilgan. Mikrovohalar Keleli, Ajiquyi, Toip, Odamboskan, Ovchin, Gonur, To'g'aloq va Tohirboylardan iborat. Ilk temir davrining boshida o'troq dehqon jameasining dastlabki kichik qishloqlari shakllanadi. Keyingi bosqichda manzilgohlardan birining maydoni kengayib, me'moriy tuzilmalari murakkablashib boradi va mikrovohaning markaziga aylanadi. Bunday manzilgohlar ma'lum bir mikrovohaning markazini tashkil etgan qadimgi shahrlar edi.

O'lkanning ilk temir davriga oid barcha manzilgohlari tuzilishi va vazifasiga ko'ra uch xil shakli ajralib turadi. 1. Atrofi muhofaza devori bilan o'rab olingen yirik manzilgohlar. Ular (Yoztepa, To'g'aloqtepa, Toxirboy I, Qo'hna Marv) odatda ikki qismidan qal'a, aholi yashaydigan shahriston qismlaridan tashkil topib, mudofaa devori bilan o'rab olingen. Mudofaa devoridan tashqarida aholi uy-joylar joylashgan 2. Yirik maydonni egallagan dehqonchilik qishloqlari. Ular mudofaa devoriga ega bo'limagan. 3. Dehqonlarning kichik qishloqlari yoki uy-qo'rg'onlari.

Murg'ob vohasining yirik manzilgohlari orasida eng yirigi va qadimgisi Yoztepa manzilgehi hisoblanadi. Ib, unin umumiyligi maydoni 16 ga. dan iborat. Manzilgoh ilk temir davrining ilk bosqichida shakllanib, taraqqiyotining ikkinchi davrida (Yoz II) uning bir chekkasida, 1 ga. joyda qalinligi 8 m. keladigan tag kursi ustida qal'a-qo'rg'on, ya'ni ark qurilgan. Qal'a-qo'rg'on atrosida tarqoq joylashgan uy-joy imoratlari qurilib, shahriston shakllangan, ular umumiyligi mudofaa devori bilan o'rab olingen. Qurilishida xom g'isht (50x25x10 sm.) ishlatalgan. Yoztepa ilk temir davrining rivojlangan bosqichida Marg'iyyona o'lkasining markazi aylangan.

Yoztepa manzilgohida qadimgi shahar shakllangan davrda (mil.avv. VII asr) Erkqal'a va Gyaurqal'a yodgorliklari o'mida o'troq dehqonchilik qishlog'i shakllangan. Mil.avv. I ming yillikning o'rtalarida manzilgoh rivojlanib, shaharga aylangan. Erkqal'ada 15 metr qalinlikdagi tagkursi ustidagi xom

g'ishtdan (52x26x10-12, 60x28x10 sm.) qurilgan imoratlarning o'mni saqlangan.

Erkqal'a Ko'hna Marv shaharning arki, unga tutashgan Gyaurqal'a shahriston qismini tashkil etgan. U Murg'ob vohasining mil. avv. I ming yillikning ikkinchi yarmidagi yirik shahri bo'lib, Marg'iyananining ma'muriy markazi hisoblangan. Antik davri yozma manbalarida keltirilgan Marg'iyyona Antioxiyasi ushbu manzilgohlar o'rniда faoliyat yuritgan.

Murg'obning har bir mikrovohasida shahar turidagi yirik manzilgoh atrofida bir necha dehqonchilik qishloqlari joylashgan. Mikrevohalar kichik ma'muriy-hududiy tuzilmani tashkil etgan. Ulardan eng yirigi dastlabki Yoztepa, keyinchalik Ko'hna Marv manzilgohlari Marg'iyananining ma'muriy markazi bo'lgan.


Voha xo'jaligimiz asosiy tarmog'i sug'orma dehqonchilik bo'lib, sug'orish inshootlarining izlari saqlanib qolgan. Yoztepa va Aravalitepa manzilgohlari yaqinidan qadimgi ariqning izi aniqlangan. Hozirgi Gatiaqor va Guniyob anhorlari suvidan odamlar ilk temir davrida foydalanishni boshlagan.

Dehqonchilikda asosan dukkakli va poliz ekinlari ekilgan. Bug'doy, arpa va tariq asosiy ekin hisoblangan. Bog'dorchilik dehqonchilikning asosiy tarmog'ini tashkil etgan. Chorvachilikda ko'proq qoramol boqilgan. Kichik tuyuqli chorva mollari dehqonchilik vohalarning chetida, cho'lga yaqin hududagi yaylovlarda boqilgan. Hunarmandchilikda temir, mis va bronzaga ishlov berish, kulolchilik, to'qimachilik rivojlangan.

Marg'iyanada temirchilik yaxshi rivojlangan. Tohirboy I va Churnok manzilgohlaridan temir toshqollari topilib, ular temirchilik ustaxonasi vazifasini bajargan. Temirdan ish qurollari, oshxonalar anjomlari yasalgan. Yoz II davri qatlamida temirdan yasalgan bolta paydo bo'ladi. Keyingi bosqichda boltalarining soni ko'paygan. Shuningdek, topilmalar orasida temirdan yasalgan igna va bigizlarning nusxasi ham ko'p uchraydi. Kamon paykonlari bronzadan ikki qirrali qilib yasalgan.

Yoztepa, Tohirboy, Dashli, Churnok va Uchtepa manzilgohlaridan ikki

qavatli xumdonlar o'rganilgan. Bu manzilgohlarda kulolchilik ishlab chiqarish hunarmadchiligi yetakcha o'rinni egallagan. Murg'ob vohasining Yoz I bosqichi soppollar qo'lida va charxda yasalgan. Qo'lida yasalgan soppollarning naqshli va naqshsiz turlari ajralib turadi. Naqshli buyumlar umumiyligi soppollarning 4-5 % tashkil etgan. Naqshlar sarg'ish angob ustiga qizg'ish-jigar yoki jigar rangda chizilgan geometrik shakllardir. Kulolchilik charxida yasalgan soppollar son jihatdan ustunlik qilgan. Sopol buyumlari tovalar, qozonlar yarim shar yoki shar shaklidagi idishlaridan iborat.



## **Marg'iyonaning ilk temir davri soppollari**

Yoz II va III bosqichiga oid sopoilar kulolchilik charxida yasalgan. Soppollarning sirtiga naqshlar solish an'anasi yo'goladi. Bu davrda sopol idishlarning yuqori qismi banka shaklida yasalib, quyi qismi konus shaklida shakllantirilgan. Bunday turdag'i sopol silindr-konus shaklidagi idishlar, deb yuritiladi. Ularning yuqori qismi charxida yasalib, quyi qismi lagan yoki tovoq

shaklli qolipda shakllantirilgan.

Mil. avv. IV asming o'rtalariga (Yoz III) kelib Murg'ob vohasining ilgari o'zlashtirilgan ko'pgina manzilgohlari inqiroz uchrab, sug'orish tizimining takomillashishi natijasida aholi yangi yerkarni o'zlashtiradi.

Murg'ob vohasining ilk temir davri ma'muriy mansubligi to'g'risidagi ma'lumotlar uchramaydi. Mouri Avestoda tarixiy o'lka sifatida keltirilgan. Ahamoniylar davrida Baqtriya bilan bitta satraplikni tashkil etgan.

Turkmanistonning Tajang daryosi atrofidagi Saraxs vohasida ilk temir davriga oid Ko'xna Saraxs, Movlek tepa, Beshtepa, Akchatepa manzilgohlari joylashgan. Ko'hna Saraxs o'tnida mil. avv. I ming yillikning boshida manzilgoi shakllanib, keyingi bosqichda atrofi mudofaa devori bilan o'rabi olingan. Arkdan tashqarida uy-joy imoratlarning o'mni saqlanib qolgan.

Movliktepa manzilgobiga yaqin bo'lgan joyda qadimgi kanal izlari aniqlangan. Saraxsning sopol buyumlari Murg'obning sopolariga o'xshatib yasalgan. Tosh yorg' uchoqlar, temir qotishmasining chiqindisi topilgan.

Xo'jalikning asosini sug'orma dehqonchilik va chorvachilik tashkil etgan. Moddiy madaniyati Murg'ob vohasining quyi oqimi hudud bilan umumiyligga ega bo'lib, ko'rinishdan bu hudud marg'iyonalik aholi tomonidan o'zlashtirilgan.


*Shimoliy Parfiya.* Kopetdag bilan Qoraqum oralig'idagi yerlar Shimoliy Parfiya hududini tashkil etgan. Bu yerlarda joylashgan manzilgohlari nisbatan ilgariroq, ya'ni so'nggi bronza davrida vujudga kelib, ularning uch xil shakli ajralib turadi. Qadimgi shahar sifatida faoliyat yuritgan yelkantepa va Ulug'tepa manzilgohlari bronza davrining oxirida shakllangan. *yelkan I*, *Ulug' III*-mil. avv. II ming yillikning oxiri-650 yillar, *yelkan II*, *Ulug' II*-mil. avv. 650-500, *yelkan III*, *Ulug' I*-mil. avv. 500-350 yillar bilan sanaladi.

Bronza davrining oxirida yelkantepa arki joylashgan yer o'zlashtirilib, 14,5 ga. dan iborat maydonda aholi manzigoi vujudga keladi. Mil. avv. X asrda mudofaa devori (umumiy qalinligi 10,5 m., o'rtasida-6 m. dan iborat yo'lakcha

mayjud) barpo etilgan. Mudoafaa devori atrofida chuqur xandaklar bo'lgan. Mudofaa devori ichkarisida uy-joy imoratlari ko'payadi. Mil. avv. VII-VI asriarda manzilgoh mudofaa devorining atrofidagi uy-joy imoratlari qurilib, ikkinchi mudofaa devori bilan u'rab olinadi. Natijada yelkantepa yodgorligida ark, ikkita shahriston va shahar atrofi qismlaridan iborat umumiy shahar shakllangan.

Shimoliy Parfiyaning ilk temir davridagi ikkinchi bir yirik manzilgohi Ulug'tepa ham bronza davrining oxirida shakllangan. Bu manzilgohning bir qismida mil. avv. X asrda baland sahni ustida qo'rg'on barpo etiladi. yelkantepadan farqli o'laroq bu yerda aholi imoratlari joylashgan qismida mudofaa devorining izlari aniqlanmagan. Imoratlar to'g'riburchak g'ishtdan qurilib, devori va uylarning sahni loy suvoq qilingan. Ba'zi bir imoratlarning devori ganch bilan suvalgan. Shimoliy Parfiya aholisining asosiy inashg'uloti sug'orma dehqonchilik va hunarmandchilik bo'lgan. Dehqonchilikda asosan bug'doy va arpa ekilgan. Kotetdagdan oqib tushadigan kichik daryolar dehqonchilikning asosiy suv manbai hisoblangan. Mahalliy hududning qurg'oqchil iqlim sharoitida suvga bo'lgan ehtiyojning yuqoriligidini hisobga olib, qadimgi dehqoni damba va to'g'onlar barpo qilingan. Bu yerda keyingi davrda korizlar paydo bo'ladи.

Shimoliy Parfiyadan mis va temirga ishllov berish ishlab chiqarishi ustaxonalari aniqlangan. Temir va bronzadan yasalgan mehnat quollar va quro' aslahaiar topilgan. Anovtepaning ilk temir davri qatlamidan temir pichoq, o'roq va uch qirrali bronza kamon o'qi topilgan. Temirdan yasalgan pmchoq mil. avv.



Shimoliy Parfiyaning ilk temir davri soplifizi.

**IX asrga oid.**

Ilk bosqichga oid sopolarning asosiy qismi qo'lda yasalib, sirtiga geometrik naqshlar solingan. Keyingi bosqichda charxda ishlangan sopol buyumlar turi ko'pagan. Ulug'tepaning mil. avv. VII-IV asrlarga oid sopol buyumlari Yoztepaning shu davrga oid buyumlari bilan o'xhash.

***Qadimgi Daxiston.*** Qadimgi Daxiston Turkmanistonning janubiy-g'arbida, Kaspiy dengizining janubi-sharqi qismini ishg'ol qilgan Mashxad-Misrian va Chat tekisliklaridagi Gurgan, Sumbar, Atrek va Benguvona kabi kichik daryo vohalarida joylashgan qadimgi tarixiy-madaniy viloyat. Antik davri yozma manbalarida keltirilgan Girkaniya hududini tashkil etadi. Bu yerlarni o'zlashtirish mil. avv. II ming yillikning oxirida boshlangan. Daxiston hududida ilk temir davriga oid 20 dan ortiq yodgorliklar aniqlangan.

Qadimgi Daxiston yodgorliklari shakliga ko'ra qo'hna shaharlar, o'troq dehqonchilik qishloqlaridan iborat. O'lkada qal'asiga ega yirik manzilgoh yoki qadimgi shaharlar (Madov, Izzatquli) va maydoni katta qishloqlarning xarobasi o'rnga ilgan. Benguvona vohasidagi D-48 (48-tepalik) manzilgohidan balandligi 0,5 m. tag kursi ustida qurilgankvadrat shaklli ( $12,5 \times 12,5$  m) Yoz II bosqichiga oid inshootning o'rni ochigan. Imoratlar yirik o'lchamdag'i ( $80 \times 50 \times 8$  sm.,  $70 \times 49 \times 8$  sm.) xom g'ishtdan qurilgan, tomrlari tekis yopilgan.

Aholi sug'orma dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan. Atrek daryosidan bosh olgan qadimgi anhorning 50-60 km. masofada o'rni saqlanib qolgan. Dehqonchilikda bug'doy, arpa va boshqa dukkakli ekinlar ekilgan. Manzitgohlardan qo'y, echki, cho'chqa, ot, eshak kabi xonaki hayvonlarning suyagi topilgan. Qadimgi Daxiston aholisi kichik tuyoqli chorva mollarini Kapetdagning janubiy etagi va dehqonchilik vohalariga yaqin adirlarda boqishgan.

Qadimgi Daxistonda hunarmandchilik ishlab chiqarishi iqtisodning yetakchi tarmog'iga aylanib, ilk temir davrining ikkinchi bosqichida intisoslashish jarayoni chuqurlashadi. Madov, Izzatquli va Chigliktepa kabi

manzilgohlarda kulolchilik ishlab chiqarishi izlari saqlanib qelgan. Sopol idishlar kulolchilik charxida yasalgan naqshli va naqshsiz turlarga bo'linadi. Ularning sirtiga oqish, qizil, ko'kish rangdagi angob surtilgan. Ayrim sopollarning loyiga shamot, kvars va chak qo'shilgan. Ular kosa, tuvaksimon, silindr yoki konus shaklli, uch oyoqli oshxonalar idishlari, old tomonida jumrak orqa tomonida bandiga ega choynik, ko'za va qozonlardan iborat.

Bu yerdagi yodgorliklardan temir bo'laklari, temir qotishmasining chiqindisi, uch qirrali kamon o'qi, toshdan yo'nib ishlangan urchuqbosh va boshqa moddiy ashyolar topilgan. Moddiy ashyolar, xususan, sopollar Janubiy Turkmanistonnikidan keskin farq qilib, ular ko'proq Eronning shimoliy-sharqiy hududlari topilmalari bilan o'xshash. Qadimgi Daxistonning ilk temir davr madaniyati shakllanishida Eron hududining madaniy ta'siri ustun bo'lgan.

*Baqtriya.* Qadimgi Baqtriyaning ilk temir davri hududi shimolda So'g'diyona bilan Hisor tog' tizmalari orqali, janubda esa Hindikush tog'lari bilan chegaralangan. Uning hududi sharqda Pomir tog' tizimasidan Amudaryo bo'ylab g'arbda Murg'ob vohasigacha bo'lgan yerianni o'z ichiga olgan. Hozirgi O'zbekiston va Tojikiston respublikalarining janubi hamda Afg'onistonning shimoliy hududiga to'g'ri keladi.

Qadimgi Baqtriyada bronza davrining oxirida Dashli-Sopolli inqirozidan so'ng ilk temir davri madaniyat vujudga kelgan. Bu madaniyat bronza davri madaniy an'analaridan ilk shahar shaklidagi yirik manzilgohlar o'rniда kichik manzilgohlarning paydo bo'lishi, qo'lda yasalib, sirtiga naqsh solingan sopollarning qayta jonlanishi, torevtika, haykaltaroshlik san'atining yo'qolishi kabi arxeologik belgilari bilan farq qilgan.

Ilk temir davrining boshlarida Baqtriyaning hozirgi paytda o'zanlari suvsizlanib qolgan qichik daryo vohalariningt o'zanlarida ilk temir davri madaniyatları shakllangan. Bu davrda so'nggi bronza davrida faoliyat yuritgan yirik manzilgohlar o'rniда maydoni ancha kichkina va ixcham qishloqlar paydo bo'lgan. Shimoliy Baqtriyaning ilk temir davri boshlariga (Itd I, ya'ni Yoz I) oid

bosqichini tadqiqotchi olimlar dastlabki o'rganilgan yodgorlikka Kuchuk madaniyati nomi bilan yuritgan. Uning taraqqiyoti davomida (Itd II) Qadimgi Baqtriya madaniyati vujudga kelib, vohaning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida muhim o'zgarishlar sodir bo'ladi. O'troq dehqonchilik madaniyati hududi kengayib, manzilgohlar soni ko'payadi va ularning maydoni kengayib boradi. Dastlabki bosqichda shakllangan manzilgohlarning ayrimlarining o'rniда qal'a-qo'rg'on qismi vujudga kelgan va ularning atrofi aholi uy-joy imoratlari va ishlab chiqarish inshootlari bilan kengayib, qadimgi shahar turiga mansub aholi manzilgohlari shakllangan.


Ilk temir davrining boshida hozirgi paytda suvsiztanib qolgan qichik daryo vohalari hududida ilk temir davri o'troq dehqonchilik qishloqlari shakllangan. So'nggi bronza davrida faoliyat yuritgan yirik manzilgohlar o'rniда maydoni ancha kichik va ixcham qishloqlar paydo bo'lgan. Baqtrianing ilk temir davriga oid barcha turdag'i arxeologiya yodgorliklar tuzilishi va hajmiga ko'ra bir necha turga ajratilgan. Ulardan birinchisi mudofaa tizimiga ega bo'lgan yirik manzilgohlar. Bunday manzilgohlarning maydoni va tuzilishiga ko'ra ark, shahar hamda atrofi qismlaridan tashkil topgan uch yoki ikki qismdan iborat qadimgi shaharlar.

Qadimgi shahar shaklidagi manzilgohlarning ikkita turi mavjud. Birinchisi, mudofaa tizimiga ega bo'lgan uch qismli yirik shaharlar-*Bolai Hisor, Qiziltepa, Hayitobod* va mudofaa tizimiga ega bo'lgan ikki qismli shaharlar-*Talashkon I, Bandixon II, Jondavlattepa*. Ikkinci guruh yodgorliklar maydoni katta dehqonchilik qishloqlari, uchunchi guruh yodgorliklar mudofaa tizimiga ega bo'lgan maydoni kichik diniy inshootlar-*Tillotepa, Kuchuktepa* va uy-qo'rg'enlar-*Qizilcha guruhi yodgorliklari*.

Baqtrianing ilk temir davri shahar turidagi yirik manzilgohi Shimoliy Afg'oniston hududidagi Baix provinsiyasi Boloj Hisor yodgorligi hisoblanadi. Umumiy maydoni 120 ga dan iborat. Manzilgohda o'tgan asming o'ttalarida fransuz arxeologlari qisman qazishma ishlarini olib borib, mil. avv. VI-V

asrlarga oid qatlamlarni o'rgangan. Boloi Hisor manzilgohi antik davri mualliflari asarlarida qayd qilingan Qadimgi Baqtriyaning ma'muriy markaziga Baqtr shahri bilan qiyoslangan.

### Baqtriyaning ilk temir davri manzilgohlari



1.Talashkontepa 2.Qizilcha 6 3.Tillatepa

Shimoliy Baqtriya hududidagi yodgorliklar yaxshi o'r ganilgan. Surxon vohasidagi ko'hna shaharlarning eng yirigi Qiziltepa manzilgohi hisoblanadi. Umumiy maydoni 30 ga. dan iborat. Ko'hna shahar ark, shahriston, shahar atrofi, va shahar yaqinidagi dehqonchilik okrugi qismlaridan tashkil topgan. Ko'hna shahar o'mida ilk temir davrining ilk bosqichida (Qizil I) dastlabki dehqonchilik manzilgoh shakllangan. Keyingi (Qizil II) bosqichda manzilgohning maydoni kengayib, shimoli-g'arbida ark (may. 2 ga.) paydo bo'lган. Arkning yon atrofida uy-joy imoratlari qurilib, mudofaa devori barpo etilgan. Mil. avv. VI-JV asrlarda (Qizil III) yangi qurilish imoratlari qurilib, shahar rivojlangan. Bu davrda mudofaa devorida qo'shimcha qurilish olib

borilib, uning qaliligi 5 m. yetgan. Mudofaa devori ikki qatordan iborat bo'lib, ularning o'rtasida yo'lakcha mavjud. Ichki devor 2,5 m, tashqi devor 0,7-1,0 m, yo'lakcha esa 1,5 m. Mudofaa devori yarim aylana burjlar va shaxmat kataklari shaklida joylashgan jangovar shinaklar bilan kuchaytirilgan.

Qiziltepa manzilgohining ichkarisida qurilish imoratlari zinch qurilmagan, qurilish imoratlari mudofaa devori yaqinida joylashgan. Manzilgohning o'rtasida ochiq joy qoldirilgan. Qiziltepa manzilgohi dastlab Qadimgi Baqtriya podsholigiga bo'ysungan kichik ma'muriy-hududiy tuzilmaning markazi bo'lgan.

Qiziltepa manzilgohining ichkarisida qurilish imoratlari tarqoq joylashgan, o'rtasida ochiq joy qoldirilgan. O'rta Osiyoning qadimgi shahar shaklidagi ko'pchilik manzilgohlarning (Dalvarzintera, Uzunqir-Podayotoqtepa, Ko'zaliqir va boshqalar) shahriston qismida aholi uy-joy imoratlar mudofaa devorlariga yaqin joyda qurilib, o'ttada ochiq joy qoldirilgan. Qadimgi shaharlar qurilishidagi bunday holat ilk temir davri iqtisodida chovchilik xo'jaligi ahamiyatining ustunligi bilan tavsiflanib, tashqi dushman havfi sodir bo'lgan holatda aholi chorva mollarini tashqi dushmanidan himoya qilish maqsadida foydalangan.

Urguliksoyning quyi oqimida, soydan bosh olgan kanal atrofida Bandixon dehqonchilik vohasida bir necha arxeologiya yodgorliklar joylashgan. Ulardan Bandixon I, II mazkur hududning eng yirik yodgorliklari sanaladi. Bandixon I yodgorligi ilk temir davrining dastlabki bosqichiga oid qishloqning o'tmi. Bandixon II ilk temir davrining ikkinchi bosqichga oid qal'a va uning atrofidagi aholi yashaydigan qismidan iborat manzilgoh. Manzilgohning umumiy maydoni 14 ga. Manzilgoh atrofida dehqonchilik qishloqlari joylashgan.

Sherobod vohasida Jondavlattepa va Talashkon I yodgorliklari maydoni jihatdan yirik manzilgohlar hisoblanadi. Jondavlattepa 7 ga. maydonda joylashgan, ikki qismdan iborat manzilgoh. Talashkon I manzilgohi doira shaklidagi diametri 135 metrdan iborat qal'a-istehkomdan iborat bo'lib, atrofi

xom g'ishtdan qaliligi 5 m. mudofaa devori bilan o'tab olingan. Mudofaa devori to'g'ri to'rtburchak shaklli 15 ta mudofaa burjlari va shaxmat kataklari shaklidagi ikki qator joylashtirilgan shinaklar bitan kuchaytirilgan. Qal'aning ichkarisidagi uylar mudofaa devoriga taqab qurilgan. Manzilgohning o'tasida qurilish imoratlari uehramaydi, ochiq qoldirilgan.

Mil. avv. I ming yillikning o'talaridan boshlab Shimoliy Baqtriyada aholi sonining ko'payib borishi natijasida Surxondaryo va Amudaryo kabi yirik daryolar bo'yлari ham o'zlashtirilib, aholi manzilgohlari, xususan, shaharlar paydo bo'ladi. Bu davrda Surxon vohasida Hayitobodtepa yodgorligi o'rniда qadimgi shahar vujudga keladi. Ko'hna Termiz o'rniда ham aholi manzilgobi paydo bo'lib, keyinchalik shaharga aylangan.

Janubiy Baqtriyada ham ilk temr davriga oid bir necha arxeologiya yodgorliklari qayd etilgan. Ularda eng yirigi hisoblangan Boloi Hisor (umumiyy maydoni 120 ga.) manzilgobi o'tgan asrning o'talarida frunsuz arxeologlari tomonidan qisman o'rganilgan. Bu manzilgoh Ktesiy keltirgan Qadimgi Baqtriyada podsholigining ma'muriy markaziga asosiy davogar yodgorlik sanatadi.

Janubiy Tojikistonning Kofirnahr, Vaxsh va Panj vohalarida ham mil. avv. I ming yillikda o'troq dehqonchilik qishloqlari vujudga keladi. Bu yerlarda Baqtrianing boshqa joyiga qaraganda o'troq manzilgohlar kechroq shakllangan. Bu yerdagi manzilgohlarning eng yirigi Qabodiyon I (Qalai Mir), Boytudasht va Bolday I hisoblanadi. Qabodiyon I manzilgobi xronologik jihatdan Surxon vohasi manzilgohlariga yaqin turadi. Vaxsh va Panj vohalarida o'troq dehqonchilik qishloqlari ilk temir davrining ikkinchi bosqichida Boytudasht va Bolday I o'rniда vujudga kelib, keyingi bosqichda shahar shakllangan. Baqtrianing boshqa hududiga qaraganda bu yerlarda urbanizatsiya jarayoni kechroq sodir bo'lgan.

Baqtrianing ilk temir davri yodgorliklari orasida diniy inshoctlar muhim o'rinn tutadi. Ulardan Shimoliy Baqtriyada Kuchuktepa, Pshaktepa va Janubiy

Baqtriyada Tillatepa yodgorliklari yaxshi o'rganilgan. Kuchuktepa yodgorligi 4 ga. iborat bo'lib, markaziy qismida balandligi 4 m. sahni ustiga qurilgan saroy yoki uy-qo'rg'on joylashgan. Unda diniy xususiyatga ega xonalar o'rin olgan. Xonalarning ikkitasida manzilgohning turli bosqichida doimiy olov yonib turgan o'choq joylashgan. O'choqlardan otashparastlar jamoasi toat-ibodat maqsadida foydalanganliklari, tabiiy. Qurilish majmuasi faoliyati davomida uch marta ta'mirlanib, me'moriy-qurilishi jihatidan takomillashtirib borilgan.

Janubiy Baqtriyada Tillatepa yodgorligi Kuchuktepa kabi balandgi 8 m. sahni ustida qurilgan kvadrat shaklli inshoot. Atrofi mudofaa devori bilan muhofaza qilingan va burjlar bilan kuchaytirilgan. Manzilgohda to'qqiz qator ustunga asoslangan katta xona va uning atrofida kichik xonalardan tashkil topgan qurilish majmuasi joylashgan. Markaziy xonaning o'rtasida olov mehrobi o'rin olgan va uning atrofida esa toza kul ko'milgan. Olov mehrobi ko'trab yurish uchun mo'ljallangan bo'lib, undan kohin diniy marosimlarida foydalangan. Ibodatxona ilk temir davrining dastlabki bosqichida, ya'ni mil. avv. X asrdan boshlab faoliyat yuritgan.

Baqtriyaning ilk temir davri yodgorliklari orasida uy-qo'rg'on shakfidagi manzilgohlar muhim o'rin tutadi. Qiziltepa yodgorligi atrofida joylashgan Qizilcha guruhu (Qizilcha I va VI) uy-qo'rg'onlar yaxshi o'rganilgan. Ularning maydoni taxminan 0,2 ga. ni tashkil etadi. Uy-qo'rg'onlar mustahkam devor bilan o'rab olingan uy-joy imorati va hovlidan iborat bo'lib, unda dehqon jamoasining davlatmand oilasi vakillari istiqomat qilgan.

Baqtriyaning ilk temir davriga oid qurilish imoratlari xom g'isht va paxsadan barpo qilingan. Devorlar loysuvoq qilingan. Yirik o'lchamli xonalar yog'och ustunlar asosida yopilib, ularning o'rni saqlanib qolgan. Imoratlarning tomi terak, tog' oldi hududida archa yog'och bilan yopilgan.

Xo'jalikning asosini sug'orma dehqonchilik va chorvachilik tashkil etgan. Mil. avv. I ming yillikning boshida chorvachilik xo'jaligining mavqeyi yuqori bo'lgan. Ilk temir davrining ikkinchi bosqichidan sug'orma dehqonchilikning

ahamiyati oshgan. Bandixon mikrovohasida Urguliksoydan bosh olgan qadimgi ariq Bandixon I yodgorligi yaqinidan o'tgan. Ariqning eni 8-10 m. va chuqurligi joylarda 1,5 m. bo'lib, o'rnı 3,5 km. masofada saqlanib qolgan. Oqimi bo'ylab 1 km. masofadan so'ng ariq dastlab ikkita, keyin uchinchi tarmoqqa bo'linib ketgan.

Dehqonchilikda boshqoli don, poliz ekinlari ekilgan va bog'dorchilik yaxshi rivojlangan. Qadimgi dehqonlar kichik daryolardan ariq qazib vohalarining etagida dehqonchilik qilishgan. Mil. avv. I ming yillikning o'rtalaridan boshlab Surxondaryo va Amudaryo kabi yirik daryolarning bo'yidagi yerlarni o'zlashtirish boshlanadi.

Chorvachilikda qo'y, echki, qoramol va yilqi boqilgan. Tog' oldi vohalarida yaylov, chorvachiliqi rivojlangan. Asosan kichik tuyoqli chorva mollari boqilgan. Dehqonchilik vohalarida xonaki chorvachilik ustunlik qilgan.

Tosh, temir va bronzadan turli xii mehnat qurollari, qurol-yarog'lar yasalgan. Toshdan xo'jalik anjomlari, xususan yorg'uchchoq, keli, keli sopi yasalgan. Kamon paykonini bronzadan yasalgan. Ular bargsimon, ikki va uch qirrali shaklda. Keyingi mil. avv. VI-V asrlarga kelib skiflarnikiga o'xshash uch qirrali kamon paykonini tarqaladi. Qizicha 6 yodgorligidan o'roq topilgan.

Shimoliy Baqtriyaning ilk temir davri sopol idishlari qo'lda va kulolchilik charxlarida yasalgan. Qo'lda ishlangan idishlarning sirtiga geometrik shaklli naqshlar solingen. Ilk temir davrining ikkinchi bosqichida sopol buyumlari asosan kulolchilik charxida yasalgan. Bu bosqichdagisi sopol idishlar konsussimon va bankasimon shakldan iborat. Sopol buyumlarning sirtiga oqish rang angob surtilgan. Ilk temir davrining so'nggi bosqichi sopolari ilgargi an'ananius takomillashgan shakldan iborat. Umuman, ilk temir davri sopollar majmuasi Murg'ob vohasi sopolari bilan urtumiy o'xshashlik mavjud.

Baqtriya hududida ilk temir davrining barcha bosqichlarida dafn inshootlari uchramaydi. Ayrim manzilgohlardan olovda kuygan odam suyaklarining goldiqiari saqlangan. Pshaktepa manzilgohidan ochib o'r ganilgan inshootni

tadqiqotchilar marhumlarni kuydirish-krematsiya qiladigan joy bo'lganligini bildirishgan. Tadqiqotchilar Ko'hitang tog'ining sharqiy etaklarida joylashgan ilk temir davrining dastlabki bosqichiga oid manzilgohni o'rganganlar. Bu manzilgohdan poliga sopol sinqlari to'shalgan imorat aniqlanib, uni zardushtiylik dini *katasiga* qiyoslaganlar.

Baqtriyaliklarning qadimgi amaliy san'atiga oid moddiy topilmalar deyarli o'r ganilmagan. San'atning ushbu turi to'g'risida Amudaryo xazinasidagi namunalari orqali qisman ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin.

Baqtriya hududida ilk temir davrining boshida ilk o'troq dehqonchilik madaniyatini vujudga kelib, keyingi bosqichda urbanizatsiya, ya'ni shaharlashish jarayoni kechgan. Urbanizatsiya jarayoni o'lkada qadimgi davlatchilikning, xususan, Qadimgi Baqtriya podsholigining vujudga kelishi bilan bir sodir bo'ladi. Qadimgi Baqtriya podsholigi to'g'risidagi ma'lumotlar Geradot va Ktesiy asarlarida uchraydi. Ktesiyning "Kiropediya" asarida Baqtriya podsholigi to'g'risida ayrim ma'lumotlar saqlangan. Geradot ahamoniylar hukmdorlari bosib olmagan mamlakatlardan ro'yxatida Bobil, Misr bilan birga Baqtriya va saklarning yerlarini ham keltirib o'tgan. Qadimgi Baqtriya podsholigi to'g'risidagi yarim afsonaviy ma'lumotlar Ktesiyning asarida saqlangan. Ktesiyning bizgacha antik davri mualliflari Diedor va Yustin asarlar orqali yetib kelgan "Kiropediya" asari ma'lumotlarida keltirishiga qaraganda ahamoniylar hukmdori Kirning Baqtriyaga yurish qilishidan ancha ilgari bu o'lkaga Ossuriya podshosi Nin yurish qilib, poytaxt shahrini bosib olishda qarshilikka uchragandan keyin xotini Semiramidaning qo'shimcha harbiy yordamli bitan shaharni qo'lga olgan.

Keltirilgan va boshqa yozma manba ma'lumotlari asosida Qadimgi Baqtriya podsholigi to'g'risidagi ilmiy qarashlar kelib chiqqan. XIX asrda M.Dunker mil. avv. IX asrda Qadimgi Baqtriya podsholigi vujudga kelgantligi to'g'risida yozgan. Yu.Prashek ahamoniylar hukmronligidan ancha ilgari Baqtriya podsholigi mavjud bo'lgan. Baqtriya hukmdori Vishtasp Zaratushtraga

diniy ta'llimotini yoyish uchun rahnamolik qilgan, deb hisoblaydi. V.M. Masson knidlik Ktesiy ma'lumotlariga asoslanib, Baqtriya Midiya davriga qudratli davlat bo'lgan, deb hisoblaydi. Dyakonov I.M. Baqtrianing Midiya tarkibiga kirganligini ta'kidlagan.

Qadimgi Baqtriya O'rta Osiyoda tashkil topgan ilk podsholik bo'lib, uning hududida joylashgan ko'plab qadimgi shaharlarning xarobasi ahamoniylar hukmronligigacha qudratli davlat hokimiysi faoliyat yuritganligini ko'rsatadi.

*So'g'd*. So'g'd hozirgi Zarafshon va Qashqadaryo hududlarini ishg'ol qalgan qadimgi o'lka bo'lib, qadimdan o'troq dehqon va chorvador aholi yashab kelgan. So'g'dning shimoliy va janubiy qisimida ilk temir davrining boshida o'troq dehqonchilik madaniyati qaror topgan. Samarqand va Qashqadaryo vohalaridagi Afrosiyob, Ko'ktepa, Uzunqir, Podayotoq va yerqo'rg'on yodgorliklari o'tnida ilk temir davrining dastlabki qishloqlari shakllangan. Keyingi bosqichda qishloqlar murakkablashib, yirik shahar markaziga aylandi.

Afrosiyob qadimiyligi va ahamiyati jihatdan *So'g'd* manzilgohlari orasida yetakechi o'rinni egallaydi. Manzilgohning quyi qatlamida (Afrosiyob) dastlab o'zlashtirilgan davrda qurilgan yerto'la uy-joylarning o'mi ochilgan. Ilk temir davri dastlabki bosqichining oxirida yerto'la kulbalar yer ustida qurilgan uylar bilan almashadi. Manzilgohning atrofida val-zichlangan tuproq devor bilan o'rab olinadi. Keyingi bosqichida (Afrosiyob 0b-mil.avv. VIII-VII asrlar) eski val devorning ustidan yassi-qavariq g'ishtdan terilgan yangi mudofaa devori ko'tarilib, 19 ga. maydonda shahrining birinchi o'zagi shakllanadi. Bu Samarqand shahriga shakllanish davri edi.

Afrosiyob (Afr I) taraqqiyotining keyingi bosqichida (mil.avv. VI-V asrlar) yangi imoratlar qurilib, ichki tuzilishi murakkablashib borgan va shaharning maydoni ancha kengaygan. Natijada shaharnining atrofi xom g'ishtdan qurilgan yangi mudofaa devori o'rab olingan. Maroqandaning antik davri manbalarida keltirilgan 219 ga. maydoni ehtimol mana shu davrda o'zlashtirilgan.

Manzilgohning shimoliy qismida qadimgi shaharning arki joylashgan. Ark

guvaladan ko‘tarilgan tagkursi ustida barpo etilgan.

Shimoliy So‘g‘dning Afrosiyob bilan tengdosh bo‘lgan boshqa bir shahri Ko‘ktepa manzilgohi o‘rnida faoliyat yuritgan. Bu manzilgoh Samarqand shahridan 30 km. shimoliy-g‘arbida Chelak tumani hududida joylashgan bo‘lib, M.X.Isamiddinov rahbarligidagi o‘zbek-fransuz arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan o‘rganilgan. Umumiy maydoni 90 ga. dan iborat yodgorlikning bir qismi zamonaviy yer o‘zlashtirish jarayonida buzilib ketgan.

Manzilgohning shakllangan ilk bosqichiga (Ko‘ktepa I) oid madaniy qatlamida yerto‘la o‘y-joy imoratlari va qo‘lda yasalgan naqshli sopollar o‘rganilgan. Ko‘tepaning ikkinchi bosqichida qurilish imoratlarining manzarasi matlaqo o‘zgaradi. Bu davrdan boshlab uy-joy imoratlar yer ustida barpo qilina boshlaydi. Manzilgohning 23 ga. maydonni o‘rab o‘lган mudofaa devori ham aynan ikkinchi bosqichida barpo etilgan. Shaharning arkda baلان tagkursining o‘rni saqlanib qolgan. Ulardan birining ustida qurilish imorati qurilishidan hyech narsa qolmagan. Unda olov izlari saqlanib qolgan. Tag kursi ustida imorat qurilmasdan ochiq joyda muqaddas olov yonib turgan bo‘lishi mumkin. Ma’lumki, zardushtiylik dini shakllanishining dastlabki bosqichida ibodatxonalar qurilmasdan, toat-ibodat ishlari ochiq joyda amalga oshirilgan. Eronning Masjidi Sulaymon yodgorligida ochiq joyda doimiy olov yonib turgan ibodatxona ochilgan.

Manzilgohda joylashgan ikkinchi tagkursi ikki yarusli bo‘lib, tomonlar 200x100 m. imoratning o‘rni saqlanib qolgan. Uning atrofi devor bilan o‘rab olingan. Bu imorat qadimgi shahar hokimining qarorgohi bo‘lishi mumkin.

Demak, ilk temir davrining ikkinchi bosqichida Shimoliy So‘g‘d hududi ikkinchi bir yirik shahar markazi paydo bo‘ladiki, uni tadqiqetchi olimlar antik davri yunon yozma manbalarida qayd etilgan podsho qarorgohi-Bazileya shahri bilan qiyoslaydilar. Shahar elliňlar davrida ham faoliyat yuritgan.

Shimoliy So‘g‘dda dehqonchilik va chorvachilik asosiy xo‘jalik turi hisoblanib, dastlabki bosqichda chorvachilikning mavqeyi yuqori bo‘lgan.

Ko'ktepa manzilgohining quyi qatlamida ke'proq qora mol suyaklari uchrashiga qaraganda, aholi xonaki chovachilik bilan shug'ullangan. Bu davrda dehqonchilik liman yoki latmi shaklida bo'lib, ilk temir davrining keyingi bosqichida ariqlar barpo qilingandan so'ng sug'orma dehqonchilik yetakchi o'rinni egallaydi.

Shimoliy So'g'dning ilk temir davri moddiy madaniyati namunalari Afrosiyob, Ko'ktepa va Lolazor kabi yodgorliklardan topilgan moddiy manbalar asosida o'rGANILADI. Ilk bosqichiga oid madaniy qatlamidan temir buyumlar topilmagan. Bronza buyumlari va ishlab chiqarish izlari mavjud. Ko'ktepa manzilgohining quyi qatlamida bronzadan pichoq va o'roq quyish uchun mo'ljallangan tosh qolib va metalga ishlov berish izlari, xususan, bronza toshqoliali aniqlangan. Yorg'uchiq, tosh o'roq va qayroqtoshlar topilgan.

Ilk temir (Afra va Ko'ktepa I) davri sopolari qo'lda va charxda yasalgan. Sopol buyumlari umimiy sonining 95 foiz qismi qo'lda yasalgan. Sopol buyumlarining bir necha xil turi mavjud. Ular yarim sferik shakilli kosa, chuqur kosa (gorshok), qozon, silindr shaklli katta hajmli xum va xumchalardir. Ayrim sopol buyumlarning sirtiga rang-bo'yoqlarda naqshlar chizilgan. Naqshlar qizil va jigar rang bo'yoqda chizilgan oddiy chiziqlar, oqizma naqshlar va geometrik shakllardan iborat.

Ilk temir davrining ikkinchi (Afr Ob va Ko'ktepa II) bosqichida boshlab sopol buyumlarini kulochilik charxida yashash ommaviylashadi. Devori yepqa qilib yasalgan dumaloq, sharsimon shaklli chuqur kosa, ko'zalar, silindr-konusimon shaklli idishlar paydo bo'ladi. Bu bosqichda faqat qozonlar qo'lda yasalgan. Ilk temir davrining so'nggi bosqichda sopol buyumlar to'liq charxda yasalib, ularning turi ko'payadi. Boshqa hududlarda bo'lgani kabi sopol buyumlari standartlashadi.

*Janubiy So'g'd.* Janubiy So'g'd Kesh va Naxshab vohalaridan tashkil topgan. Kesh vohasi hududiga Sho'robsoy, Tanxozdaryo, Qizildaryo, Qayrag'och, Guldaryo mikrovohlari kirgan. Naxshab vohasiga yerqo'rg'on va

Nishon mikrovohalari kirgan. Har biri mikrovooharing markaziy manzilgohi atrofida bir nechta o'troq dehqonchilik qishloqlari mayjud bo'lgan.

Kesh vohasida ilk dehqonchilik madaniyatni dastlab Sho'robsoyning quyi oqimi hududida shakllangan. Bu hududda ilk temir davri Uzunqir, Podayotoqtepa va Sangirtepa yodgorliklarda saqlanib qolgan. Sangirtepa va Uzunqir yodgorliklarining quyi qatlamidan ilk temir davrining dastlabki bosqichiga oid qo'lda yasalib sirtiga naqsh chizilgan sopollar topilgan. Bunday turdag'i sopollar Chiroqchitepa va Chimqo'rg'on yodgorliklaridan ham topilgan. Ilk o'zlashtirilgan davrdagi uy-joy qurilishi xususiyati to'g'risida ma'lumot mavjud emas. Bu davrda Ko'ktepa manzilgohining quyi qatlami va Chiroqchitepa manzilgohining tichun xos bo'lgan yerto'la uy-joylar qurilgan bo'lsa kerak.

Hozirgi paytda uzunligi 450 m. joyda saqiangan Uzunqir yodgorligining quyi qatlamida, taxminan mil. avv. VIII-VII asrlarda guvaladan barpo qilingan mudofaa devori qurilgan. Keyingi ikkinchi bosqichda guvala devor tekislanib ustidan xom g'ishtdan (50-52x24-26x16-18 sm.) yangi devor va mudofaa burjlari barpo qilingan. Burjlarning uzunligi 6 metrdan ortiq, devordan chiqib turgan qismi 3,5 m. Burjlarning ichkarisida 2,1x2,15 metrli xonalar bo'lgan. Burjlar tashqi tomondan devorida tashqariga bo'rtib chiqib turgan plyastrilar mavjud. Burjlar orasidagi masofa 20 metr bo'lib, ularning orasida ham plyastrilar bo'lgan. Burj va devordagi plyastrilar orasida nayza uchi shaklidagi janaver va aldamchi shinaklar joylashgan. Xom g'ishtdan qurilgan mudofaa devorining qalinligi 1,85 m. Uchinchi bosqichda devor ichkarisidan o'rtada ochiq joyyo'lakcha qoldirilib qo'shimcha devor devor quriladi. Oxirgi bosqichda yo'lakcha yopib tashlangan. Uzunqir mudofaa devorining qalinligi 5 m. dan oshagan.

Shurebsoyning chap sohilida joylashgan Podayotoqtepa manzilgohining atrofidagi 70 ga maydonni o'rab olgan ushbu devorning qurilishi qadimgi shahar markazining shakllanishiga asos bo'lgan. Podoyotoqtepa manzilgohi

(maydoni 5 ga.) to'liq o'rganilmagan. Manzilgohning mikrorelyefiga shimoqli-g'arbiy qismida daryo tomonidan darvezaning o'rni aniq ko'rinadi. Manzilgoh qadimgi shahar markazining ark qismi tashkil etgan. Uzunqir va Podayotoqtepa manzilgohlari oralig'idagi hozirgi paytda ekin maydoniga aylantirilgan joylar o'z davrida aholi uy-joy imoratlari bilan band bo'lган.

Uzunqirdan janubda joylashgan Sangirtepa manzilgohi umumiy maydoni 3 ga. dan iborat bo'lib, mudofaa devorlari bilan o'rab olingan. Yodgorlikning quy'i qismidagi dastlabki madaniy qatlamida ilk temir davrining Yoz I bosqichiga oid naqshli sopolilar topilgan. Ikkinchisi bosqichiga oid madaniy qatlamidan maxsus xonada ikki qator joylashgan chuqurchalarning (aylanasi 20-30 sm., chuqurligi 50 sm.) o'rni saqlangan. Chuqurchalar qum aralash kul bilan to'ldirilgan. Zardushtiylik dini odatiga ko'ra muqaddas olovning kuli ham toza saqlangan. Bu imorat hozircha to'liq o'rganilmagan zardushtiylik dini inshootining bir qismini tashkil etishi mumkin. Sangirtepani tashqi tomonidan o'rab otgan mudofaa devori ibodatxona bilan bir davrda qurilgan bo'lsa kerak. Keshda ilk urbanizatsiya shakllangan qadimgi shaharning tarkibiy qismi sisaiida ibodatxona majmuasi barpo qilingan.

Umuman, Uzunqir, Podayotoqtepa, Sangirtepa yodgorliklari Kesh vohasining ilk temir davridagi yirik shahar markazini tashkil etib, ulardan biri shaharning mudofaa devori, ikkinchisi ark'i, uchinchisi esa ibodatxonasi hisoblangan. Ular qadimgi shahar mavjudligining asosiy arxeologik atomatidir.

Kesh vohasining Qayrarg'och va Guldara kabi tog' oldi mikrovohalarida mil. avv. I ming yillikning birinchi yarmiga oid o'troq dehqonchilik qishloqlari faoliyat yuritib, ularning xarobalari o'nga yaqin yodgorliklarda saqlanib qolgan. Ulardan Daratepa ilk temir davrining maydoni jihatdan eng yirik manzilgohi. Umumiy maydon 10 ga. yaqin joyni egallagan manzilgoh ikki qismdan iborat. Uning yaqinidan qadimgi kanal izi saqlanib qolgan. Manzilgohning har ikkala qismida uy-joy imoratlari o'rganilgan. Manzilgoh mazkur mikrovohaning markazi bo'lган. Daratepaning yaqin atrofida qadimgi dehqon jameasi

qishloqlari To'rtburchaktepa 1 va Qo'reg'oncha yodgorliklarida saqlangan.

Kesh vohasining ilk temir davri xo'jaligini dchonchilik va chovachilik tashkil etgan. Dastlabki bosqichda chovachilikning mavqeyi ustun bo'lgan. Keyinchalik dehqonchilik xo'jaligi takomilishib, sug'orma dehqonchilikning ahamiyati o'sadi. Shurobsov va Qayrag'och mikrovohalarida aniqlangan qadimgi kanal izlari ilk temir davri ekin dalalarini sug'organ. Yodgorliklardan arpa, bug'doy, javdar doni qoldiqlari aniqlangan.

Hunarmandchilikning metalchilik, toshga ishlov berish, kulolchilik, to'qimachilik va boshqa turlari rivojlangan. Daratepadan temirdan yasalgan uzunligi 18 sm. pichoq, Uzunqir mudofaa devoridan bronzadan yasalgan uch qirrali kamon paykonlari topilgan. Toshdan yorg'uchchoq, keli va xo'jalikka oid boshqa anjomlar yasalgan.

Ilk temir davrining dastlabki bosqichda qo'lda yasalgan sopol buyumlarining sirtiga geometrik va egri chiziqli naqsh chizilgan. Keyingi bosqichda kalolchilik charxida yasalgan naqshsiz sopol buyumlar paydo bo'ladi. Ular katta-kichik kosa, tovoq, xum va xumchalardan iborat. Naqshli sopolilar Keshning tog'oldi hududidan ham topib o'rganilgan. Ilk temir davrining dastlabki bosqida aholi ushbu hududlarni egallagan.

*Naqshab vohasi*. Qashqadaryoning o'rta eoqimida ilk temir davriga oid yerqo'rg'on yodgorligi joylashgan. Yodgorlik bir nechta katta-kichik tepaliklardan iborat bo'lib, ularning atrofida ikki qater mudofaa devori xarobalarini saqlanib qolgan.

O'tgan ashring oxirida yerqo'rg'on manzilgohining antik davri kulolchilik mahallasida olib borilgan 13-qazilmaning quiy qatlamidan qalinligi 5 m. paxsa va xom g'ishtdan ko'tariigan dastlabki mudofaa devorining qoldiqlari aniqlangan. R.H.Suleymanovning fikricha qadimgi devorning soz tuproqdan ellen davr kuloliari mil. avv. II asrdan boshlab besh ast mobaynida mahsulot ishlab chiqarishda tayyor xomashyo sifatida foydalanib, devorni tekistab yuborgan. Devorning pastki qismi antik davri kulollar mahallasining tagida

qisman saqlanib qolgan. Ahamoniylar davrida yerqo'rg'onning maydoni kengayib, 34 ga maydonni egallagan besh burchak shaklli joy yangi mudofaa devori bilan o'rab olingan. Mudofaa devori bilan o'rab olingan. Devor burjlar bilan kuchaytirilgan. Devor tashqarisida keng va chuqur xandak joylashgan.

Yerqo'rg'on manzilgohida ilk temir davrining dastlabki bosqichida oid qatlamida qazishmaning chegaralanganligi sababli bu bosqichga oid kam sonli sopol parchasidan tashqari ma'lumotlar mavjud emas. Asosiy moddiy manbalar ahamoniylar davriga oid. Ular sopol buyumlari, tosh qurollar va kam sonli metall buyumlardir. Ilk bosqiga oid sopollar qo'lda yasalib, sirtiga naqsh chizilgan. Ikkinci bosqichga oid sopol buyumlari kulolchilik charxida yasalgan, sirtiga oqish angob surtilgan. Ular konsussimon va bankasimon shaklli turli xil idishlardan iborat.

*G'arbiy So'g'd.* Zarafshonning quy'i oqimi hududida joylashgan Buxoro vohasining mil. avv. I ming yillikning birinchi yarmida sodir bo'lgan etnomadaniy So'g'dining boshqa joylaridan farq qiladi. Buxoro vohasining o'zlashtiri biroz kechroq sodir bo'lgan. Buxoro vohasi yerlari arxaik davrda Qadimgi Xorazmning ahelisining vohaga kelib joylashishi ratijasida o'zlashtirilgan. Qadimgi Xorazm hududida yashagan aholi Amudaryoning o'rta oqimi hududiga sitlib, o'troq dehqonchilik manzilgohlariga asos solgan.

Buxoro vohasining shimoli-g'arbiy qismidagi Boshtepa, Konimex-Sarmishsoy hududlaridan mil. avv. VI-V asrlarga oid o'troq dehqonchilik manzilgohlari o'rganilgan. Bu davrdagi manzilgohlarning dastlabki uy-joylar yerto'la va yarim yerto'lalardan iborat bo'lgan. Keyingi bosqichda xom g'ishtdan barpo etilgan me'morchilik rivojlangan. Konimex tumanidagi Kumrabot manzilgohida o'rganilgan imorat paxsadan barpo etilgan katta patriarchal oilaga tegishli ko'p xonali uyning atrofi aylantirib devor bilan o'rab olingan. Ushbu yodgorliklardan topib o'rganilgan sopol buyumlari shakliga ko'ra arxaik davrining so'nggi bosqichiga oid namunalaridan iborat.

Konimex-Sarmishsoy hududida mil. avv. VI-V asrlarga oid o'troq

dehqonchilik manzilgohlari bilan bir davrda faoliyat yuritgan qabr-qo'rg'onlar (Xazora, Qalqonsoy va Shodibek qabristonlar) ham mavjud. Ko'chmanchi sakiar Sirdaryoning quiy oqimidan Qizilqum cho'lini kesib o'tib, bu yerlarga kelib qolgan. Qabr-qo'rg'onlardan olingen moddiy topilmalar orasida kulolchilik charxida yasalgan Yoz li bosqichiga xos bo'lgan silindr va bankasimon shaklli sopol buyumlari ham mavjud.

Buxoro vohasining arxaik davri madaniyatlarini mil avv. I ming yillikning o'rtaida Qadimgi Xorazm aholisining yashash hududining kengayishi va chovdador qabilalarining o'troqlashishi natijasida sodir bo'lgan. Moddiy madaniyat Xorazmnинг arxaik davri an'analari o'zida aks etiradi.

O'rta Osiyoning ilk temir davri muhim tarixiy-madaniy viloyati hisoblangan So'g'dda markaziy va janubiy hududlarida urbanizatsiya jarayonlari bevosita o'lkaning ichki ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyot hamda janubiy o'lklar ta'siri natijasida rivojlanib boradi. O'lkada ahamoniylar davrigacha urbanizatsiya jarayoni chuqurlashib, yirik shahar markazlari faoliyat yuritgan. Bu shaharlar o'lkada ahamoniylar hukmronligining boshlanishiga qadar qadimgi davlatning mavjud bo'lganligidan darak beradi. Qadimgi yozma manbalarda So'g'd podsholigi to'g'risida aniq ma'lumotlar uchramaydi. Ayrim tadqiqotchi olimlar So'g'd hududi Qadimgi Baqtriya podsholigi tarkibiga kirgan bo'lishi mumkinligini taxmin qiladilar.

Ilk o'rta asrlar davriga oid fors manbasi "Shahristonxon Eron asarida" afsonaviy Kayoniylarning birinchi hukmdorlari Samarqandni boshqarganligi keltirilgan. Shaxnoma va Tabariylar keltirgan ma'lumotlarda keltirishiga qaraganda Monuchehr hukmdorlari davrida Turonning hukmdori Afrosiyob bo'igan. Shohnomada Turon bu davrda aholi zinch doylashgan shaharlarga boy marjalakat bo'igan.

***Ustrushona.*** Ustrushona o'lkasi Farg'onadan janubiy-g'arbda So'g'd va Choch oralig'ida yerlarda joylashgan. Turkiston tog' tizimidan shimolda Xo'janddan Jizzaxgacha bo'lgan hududlardagi yerlarni ising'ol etadi. O'lkada

o'troq dehqenchilik madaniyati kechroq vujudga kelgan. O'lkada mil.avv. VII-VI asrlarda dastlabki o'troq dehqonchilik manzilgohlari shakllanadi. O'lkada arxaik davrga oid kam sonli yodgorliklar o'rganilgan.

O'lkaning nisbatan eng qadimgi va yirik manzilgohi Nurtepa yodgorligi hisoblanadi. Manzilgoh mil.avv. VII asrda shakllanib, taraqqiyotining keyingi bosqichida atrofi mudofaa devori bilan o'rab olinadi. Umumiy maydoni 18 ga. dan iborat ko'hna shahar ark va shahriston qismlaridan tashkil topgan. Ularning har ikkalasi mudofaa devorlari bilan mudofaa qilingan. Mudofaa devorining ikkita qurilish davri mavjud. Birinchi devor 4,25 m. qalinlikdagi *val-zichlangan* tuproq devori bilan o'rab olinadi. Ikkinci qurilish davrida ichki torondan 2,5 m. qalinlikda paxsa devor barpo etiladi. Ular orasida 1,4 m. yo'lakcha qoldirilgan. Ark qismi ham paxsadan 5,5 m. qalinlikdagi mudofaa devorlari bilan o'rab olingan. Manzilgohning mudofaa devorlari mil. avv. VI-V asrlar barpo etilgan. Mil. avv. IV asrda mudofaa devorlarida ta'mirlash ishlari olib borilib, paxsa devori ustidan xom g'ishtlardan (33x33x11 sm., 40x28x10, 43x33x11 sm.) yangi devor quriladi.

Manzilgoh ichkarisida qurilish imeratlari tarqoq joylashgan. Dastlabki bosqichdagi uylari yerto'la shakda bo'lgan. Ilk bosqichga oid 17,5 kv. m. yerto'la shaklli uy-joy imorati o'rganilgan. Keyingi bosqichga oid uy-joy imoratlari paxsa va xom g'ishtiardan barpo etilgan.

Ustrushonaning ilk temir davriga oid ikkinchi shahar markazi hozirgi Xo'jand o'mida faoliyat yuritgan. Ko'hna shahar ikki qismdan iborat bo'lib, umumiy maydoni 20 ga., shundan arki 1 ga. joyni egallagan. Manzilgoh va ark dastlab *zichlangan* tuproq devor va keyin xom g'ishtdan ko'tarilgan mudofaa devori bilan o'rab olingan. Devor atrofida xandaklarning o'rnini saqlanib qolgan.

O'ratepa shahri yaqinidagi Mug'tepa yodgorligi ham shahar turidagi manzilgoh hisoblanadi. Yodgorlikning maydoni 6 ga. ni tashkil etib, hozirgi O'ratepa shahri o'mida faoliyat yuritgan qadimgi shaharning ark qismini tashkil etgan bo'lishi mumkin. Ayrim tadqiqotchilar bu yodgorlikni Kiropol shahri

bilan qiyoslaydi.

Ustrushonada mil. avv. VII asrda dastlabki o'troq dehqonchilik manzilgohlari shakllanib, ularning ornida mil. avv. VI asrda shahar shaklidagi aholi manzillari paydo bo'ladi. O'lkaning bu davrdagi qurilish-me'moriy an'analari O'rta Osiyorning janubiy hududilardan keskin farq qiladi. Manzilgohlar mudofaa devorlarida burjlar va shinaklar uchramaydi.

Ustrushona xo'jaligi sug'orma dehqonchilik va chorvachilik bo'lgan. Bu davrda dehqonchilikda liman usulidan sun'iy sug'orish tizimiga o'tiladi. Ekin dalalari tog' daryolaridan bosh olgan ariqlar orqali sug'orilgan. Metallarga ishlov berish hunarmandchiligi rivojlangan. Ustrushona yodgorliklaridan temirdan yasalgan pichoq va pichoqsimon o'toq topilgan. Uch qirrali va tijinli kamon paykoni bronzadan yasalgan. Metallar mahalliy kon zaxirasiga asoslangan. Moddiy madaniyati qo'shni Chust, Choch va So'g'd hududlarning madaniyi ta'sirida shakllangan.

Ustrushonaning sopolari qo'lda va charxda yasalgan. Sopollarining naqshsiz va qisman naqshli turlari mavjud. Qo'lda yasalgan sopolilar kichik tuvaksinjon idish, kosa, qozon va tovalardan iborat. Ularning loy qizil, qismon qum qo'shilgan va sirtiga oqish angob surtilgan. Qozonlarning loyiga maydalangan tosh va kvars qo'shilgan. Charxda yasalgan sopolalarining loyi qizil, sirtiga oqish va qizg'ish angob surtilgan. Sopol buyumlari yirik hajnli xum, xumchalar, ko'za, turli o'chamli kosalar, baland tagli vazalardan iborat. Ustrushonaning charxda yasalgan sopolari Baqtriya va So'g'dning Yoz il bosqichi sopolariga, qo'lda yasalgan sopol buyumlari esa Eylaton madaniyati sopolariga o'xshaydi.

Umuman, Ustrushonada ilk temir davrining ikkinchi (itd II) bosqichida o'troq dehqonchilik qishloqlari shakllanib, keyingi bosqichda atrofi mudofaa devori bilan o'rab olingan shaharga aylandi. Ustrushonada o'troq dehqonchilik va uning zaminida urbanizatsiyani shakllanishi qo'shni hududlar, xususan, yuksak shaharsozlik taraqqiyotiga ega bo'lgan So'g'd va Farg'onaning madaniy

ta'siri natijasidir.

*Chust madaniyati.* Farg'ona vodiysi O'rta Osiyoning yirik tarixiy-madaniy viloyatlaridan biri hisoblanadi. U Sirdaryoning yuqori oqimi hududida joylashgan bo'lib, janubdan Oloy va Turkiston, sharqdan Farg'ona va Oto'ynoq hamda shimal tomondan Chotqol-Qurama tog'lari bilan o'tab olingan. Bu hudud chorvachilik va o'troq dehqonchilik xo'jaliklarining shakllanishi uchun juda qulay bo'lgan tabiiy-geografik sharoitga ega bo'lgan.

O'lkada bu madaniyatga tegishli moddiy madaniyat namunalarini o'rganish o'tgan asrning 30 yillardan boshlangan. 1933-1934 yillarda B.A.Lat'smin Eylatan manzilgohini tekshirish ishlari davomida ilk marotaba bu madaniyatga oid bo'lgan naqshli soppollarni aniqlangan. Ularni keyinchalik 1939 yili KFK qurilishi hududida T.G.Obo'duyeva ham naqshli soppollarni qayd etgan.



Naqshli soppollardan tashkil topgan madaniyat namunalari o'rganish o'tgan asrning 50-yillaridan boshlab jadallashadi. Pomir-Farg'ona kompleks ekspeditsiyasi (PFKE) tarkibida M.E.Voronets va V.I.Sprishevskiy 1950-yili keyinchalik Farg'ona vodiysida Chust nomi bilan yuritilishiga asos bo'lgan

Chust shahridan shimalda naqshli sopollarga ega bo'lgan yodgorligini aniqlashib, V.I.Sprishevskiy 1953-1961 yillar davomida qazishma ishlarini olib boradi. 1952-yil Yu.A.Zadneprovskiy Farg'onaning sharqiy qismidagi yodgorliklarda (Dalvarzintepa,) tadqiqot ishlarini boshlab, 60-70 yillar davomida keng qamrovli qazishma ishlarini amalga oshiradi. Shuningdek, 1974-yil RF FA AILB (Yu.A.Zadneprovskiy), 1982-1983 yillarda mazkur ekspeditsiya va O'zR FA AI (B.X.Matboboev) hamkorligidagi ilmiy ekspeditsiya vodiyning Qirg'iziston respublikasi qismidagi yodgorliklarda tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Chust madaniyati Farg'ona vodiysida joylashgan so'nggi bronza va ilk temir davrlariga oid madaniyat. Farg'ona vodiysi hududi Sirdaryoning o'ndan ortiq irmaqlari hududidan iborat katta-kichik dehqonchilik vohalaridan tashkil topgan. Chust madaniyatiga oid manzilgohlar mazkur vohalarda joylashgan. Ulardan eng yirik yiriklari O'zgan, Qorasuv, Tava-Koson, Qoradaryo-Xo'jabod hisoblanadi.

Chust madaniyatining ilk temir davriga oid manzilgohlar maydoni jihatdan uch xil turi ajralib turadi. Maydoni 13-25 ga. dan iborat yirik manzilgohlar (Dalvarzintepa, Ashqoltepa), maydoni 4-5 ga dan iborat o'rtacha manzilgohlar (Chust, Dehqontepa va Xo'jambog') va kichik manzilgohlar. Yirik va o'rtacha manzilgohlar qadimgi shahar markazini va kichik manzigohlar esa dehqonchilik qishloqlarini tashkil etgan.

Chust madaniyatiga oid yirik va o'rtacha manzilgohlar mudofaa devori bilan o'rabi olingan. Mudofaa devorlarida minoralar uchramaydi. Mudofaa devorlar mahalliy hududning relefiga moslab qurilgan. Yirik manzilgohlar ark, aholi yashaydigan va atrofi qismlaridan iborat. Ularning dastlabki ikki qismi mudofaa devorlari bilan o'rabi olingan.

Farg'ona vodiysining eng yirik manzilgohi Dalvarzintepa hisoblanib, umumiy maydoni 25 ga. dan iborat. Manzilgoh boshqalaridan farqli o'laroq to'rt qismdan iborat bo'lib, ularning uchta qismi alohida mudofaa devori bilan o'rabi

olingan. Ark manzilgohning shimoli-g'arbiy qismida, maydoni 2,2 ga joyda o'rın olib, atrofi xom g'ishtdan qurilgan qalinligi 2,5 m. mudofaa devoriga ega. Aholi yashaydigan qismi 13 ga. bo'lgan. Manzilgoh aholi yashagan qismida, uning shimoliy, sharqiy va janubiy qismilarini egallagan. Manzilgohning atrofi madaniy qatlam ustidan ikki tomoniga xom g'isht terib, ichiga tosh, g'isht va joy to'ldirib qurilgan mudofaa devori bilan o'rab olingan. Bu devorning boshqa bir joyida bo'lagi paxsa bloklardan (50x50 sm. 40x30 sm.) barpo qilingan. Mudofaa devorning qafinligi joylarda 4-6 m. keladi. Dalvarzintepaning uchinchi qismi 5 ga. dan iborat bo'lib, alohida mudofaa devoriga ega. Bu yerda madaniy qatlam uchramaydi. ochiq joydan iborat. Undan harbiy havf paytida atrofda yashaydigan aholi yoki chorva mollari jon saqlaydigan joy sifatida foydalangan bo'lsa kerak.

Uy-joy imoratlari asosan mudofaa devorlari yaqin qurilgan. Dalvarzintepa manzilgohi shahristoning o'ttasida O'rta Osiyorning ilk temir davriga boshqa shaharlarida bo'lgani kabi ochiq joy qoldirilgan.




Farg'ona vodiysining g'arbida Chust shahri yaqinida shu nomli manzilgoh joylashgan. Umumi maydoni 4 ga. dan iborat Chust manzilgohi ikki qismidan iborat. Madaniy qatlami joylarda 0,4-3,5 m. tashkil etadi. Manzilgohning shimoli-g'arbiy qismida joylashgan ark (1,5 ga.) mudofaa devori bilan o'rab olingan. Manzilgohning qolgan asosiy qismi muhofaza qilinmagan. Mudofaa devor paxsa va xom g'ishtdan ushbu madaniyat faoliyatining rivojlangan bosqichida barpo etilgan.

Kichik manzilgohlar bir necha xonali alohida hovlidan iborat. Ular o'troq dehqonlar jamoasi katta patriarchal oilasining uy-joyini tashkil etgan. Chust madaniyatining ilk bosqichida aholisi yerto'la va yarim yerto'la uylarda yashagan. Ikkinci bosqichida uy joylar yertning ustida paxsa va xom g'ishtdan qurila boshlaydi.

Xo'jaligi dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilikdan iborat. Dehqonchilikda arpa, bug'doy, tariq va boshqa dukkakii o'simliklar ekilgan.

Dehqonchilik liman usulida sug‘orishga asoslangan. Dehqonchilikning muhim tarmog‘i-bog‘dorchilik yaxshi rivojlangan. Chorvachilikda qoramol, qo‘y, echki va yilqi boqilgan. Daryo va ko‘l bo‘ylarida yashagan aholi baliqchilik xo‘jaligini ham yuritgan.

Hunarmandchilik mahalliy ma‘dan konlariga asoslangan. Dalvarzintepa yodgorligidan bronza quyish ustaxonasining o‘rnii ochilgan. Bronzadan yasalgan o‘roq, iskana, pichoq, bigiz, igna kabi ish anjomlari, kamon paykoni, nayza va boshqa qutrol yarog‘lar topilgan. Dalvarzintepa yodgorligidan mil. avv. VIII asrga oid temirdan yasaqgan pichoq parchasi va temir toshqollarini topilgan. Chusliklar metalga ishlov berish sohasida muhim yutuqlarga erishadilar. Mis va bronzaga ishlov berish hunarmandchiligidan tashqari temirchilik ham vujudga kelgan. Toshdan qurollari ahamiyatini yo‘qotmaydi. Toshdan turli xil xo‘jalik anjomlari va kamon paykoni yasalgan.



1.Chust madaniyati sopolları 2.Eylator madaniyati sopolları

3.Chorvadorlarga oid qabrlardan topilgan sopollar

Hunarmandchilikning muhim tarmog'idan biri kulolchilik yaxshi o'r ganilgan. Dalvarzintepa manzilgohidan aylana shaklli diametri 2 m. dan iborat xumdon aniqlangan. Chust madaniyati sopol buyumlari qo'lda tasmasimon usulda va mato qolipda yasaqgan. Ularning naqshli va naqshsiz

turlari ajralib turadi. Sopollarining asosiy ko‘pchiligining sirtiga qizit, kam sonli qismiga esa oqish angob surtilgan. Angob ustidan jigar va qora rangda geometrik (romb va uchburchak shaklli) naqshlar sojining.

Boshqa bir sopol buyumlarda angob va naqshlar uchramaydi. Yupqa devorli sopol buyumlarini yasash uchun yaxshi tindirilgan loydan foydalanilgan. Qalin devorli buyumlarni yasash uchun, ularning loyiga somon va shamot aralashtirilgan. Sopol buyumlari sharsimon, konussimon shaklga ega bo‘lib, ularning dumaleq va tekis tagli turlari mayjud.

Chust madaniyatining shakllanishiga masalasida mutaxasislar tomonidan turli xil fikrlar bildiriladi. A.Asqarov mahalliy Andronovo madaniyatiga mansub chorvador aholning o‘troqlashishi natijasi, deb hisobiagan bo‘lsa, V.I.Sarianidi O‘rta Osiyoning janubidan kelgan aholi asos solganligini aytgan. I.Sverchkov bu madaniyatning ildizini Sharqiy Turkistonning Tarim vohasi bilan bog‘lashga harakat qilgan.

Chust madaniyatining ilk bosqichiga oid yodgorliklar vodiyning sharqiy qismida joylashgan, keyingi bosqichida vodiyning boshqa hududiga tarqaladi. Bu bevosita chustlik aholining kelib chiqishi sharqiy hududlar bilan bevosita bog‘liqligidan darak beradi.

*Eylaton madaniyati.* Farg‘ona vodiysida Chust madaniyatining davomida Eylaton madaniyati (mil. avv. VII-IV asrlar) faoliyat yuritgan. Eylaton madaniyatiga oid yodgorliklar Farg‘ona vodiysining deyarli barcha hududida tarqalgan. Bu madaniyatga oid yodgorliklar ko‘hma shaharlar, o‘troq dehqonchilik qishloqlari va chorvador qabilasining qabr inshootlaridan iborat.

Eylaton bosqichi Farg‘ona vodiysisidagi manzilgohlarining tuzilishi va mudofaa tizimida o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Manzilgohlar ilgaridan rejalashtirilgan loyiha bo‘yicha to‘g‘ri to‘rtburchak shaklida qurila boshlaydi. Mudofaa devorida to‘g‘ri to‘rtburchak burjlar paydo bo‘ladi.

Eylaton bu madaniyatga oid yodgorliklar orasida yaxshi o‘rganilgan manzilgohlardan biridir. Eylaton Qoradaryo bo‘yida joylashgan, umumiy

maydoni 200 ga. dan iborat. Manzilgoh ichki qismi 20 ga. va tashqi qismdan tashkil topgan. Ichki qismi quadratii mudofaa tizimiga ega. Ikkii qatordan iborat mudofaa devorining pastki qismi guvala va yuqorisi xom g'ishtdan 4 m. qalalikda barpo etilgan. Mudofaa devori 60 m. masofada joylashgan kvadrat burjlar bilan kuchaytirilgan. Murakkab tuzilishga ega bo'lgan bunday fortifikatsiya Chust madaniyatining shahar turidagi manzilgohlarida uchramaydi, aksincha, O'rta Osiyoning janubiy viloyatlari uchun xos. Manzilgohning ichki qismida joylashgan qurilish imoratlari yer ustida barpo etilgan. Imoratlarning devori guvala, paxsa va xom g'ishtdan ko'tarilgan.

Manzilgohning birinchi devoridan 500 m. masofada, unga parallel qilib qurilgan ikkinchi devor joylashgan. Bu devor ham mudofaa burjlarga ega bo'lib, keyinchalik buzilib ketgan. Ikkinci devor ichkarisida qurilish imoratlari uchramaydi. Ma'lumki, Eylaton madaniyatida chorvachilik xo'jaligining ahamiyati yuqori bo'lib, ikkinchi shabriston harbiy havf tug'ilganda aholi chorva mollarini himoya qilgan bo'lishi mumkin.

Sarvontepa va Simtepa yodgorliklari ham Eylaton madaniyatiga oid. Sarvontepa yodgorligidan mil. avv. I ming yillikning o'rtalarida qurilgan dastlabki mudofaa devorining saqlanib qolgan qismi aniqlangan. Bu yodgorlik Andijon shahrining eng qadimgi o'rni hisoblanadi.

Farg'ona vodiysining tog' oldi adirlarida mozorlar joylashgan. Ulardan chorvador aholi hayoti to'g'risida ma'lumotlar olingan. Oqtom mozoridagi kichik qabr-qo'rg'onlarning diametri 3-5 m., balandligi 0,5 m. dan iborat. Shuningdek, o'zaro birlasbib ketgan uzun qabristonlar mavjud bo'lib, ularda 3 tadan 9 tagacha alohida qabrlar joylashgan. Bundan tashqari Farg'ona vodiysida So'son, Ko'gay va Dashti Asht mozorlari ham o'rganilgan.

Eylaton madaniyati xo'jaligining asosini sug'orma dehqonchilik tashkil etgan. Dehqonchilikda arpa, bug'doy va tariq ekilgan. Guruch ham mana shu davrdan ekila boshlagan. Xo'jalikning ikkinchi tarmog'i chorvachilik hisoblangan. Chorvachilikda asosan kichik tuyoqli chorva mollari boqilgan.

Chorvachilikda ikkinchi o'rinni qoramol va yilqichilik egallagan.


Sepol buyumlari dastlab qo'lда va keyinchalik sekin aylanadigan kulolchilik charxida yasalgan. Bu davrda temirdan yasalgan buyumlarning soni ko'payadi. Bronza ahamiyatini yo'qotmaydi. Toshga ishlov berish va to'qimachilik hunarmandchiligi ishlab chiqarishining muhim tarmog'ini tashkil etgan.

Ayrim mutaxassislar *amurgiya saklarini* Farg'onan vodiysi hududiga joylashtiradi. Ma'lumki, amurgiya saklari ahamoniylar davlati tarkibiga kirgan. Yozma manbalarda amurgiya saklarining Roksanaka va Fosta shaharlari to'g'risida ma'lumotlar mavjud. Farg'ona vodiyining Eylaton davriga oid yirik manzilgohlari ahamoniylar shaharsozligi usulida qo'rilganligibarpo etilib, ularni yozma manbalarda qayd etilgan shaharlar bilan qiyoslash mumkin.

**Burgulik madaniyatি.** Toshkent vohasining ilk temir davri jamiyatি Burgulik madaniyatи misolida yaxshi o'rganilgan. Bu madaniyatga oid dastlabki moddiy topilmalar 1940-yili A.I.Terenojkin tomonidan Ohangaron daryosining o'rta oqimida Burguliksoy yoqasidan topib o'rganilgan. Hozirgacha bu madaniyatga oid 20 dan ortiq manzilgohlar va 50 ga yaqin uy-joylar ma'lum. Bu madaniyatning davri A.I.Terenojkindan keyin dastlab Keyinchalik Yu.F.Buryakov va G.Dadabaevlar Chirchiq vohasining o'rta oqimi hududlaridagi ayrim yodgorliklarda, xususan, Shoshtepaning quyi qismidagi yerto'la uy-joylarni o'rganib, ushbu madaniyatning mil. avv. IV asrga qadar davom etganligi qayd etgan va ikki bosqichga ajratishgan: Burgulik I mil. avv. IX-VII asrlar, Buruglik II mil. avv. VI-IV asrlar, X.Duke o'z ilmiy tadqiqotlari natijalariga asosida mil. avv. IX-VII asrlar doirasida belgilangan. S.R.Baratov O'rta Osiyoning janubiy hududlari bilan qiyoslash asosida mil. avv. XIII asrga qadimiyolashtiradi.

Burgulik madaniyatи sohiblarining manzilgohlari liman sug'orish usuli uchun qulay bo'lgan kichik soylarning yuqorisidagi tekislik (terassa) larning soyga nishablagan qismida joylashgan. Bu madaniyatga oid manzilgohlaridan

biri hozirgi Tuyabo'g'iz suv ambori hududida. Ohangaron daryosining ikkala sohilida joylashgan 30 ga yerto'la uy-joylardan iborat. Keyinchilik Ohangaron va Chirchiq vohalaridagi ko'pgina manzilgohlarning quyi qatlamlaridan Burgulik madaniyatiga oid yerto'la uylar aniqlandi. Shunday uylar Kanka, Shoshtepa, va boshqa yodgorliklarning quyi qatlamlarida uchrab, ushbu manzilgohlar ularning ustida shakllangan.



Burgulik madaniyatiga uylari 1. Yer tura uy 2. Juft uy 3-2 O'ralar (3-4 Choglar)

Toshkent vohasida antik davri yozma manbalarida keltirilgan sak qabilalarining yashaganligi inobatga olinsa, Burgulik madaniyatining ikkinchi bosqichini *saklar* davri sifatida qabul qilish mumkin. Shuni alohida ta'kidlash joizki, ko'chmanchi chorvador qabilalarining mazkur davrga oid moddiy madaniyat namunalari aniqlanmagan.

Burgulik madaniyatiga oid o'y-joylar hajmiga ko'ra yirik, o'rtacha va kichik uy-joylar o'lchamdagilari ajralib turadi. Yiriklari xom g'ishtdan ko'tarilgan loy devor orqali xonalarga ajratilgan. Ular aylana yoki cho'ziq shaklidagi yerto'lalardan iborat. Uylarning eshigi daryo tomon qaratib qurilgan.

Burgulik madaniyati abelisi liman usulli sug'orish uchun qulay bo'lgan soylarning etagida dehqonchilik qilgan. Dehqonchilikda bug'doy va arpa ekilgan. Vohaning tog' va tog'oldi dashtilarida chorvachilik rivojlangan. Chorvachilikda qo'y, echki, qora mol va yilqi boqilgan.

Metallarga ishlov berish yaxshi rivojijangan. Mis Chotqol-Qurama kontaridan qazib olingan. Bronzadan yasalgan mehnat qurollari va qurolyarog'lar, xususan, ikki quloqli bolta, o'roq, pichoq, igna, bigiz, qoshiq, sovut,

kaenon paykoni topilgan. Bu topilmalar O'rta Osiyodan shimolda faoliyat yuritgan madaniyatlarning moddiy topilmalar bilan o'xshash.

Sopol buyumlari mate qolipda va tasmasimon usulda yasalgan. Sopollarning tagi dumaloq, qisman jigar rangli naqshlar bilan bezatilgan. Naqshli idishlar umumiy sopollarning bir foiz qismini tashkil etadi. Sopol buyumlari xum, qozon, gorshoksimon idish, kosa va piyolalardan iborat. Ayrim qozonlarda tarnovsimon chumaklar uchraydi. Sopol buyumlari orasida cho'g'donlar ham uchraydi. Keyingi bosqichida yassi tagli sopollar paydo bo'ladi. Naqshli sopollarning soni kamayib ketadi.

Toshkent vohasi qadimgi davrdan O'rta Osiyoning janubiy o'troq dehqonchilik o'lkalari bilan shimolda yashagan chorvador qabilalarini o'zarob bog'laydigan e'ziga xos aloqa hududini tashkil etgan. Tadqiqotchi olimlar qadimgi fors yozma manbalarida keltirilgan "*tigraxauda saklari*"ni Sirdaryo o'rta eqimining o'ng sohil yerlariga joylashtirgan. Yunon geografi Strabonning "Geografiya" asarida Yaksart (Sirdaryo) ortida yashagan saklar g'orlarda yashaganligi to'g'risida ma'lumot saqlangan. Muallif burgulik madaniyatiga oid yerto'la uylarni g'or, deb tushungan bo'lsa kerak.

**Xorazm.** Xorazm o'lkasi to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlar Avesto va yunon mualisflari: Gekatey (mil.avv. VI asrning oxirlari) va Geradot (mil.avv. V asr) yozib qoldirgan manbalarda uchraydi. Milletlik Gekateyning xorazmiylar, Xorazmiya shahri va Gerodotning Ak (Akes) daryo vohasida yashagan xorazmliklar to'g'risidagi ma'lumotlari o'lkaning qadimgi tarixiga oid muhim manbadir.

Bu o'lkada arxaik davrga oid yoki madadaniy qatlamga ega bo'lgan Ko'zaliqir, Qal'aliqir, Ko'hna Xazorasp, Ko'hna Xiva, Xumbuztepa, Dingilija, Katta Oybo'yriqal'a yodgorliklari yaxshi o'rjanilgan.

Amudaryoning qui oqimi hududida joylashgan Ko'zaliqir manzilgohining Umumiy maydoni 25 ga. dan iborat qir ustida qurilgan uch burchak shaklidagi manzilgoh ikki qismidan iborat. Tepalikning janubi-g'arbiy qismidagi birinchi

qismining maydoni 11 ga. ni tashkil etib, muhofaza devori bilan o'rab olingan.

Yuqori qal'ada 1 ga. maydonda o'tin olgan imorat majmuasi joylashgan. Bu yerda turli maqsadlarda foydalilanigan 20 tacha xonalarning o'rni ochib aniqlangan. Ular orasida ustunlarga asoslangan katta zallar, ko'p sonli yirik xumlar saqlanadigan va o'ralar joylashgan xonalar ajralib turadi. Bu imorat majmuasining xom g'ishidan ( $52 \times 26 \times 10$  sm.) terilgan devorlarining yuvib ketilgan devorlari ayrim joylarda yarim metrgacha saqlanib qolgan. Bu majmua saroy bo'lishi mumkin.

Yuqori qal'aning pastida ikkinchi qismi joylashgan. Arxeologik tadqiqet ishlari davomida manzilgohning kengligi 4 metr dan iborat bo'lgan uchta darvozalarining o'rni aniqlangan. Darvozalarning chetida ikkita to'g'ri to'rtburchak shaklidagi mudofaa burlari bilan kuchaytilrilgan. Qal'aning muhofaa tizimi o'rganilib, shimoliy qismida shaharning yaxshi saqlangan (saqlanib qolgan balandligi 3,5 metr) mudofaa devori qadimda foydalansmasdan, qurilgandan so'ng birdaniga joyqa bosib qolishi bilan tagdevorga aylantirilib, uning ustidan hozirgi paytgacha saqlanib qolmagan yangi muhofaza devori barpo etilgan. Loyqa bilan to'lib qolgan qismi yaxshi saqlangan. Shaxmat kataklari tartibda joylashgan to'g'ri to'rtburchak shaklli shinaklarga shikast yetmagan.

Qal'aning asosiy qismi ochiq qoldirilgan Ko'zaliqir manzilgohining shakllanishi va uning vazifasi to'g'risida turlicha yondoshuvilar mavjud. S.P.Tolstov Xorazmning birinchi poytaxti sifatida mil. avv. VII asrlarda shakllanganligini bildirgan.

Ko'zaliqir yodgorligi Xorazm vohasidagi ko'hna shahar xarobasi. Tabiiy tepalikdag'i uch burchak shaklli, 40 ga maydonni egallagan manzilgoh ikki qismdan iborat. Yuqori qal'a alohida mudofaa devoriga bilan o'rab olingan. Bu yerdagi saroy majmuasida katta zallar, oziq-ovqat ombori joylashgan. Manzilgohning kirish darvozاسining ikki chetida to'g'ri to'rtburchak mudofaa burjları joylashgan. Mudofaa devori va burjlar janavor shinaklar bilan

kuchaytirilgan.

Ko'zaliqir manzilgohining quyi qal'a qismi ham mudofaa devoriga ega bo'lib, uning yaqinida o'y-joy va xo'jalik imoratlari quriqan. Qal'aning markazida qurilish imoratlari uchramaydi, ochiq qoldirilgan. Quyi qal'a ichkarisida ochiq maydon boshqa shaharlardagi kabi harbiy havf paytda chorva mollarini himoya qilish vazifasini bajargan. Ko'zaliqir manzilgohini S.P.Tolstov Xorazmning mil. avv. VII asrda shakllangan birinchi poytaxti deb, hisoblagan.

Janubiy Xorazmning ikkinchi bir yirik shahar markazi hisoblangan Qalaliqir manzilgohi Daudon sug'orish tizimi hujida joylashgan. Tarhi to'g'ri to'rtburchak shakldagi, umumiy maydoni 70 ga. ni tashkil etgan manzilgoh ikki qismidan iborat.

Manzilgoh faoliyatining uchta qurilish davri aniqlangan. Birinchi qurilish davrida manzilgoh paxsadan barpo etilgan ikki qatorli muhofaza devori bilin o'rab olingan. Ular oralig'iда yo'lakeha, ya'ni galareya joylashgan. Mudofaa devori to'g'ri burchakli burjlar bilan kuchaytirilgan.

Ikkinchi qurilish davrida esa paxsa devorlar ustidan xom g'ishtdan terilgan. Mudofaa devori va burjlar nayza o'qi uchi shaklidagi jangavor shinaklar shaxmat kataklari shaklida joylashtirilgan.

Uchinchi qurilish davrida xom g'ishtning ustidan paxsa devor barpo etilgan va balandligi kuchaytirilgan. Barcha qurilish davrida devorning eniga qo'shimchalar kiritilmasdan o'zgarishsiz qoldirilgan. Devorning qalinligi 5 metrn tashkil etgan. Ko'hna shahar to'rtta darvozaga ega bo'lib, uning ichkarisiga o'ng tomonidagi aylanma xona orqali kirilgan. Devorga tutash qurilgan aylanma kirish xona devordan 18 metr tashqariga bo'rtib chiqgan. Manzilgohning mil. avv. V-IV asrlarga oid.

Ko'hna Xazorasp Xorazm vohasining qadimgi shahar markazlaridan biri. U vohaga kirishda Baqtriya va Marg'iyona keladigan yo'lning bo'yida joylashgan. Ko'hna shaharning qal'a qismi to'g'ri to'rtburchak (280x294 m.) shaklda hozirgi Devsolgan tepaligi o'mida shakllangan. Qal'a paxsadan barpo

etilgan ikki qator mudofaa devorga bilan o'rab olingan, ularning o'tasida yo'lakcha joylashgan. Qadimgi qurilish imoratlari zamonaviy uy-joy imoratlarining tagida qolib ketganligi sababli yaxshi o'rganilmagan.

Qo'hna Xiva mil. avv. V asrlarda shakllangan shahar. Shaharning arxaik davridagi maydoni 26 ga. dan iborat bo'sib, tarhi to'g'ri to'rtburchak shaklda (650x450 m.). Shahar mudofaa devori bilan o'rab olgan va yarim aylana burjlar bilan kuchaytilgan. Qo'hna shaharning arki g'arbiy tomondagи devor yaqinida joylashgan bo'sib maydonni 2 ga. dan ortiq joyni egallagan.

Xorazm o'lkasida shaharsozlik madaniyatি mil.avv. VI asrning beshi yoki mil.avv. VII asrning ikkinchi yarmida Ko'zaliqir madaniyatining shakllanish natijasida vujudga kelgan. Vohada shaharsozlik taraqqiyotining keyingi bosqichi o'ikaning ahamoniylar tarkibi kirishi bilan bog'liq.

Xazorasp shahridan 17 km. sharqda Amudaryoning chap sohili Xumbuztepa manzilgohi o'rin olgan. Manzilgohning bir qismini Amudaryo suvi yuvib ketgan. Hozirgi paytda saqlanib qolgan qismi 4,6 ga. ni tashkil etadi. Xumbuztepaning quyi madaniy qatlami mil. avv. VII asr oxiri-VI asr boshlariga oid. Bu yodgorlik Xorazm vobasidagi kulolchilik ishlab chiqarishiga ixtisoslashgan eng qadimgi manzilgoh sanaladi.

Janubiy Oqchadaryo o'zaning sharqiy qismidagi Dingilja vohasida mil.avv. V asrga oid qadimgi dehqon jamoasining uy-qo'rg'onlari o'rganiigan. Ularning o'mi 50-120 m. joyda saqlanib qolgan. Uy-qo'rg'onlarda katta zal, yashash xonalari, oshxona, omborxonalar joylashgan. Katta zal yog'och ustunlar asosida yopilgan. Unda diniy marosimlarini o'tkazish uchun mo'ljalangan katta o'choq mavjud.

Qadimgi Xorazm xo'jaligining asosini sug'orma dehqonchilik tashkil etgan. Dehqonchilikda bug'doy, arpa, tariq ekilgan. Sholi to'g'risida aniq arxeologik ma'lumotlar hozircha aniqlanmagan. Bog'dorchilik, xususan, uzumchilik va polizchilik yaxshi rivojlangan. Tabiiy minerallarga to'yungan Amudaryoning suvi vohada dehqonchilik rivojlanishi muhim omil hisoblangan.

Xo'jalikning ikkinchi tarmog'i chorvachilik hisoblangan. Sug'orma dehqonchilik vohalarida yashaydigan aholi qoramol boqqan. Sariqamish atrofidagi hududlarda yashovchi aholi xo'jaligida qoramol va yilqichilik ustunlik qilgan.

Xorazmning arxaik davri ixtisoslashgan hunarmandlikning muhim tarmoqlari temir, bronza, tosh, suyakka ishlov berish va kulolchilik his. Ko'zaliqir yodgorligidan mil. av. VI-V asrlarga oid temirdan yasalgan o'roq topilgan. Bronzadan qutol-yarog'lar yasalgan. Geradot keltirgan ma'lumotlarga qaraganda xorazmliklar katta qilich-akinak va kamon bilan qurollangan. Ko'zaliqir manzilgohidan uch qirrali tiqinga ega kamon paykoni topilgan. Xumbuztepa manzilgohidan ikki qavatl xumdonlar o'r ganilgan. Xorazm sopol buyumlarining eng qadimgisi arxaik davrga oid bo'lib, O'rta Osiyoning janubiy hududida tarqalgan Yoz'il sopollari bilan o'xshash.

Xorazmda qadimgi shaharlar vajudga kelgan davri va davlatchilikning shakllanishi munozarali masala hisoblanadi. Xorazm to'g'risidagi dastlabki yozma manba ma'lumotlari zardushtiylik dini kitobi Avestoning dastlabki qismi Yashtda keltirilgan. Boshqa ma'lumotlar Xorazm va xorazmliklarnin yunon mualiflari Gekatey (mil. avv. VI asrning oxiri) va Geradot (mil. av V asr) asalarida va Doro I tomonidan Kirmonshox yaqnidagi Bexustun qoyasiga bitilgan ahamoniylar imperiyasi tarkibiga kirga satrapliklar ro'yxatida uchraydi.

Gekatey "parfiyaliklardan sharqda joylashgan tekisliklar va tog'larni ishg'ol etgan hududda xorasmiyalar yashashi va Xorazmiya shahri" to'g'risidagi ma'lumotni yezib qoldirgan.

Gerodot "Tarix" asarining 3 kitobida: "Osiyoda atrofi tog'lar bilan o'ralgan vodiyo mavjud; tog'larda beshta o'tish joylari bor; qachonlardir xorasmiyalar yashagan bu vodiyo parfiyonlar, saranglar, famaniylar (tameniyalar) yerlari bilan chegaradosh bo'lgan. Forslar huknironligi boshlangandan so'ng fors podsholari tarkibiga kirgan. Tog'lardan yirik daryo ogib tushgan. Daryoning nomi Ak. Daryodan yuqorida keltirilgan xalqlarning har biri ariq

qazib, suvidan foydalanishgan. Fors hukmdorlari daryoning chiqish joyiga to‘g‘on barpo qildirgan. To‘g‘on suvidan foydalanuvchilar yillik soliqdan tashqari katta mig‘dordagi pul to‘lashadi.

Mazkur ma’lumotlar o‘tgan asr davomida zamonaviy tadqiqotchi olimlar o‘rtasida turli ilmiy qarashlar va g‘oyalarni keltirib chiqargan edi. Ularning xulosalariga asosan ahamoniylargacha bo‘lgan Xorazm g‘arbda Parfiya va sharqda Baqtriya bilan chegaralanib, Kopetdagning shimoliy tog‘oldi hududlari. Kuchan-Mashxad vodiysi, Nishopur vodiysi va Tajang-Hyererud bilan chegaralangan. Bunday ilmiy qarashlar keyinchalik Xorazm hukmronligi ostida Parfiya, Girkaniya, Marg‘iyona va ehtimol So‘g‘diyonadan tarkib topgan siyosiy birlashma iborat “Katta Xorazm” to‘g‘risidagi ilmiy farazlarni keltirib chiqargan.

S.P.Tolstovning o‘lkada olib borgan uzoq yillik arxeologik tadqiqot ishlaringin natijalariga asoslanib, shaharsozlik madaniyatining shakllanishi va taraqqiyotini Xorazm hududi bilan bog‘lab afsonaviy Ak (Akes) daryosini Amudaryo, deb hisoblaydi. Uning ilmiy taxminlariga ko‘ra Xorazm podsholigini xorasmiylar boschiligidagi massaget qabilalarining birlashishi natijasida yagona davlatning vujudga kelishining natijasi, deb hisoblaydi. U massagetlar O‘zboy o‘zani qurigandan keyin Xorazm yerlariga ko‘chib o‘tadi, deb hisoblaydi.

Keyingi paytlarda Yu.A.Rapoort S.P.Tolstov ilgari surgan qarashlarga o‘xshash fikrlarni ilgari surgan. U Amudaryoning quyi oqimida urbanizatsiyaning shakllanishi taraqqiyoti yaqin atrofdagi o‘troq dehqonchilik madaniyati markazlari bo‘lgan Baqtriya, So‘g‘d, Marg‘iyona va Parfiya hududlariga qo‘shti yashagan sak qabilalari ularning ilg‘or madaniyati an‘analardidan xabardor bo‘lgan xorazmlik saklar o‘z vatanlariga joriy qilgan, deb hisoblaydi.

Boshqa bir olima B.Vaynberg esa SarIQamish o‘zani hududida mil. avv. VIII-VI asrlarda tarqalgan chorvador qabilalariga tegishli bo‘lgan Quysisoy

madaniyatiga oid Quyisoy 2, Tumekkichijik va Tarimqoya yodgorliklarini o'rganib, qadimgi Xorazm madaniyatining ildizdarini Sariqamish o'zani hududlari bilan bog'lashga harakat qiladi. Uning fikriga ko'tra Quyisoy madaniyatiga asos solgan aholi midiyaliklar bo'lib, ular o'zlarini xorasmiylar, deb hisoblashgan.

Xorazm hududida ilk davlat va shaharlarning shakllangan davri va ularning ildizi zamonaviy arxeologiya fani sohasida munozarali masala sanaladi. Bu masalaning aniq yechimini topish kelajakda amalga oshiriladigan muhim tadqiqot ishlardan biridir.

*Qadimgi ko'chmanchi chorvadorlar.* Mil. avv. II asming oxiri va I ming yillikning boshtlarida yevrosiyo dashtlarida ko'chmanchi chorvachilikka asoslangan xo'jalik shakli qaror topadi. Mazkur xo'jalikning qaror topishida tabiiy-iqlim sharoitining o'zgarishi, chorvachilikning takomillashishi, tabiiy sharoitga moslashgan chorva mollari otarining shakllanishi muhim o'r'in tungan. Chorva moliari soning ko'payishi mulkiy tengsizlik va ijtimoiy tabaqlanish jarayonining vujudga kelishiga olib kelgan va tovar ayriboshlashni keltirib chiqargan. Asta-sekin aravadan soydalanishning kengayib borishi, yilqichilikning taraqqiy etishi va otdan ulov sifatida soydalanish chorvadorlar hayotida yangicha ijtimoiy munosabatlarni keltirib chiqaradi.

Yevrosiyoning shimoliy qismida, Shimoliy Qora dengiz bo'yidan janubiy Sibir dashtigacha cho'zilgan keng hududda ko'chib yurgan ko'chmanchi chorvador qabilalari zamonaviy fanda *nomadlar* nomi bilan mashhur. Ularning hayoti, kundalik turmush tarzidan darak beradigan ma'lumotlar asosan qabr-qo'rg'onlar va qisman kam sonli manzilgohlarida o'z aksini topgan.

Ilk nomadlar to'g'risidagi ma'lumotlar Avesto, qadimgi fors va yunon-rim manbalarida saqlangan. Avestodachorvador qabilalari *turlar*, deb atalgan. Ular qadimgi fors manbalarida (Bexustun qoyatoshi va Naqshi Ruslam yozuvlari) umumiyl nom bilan *Saka*, deb noimlangan. Fors manbalarida saklarning alohida guruhlari: *saka xaumavarka*, *saka tigruxauda*, *saka-tiay-taradarayya*, "so'g'd

*orti saklar” “botqoqlik saklari”, amurgiya saklari keltirilgan.*

Qadimgi yunon-rim mualiflari asarlarida saklari bilan birqalikda skiflar keltirilgan. Geradot keltirilgan manbada ko‘chmanchi hayot tarziga ega bo‘lgan xalqlarni skiflar, deb atalgan. Muallif o‘zining “Tarix” kitobida “saklarning kundalik turmush tarzi, urf-odatlari skiflarnikiga o‘xshab ketadi. “Aslida saklar skif qabilalaridir. Forslar barcha skiflarni saklar deb ataydilar”, deb yozgan.

Geradot chorvador qabilasining bir guruuhini massaget, deb ataydi. Muallif massagetlar sharqda quyosh chiqish tomonda, Araks (Amudaryo) daryosining narigi sohilida, issedonlar qarshisida yashaganligi, daryoning bir o‘zani Kaspiy dengiziga quyilganligi to‘g‘risidagi ma’lumotni keltirgan. Ehtimol muallif Uzboyni nazarda tutgan bo‘lishi mumkin. Zamonaviy tadqiqotchi olimlar massagetlarni saklarning umumiyligi harbiy-siyosiy uyushmasi tarkibiga kirgan yirik xalqlar bo‘lganligini ta’kidlaydilar. Bulardan tashqari ilk manbalarda dax, issedon, derbiklar nomi bilan tilga olingan chorvador qabilalar to‘g‘risida ma’lumotlar ham mavjud. Ehtimol, ular ham massagetlar kabi saklar uyushmasi tarkibiga kirgan kichik xalqlar bo‘lishi mumkin.

Qadimgi ko‘chmanchi chorvador-nomadlariga oid yodgorliklar, xususan, qabr-qo‘rg‘onlar O‘rta Osiyoning tog‘, tog‘ oldi adirlarda va dasht hududlardan topib o‘rganilgan. Sirdaryoning quiy oqimi hududidan ilk temir davriga oid Janubiy Tagisken va Uygarak mozorlarida o‘rin olgan to‘rt burchak va xalqa shaklli qabr-qo‘rg‘onlar chorvador qabilalarining muhim yodgorligi sanaladi. Janubiy Tagiskendan 50 ga yaqin, Uygarakdan 80 ga yaqin qabrlar aniqlanib, ularning ko‘pehilik qismida qazishma ishlari amalga oshirilgan. Janubiy Tagisken mil. avv. VII-V asrlar va Uygarak mil. avv. VII-VI asrlarga oid bo‘lib, mayitlar qo‘rg‘on tagida joylashgan o‘ralarga ko‘milgan va krematsiya odati bo‘yicha dafn qilingan.

Yirik, o‘rtacha va kichik o‘lchamli qabrlarning tepasi yog‘och to‘shamalar bilan yopilgan. Ayrim qabrlarning atrofiga tuproq devor tortilgan. Orci bo‘yi hududidagi ilk sak davri qabrlarda kichkina *otashka* va qurbanlik keltirish

joylari mavjud. Qabr-qo'rg'onlarda marhumlar bilan birga ularning hayotiylik davrida zarur bo'lgan uy-ro'zg'or buyumlari, quroq yarog'lar, ot anjomlari va zeb-ziynat buyumlari qo'shib ko'milgan. Ayrim qabrnning kuzatuv buyumlar keyinchalik talon-taroj qilingan.

Sopol buyumlari qo'lda yasalgan, loyga shamot va maydalangan ohaktosh qo'shilgan. Sopoliarning tagi yassi, sirtiga kul rang yoki jigar rang bo'yoqda naqsh chizilgan. Ular katta-kichik va chuqur kosalar, krujkalar, baldoqli va baldoqsiz ko'zalar va jumrakli idishlardan iborat. Uygarakdan o'troq dehqonchilik o'lkalariiga xos kulolchilik charxida yasalgan va sirtiga angob surtilgan sopollar topilgan. Bunday sopollar chetdan keltirilgan.

Quroq yarog'lari asosan bronzadan yasaigan tiqinli va soplil uch parrakli kamon paykonlari, temir va bronzadan yasalgan sovut, temirdan yasalgan uzun qilich va boshqa anjomlardan iborat. Ayollarga tegishli qabrlarda bronzadan yasalgan kam sonli oynalar mavjud.

Uzboy o'zani, Sariqamish hududidagi Quyisoy 2, Kanxa 2 manzilgohlari va Tumek kichijik, Tarimqoya qabr-qo'rg'onlarini o'rgangan. Kuyusay 2 (maydoni 12 ga. atrofida) mudofaa devoriga ega bo'Imagan manzilgoh daryoning qayrilgan yerida joylashgan. Uy-joylarining ikki xil turi mavjud. Uy-joylari yerto'la (chuqurligi 3 m.) va yog'och qovurg'a qurilmasiga ega boshpanalardan (maydoni 80-100 kv. m.) iborat.

Tumek kichijik (mil. avv. VII-VI asr o'rталари) va Tarimqoya (mil. avv. VI-V asrlar) mozorlari pastqam tuproq uyumi tagidagi qabrdan iborat. Ularning ayrimlari yog'och va qamish bilan yopilgan.

Manzilgohdan temir, bronza, tosh va suyakka ishlov berish va zargarlik hunarmandchiligi qoldiqlari saqlangan. Sopol buyumlar mato qolipda yasalgan. Ularning shakli sharsimon, yassi tagli turlari ham mavjud. Qabrlardan ham kuzatuv buyumlari topilgan. Topilmalar marhumning jinsi va mavqeyiga qarab qo'yilgan.

Tyanshon-Oloy hududidida yashagan chorvador qabilalarning qabrn-

qo'rg'onlari ham o'rganilgan. Ularning eng yirigi Ketmontepa havzasida joylashgan Jarariq qabr-qo'rg'oni hisoblanadi. Bu yerdagi qabr-qo'rg'onlarning ustidan baland tuproq uyulgan va atrofiga yirik toshlar terib chiqilgan. Bu yerdagi qabr-qo'rg'onlar bir chiziqda qator joylashgan. Ularning mayitxonasi archa yog'och bilan yopilgan.

Marhumlar ma'lum kuzatuv buyumlari bilan birga qo'shib ko'milgan. Erkaklar qabrida temir xanjar, kamon o'qi, jangavor belta, ayollar qabrida oyna va taqinchoqlar saqlangan. Chorvador qabilalari tegishli sopol buyumlar qo'lda yasalib, sirtiga sodda naqshlar chizilgan. Buyumlar dumaloq tagli kosa, gorshok va novsimon ko'zalardan iborat. Chorvadorlar uchun xos bo'lgan kurujkalar ilgaksimon tutqichga ega. Sopol buyumlarning uchdan bir qismi kulolchilik charxida yasaigan. Bunday sopollar Farg'ona vodiysining dehqonchilik markazlaridan keltirilgan bo'lib, qo'shni yashagan o'troq va chorvador aho'i o'rtasida savdo aloqalaridan darak beradi.

Farg'ona vodiysining tog' oldi adirlarida ilk ko'chmanchi chorvadorlarga oid Oqtom, So'fon, Ko'ngay va Dashti Ashi qabristonlari o'rganilgan. Oqtomidagi qabristonlaridagi ko'pchilik qismi kichik qabrlardir. Go'rlar uzunasiga bir qator joylashgan qabristonlar ham mavjud. Bu qabristonlarda 3 tadan 9 tagacha go'rlarni o'rin olgan. Go'rlarda bittadan to'rtagacha mayit ko'milgan. Farg'ona vodiysisidagi qabrlar bir-biridan unchalik farq qilmaydi. Ko'ngay qabristonida chuqur qabrlar va ichkari tomoni tosh bilan terilgan yerosti xilkalaridan iborat. So'fon qabrlarining ustidan aylantirib tosh terib chiqilgan.

Chorvadorlar qabrlaridan marhumlar bilan birga qo'shib ko'milgan qurolyarog'lar, zeb-ziynat buyumlari va sopol buyumlari topilgan. Tadqiqotchi olimlar Farg'ona vodiysining tog' va tog' oldi hududida ko'chmanchi chorvador qabilalarining *saka xaumavarka* guruhi yashagan, deb hisoblaydi. Ular *amurgiya saklari* tarkibiga kirgan bo'lishi mumkin.

Mil. avv. VIII-V asrlarda ko'chmanchi chorvador qabilalari orasida sinfiy

jamiyat va harbiy-siyosiy tuzilmalar shakllanib, davlatchilik vujudga keigan. Ularning shaharlari va ayrim podsholari to'g'risida aniq ma'lumotlar mavjud. Yozma manbalarda keltirib o'tilgan chorvador qabilalar O'rta Osiyoning ma'lum hududida yashab, o'zlarining davlat boshqaruviga ega bo'lganlar.

#### **Muvzuoi mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:**

1. O'rta Osiyda ilk temir davrida qanday o'zgarishlar sodir bo'ladi?
2. O'rta Osiyoda ilk temir davrining ikkinchi bosqichida qanday yutuqlarga erishilgan?
3. Qadimgi Baqtiriya jamiyatni taraqqiyotining omillari nimada?
4. Qadimgi So'g'd jamiyatni taraqqiyoti xususiyatini izohlang?
5. Ustrushonaning arxaik davri jamiyatni taraqqiyotini bayon qiling?
6. Farg'onaning ilk temir etno-madaniy jarayonlarini izohlang?
7. Burgulik madaniyati xususiyatini yoritib bering?
8. Xorazmda arxaik davri etno-madaniy jayonlari qanday kechgan?
9. Qadimgi chorvadorlarning madaniy hayoti qanday kechgan?
10. O'rta Osiyoning qadimgi davlatchilgi to'g'risida nimalar bilasiz?

## I. Bob. O'rta Osiyoning antik davri arxeologiyasi

*Kalit so'zlar. Antik davri, Baqtriya, Shimoliy Parfiya, So'g'd, Marg'iyona, ellin madaniyati, Davan, Qovunchi madaniyati, Xorazm.*

*Antik davri xususiyatlari.* O'rta Osijo mil.avv. IV asrning boshigacha ahamoniylar tarkibiga kirgan bir necha satraplikdan iborat bo'lgan. Mil. avv. 327-yili Sirdaryoning o'rta oqimigacha cho'zlgan yerlar yunonlar tomonidan bosib olingan. Aleksandr Makedonskiy vafotidan so'ng bu yerlar (mil. avv. IV asrlar oxirida) selavkiylar davlati tarkibiga kiradi. Mil. avv. III asrning boshida Yaksart (Sirdaryo) orti hududi, ya'ni Toshkent vohasi ham selavkiylar davlati tasarrusiga o'tadi.

Mil. avv. III asrning o'rtalarida (mil.avv. 250-yil) Janubiy Turkmanistonda Yunon-Parfiya (arshakiylar), O'zbekiston janubida Yunon-Baqtriya davlatlari qaror topadi. Yunon-Baqtriyaning chegarasi siyosiy vaziyat ko'ra o'zgarib borgan. O'zaro urushlar tufayli siyosiy tanazzulga uchrayotgan Yunon-Baqtriya yeriari mil. avv. II asr ikkinchi yarmida (mil.avv. 140/130-yillar) shimoliy-sharqdan kelgan *yuechjilar* tomonidan bosib oigan, keyinchalik Kushon podsholigi va imperiyalari (mil. avv. I-milodiy III asrlar) tarkibida bo'lgan. Mil. avv. III asrda kushonlar davlati boshqaruvi sosoniy hukmdorlari qo'liga o'tadi. Mil.avv. IV asrda ko'chmanchi toxarlar kushonlar davlatiga barham beradi.

Shimoliy o'lkalari, xususan Xorazm, Farg'ona vodiysi va ko'chmanchi *sak-massaget* qabilalari yunonlar ta'siridan chetda qolib, ularning tarixi o'zgacha siyosiy jarayonlar bilan belgilanadi. Toshkent vohasi hamda Sirdaryoning quyi oqimigacha bo'lgan yerlar mil. avv. III asrda tashkil topgan Kanguy davlati tarkibiga kirgan bo'lsa, Farg'ona vodiysi yerlarida xitoy manbalarida keltirilgan Davan (Dayuan) davlati faoliyat yuritgan.

O'rta Osiyoda sodir bo'lgan mazkur siyosiy jarayonlar mahalliy xalqlarning madaniy hayotida o'z aksini topib, u yoki bu xalqlar madaniyatining

ta'siri ko'rinadi. O'rta Osiyoning janubiy o'lkalarida elliñ madaniyatining chuqur singan bo'lsa, shimoliy xalqlar madaniyatida shaharsozlik, qurilish-me'morhililik va kulolchilik sohalarida qisman namoyon bo'ladı. Keyinchalik elliñ madaniyati an'analari shimoliy o'lkalarga ham qisman tarqaladi.

Ellin shaharsozligi uchun kvadrat yoki to'g'ri to'rtburchak shaklidagi ilgaridan loyihalashtirilgan, aniq reja asosida qurilgan shaharlar xos. Shaharlar antik davri og'ir qurollangan harbiy qo'shin qarshiligiga bordosh beradigan mudofaa tizimiga ega bo'lgan. Shaharlar kvadrat xom g'ishtdan barpo etilgan ikki qator mudofaa devori bilan o'rabi olinib, ular to'g'ri to'rtburchak burjlar bilan kuchaytirilgan. Devorlar oralig'ida soqchilar uchun mo'ljallangan karidor-galareya mavjud bo'lgan. Mudofaa devori va burjlarda shaxmat kataklari shaklida joylashgan shinak bilan kuchaytirilgan. Mudofaa devori tashqarisida xandak qazilgan. Xandak va devor o'rtasida joy qoldirilgan. Yunon shaharlarida "proteyxizm" yoki "berma", deb nomlangan bu joy birinchidan, devorni zaxdan himoya qilgan bo'lsa, boshqa tomondan dushman askarlarining qarshiligini susaytirishga xizmat qilgan.

O'rta Osiyoning janubiy o'lkalarining antik davrida vujudga kelgan ko'pgina shaharlar elliñ qurilish usulida barpo etilgan. Ellin qurilish usuli ko'proq Shimoliy Parfiya, Marg'iyona, Baqtriya va qisman So'g'd shaharlarida namoyon bo'ladı. Keyinchalik hu an'ana So'g'd orqali O'rta Osiyoning sharqiy o'lkalariga tarqaladi.

O'rta Osiyoning o'troq deqonchilik vohalariga chorvador qabilalarning ommaviy kirib kelishi, mahalliy madaniyatga ko'chmanchilarga xos alomittarning o'tishiga olib kelgan. Kushon podsholigi davrida gandxar (hind) madaniyatining tarqalish jarayoni kuzatiladi. Natijada mahalliy madaniyat zaminida elliñ, hind, ko'chmanchilar an'analari sintezi natijasida o'ziga xos madaniyat shakllangan. Bu holat Baqtriya hududida kuchliroq sezildi.


**Shimoliy Parfiya.** O'rta Osiyoning boshqa joylaridagi kabí shimoliy Parfiya Aleksandr Makedonskiy vafotidan keyin selevkiylar davlati tarkibiga

kirgan. Mil. avv. 250 mahalliy yunon zodegoni Androgor selevkiylar davlatidau mustaqil bo'lib oigandan so'ng mamlakat mil.avv. 247 yili shimoldan kelgan ko'chmanchi dax (dai) yoki parn qabilasi bosib olib, arshakiylar sulolasiga asos solgan. L.M.Levina fikriga ko'ra Arshak boshchiligidagi ko'chmanchilar qabilasi Sirdaryoning quyi oqimida faoliyat yuritgan Chirikrabot madaniyati egalari bo'lib, ular qurg'oqchilik tufayli bu yerlarga ko'chib kelgan. Mil. avv. II asrlarda Parfiya davlatining qudrati kuchayadi, mamlakat chegaralari Suriyaga yerlarga qadar kengayib, dunyoning yirik imperiyalardan biriga aylanadi. Bu davrda Marg'iyona hududi Parfiya tarkibiga kiritiladi. III asrning birinchi choragida Eronda kuehayib borgan sosoniylar Parfiya davlatiga barham berib, Shimoliy Parfiya va Murg'ob vohasi hududini bosib olgan.

Shimoliy Parfiya hududining antik davri oid Yangi Niso, Eski Niso, Ko'hna Kaaxka, Yariqtepa, Xusravqal'a kabi qadimgi shahar xarobalari, qal'a-qo'rg'onlar, dehqonchilik qishloqlari yoki alohida maqsadlar uchun xizmat qilgan manzilgohlar (Eski Niso, Mansurtepa) o'r ganilgan.

Hozirgi Ashgabad shahridan 18 km. g'arbda joylashgan Yangi Niso nisbatan yaxshi o'r ganilgan. Ko'hna shahar sun'iy do'nglik ustida joylashgan ark (4 ga. atrofida) va unga tutash shahar (18 ga.) va shahar atrofi qismidan iborat bo'lib, ularning har uchala qismi alohida mudofaa devori bilan muhofaza qilingan. Shimoliy Parfiyaning antik davri shaharlari ilgaridan loyihalashtirilgan reja bo'yicha qurilib, qalin mudofaa devori bilan muhofaza qilingan va to'g'ri to'rtburchak burjlar bilan kuchaytilgan.

Eski Niso manzilgohi arshakiylar sulolasining qarorgoh shahri hisoblanib, u Parfiya hukmdorining qo'riqxona-qal'asi Mixrdatkirt (Mitridatokert)ning bilan




Ayjata ibodatxonasi

qiyoslanadi. Qarorgoh Mitridat I (mil. avv. 171-138 yy.) hukmronligi davrida barpo qilingan bo‘lishi mumkin. Uning markazida saroy-ibodatxona majmuasi, xo‘jalik va yashash xonalari joylashgan. “Kvadrat zal”, “Aylana ibodatxona” va “Minorasimon ibodatxonalar” muhim o‘rin tutadi.

Ularning birinchisi tomonlari (20x20 m. ichki tomondan 8-9 m.) ikki yarusli qilib qurilgan. Birinchi yarus xom g‘ishtdan ko‘tarilgan, ikkinchisi esa yog‘och ustunlarga tayangan. Ular o‘rtasidagi maxsus tuynuklarda haykallar joylashgan. Bu zal bir necha asrlik faoliyati davomida ichki tomondan ko‘p bor qayta pardozlangan. Birinchi yarus ustunqoshlar, ikkinchi yarus rang-tasvir bezaklari bilan bezatilgan. G.A.Pugachenkovning taxminlariga ko‘ra bu imorat dastlab dunyoviy maqsadlarda foydalangan bo‘lsa, o‘z faoliyatining ikkinchi bosqichida ajdodlar ruhiga sig‘inuvechi ibodatxona sisatida foydalaniadi. Ikkinchi imorat aylana ibodatxona (diametri-17 m., balandligi-12 m.) ham ikki yarusdan iborat. Uning birinchi yarusi devori ganch bilan oq suvoq qilingan bo‘lsa, ikkinchi yarusi maxsus tuynuklarda joylashgan haykallar o‘rin olgan. Boshqa bir ibodatxona esa Yangi Niso ko‘hna shahri mudofaa devori yonida joylashgan bo‘lib, u ham ikki yarusdan iborat bo‘lgan. Yog‘och ustunlar odatda to‘g‘ri burchakli yoki aylana shakldan iborat marmarsimon toshlardan yasalgan tagliklarga tayangan, yepasi akant shakl bezalar bilan jihozlangan.

Ayrim ilgaridan rejalashtirish asosida aniq o‘lchamda barpo qilingan



Niso Ritonlar

shahar turidagi manzilgohlar odatda qalın mudofaa devorlari bilan mudofaa qilinib, to'g'ri to'rtburchak burjlar bilan ta'minlangan. Shuningdek, aylana yoki kvadrat o'lchamga asoslangan manzilgohlar qal'a vazifasini bajarib, ularning atrofi odatda zichlangan tuproq devorlar (val) mudofaa qilingan.

Bu davrda asosiy qurilish ashyosini tuproq tashkil etib, odatda xom g'isht va paxsa sifatida foydalanilgan. Xom g'ishtlar to'g'ri to'rtburchak va kvadrat o'lchamlardan iborat. Ayrim ko'tarma devorlar pishgan g'ishdan barpo qilingan. Imorat tomlari asosan yog'och bolor asosida tekis, ayrim hollarda esa gumbaz qilib, aylana moratlar esa gumbaz shaklida yopilgan.

Shimoliy Parfiyaning xo'jaligi sug'orma dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilikdan iborat. Hunarmandchilikda birinchi navbatda dehqonchilik ish qurollarini yasash asosiy o'rinn egallagan. Bu davrdagi harbiy qaramaqarshiliklar qurol-yarog' ishlab chiqarishga bo'lgan talabni kuchaytirgan. Yodgorliklardan bronza va temirdan yasalgan kamon paykonining ko'plab nusxasi uchraydi. Og'ir qurollangan parfiyalik otliq qo'shining asosiy quroli yirik nayza hasoblangan. Ilk Parfiya davrida askarlar kalta qilich-akinakdan, keyingi bosqichda uzun qifichdan foydalangan. Eski Nisodan jangavor bolta, yirik sekira, turli xil sovtular topilgan.

Hunarmandchilikning muhim tarmog'i kulolchilikdir. Aylana shakldagi ikki yarusli xumdon ko'plab yodgorlikda uchraydi. Antik davri yuqori sifatlili sopolining sirti pardozlanib, angob surtilgan. Angob qizil, qizil-jigar va jigar ranglaridan iborat. Antik davrining oxirida sopolning sirtini angoblash va pardozlash an'anasi susayadi. Antik davrda kosa, piyola, ko'za va bokalsimon idishlar ishlataligan. Ayniqsa, bokalsimon tagli idishlar urf bo'lgan.

Shimoliy Parfiya san'at yodgorligi namunalari nisbatan Eski Niso qazishmalari davomida o'rganilgan moddiy topilmalar orqali yaxshi ma'lum. Ular marmar toshlardan yasalgan ellin haykallari, fil suyagidan yasalgan ritonlar va mo'jaz haykalchalar. Haykallardan "Niso inabudasi", "Rodoguna", Afrodita haykali boshi, Artemidaning marmardan ishlangan haykali oyoq qismi

muhim ahamiyat kasb etadi. Niso ma'budasi xiton kiygan. Bu haykal ellin haykaltaroshligining arxaik yo'nali shiga tegishli, ishlanish usuliga ko'ra u so'nggi klassik davri attika san'ati maktabi an'analari bog'liq cketligining guvohi bo'lish mumkin. Rodogunaning tepe qismi oq, pastki qismi qizil marmardan ishlangan. Bu san'at asari ellin davri haykaltaroshlik maktabi mahsuloti sanalib, ishlanish usuliga ko'ra Aleksandriya maktabiga tegishli bo'lib, mil. avv. III-II asrlar bilan sanalgan.

Afinaning kumushdan ishlangan kichik haykalchasi Erotning kumushdan yuqori darajada ishlangan erka bosh qismidan iborat predmet va Yunonstonda ishlanib, import qilingan san'at namunalaridan sanaladi. Mahalliy parsiya san'atiga taalluqli namunalar Eski Niso saroyi va ibodatxonasidan topilgan erkak va ayol tasviridagi haykallardan iborat bo'lib, ular arshakiylar sulolasi ma'budlarii yoki ilohiylashtirilgan sulola vakillarining tasvirlari sifatida taxmin qilinadi.

Kumushdan turli hayvonlar va ayrim afsonaviy havonlarning tasviri tushirib ishlangan san'at namunalarini ko'chmarchilar madaniyatidan dalolat beradi. Fil suyagidan ishlangan ritonlar san'atning muhim namunalarini hisoblanadi. Unda bir nechta madaniyatlar uyg'unligining guvohi bo'lish mumkin. Uning karnizida 12 olimp xudosari tasviri tushirilgan. Shimoliy Parsiya muhrilarini antik davri madaniyatini o'rganishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan topilmalardir. Ularning sirtidagi tasvirlar yunon ma'budlarining obrazlaridan iborat. Shuningdek, Eski Nisodan fil suyagidan yasalgan mebellarning qismlari ham topilgan.

Eski Nisodan topilgan moddiy ashyolarda Shimoliy Parfiyaning antik davri san'ati o'z aksini topib, ular orqali o'lkaning madaniy taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlari o'rganish mumkin.

*Marg'iyona.* Marg'iyona Murg'ob vohasi hududini egalagan. Ma'lumki, mil avv. 521 yil Fruda boshchiligidagi qo'zg'alon Doro I buyrug'i bilan Baqtriya podshosi Dadarshish tomonidan bosturilgandan so'ng Marg'iyona o'liasi

Baqtriya satrapligi tarkibiga kiritilgan. Mil. avv. II asming o'rtalarida Parsiya davlati tomonidan bosib olinganga qadar Yunon-Baqtriyasi podsholigi tarkibida bo'lgan. Keyinchalik esa II asrning birinchi choragida Parsiya davlati vorisi sifatida vujudga kelgan soseniyalar davlatining tarkibida rivojlanadi.

O'lkaning Aleksandr Makedonskiy bosqinidan keyingi tarixiga oid qisqacha ma'lumotlar yunon-rum mualliflarinig asarlari va keyichalik xitoy manbalarida uchraydi. Pliney Iskandar Marg'iyyona Aleksandiyasiga asos solganligini va keyinchalik shahar vayron qilinib, selevkiylar hukumderi Antiox qayta tiklab, o'z nomi bilan yuritganligi to'g'risida ma'lumotlar qoldirgan bo'lsa, boshqa bir yunon muallifi Strobon ma'lumotlarida Antiox shahar barpo etish bilan birgalikda voha atrofini mudofaa devori bilan o'rabi olganligigi to'g'risida xabar beradi.

Kvint Kursiy Rufning yozib qoldirgan ma'lumotlarda "Aleksandr Ox va Oks daryosiga yaqinlashib, Marg'iyyona shahrini zabit etadi va uni o'zining nomi bilan nomlaydi". Keyinchilik vayron etilgan bu shahar salavkiylar hukumderi Antiox tomonidan qayta tiklanganligi to'g'risida ham ma'lumotlar mavjud. Kvint Kursiy Ruf ma'lumotlarida esa antik davrida oltita mudofaalangan manzilgohlar qurilganligi keltiriladi.

Marg'iyonaning antik davri moddiy madaniyatni XIX asrning oxiri va XX asrning boshlaridagi arxeologiyaga havasmand olimlarning diqqatini o'ziga jalb qilib kelgan. O'lka arxeologiyasini ilmiy jihatdan o'tganish ishlari ikkinchi jahon urushidan keyin Janubiy Turkmaniston arxeologik majmua ekspeditsihsisi (YuTAKE) tashkil etilgandan so'ng boshlanadi. O'rta Osiyo davlat universiteti (hozirgi O'zMU) "O'rta Osiyo arxeologiya" kafedrasи ilmiy jamoasi 30 -yildan ortiq davr mobaynida vohaning antik davri markazi bo'lgan Gyaurqal'a va Erkqal'a yodgorliklarida keng ko'lamdagi arxeologik qazishmalarni olib boradilar. Mazkur tadqiqot ishlarida kafedra arxeolog olimlaridan M.ye.Masson Z.I.Uzmanova, M.I. Filanovich va boshqalarning xizmatlari katta. Mahalliy arxeologlardan D.Durdiev va antikshunos arxeolog olim G.A.Kosholenkolar

ham vohadagi boshqa bir arxeologik yodgorliklarni o'rganishga o'zning munosib hissalarini qo'shganlar.

O'lkaning Aleksandr Makedonskiy bosqinidan keyingi tarixiga oid qisqacha ma'lumotlar yunon-rum mualliflarinig asarlari va nisbatan keyingi xitoy manbalarida uchraydi. Pliney Iskandar Marg'iyona Aleksandiyasiga asos solganligini va keyinchalik shahar vayron qilgach, selevkiylar hukumdori Antiox qayta tiklab, o'z nomi bilan yuritganligi to'g'risida ma'lumotlar qoldirgan bo'lsa, boshqa bir yunon muallifi Strabon podsho Antiox Marg'iyonada shahar barpo etish bilan birgalikda voha atrofini mudofaa devori bilan o'rab olganligigi to'g'risida xabar beradi. Kvint Kursiy Ruf Aleksandr Ox va Oks daryosi yaqinida Marg'iyona shahrini zabit etib, o'zining nomini bergenligi to'g'risida yozib qoldirgan. Shahar qarshiliksiz olinganligi tusayli vayron bo'timagan. Muallif antik davridagi muhofaza qilingan oltita shaharning biri Marg'iyona o'lkasida joylashganligini qayd etgan. Shahar selevkiylar davrida amalga oshirilgan harbiy harkatlardan talofat ko'rib, qayta tiklangan.

Marg'iyonaning antik yodgorliklari qadimgi shaharlar, dehqon jamoasining qishloqlari va diniy inshoctlarni tashkil etadi. Antik davriga oid ko'hna shahar xaroobalaridan Gyaurqal'a, Erkqal'a, Ko'hna Kishman, Jintepa, Takirjatepa, Durnali va Devqal'a yodgorliklari yaxshi o'rganilgan.

Ular orasida hozirgi Bayramali shahrining shimoli qismida joylashgan Erkqal'a va g'arbiy qismida unga tutash joylashgan Gyaurqal'a yodgorliklari muhim o'rinn egallaydi. Ushbu manzilgohlar o'z davrida bitta shahar majmuasinining tarkibiy qismlarini (*birinchisi-ark*, *ikkinchisi-shahriston*) tashkil etib, mil.avv. I ming yillikning o'rtalarida shakllangan. Ularning umumiy maydoni taxminan 90 ga. dan iborat. Arxeologik qazishmalar natijalariga ko'ra antik mualliflari ma'lumotlarda qayd etilgan ikki buyuk sargardalari tomonidan vayron qilinib, qayta barpo etilgan shahar aynan mana shu yodgorliklar bo'lganligini tasdiqlaydi. Shaharning tashqi mudofaa devori mil. avv. III asrning boshlarida elli o'lchamidagi g'ishtlardan qayta qurilish ishlari amalga

oshirilganligi arxeologik jihatdan tasdiqlangan. To'g'ri to'rt burchak shakldan iborat manzilgohni ikkita o'zaro kesishgan markaziy ko'chalar shaharning to'rt tomonidagi darvozalarga tutashgan.

Shaharni o'rab olgan mudofaa devori mil avv. I ming yillikning o'rtalarida paxsadan barpo qilingan. Devorda keyingi bosqichlarda bir necha marotaba (mil.avv. III asming birinchi yarmi, mil.avv. II-1 asrlar, milodiy II va IV asrlarda) qayta qurish va ta'mirlash ishlari bajariladi. Ilk marotaba unda antik davri o'lchamidagi kvadrat (38x38x10, 42x42x12) g'ishtlardan soydalanilgan. Bu bosqichda to'g'ri to'rburchak burjlar bilan kuchaytirilgan qalin mudofaa dev orlari bilan o'rab olingan. Devorlari antik davri standartidagi xom-g'ishtlardan barpo qilingan. Gyaurqal'ada shaharlikliklar mahallalaridan tashqari, tegirmorchilar mahallasi, kulolchilik xumdoni, temirchilik ustaxonaiarining o'rni aniqlangan. Yodgorlikda buddaviylik ibodatxonasining o'rni oshib o'rganilgan. Uning hovlisida stupa joylashgan. Shaharda hayot ilk o'rta asrlar davriga qadar davom etadi.

Gyaurqal'ada aholining uy-joylari, tegirmorchilar mahallasi, kuloliar va temirchilar ustaxonasi joylashgan. Shaharda buddaviylik ibodatxonasi mavjud. Uning hovlisida stupa o'rin olgan.

Ko'xna Kishmana ham yaxshi o'rganilgan. U ahamiyatiga ko'ra vohada Marvdan keyingi (may.112 ga.) shahar markazi hisoblanadi. Marg'iyananining antik davri imoratlari to'g'ri to'rburchak (50x30x10) kvadrat (40x42x10) g'ishtlar va paxsadan barpo qilingan.

Qadimgi marg'iyonaliklar sug'orma dehqonchilik xo'jaligini yuritgan. Qadimgi yunon va xitoy yozma manbalarida bug'doy, arpa, guruch, uzug, yetishtirilganligi to'g'risida ma'lumotlar saqlangan. Erkqal'a manzilgohidan qovun, tarvuz, bodiring urug'i va guruch topilgan. Texnik ekinlardan kanop va paxta ekilgan.

Marg'iyananining Erkqal'a, Gyaurqal'a va boshqa yodgorliklarda antik davrining barcha bosqichiga oid xumdonlar aniqlangan. Ular ikki kamerali,

tuzilishiga ko'ra ilk temir davri xumdonidan unchalik farq qilmaydi.

Antik davri soppollari tez aylantiradigan charxda yasalgan. Dastlabki bosqichda bankasimon shaklli yirik xumlar, og'zi chumchuq tumshug'i kabi qayrilgan kesalar, tagi yassi, og'iz qismi bo'rtib chiqqan kichik idishlar ishlatalgan. Ellin davri soppollari yaxshi tindirilgan joydan yasalgan. Sopol buyumlariga obdon ishlov berilib, sirtiga oq va sariq rangli angob surtilgan. Angob ustidan qizg'ish, qizil, va jigar rang naqshlar so'lingan. Sopol buyumlari lagan, katta-kichik kosalar, piyola, vazalardan iborat.

Marg'iyonaning manzilgohiaridan temirdan yasalgan ro'zg'or anjomlari, mehnat qurollari va quroq yarog'lar topilgan. Shuningdek, zeb-ziynat buyumlari, ayol va qiz ma'budalarining siymosi aks ettiligan terrakota haykalchalar qadimgi marg'iyonaliklarning boy moddiy madaniyatga ega bo'lganligidan dalolat beradi.

*Baqtriya.* Baqtriya dastlab ahamoniylar, keyin yunonlar tarkibidagi satraplikni tashkil etgan. Mil.avv. III asming o'ttalarida yunon zodogoni Diodot selcvkiylardan mustaqil bo'lgan Yunon-Baqtriya davlatiga asos soladi. Bu davrda (yevtidem, Demeriy, yevkratid) mamlakatning hududi Hindistonning shimoli-g'arbiga qadar kengayadi. Ayrim ilmiy farazlarga ko'ra So'g'd hududi Baqtriya tarkibda bo'lgan. Bu davrda mamlakat makazlashgan monarxiyaga aylanadi. Mil.avv. II asning o'ttalarida (Mitridat I davrida) g'arbda Parfiyaning qudrati kuchayib, Marg'iyona bosib olingan. So'g'd ham taxminan mana shu davriarda ajralib chiqgan bo'lsa kerak. Qo'shni davlatlar bilan olib borilgan tinimsiz urush mamlakat harbiy qudratining susayishiga olib kelgan. Kuchsizlanib qolgan Yunon-Baqtriya davlati mil.avv.140/130 yillarda sak-yuechji qabilasining hujumi natijasida batamom inqirozga uchraydi. Mil. avv. I asrda besh guruhdan iborat *da-yueji* qabilasi (*da-katta*, buyuk) ittifoqi o'rniда Kushon podsholigi qaror topadi. Kanishka hukmronligi davrida mamlakat hududi Hindistonning shimoliga qadar kengayib, o'z qudratining yuqori cho'qqisiga chiqadi. Kanishkadan keyingi hukmdorlar davrida mamlakat qudrati

susayib ketadi. Bu vaziyatdan foydalangan Eron sosoniylari Baqtriya yerlarini bosib olib, III asrning ikkinchi choragida davlat boshqaruviga forsler hukmronligiga o'tgan.

Baqtrianing antik davri moddiy madaniyati XIX asrning oxirgi choragida (1877 yil) Amudaryo xazinasi o'rghanishdan boshlangan. O'tgan asrning birinchi yarmida aniq ilmiy maqsadlarga qaratilgan arxeologiya dala qidiruv ishlari Termiz shahrining atrofidagi antik davriga oid yodgorliklarni o'rgangan.

Baqtrianing antik davriga oid yodgorliklarning bir necha turi ajralib turadi. Ular maydoni jihatdan katta-kichik shaharlar, dehqonchilik qishloqlari, alohida joylashgan saroylar va diniy inshoot-*ibodatxonalar*.

Baqtrianing antik davri shaharlarini tadrijiy jihatdan bir necha guruhga bo'lish mukin. Birinchi guruh shaharlari mil. avv. I ming yillikning o'rtalarida shakllanib, elliniar davrida ham faoliyat yuritgan (Talashkontepa II, Jondavlattepa, Hayitabodtepa, Qal'ai Mir). Ikkinchi guruh shaharlar Yunon-Baqtriya davrida shakllangan (Eski Termiz, Dalvarzintepa, Kampirtepa-*Kofirqal'a*, Keykabodshoh, Saksanoxur), uchinchi guruh shaharlar Kushonlar davrida (Zartepa, Budrach, Garovqal'a, Shaxtepa) vujudga kelib, faoliyat yuritgan.

Antik davri yunon manbalarida Baqtr, Tarmita, Pardagva, Braxmanlar shahri to'g'risida ma'lumotlar saqlangan. Xitey manbalarida esa o'lkaning Tami, Xodzo va shaharlar tilga olingan. Tarmita (Tami) Ko'hna Termiz yodgorligi o'rnida faoliyat yuritgan. Sh.Pidaevning fikriga ko'ra Ko'hna Termiz o'rnida faoliyat yuritgan qadimgi manzilgoh abamoniyilar davrida shakllangan. Bu davriga oid shahar alomatlari hozircha aniqlanmagan. Bu davrda manzilgoh dastlabki aholi vakillari tomonida o'zlashtirilib, Yunon-Baqtriya davrida o'lkaning yirik shahar markaziga aylanadi. Antik davri davomida shaharning maydoni kengayib, rivojlanib borgan.

Termizdan g'arbda Amudaryoning o'ng sohilida antik davriga oid Kampirtepa (*Kofirqal'a*) manzilgohi joylashgan. Manzilgoh uch (ark, shahriston,

shahar atrofi) qismidan iborat bo'lib, umumiy maydoni 20 ga. yaqin, shundan 1 ga. yerida ark joylashgan. Manzilgohni E.V.Rtveladze mil. avv. IV asrning 30-yillarida Aleksandr Makedonskiy temonidan barpo qilingan Oks Aleksandriyasi shahri bilan qiyoslaydi. Ellinlar davrida manzilgohning ark qismi shakllangan. Uning atrofi to'g'ri to'rtburchak minoralar bilan mustahkamlangan murakkab mudofaa devori bilan o'rab olingen. Dastlab Marg'iyonadan Baqtriyaga kirib kelishda, daryo kechivuda clin usulida qal'a qurilgan. Kushonlar davrida shaharning savdo yo'sidagi ahamiyati kuchayib maydonni kengaygan. Shahar milodiy II asrgacha faoliyat yuritgan.

Sho'rechi turmani hududida joylashgan Dalvarzintepa Shimoliy Baqtriyaning antik davriga oid yirik manzilgohi. Dalvarzintepa aylana shaklli ark (3,2 ga.), to'g'ri to'rtburchak shahriston (maydoni 32,5 ga.) va shahar atrofi qismlaridan tashkil topgan. Manzilgoh mil.avv. III asrda shakllangan. Yunon-Baqtriya podsholigi davrida manzilgohning dastlabki shakllangan joyida mudofaa devori bilan muhofaza qilingan ark paydo bo'ladi. Kushon davlati hukmdorlari I-III asrlarda shahar arkining mudofaasiga e'tiborni kuchaytirib, ikki qator devor bilan mustahkamlaydi.

Kushonlar davrida shahriston qismi ham alohida mudofaa devori bilan o'rab olinadi. Shahristoning barcha joyi o'zlashtirilib, shahar atrofi qismi ham paydo bo'ladi. Shahristonda aholi yashaydigan mahallalar, xususan, kulollar mahallasi, ishlab chiqarish inshootlari, buddaviylik dini ibodatxonasi o'rganilgan.

Shahristonda aholining turli tabaqa vakillariga tegishli uy-joy imoratlari o'rganilgan. Ular oddiy shaharlikning sodda uyidan tortib, davlatmand va zodagon tabaquesi vakillarining mahobatli va shinam uy-joylarni tashkil qilgan. Uy-joylarning o'lchami aholining moddiy imkoniyatidan kelib chiqib qurilgan. Mansabdor va davlatmand shaharliklar mahobatli uylarda yashagan. Bunday mahobatli uylar yog'och ustunlar asosida yopilgan. Ular ichki devorlari boy rang-tasvir va o'yma ganchli naqshlar bilan bezatilgan.

Shahriston ko'chalarining kesishgan joyida buddaviylik dini ibodatxonasi jöylashgan. Ibodatxona ichki devorlarini budda, bodxisatva haykallari va buddaviylik maskurasi mavzusi bilan boyitilgan rang-tasvirlar bezab turgan. Shaharning boshqa bir tomonida, mudofaa devoriga yaqin joyda mahalliy aholi ma'budining ibodatxonasi jöylashgan. Manzilgoh tashqarisida boshqa bir buddaviylik ibodatxonasi o'rinni olgan. Shuningdek, manzilgoh tashqarisida zardushtiylar jamoasiga tegishli "*nars*" ham aniqlangan.

Kushon imperiyasi hukmdori Kanishka mamlakatda buddaviylikni davlat dini sifatida qabul qiladi. Lekin hukmdor imperiya tarkibidagi xalqlarning mahalliy diniy e'tiqodiga cheklov joriy qilmagan. Shuning uchun Dalvarzintepada yashagan aholining quyi qatlami vakillari o'zlarining azaliy diniy e'tiqodi-*otashparastlik* udumini saqlab qolgan. Yangi buddaviylik diniy e'tiqodi dastlab aholining zodagonlar orasida tarqalib, keyinchalik boshqa tabaqa vakillari ham qabui qilgan.



Dalvarzintepa manzilgohi xitoy marbalarda qayd etilgan *Xodzo* shahri bilan qiyoslanadi. Mutaxassislar Kushon davlatining davlatining birinchi poytaxti Dalvarzintepa manzilgohi o'mnida faoliyat yuritganligini ta'kidlaydilar. Dalvarzintepa o'mnidagi shahar III asrning ikkinchi yarmigacha faoliyat yuritib, inqirozga uchragandan so'ng tashlandiq holga kelib qoladi.

Kushonlar davrinining yirik shahar markazlaridan biri Zartepa manzilgohi o'mnida faoliyat yuritgan. Umumiy maydoni 17 ga. dan iborat ko'hna shahar ilgaridan loyihalashtirilgan aniq reja bo'yicha qurilgan. Ko'ha shaharning atrofi mustahkam mudofaa devori bilan o'rabi olingan, yarim aylana burjlar bilan kuchaytirilgan.

Zartepa manzilgohidagi qurilish imoratlari boshqa ko'hna shaharlardan farq o'laroq manzilgohning o'rtasidan kesib o'tgan markaziy ko'charing ikki chetida, tartib bilan aniq reja bo'yicha qurilgan. Markaziy ko'cha buylab imorat qurish kushonlar davri shaharsozligi uchun xos bo'lib, ilgargi davrlarda uchramaydi. Ko'hna shaharda uy-joylar bilan birqalikda saroy majmuasi va

budda ibodatxonasi joylashgan. Saroy majmuasi ikkita katta zal va qo'shimcha xonalardan tashkil topgan. Katta zallarning tomi yog'och ustun yordamida yopilgan. Marmarsimon toshdan yasalgan ustun tagliklar saqlanib qolgan. Ibodatxona buddaviylik dini me'morchilik qoidasiga bo'yicha qurilgan bo'lib, toat-ibodat, yashash, xo'jalik qismlaridan iborat. Hovlida stupa mavjud. Zartepa manzilgohi o'tnida faoliyat yuritgan shahar kichik ma'muriy tuzilmaning ma'muriy markazi bo'lgan.

## Shimoliy Baqtriyaning antik davri ko'hnasi shaharlari



1.Ko'hna Termiz 2.Dalvarzintepa 3.Zartepa

Tojikiston Respublikasi hududida ham Baqtriyaning antik davriga oid bir nechta qadimgi shahar xarobalari saqjanib qolgan. Ulardan joylashgan Keykobodshoh manzilgohi Shimoliy Baqtriyaning antik davriga oid qadimgi shaharidan

birining o'mi. Shahar ellen qurilish usulida qurilib, mustahkam mudosaa devori bilan o'rab olingan. Devor to'g'ri to'tt burchak burjlar bilan kuchaytirilgan. Mudosaa devori va burjlar jangavor shinaklarga ega. Shaharga Yunon-Baqtriya podsholigi davrida asos solingan.

Kushon imperiyasi davrida mamlakat harbiy va iqtisodiy qudrati kuchayib, Baqtriya yerlarida shaharlar rivojlanib, ularning soni yanada ko'payadi. Bu davrda Baqtriya hududida yigirtmadan ortiq katta-kichik shahar markazlari faoliyat yuritgan. Shaharlarning rivojlanishi mamlakatda hukm surgan siyosiy barqarorlik va Buyuk Ipak yo'lida savdo va madaniy aloqalarning rivojlanishi muhim o'rinn tutgan.

Denov tumani hududida joylashgan Xolchiyon yodgorligidan kushon davri hukmdorlarining qarorgohi ochib o'rganilgan. Saroy sharq qaratib qurilgan bo'lib, old ayvon orqali ichki xonalarga kirilgan. Saroyning asosiy zali va xonalarining devoriga har xil rang bo'yqlar bilan turli mazmunli suratlar chizilgan. Ayrim xonalari ganch suvoq qilingan.

Mirzaqultepa (Termiz), Oqqo'g'on (Sherobod) va Sho'rtepa (Angor) yodgorliklari Kushon davri deqonchilik qishloqlari manzarasini tikelashda muhim o'rinn tutadi. Qishloqlarda o'rinn olgan uy-joy imoratlari ma'lum reja bo'yicha tartib bilan qurilgan. Uy-joylar aholining jamiyatda tutgan o'mi va iqtisodiy holati ko'ra barpo etilgan. Ularda qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarilib, shahar aholisini oziq-ovqat bilan ta'minlab turilgan.

Baqtriyaning antik davri yodgorliklari orasida diniy inshootlar muhim o'rinn egallaydi. Bu yerda otashparastlik, buddaviylik ibodatxonalaridan tashqari mahalliy ma'budlar sharasiga barpo etilgan ibodatxonalar ham mayjud. Termizdan g'arbda Qoratepa ibodatxonasi joylashgan. Ibodatxona buddizm vatani qurilish an'anasiga ko'ra mahalliy qurilish usulida barpo qilingan. Ibodatxonani vatanidagi kabi g'orsifat shaklini aks ettirish maqsadida yerosti qismi barpo qilingan. To'rtburchak hovlida joylashgan ayrim xonalarning pastida yerto'lalar mayjud. Unda ibodat, yashash va xo'jalik qismlari ajralib


turadi. Ibodatxonaning ichki qismi devorlarini budda, bodxisatva haykallari va buddaviylik diniy masifikasi mavzusida chizilgan rang-tasvirlar, budda hayotidan lavhalar bezab turgan.


Ibodatxona hovlisida budda haykali va stupa o‘rin olgan. Asosi to‘g‘ri to‘rburchak shakldagi stupa bir necha metr balandga ko‘tarilgan. Ustiga silindrishimon inshoot solinib, uning tepasiga gumbaz shaklida tug‘ o‘matilgan va toshdar soyabon birkittirilgan.

Antik davrining boshqa bir buddaviylik ibodatxonasi Qoratepaning shimoli-sharqiy qismida joylashgan Fayoztepa yodgorligida aniqlangan. Fayoztepa buddizm dinining vixara turidagi ibodatxonasi bo‘lib, u diniy marosimlar o‘tkazish joyi, monastr va xo‘jalik qismlaridan tashkil topgan.

Baqtriyaning antik davri qurilishida paxsa, xom g‘isht ishlataligan. Yunonlar davri qurilishida kvadrat (40x40x10-12 sm), kushonlar davrida esa kichikroq g‘ishtilar (30-32x30-32x9-10 sm.) ishlataligan. Tosh ustun taglik, plyastr (ustunqosh)larda qo‘llanilgan. Imoratlarning tomi terak va archa yog‘ochlar yordamida yopilgan.

Baqtriya aholisi orasida asosan zardushtiylik diniga e’tiqod qilish odati ustun bo‘lgan. Zardushtiylik dini doirasida *mitra* (quyosh ma‘budi), *max* (ey ma‘budi), *vado* (shamol ma‘budi), *atsho* (olov ma‘budi), *ardoxsho* (hosildorlik ma‘budi), *nana* va *vaxsh* ma‘budlariga sig‘inish odatlari ham myjud bo‘lgan. Selevkiylar va Yunon-Baqtriya podsholigi davrida hukmron doira vakillari orasida elliin ma‘budlariga sig‘inish odati hukmron bo‘lgan. Kushonlar davrida buddizm dini kuchaya boshlaydi. Ayniqsa, Kanishka hukmronligi davrida buddizm davlat dini sifatida qabul qilgandan keyin mamlakat hududida uning mavqeyi kuchaygan.








**Xolchayon.** 1.Saroyning tiklangan holati. 2.Devoriy suratlar

Baqtriyaga buddaviylik dini mil. avv. I asrda, ehtimol milodning boshida kirib kelgan. Keyinchalik O'rta Osiyoning ayrim yerlariga va Sharqiy Turkistonga tarqaladi. Shimoliy Baqtriyadagi Qoratepa ibodatxonasi, Fayoztepa monostiri,

Zurmala va Ayrитом stupalari, Dalvarzintepa va Zartepa ko'hma shaharlarida joylashgan ibodatxona buddizmning muhim diniy inshootlaridir. Milodning boshida o'lkada buddizmning mavqeyi kuchayib, diniy markazlardan biriga aylanadi. Taxi Sangin yodgorligidan mahalliy Oxsho ma'budiga bag'ishlab barpo etilgan ibodatxonaning o'rni ochilgan. Termiz yaqinidagi Ayrитом manzilgohidan podsho Xuvishka hukmronligining dastlabki yillarida Nanaya ma'budi sharafiga barpo etilgan ibodatxonaning xarobasi aniqlangan. Baqtriyaning antik davri aholisi turli xil dinlarga e'tiqod qilib, diniy erkinlik tamoyilga amal qilgan. Baqtriyada dafn inshootining uch xil turi mavjud. Birinchisi, mil. avv. II asrda Shimoliy Baqtriya hududiga kirib kelgan ko'chmanchi chorvadorlarga tegishli qabr-qo'rg'onlar. Uiardan Bishkent vohasida Tulxar va Aruktov mozorlaridagi tuproq qo'rg'on tagidagi o'ra va qisman oddiy chuqur ustidan tosh terilgan go'rlar o'rganilgan. Ikkinchisi, o'troq dehqonchilik qishloqlari yaqinida joylashgan bir mayitsli oddiy qabrlar. Uchinchisi, jamoaviy qabrlar, ularda bir nechta marhumlar ko'milgan. Marhumlar bilan birga turli taqinchoqlar, zeb-ziynat buyumlari va sopol buyumlar qo'shib ko'milgan. Qadimgi Baqtriyaning daryo vohalarida yashagan aholi sug'orma dehqonchilik, chorvachilik va bog'dorchilik bilan shug'ullangan. Tog' va tog' oldi hududida chorvachilik va lalmi dehqonchiligi rivojlangan. Hunarmandchilikda kulolchilik, metalga, toshga ishlov berish, zargarlik, duradgorlik, ko'nchilik, to'qimachilik, gilamdo'zlik kabi turlari faoliyat yuritgan. Yodgorliklardan temirdan yasalgan harbiy qurol-yarog'lar, xususan, uch qirrali kamon paykonları, har xil qilichlar: akinak, sarmatlarnining uzun qilichiga o'xshagan maxayralar topilgan. Baqtriyaning Dalvarzin, Saksanoxur va boshqa ko'p yodgorliklardan xumdonlar aniqlangan. Antik davrining dastlabki bosqichi xumdonlari aylana shaklda bo'lgan. Milodning I asrdan boshlab to'g'ri to'rt burchak shaklli turlari paydo bo'ladi. Sopol buyumlari tez aylantiriladigan charxda yasalgan. Antik davrining dastlabki bosqichida ahamoniylar davridagi kulolchilik an'anaları davom etadi.



Zartepa manzilgohi moddiy topilmalari majmuasi

Ellin davrida kulolchilik ishlab chiqarish texnologiyasi keskin o'zgarib, yanada takomillashadi. Ellin davri kulolchilgi sopolari yaxshi tindirilgan loydan yasalgan. Sopol buyumlariga obdon ishllov berilib, sirtiga oq va sariq rangli angob surtilgan. Elinlarga xos kosalar, baliq soladigan idishlar, bo'g'zi tashqariga qayrilib ishlangan laganlar, turli xildagi bo'g'zi uzun va tor ko'zalar ishlab chiqariladi. Xo'jalik uchun xum, xumicha, garshoksimon idishlar yasalgan. Ayrim sopol buyumlarining tag va ustki qismi alohida tayyorlanib, ular o'zaro birlashtirilgan. Oshxona, qozon va tavalar qo'lida yasalgan.

Baqtrianing antik davri tasviriy san'ati o'zining xilma-xilligi va mazmuna boyligi bilan ajralib turadi. San'atning haykaltaroshlik, rang-tasvir, zargarlik turlari rivojlangan.

Kichik haykalchalar yunon-baqtriya davrida uchramaydi. Antik davrinining ilk bosqichida qo'llarini tanasi bo'ylab tashlab turgan kiyim-boshisiz tasvirlangan ayol haykalchalari tarqalgan. Keyinchalik ustida keyim-boshi bilan qo'lida oyna ushib turgan holatda tasvirlangan ma'budalar aks ettirilgan haykalchalar tarqaladi. Ayol tasvirlangan haykalchalarda mahalliy ahofining diniy e'tiqod tushunchasi bilan bog'liq qarashlar aks etgan.

Kushon davri haykalchalarida erkaklar tasvirlangan haykalchalarining kam sonli nusxalari topib o'rganilgan. Ular kushon zodogonlarining siymolarini aks ettirgan. Oqliq va ot tasvirlangan haykalchalar ham mavjud. Oqliq ko'chmanchilar hayoti bilan bog'liq bo'lsa, ot yuechji qabilasida ot kultini aks ettirgan. Kushon davri tasviriy san'ati buddaviylik diniy maskurasi aks ettirgan budda va bodxisatva siymolarini tasvirlashdan iborat.

Rang-tasvir san'ati namunalari Dalvarzintepa, Xolchayon va Qoratepa manzilgohlaridagi uy-joy, saroy va ibodatxona devorlariga chizilgan suratlarda o'z aksini topgan. Dalvarzintepa uylarining deveriga naqshlar chizilgan. Xolchayonning devorlardan birida shoh va uning oila a'zolari hamda saroy ahilining tasviri chizilgan. Bundan tashqari kamon bilan qurollangan bir necha

otliq va Afina, Gerakl va Nika kabi yunon xadolarining ko‘chmanchilarga xos shaklda berilgan tasviri ham mavjud.



### Baqtriya. Haykaltaroshlik namunalar

“Amudaryo xazinas” va Dalvarzintepadan topilgan 36 kg. iborat oltin xazina Baqtriyaning antik davri zargarlik san’atining yuksak taraqqiyotidan darak beradi.

Baqtriya antik davrining yirik madaniy markazlaridan biri bo‘lib, o‘lkaga

turli xalqlarning kirib kelishi natijasida o‘ziga xos madaniyat shakllanadi. Baqtriyada mahalliy, ellin, budda va ko‘chmanchilar madaniyati an’analari uyg‘unligida o‘ziga xos antik davri madaniyati vujudga kelgan.

*So‘g‘diyona.* Antik davrida So‘g‘diyonaning hududiy chegarasi ancha kengayib, Zarafshon vohasi yerlari to‘siq o‘zlashtiriladi. So‘g‘dning antik davri tarixi yoki ayrim toponimlariga oid ma’lumotlar fors, yunon-rim, xitoy va qisman arman manbalarida saqlangan.

O‘lka hududida joylashgan antik dariga oid manzilgohlar bir necha turga ajratilgan. Ular katta-kichik shaharlar, o‘troq dehqonchilik qishtoqlari va diniy inshootlardan iborat. Ko‘hna shahar xarobalari antik davri to‘g‘risida ko‘proq va aniq ma’lumotlar beradi.


So‘g‘dning antik davri shaharlarining bir qismi ilk temir davridagi o‘rnida (Afrosiyob, yerqo‘rg‘on, Ko‘ktepa, Uzunqir-Podayotoq-Sangirtepa) faoliyat yuritgan bo‘lsa, boshqa birlari (Qalai Zaxaki Maron, Kitob shahridagi Qalandartepa yodgorligi, Talli Barzu, Buxoro va boshqalar) antik davrida shakllangan.

Antik davrida Afrosiyobning maydoni kengayib, o‘lkaning yirik markaziga aylanadi. Ma’lumki, yunonlarga qadar Marokand shahri *Smarakansa* nomi bilan yuritilgan. Yunonlar Smarakansani o‘zlarining tilga moslab Marakanda shaklida talaffuz qilishidan kelib chiqqan, bo‘lsa kerak.

O‘rta Osiyo hududi yunonlar tomonidan bosib olingandan so‘ng Shimoliy Parfiya va Baqtriyadagi kabi So‘g‘dda ellin madaniyatining ta’siri kuchayadi. Ayniqsa, bu jarayon shahar qurilishida ko‘proq namoyon bo‘ladi.

Yunon qo‘sishinlarining dastlabki yurishida Afrosiyobni osonlik bilan qo‘lga kiritgan bo‘lsada, Spetamen boshchiligidagi qo‘zg‘alonchilar bilan bo‘lgan to‘qnashuvdan so‘ng talofat yetgan shahar mudofaa devorlarining ma’lum qismida yunon harbiy-muhandislik rejasi bo‘yicha ta’mirlash va qayta qurish ishlari olib boriladi. Kvadrat shaklli xom g‘ishitlardan barpo qilgan ikki qatorli devor o‘rtasida yo‘lak-gaiereya qoldirilgan bo‘lib, uning umumiy

qalinligi asosidan 7 metrn tashkil etgan. Mudofaa devori to'g'ri burchakli mudofaa burjlari va jangavor shinaklar bilan kuchaytirilgan. Yunon harbiy-muhandislik rejasiga bo'yicha odatda mudofaa devorlarning tashqarisidan xandakka tomonida "berma" yoki "proteyxizm" qoldirilgan bo'lib, dushman qarshiligini susaytiruvchi dastlabki vosita vazifasini bajargan.



1. Afrosiyob zamonaviy ko'rinishi    2. Afrosiyob rejasasi  
3. Qadimgi shahar ko'rinishi (Afrosiyob tiklangan)

Mudofaa devorida keyingi davrda taxminan mil. avv. II asrda qayta ta'mirlash ishlari olib borilishi bilan eski devor olib tashlanib, uning o'rniда 50-70 sm. qalintikdagi shag'ar aralash paxsa bloklardan eniga 8-10 metr bo'lgan tagdevor ko'tariladi va uning ustida yo'lak-galereya qoldirilgan ikki qatorli yangi mudofaa devor ko'tariladi. Bu bosqichdagi ta'mirlash ishlari davomida shahar mudofaasini yanada mustahkamlash maqsadida qo'shimcha qal'a-burjlar (bastion) barpo etiladi. Ilgari mavjud bo'lgan to'rtburchak, ayrim hollarda aldamchi shinaklar o'rniда nayzasimon jangavor shinaklar bilan shahar mudofaasi kuchaytiriladi hamda devorlarning ichki va tashqi tomonlaridan muntazam "plyastrlar" barpo etiladi. Ta'mirlash ishlariga zarurat bevosita shimoliy-sharqdan siljigan sak-yuejiy qabilalarining kutilmaganda qilingan hujumi natijasida shaharga yetkazilgan talofat natijasi bo'lish mumkin.

Shaharning arki (may. 0,5 ga.) manzilgohning shimoliy chekkasida, qadimgi o'rniда faoliyat yuritadi. Bu qismi ham o'z navbatida alohida mudofaa devori bilan muhofazalangan bo'lib, uning kirish darvozasining ikki tomoni cho'ziq shakkli burjlar bilan kuchaytirilgan. Ark ichkarisida hukmdor saroyi va boshqa mahobatli imoratlar o'rinn olgan.

Shahar maxsus sopol quvurlari orqali suv bilan ta'minlangan. Bu paytda shahar antik davri mualliflari yozma manba ma'lumotida qayd etilgan 219 ga. maydoni to'liq shakllanib, O'rta Osiyoning yirik madaniy va savdo-iqtisodiy markaziga aylanadi. Antik davrining oxiridan boshlab so'g'dlik savdogarlarning ko'pchiligi sharqdagi savdo manzillariga ko'chib ketishi natijasida shaharda aholi kamayib, hayot susayib qolishiga olib kelgan.

Samarqandning antik davri yirik shahar markazlaridan biri hisoblangan Ko'ktepa elliň davrida ham faoliyat yuritib, unda katta qurilish ishlari olib boriladi. Ellin davrida ark qismida bir nechta xonani o'zda jamlagan minorasfat imorat barpo etiladi. Bu davrda Afrosiyobdag'i kabi kvadrat g'ishtdan ko'tarilgan ikki qator ichki muhofaza devori qurilib, shaharning mudofaa qudrati kuchaytiriladi.

Boshqa bir shahar Qo'rg'on tepe yodgorligi o'mida bo'lgan. Shahar ark, shahriston va shahar atrofi qismlaridan iborat. Ark qismida paxsadan ko'tarilgan antik davri mudofaa devorining o'mni aniqlangan. Shaharda uy-joylar, olov ibodatxonasi joylashgan.

Ko'ktepa manzilgohining yuqori qismida mil.avv. II asrga oid ko'chmanchi chorvador qabilalariga oid qabr o'rganilgan. Ayol dafn etilgan qabrdan oltindan yasalgan taqinchoqlar topilgan. Tadqiqotchi olimlar mazkur qabrn ko'chmanchi chorvadorlarning (saklar) nufuzli ayoliga tegishli, deb hisoblaydi. Ehtimol ular sharqdan janubga siljigan sak-yuechjiy qabilasi bo'lgan.

Buxoroda antik davri arxeologiya So'g'dning boshqa hududlariga nisbatan yaxshi o'rganilmagan. O'tgan asrning oxirida antik davri qal'alar o'rganiladi. Buxoroning g'arbiy qismida mil. avv. VI asrda shakllangan Boshtepa, Oyoqtепа I, II kabi bir nechta muhofaza devori bilan o'rab olingen qal'alar o'rganilgan. Ularda mudofaa burjlari va shinaklar uchramaydi. Qadimgi mudofaa devorlarning qoldiqlari Buxoro arki, Poykent manzilgohining ark qismida, Varaxshadan sharqda joylashgan O'rтatepada aniqlangan. Buxoro vohasida antik davri madaniyatining shakllanishida So'g'dning ta'siriga nisbatan Xorazmnning ta'siri yuqori bo'lgan. Keyingi bosqichda Markazi So'g'ning madaniy ta'siri kuchayib boradi.

Janubiy So'g'd ilk temir davridagi kabi Kesh va Naxshab vohalaridan tashkil topgan. Kesh vohasi kichik daryo vohalaridan tashkil topgan sharqiy qismida va Naxshab vohasi esa daryo o'zining pasaygan o'rta oqimi hududidan iborat tekistikda joylashgan. Ular moddiy madaniyat va xo'jalik xususiyatlari ko'ra umumiy va o'ziga xos tomonlariga ega.

Antik davri yunon-rim manbalarida keltirilgan Nautaka, Ksenippa Qashqadaryo vohasi hududi bilan qiyoslangan. O'tgan asrning oxirigacha Nautaka Sharqiy Qashqadaryo, Ksenippa esa Qarshi vohasiga qiyoslangan. O'tgan asrning oxirida Afg'oniston hududidan topilgan oromiy yozuvida teriga bitilgan hujjatda *Kish* va *Nikshapiya* shaharlari to'g'risidagi ma'lumot


keltirilgan. Demak, ilk o'rta asr xitoy manbalarida qayd etilgan Kesh va Naxshab toponimlari ahamoniylar davrida ham mavjud bo'lган. Yozma manbalarda keltirilgan Nautaka va Ksenippa Kish va Nikshapiya shaharlari buysungan viloyatlarning nomi bo'lsa kerak.

Naxshabning antik davri yirik shahar markazi bo'lган yerqo'rg'on yodgorligi arxeologik jihatdan yaxshi o'rganilgan. Ko'hna shahar ikki kator devor bilan muhofaza qilingan. Ichki devor 40 ga,, tashqari devor 150 ga. maydonni o'rab olgan. Shaharistonning shimoliy qismida alohida mudofaa devoriga ega ark (90x60 m.) joylashgan. Shaharning devori burj va jangavor shinaklar bilan kuchaytirilgan.

Yerqo'rg'onidan mil. avv. III-IV asrlarga oid saroy majmuasi va III-IV asrlarga oid ibodatxonaning o'rni ochilgan. Ibodatxonaning toat-ibodat amallari bajariladigan mahobatli markaziy xonasi yog'och ustunlar yordamida yopilgan. Ibodatxonaning devorlarini haykalchalar va rang-tasvirlar lavhalari bezab turgan.

Ibodatxonadan tutatqidonlar, oyna, ilon va qurbaqa shaklli haykalchalar topilgan. Ibodatxonada olov va suv muhim o'rin egallagan. Undan topilgan moddiy yoshyolar orasida ayol ma'budiga tegishli haykalchaning bo'laklari topilgan. R.H.Sulaymonovning fikriga ko'ra ibodatxona shahar va uning atros hududidan iborat vohaga homiylik qilgan ayol ma'budi sharafiga barpo etilgan. Mazkur ibodatxona zardushtiylik diniy doirasiga kiruvchi Spenta Armaiti yoki Spandarmat (hayot ato etuvchi zamin ma'budi) va Anaxita Xaraxvati Ardvisura (suv, hayot va sevgi ma'budi) ma'budlaridan biriga tegishli bo'lgan.

Qarshi shahrida Qalai Zaxoki Maron manzilgohi joylashgan. O'ziga xos



Yerqo'rg'on. Haykalchalar

me'moriy-qurilish usuliga ega manzilgohning umumiy maydoni 225 ga. Ko'hna shahar uch qismandan iborat bo'lib, ularning har biri alohida mudofaa devori bilan o'rab olingan. Mudofaa devorlarida burjlar uchramaydi.

Ma'lumki, mil. avv. II asrda qurg'oqchilik natijasida Sirdaryoning quyi oqimidagi o'zanlarida faoliyat yuritgan Babisnumlia va Chirikrabod madaniyatları inqirozga uchraydi. Aholi suv zaxirasiga ega bo'lgan yangi yerlarga ko'chishga majbur bo'lgan. R.H.Suleymanov Chirikrabod madaniyatiga oid dax qabilasining bir qismi mil. avv. II asrda Qarshi vohasiga kelib, Qalai Zoxaki Maron manzilgohiga asos solgan, deb hisoblaydi. O'zaro yaqin joylashgan yerqo'rg'on va Qalai Zoxaki Maron o'mida faoliyat yuritgan shaharlardan qaysi biri Janubiy So'g'dning ma'muriy markaziga bo'lganligi noma'lum.

Qashqadaryoning sharqiy qismida Kitob shahridagi Qalandartepa yodgorligi o'mida qadimgi shahar faoliyat yuritgan. Hozirgi paytda zamонавиқ qabristonga aylantirilgan yodgorlikning umumiy maydoni 40 ga. dan ortiq. Uning arki nisbatan baland joyida 1 ga. maydonni egallagan qismida joylashgan. Yodgorlikda qazishma ishlari olib borilmagan. Kulollar mahallasining o'mi aniqlangan. M.ye.Masson taxminiga ko'ra yodgorlik antik davriga oid qadimgi shaharning o'mi bo'lib, Asg'onistondan topilgan yozma manbada keltirilgan *Kish* shahri aynan Qalandartepa yodgorligi o'mida faoliyat yuritgan bo'isa kerak.

Tadqiqotchilar Keshni xitoy manbalarida keltirilgan Kanguy davlatining tarkibiga kirgan *Si-se* mulki bilan qiyoslaydi. Qashqadaryo vohasining Kushon davlati tarkibiga kirganligi to'g'risida fikr bildirgan tadqiqotchilar ham mavjud.

So'g'd o'lkasida yashagan mahalliy o'troq dehqon jamoasi vakillariga tegishli qabrular uchramaydi. O'rganilgan qabrular chorvador aholi vakillariga tegishli. So'dning mahalliy aholisi zardushtiylik diniga e'tiqod qilganlar. yerqo'rg'on yodgorligidan zardushtiylik jamoasiga tegishli daxmaning o'mi aniqlangan. yerqo'rg'on dahmasi minorasifat imoratdan iborat bo'lib, tepe

qismida yilning sovuq kunlari mayitlarni saqlaydigan ochiq maydoncha joylashgan. Undan pastda dafn marosimini o'tkazish uchun mo'ljallangan ikkinchi maydoncha bo'lgan. Samarqanddag'i Qo'rg'on tepe va Buxorodagi Setaloq yodgorligidan olov ibodatxonasi o'rganilgan. Zardushtiylik dini uchun xos bo'lgan ossuariylar o'lkanning ko'pgina yodgorliklaridan topib o'rganilgan.

So'g'dning antik davri xo'jaligining asosini sug'orma dehqonchilik tashkil etgan. Bu davrda irrigatsiya tarmoqlari takomillashadi. Mavjud Darg'om va Bulung'ur kanallari kengaytiriladi. Buxoro vohasining mazkur davrga oid sug'orish inshootlari o'rganilgan. Zarafshon daryosidan bosh olgan Eski Angar kanali tadqiqotchilarining fikriga qaraganda antik davrida barpo etilgan. Chorvachilik ham xo'jalikning muhim tarmog'i hisoblangan. O'troq dehqonchilik vohalarida qoramol ko'proq boqilgan. Kichik tuyoqli mollar asosan tog' oldi hududlarida rivojlangan.

Metallurgiya taraqqiyotidan darak buradigan ma'lumotlar juda kam. Lolazor manzilgohidan metall eritish ustxonasining o'rni aniqlangan. Temir va bronzadan yasalgan mehnat qurollari, xususan, omoch so'qasi, o'troq, pichoq, kamon paykonlari boshqa'lар antik davriga oid barcha yodgorliklarda uchraydi. Kamon paykonlari antik davringin boshlarida bronzadan uch parrakli qilib yasalgan. Mil. avv II asrdan boshlab, temirdan yasalgan uch parrakli paykonlardan foydalanish boshlangan. Metallurgiya ishlab chiqarishi mahalliy ma'dan konlari zaxirasiga asoslangan.

Hunarmandchilik sohalari rivojlangan. Antik davrining ilk bosqichida kulolchiligidagi ahamoniylar davri an'analarini qisman saqlanib qoladi. Ellin davrida kulolchilik sohasida yangi yutuqlarga erishiladi. Sopol buyumlarni asosan kulolchilik charxida va qisman qo'lda yasalgan. Bu davrda sopol buyumlarining ishlanish texnologiyasi takomillashib, ularning turi ko'payadi. Ellinizm dunyosi uchun xos bo'lgan turli buyumlar paydo bo'jadi. Megar kosalari, baliq soladigan idishlar, kraterlar (vino solinadigan idishlar), oynaxoya ko'zalari gardishlari G harfi yoki T harfi shaklida qayrilgan laganlar, turli-tuman

bo'g'zi uzun va tor ko'zalar ishlab chiqariladi. Yunon kulolchilikti ta'sirida mahalliy kulolchilik takomillashib, o'zgarib boradi. Sifindrkonus shaklli nafis qadahlar yasala boshlaydi. Sopol buyumlarining sirti angobda nafis jiho beriladi. Qozon va tavalar qo'lda yasalgan.

To'qimachilik va ko'nchilik hunarmandchilikning muhim tarmog'i hisoblangan. Junga ishlov berish, paxta va shoyidan gazlamalar to'qish to'qimachilikning muhim tarmoqlari hisoblangan. Manzilgohlardan topilgan turli xil toshdan yasalgan urchuqboshchlarning ko'plab nusxasi to'qimachilik to'qimachilik rivojidan darak beradi.

So'g'dning antik davri tasviri san'ati Afrosiyob, yerqo'rg'on va boshqa yodgorliklardan topilgan moddiy ashylarda o'z aksini topgan. Samarqand So'g'dning antik davri san'at terrakotik haykalchalarda aks etgan. Haykalchalar asosan ma'buda tasviridan iborat. Hosildorlik ma'budalar qo'llarida ho'l meva, gul yoki o'simlik ushlab turgan holatda aks ettirilgan. Qisman erkak va ayollarning musiqa asbobi bilan tasvirlangan haykalchalar ham uchraydi. Yerqo'rg'on dan topilgan haykalchalar dunyoviy va diniy mazmun kasb etadi. Antik davrining ilk bosqichiga oid kam sonli erkak va ayol tasvirlangan haykalchalar real hayotni aks ettirgan. Antik davrining rivojlangan bosqichda haykalchalar soni ko'payadi. Milodning I-II asrlariga erkak, ayol, hayvon, otliq, afsonaviy mavjudot va qisman ma'buda aks ettirilgan haykalchalaridan iborat. Ular yasalishiga ko'ra o'zida mahalliy va ellen madaniyati an'analarini aks ettirgan. III-IV asrlarda haykalchalar soni yanada ko'payadi. Turli holatda tasvirlangan mahalliy ma'budalar tasvirlangan haykalchalar soni ko'pchilikni tashkil etadi.

Yerqo'rg'on yodgorligida agat toshidan kichkina qilib yasalgan qurbaqa shakli, bronzadan quyilgan ilon shakli, oltindan yasalgan tiprotikon taqinchoq, bronza oynalar va antik davrining turli davrlariga oid loydan yasalga haykalchalar so'g'dlik aholining boy moddiy madaniyatidan darak beradi.

Qadimgi So'g'dning antik davri alohida hududlari madaniyati o'ziga xos

jihatlari bilan bir-birida farq qilgan. So'g'd madaniyati mahalliy madaniyat an'anaiari negizida, ellen madaniyatining ta'siri rivojlanadi. Milodning arafasidan boshlab ko'chmanchilar madaniyati ta'siri kuchayib, pasayish kuzatiladi.

**Ustrushona.** Ustrushona to'g'risida qadimgi yozma manbalarda ma'lumot uchramaydi. Faqat antik davri yunon-rim manbalarida Aleksandr Makedonskiyning O'rta Osiyoning sharqiy yerlariga qilgan yurishida Yaksart (Sirdaryo) bo'yida joylashgan Kiropol shahrini vayron qilib, o'mida qayta qurgan Aleksandriya Esxata qal'asi to'g'risida ma'lumot saqlangan.

O'lkaning antik davriga oid Ko'hna Xo'jand, O'ratega (Mug'tepa), Munchoqtepa, Shirin va Qaliyatepa manzilgohları o'rganilgan. Ko'hna Xo'jandda antik davrining ilk bosqichida arxaik davridagi o'mida hayot davom etgan. Antik davri madaniy qatlami zamonaviy qurilish imoratlari tagida qolib ketgan. Shaharning mazkur davr tuzilishi aniqlash qiyin.

Ustrushonaning shaharlardan biri Shirin manzilgohi o'mida faoliyat yuritgan. Umumiy maydoni 10 ga. dan iborat manzilgoh mil. av. IV asrda shakllanib, milodning boshida o'lkaning yirik shahar markazlaridan biriga aylanadi. Boshqa bir shahar Mug' (O'ratega) manzilgohida taxminan mana shu davrda shakllangan.

Sirdaryo bo'yida joylashgan antik davriga oid Munchoqtepa manzilgohi yaxshi saqlangan. Manzilgohning tarhi to'g'ri to'g'ri to'rtburchak shaklda, daryo suvi muntazam yuvib, maydon qisqarib ketgan. Umumiy maydoni 4 ga. dan iborat bo'lib, shimoliy-sharqiy tomonidagi nisbatan baland qismidagi 70x40 m. joyda co'hna shaharning qal'asi joylashgan. Manzilgoh xom g'ishtda terilgan mudofaa devori bilan muhofaza qilingan. Munchoqtepa ko'rinishdan Ustrushonaning dashi hududi chegarasidagi tayanch qal'asi hisoblanib, harbiy istehkom vazifasini bajargan.

Jizzax shahrining sharqiy chekkasida umumiy maydoni 30 ga. dan ortiq joyni egallagan Qaliyatepa manzilgohi joylashgan. Manzilgoh ark, shahriston va

rabet qismalaridan tashkil topgan. Mazilgoh mil.avv. II/II asrda shakllanib, Jizzax sbahrining qadimgi o'rni hisoblanadi. Shuningdek, o'lkadagi Zomin shahrining qadimgi o'rni ham mil. avv. II/I shakllanib keyingi davrlarda rivojlangan. O'lkada boshqa shaharchalar, qadimgi istehkom-qal'alar, dehqonchilik qishloqlarining ham o'rni saqlanib qolgan.

Ustrushonaning shimoliy qismida qadimgi ko'chmanchi chorvador qabitasining dafn inshootlari joylashgan. Ulardan Munchoqtepa va Shirinsoydag'i qadimgi mozorlarda yorma va lahat qabrлar o'rganilgan. Qabrлarda ko'proq yakka mayitlar ko'miigan. Ko'p mayit ko'milgan qabrлar ham mavjud. Ustrushonaning o'troq hayot kechirgan aholisi orasida otashparastlik dini tarqalgan. Marhumlarni zardushtiylik udumi bo'yicha etni suyakdan ajratib, ostodonda dafn qilish odati ham mavjud bo'lган.

Ustrushona xo'jaligining asosini dehqonchilik tashkil etgan. Bu davrda sug'orish tizimi takomillashib, yangi yerlar o'zlashtiriladi. Ekin dalalari kichik daryolardan bosh olgan ariqlarda sug'orilgan. Voha atrofidagi dashlarda chorvador qabilalar yashagan. Chorvachilikda qo'y, echki va qoramol boqilgan.

Hunarmandchilikning kulolchilik, metallarga ishlov berish, zargarlik va boshqa turlari rivojlangan. Munchoqtepa manzilgoxitidan to'g'ri to'rt burchak shakldagi xumdonning o'mni ochib o'rganilgan. Metall quyish uchun mo'ljallangan tosh qolip topilgan. Qabrлardan temirdan yasalgan pichoq, qilich, yorg'uchiq, sopol urchuqbosh, qayroqtosh va topilgan.

Ustrushona Buyuk Ipak yo'li bo'yida joylashgan sababli savdo imunosabatlari yaxshi rivojlangan. Milodning birinchi asriga oid Xitoy va Rim tangalari, chig'anoqlar, marjon munchoqlar, bronzadan yasalgan buyumlar topilgan. Ular o'lkanning xalqaro savdoda faol ishtirot etganligidan guvohlik beradi.

Sopol buyumlar qo'lda va kulolchilik charxida yasalgan. Qo'lda yasalgan sopol buyumlari qabrлardan topilgan. Ularning ko'pchiligining sirtiga oq yoki qizil rangli angob surtilgan. Qo'lda yasalgan sopollar turli o'lchamli kosa va

ko'zalardan iborat. Kosalar yarimsferik shaklga ega bo'lib, o'chami ancha katta. Charxda yasalgan sopoqlarning sirtiga qizil yoki jigar rang angob surtilgan. Ular turli xil kosalar va bir qulqoqli ko'zalardan iborat.

Ustrushonanining antik davri jamiyatni o'ziga xos taraqqiyoti bilan boshqa o'lkalardan farq qiladi. O'lkaning antik va arxaik davrlari madaniyati o'rtasidagi bog'liklik arxeologiya ma'lumotlari yetarli bo'lmaganligi sababli to'liq ochib berish imkoniyati mavjud emas.

*Choch-Hloq.* Qadimgi Choch-Chirchiq vohalardan tashkil topgan hozirgi Toshkent viloyati hududidan iborat o'lka. Choch tarixiga oid aniq ma'lumotlar qadimgi yunon tarixchilarining asarlarida uchraydi. Tarixchi Strobonning "Geografiya" asarida keltirilgan ma'lumotlarda mil.avv. I ming yillikning O'rtalarida Yaksart (Sirdaryo) ortidagi yerlarda jangavor ko'chmanchi sak qabilalari istiqomat qilganligi keltiriladi. Boshqa bir mullif Dionisiy Periegit asarida Selevkiylar sarkardasi Demodam daryo ortiga (Yaksart) yurish qilib, qal'a shaharga asos solganligi to'g'risidagi ma'lumot mavjud. Bu voqealarni kamida mil.avv. III asr boshlarida sodir bo'lgan. Bu shahar akademik Yu.F.Buryakovning fikriga ko'ra hozirgi Qanqa yodgorligining dastlabki o'rniida vujudga kelgan.

Keyingi davr tarixi bilan bog'liq voqealar tavsiiloti bilan Xitoy manbalari orqali tanishish mumkin. Chjan Szyan (mil.avv. II asrning ikkinchi yarmi) keltirgan ma'lumotlarda o'lka *Yuni* nomi bilan tilga olinib, uning Kanguylar davlati tarkibiga kirganligi ta'kidlanadi. Keyingi davr Xitoy manbalarida *Shi*, *Chjeshi* (*Chjesi*) shaklida keltirilgan.

O'lkada dastlabki shahar (Kanka) yuqorida ta'kidlanganligi kabi mil. avv. III asr boshlarida shakllanadi. Mil. avv. III asr o'rtalarida vohaga Sirdaryoning quyi oqimi hududidan ilgari shaharsozlik an'analarini bilan tanish bo'lgan qabilalarning ko'chib kelib joylashishi kuzatiladi. Bu yerda mahalliy Burgulik, ko'chmanchi sak qabilalari va Jetiosar madaniyati qisman o'lkaza ellin madaniyati an'analarining kirib kelishi bilan antik davrida o'ziga xos madaniyat

shakllanadi.

Toshkent vohasida antik davrining ilk bosqichida *burgulik-sak* madaniyati faoliyat yuritgan. Zamonaviy tadqiqotchilar fors manbaalarida qayd etilgan *Saka tiyay-taraxaudalar* yashagan hudud doirasiga Toshkent vohasini ham kiradilar. Mil. avv. III asrda boshida ellin madaniyatiga xos shahar vujudga kelgan. Undan keyin Sirdaryoning quyi oqimidan Jetcasar madaniyatiga oid aholi ko'chib kelib joylashadi. Natijada burgulik, ellin va jetiasar an'analari negizida mahalliy madaniyat shakllanadi.

Vohaning antik davri tarixini asosli moddiy manbalar yetarli bo'lmasada arxeologik jihatdan quyidagi davrlarga ajratish mumkin: Sak davri (mil. avv. IV asr), ellin yoki Qanqa davri (mil. avv. III-II asr), Qovunchi I (mil. avv. II asrning oxiri-milodiy I asr) Qovunchi II (II asr-IV asrning boshi).

Selevkiylar qurgan qal'a-shahar Oqqo'rg'on tumani hududida joylashgan Qanqa manzilgohiga to'g'ri keladi. Qanqa manzilgohi (Shahriston I) dastlabki 6,5 ga joyda besqichda ilgaridan rejalashtirilgan loyihaga asosan, to'g'ri

to'rburchak shaklida barpo qilingan. Uning shimoli-g'arbiy chekkasida ark joylashgan. Manzilgoh kvadrat g'ishtdan terilgan ikki qator mudofaa devori bilan o'rabi olingan. Devorlarning o'ttasida yo'lakcha-galereya joylashgan. Mudofaa devori to'g'ri to'rburchak shaklidagi burlar va jangavor shinaklar bilan kuchaytirilgan. Devor bilan xandak o'ttasida "berma" yoki "proteyxizm" qoldirilgan. Qanqaning birinchi shahristoni qurilishi ellin shaharsozlik usuli bilan bir xil. Yu.Buryakov Demodam barpo qilgan qa'a aynan Qanqa o'mida faoliyat yuritgan, deb hisoblaydi.

Qovunchi madaniyatining ilk bosqichida o'troq manzilgohlari shakllanib, mil. avv. II asrdan o'lkada shaharsozlik taraqqiyotining ikkinchi bosqichi boshlanadi. Qovunchitepa, Kindiktepa, Shoshtepa va boshqa shaharlar shakllanadi.


Qanqa manzilgohi mil. avv. II-I asrlarga kelib, Kangyuylar davlatining ma'muriy markaziga aylangandan so'ng shahar maydoni xiyla kengayib,



### Qanqa manzilgohi (Antik davri)

umumiy maydoni 150 ga. yetadi.

Shahar antik davrida o'lkanning savdo-ishlab chiqarish va madaniyat markaziga aylanadi. Qanqaning janubiy qismida taxminan 5 ga. maydonda savdo-ishlab chiqarish qismi joylashgan. Quyi madaniy qatlamidan topilgan moddiy ashyolar antik davrining ilk bosqichiga oid. Buyuk Ipak yo'lining bir tarmog'i Qanqa orqali Toshkent vohasidan



Shoxruxiya manzilgohi

hududidan o'tgan bo'lsa kerak. Xitoy manbalarida *Shishahri* mudosaa devorining uzunligi 10 li. (4-5 km.) masofaga cho'zilganligi keltirilgan.

Antik davriga oid Shoxruxiya, Kavardan, Xonobodtepa, Quloqchintepa, Mingo'rik va boshqa o'ndan ortiq yodgorliklar o'mida qadimgi shaharlar faoliyat yuritib, o'lkada urbanizatsiya jarayoni chuqurlashdi.

Shoshtepa manzilgohida atrofi ikki qator devor bilan o'rab olingan xochsimon qurilish majmuasi ochilgan. Bu majmuaning qurilish usuli Toshkent vohasi uchun xos emas. Arxeolog olima M.I.Filanovichning fikricha Shoshtepa

me'moriy majmuasi Jetiasar madaniyatini qurilishiga o'xshaydi. Olimaning fikriga ko'ra Toshkent shahrining eng qadimgi o'mi mana shu manzilgoh o'rnila shakllangan. Imorat esa ibodatxona vazifasini bajargan. Chochning Qanqadan keyingi antik davri ikkinchi yirik shahar markazi Shohruxiya manzilgohi o'rnila faoliyat yuritgan. Ko'hna shahar Sirdaryoning chap sohilida daryo kechuvi yaqinida joylashgan. Manzilgohning tomonlari o'z davrida 600x600 m dan iborat bo'lgan. Daryo toshqinining doimiy yuvib turishi oqibatida shahristonning asosiy qismi nobud bo'lib, qolgan maydoni uchburchak shaklida saqlanib qolgan. Ark qismi esa butunlay yuvilib ketgan. Manzilgohning quyi qatlami mil. avv. I asr bilan sanalangan. Ko'hna shahar Buyuk Ipak yo'lining Chochdan So'g'dga olib boradigan tarmog'i bo'yida joylashgan. Manzilgohning shakllanishi Buyuk Ipak yo'li faoliyati bilan bog'liq bo'lib, mil. avv. I asr asming boshida shaharga aylangan bo'lsa kerak.

Qovunchi madaniyatining keyingi bosqichida Mingo'rik yodgorligi o'rnila aholi manzilgohi shakllanib, shahar markaziga aylanadi. Umumiyligi maydoni 35 ga dan iborat mudofaa devoriga ega manzilgoh ark va shahriston qismlaridan tashkil topgan. Arkda saroy, harbiy zaxira ombori va boshqa imoratlarning o'rnini ochib o'rjanilgan. Imoratlarning devorlari turli mazmundagi rang-tasvir namunalari bilan bezatilgan.

Toshkent vohasining tog' oldi hududlarida va dabqonchilik vohalarining atrofida chorvachilik bilan hayot kechirgan aholi yashagan. Ularning madaniyati xo'jaligiga oid moddiy manbalar dafn inshootlarida o'z aksini topgan.

Qovunchi I dafn inshootlari o'ra, yorma va qabr-qo'rg'onlardan iborat. Qabr qo'rg'onlarning ustiga tuproq, qisman tosh uyulgan. Ular ko'ndalang, qisman uzunasiga joylashgan dromosga ega bo'lgan. Qabrlarda yakka va ko'pchilik marhumlar dafn qilinib, ularga sopol idishlar, menat qurollari, zebziynat va boshqa buyumlar qo'shib ko'milgan.

Qovunchi I bosqichiga oid sopollar qo'lda yasalgan. Burguluk madaniyati sopollaridan tagi tekisligi bilan farq qilgan. Sopollarning sirtiga oqish rangli

angob surtilgan. Ularning sirti jigarrang yoki qora-jigar rangli oqib turgan chiziqlar bilan bezatilgan.

Sopollar xum va xumcha, bir tutqichli ko'zacha, qozon, katta va kichik tovoq, yirik xum, mustaxara, past bo'yli tava yoki qovurgichlardan iborat. Qovunchi II bosqichida sopol buyumlar sekin aylantiriladigan kulolchilik charxida yasala boshlangan. Bu bosqichda sopol buyumlarining turi ko'payadi. Ko'proq og'zi keng buyumlar yasalgan. Ayrim sopol idishlarning tutqichida hayvon, xususan, qo'yning boshi yoki biror narsaning shakli tushirilgan. Tutqichining qarama-qarshi tomonida silindrsimon jo'mrakka ega sopol buyumlari ham mayjud.

Qovunchi I bosqichida vohada metallurgiya ishlab chiqarishi rivojlangan. Qanqa manzilgohining arki va shahristonida metall eritish o'choqlari, metaldan yasalgan uy-ro'zg'or anjomlari, quroq-yarog'lar va boshqa buyumlar topilgan. Ular temirdan yasalgan bir tig'li pichoqlar, uch qirrali katta va kachik kamon paykonlari, omochdan iborat.

Qovunchi II bosqichiga oid yodgorliklardan metallarga ishlov berish ustaxonalarining o'rni va metal buyumlari aniqlangan. Qulota manzilgohining arki va shahristonidan Qovunchi I ning oxiri va Qovunchi II ning boshtariga oid qatlamidan metall eritish o'chog'i devorining qoldig'i, mis va kumush parchalari va ularni eritish jarayonida hosil bo'lgan toshqollar topilgan. Kadovattepa yodgorligidan diametri 2,2 m. keladigan silindr shaklli temir eritish uchog'i aniqlangan. Metall buyumlari ikki tomonlhma o'tkir tig'ig'a ega qilich, bir tig'li pichoq, to'rt qirrali va tizqinli kamon o'qi va boshqalardan iborat. Oltindan nozik qilib yasalgan sirg'a, munchoqlar, baldoq, bronza va kumushdan yasalgan uzuklardan iborat. Bronzadan yasalgan kichik silindr shaklidagi muhrning yuzasida o'simlik va hayvonlar tasviri tushirilgan.

Umuman Toshkent vohasida mahalliy burgulik va sak madaniyati va chetdan kirib kelgan ellen, jeteasar madaniyatlarining aralashishi natijasida o'ziga xos antik davri Qovunchi madaniyati shakllanadi.

*Farg'ona vodiysi.* Farg'ona tarixiga oid fors va yunon-rim yozma manbalarida jo'yali ma'lumotlar mavjud emas. Gerodotning "Tarix" asarida keltirilgan *parikaniylar* ayrim tadqiqotchi olimlar Farg'ona vodiysi hududi yashagan, deb hisoblasa, boshqalar inkor qilgan. Tarix sahifalarida Farg'ona to'g'risidagi aniq ma'lumotlar mil. avv. II asrdan boshlab Xitoy manbalarida uchrab boshlaydi. Xitoylik sayyoh Chjan Syanning mil. avv. 138 -yilda g'artiy o'lkalarga qilgan safari tafsilotlari bilan bog'liq. Antik davri Xitoy yozma manbalarida (*Shitszi*, *Xanshu*), *Davan* (*Dayyuan*) davlati to'g'risida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan.

Sima Syanning "*Shitszi*" asarida keltirgan ma'lumotlarga qaraganda Davanda yashagan aholi o'troq hayot kechirib, guruch, bug'doy musallasbop uzum navini yetishtirgan. Afsonaviy uchar otlari-*arg'amaqlar* to'g'risida ma'lumot keltirilgan. Shuningdek, manbada o'lkada 70 dan ortiq katta-kichik shaharlar, xususan *Ershi* va *Yuchen* shaharlari tilga olingan.

Antik davriga oid yodgorliklar majmuasini Yu.A.Zadneprovskiy Sho'rakashat (mil. avv. IV-I asrlar-Sho'rakashat va Qoratepa bosqichlar) va Marhamat (I-IV asrlar *Xo'jambog'* va Marhamat bosqichlari) davrlariga ajratadi. N.G.Gorbunova Farg'on vodiysining Eylaton madaniyati o'rniда vujudga kelgan yodgorliklarini Ko'gay-Qorabuloq madaniyati (mil.avv. II-VII asrlar) nomi bilan yuritgan. Ko'gay yodgorligi o'troq dehqon jamoasi yodgorligi, Qorabuloq esa chorvadorlarga oid qabr-qo'rg'onidan iborat bo'lib, o'troq dehqon jamosi aholisi bilan tog'oldi hududda yashagan chorvador qabilalar o'zaro aloqada bo'lgan. Ko'gay-Qorabuloq madaniyatining dastlabki ikki bosqichi (ilk-mil.avv. III-I, ikkinchi bosqichi I-IV) antik davriga oid.

Farg'ona vodiysining antik dari o'troq dehqonchilik manzilgohlari alohida mikrovohalar: Yassi, Qoradaryo, Qorsuv, Sirdaryoning yuqori oqimi hududida tarqalgan. Yodgorliklar katta-kichik shahar va qishloq xarobalaridan iborat. Bu davrga oid yirik 20 ga yaqin katta-kichik shahar turidagi manzilgohlari aniqlangan.

Shurabashat davri manzilgohlari asosiy qismi Farg'ona vodiysining sharqiy qismida joylashgan. Farg'onaning sharqida, Yassi daryosi bo'yida joylashgan Shurabashat manzilgohi antik davriga oid eng yirik manzilgoh hisoblanadi. Umumiy maydoni 70 ga. keladigan ko'hna shahar xarobasi daryodan tashqari uch tomoni mudofaa devor bilan o'rab olingan. Devor burjlar bilan kuchaytirilgan. Manzilgohning sharqida joylashgan ark qismi ham alohida mudofaa devoriga ega. Shahriston zinchlangan tuproq-val devor o'rab olgan. Devorning sirtiga xom g'isht terilgan. Arkning mudofaa devori esa xom g'ishtdan terilgan. Ko'hna shaharning asosiy qismida qurilish imoratlari uchramaydi, ochiq qoldirilgan. Bu manzilgohni Yu.A.Zadneprovskiy xitoy manbalarida qayd etilgan Yuchen shahri bilan qiyoslangan. Shurabashat davrida Farg'ona vodiysida Qoradaryo, Mingtepa (Marxamat), Sarvontepa, Chordonatepa manzilgohlari o'rnida qadimgi shaharlar faoliyat yuritgan.

Moddiy madaniyatdi tosh qurollari, metall va sopol buyumlaridan iborat. Metaldan ishlangan uy anjomlari, ish qurollari va qurol yarog'lar soni juda kamchilikni tashkii etadi. Toshdan yorug'uchqoq, o'roq, urchuqbosh yasalgan. Kulolchilik mahsulotlari sopol buyumlaridan iborat. Ularning qo'lda va charxda yasalgan turlari ajralib turadi.

Sopollarning asosiy ko'pchilik qismi kulolchilik charxida yasalgan, sirtiga qizil angob surtilgan. Qisman qora va oq rang angob surtilgan sopol buyumlari ham uchraydi. Buyumlar kosalar, chuqur kosalar, ko'zalar, bokal, krujkalar va mustaxaralardan iborat. Sopollarning sirtiga yorqin taglik ustidan qizg'ish-binafsha va qizil rang bo'yoqlarda naqshlar chizilgan. Naqshlar idishlarning yuqori qismi chizilib, ular geometrik va to'rsimon shakillar, to'qinsimon, ilonizi chiziqtari va boshqa shakklardan iborat.

Marhamat bosqichida aholi soni ko'payib, ular yashaydigan hududlar kengayadi. Sug'orma dehqonchilik va irrigatsiya tizimi takomillashib, ilgari yangi yerlar o'zlashtiriladi. Milodning boshida vodiyning tog'oldi hududi ham o'zlashtirilib, aholi manzillari paydo bo'ladi. Shahar va qishloqlar rivojlanib,

ularning soni yanada ko‘padi. Shahar markazlarida hunarmandchilik ishlab chiqarishi va savdo jamlanadi.

Yirik shahar markazlaridan Marhamat manzilgohining maydoni 40 ga. Manzilgohda mil. avv. III-II asrlarda shahar sifatida shaktilanib, I-III asrlarda taraqqiyotining yuqori cho‘qqisiga chiqadi. Shaharning atrofi mudofaa devori bilan o‘rab olingen. Mudofaa devor burjlar va shinak bilan kuchaytirilgan. Shaharning imoratlari qurishda paxsa va xom g‘isht ishlatilgan. Shahristonning asosiy qismi ochiq qolditilgan, qurilish imoratlari uchramaydi.

Arxeolog A.N.Bernshtam manzilgohni Xitoy manbalarida qayd etilgan Davan davlatining poytaxti-*Ershi* shahri bilan qiyoslagan. Buyuk Ipak yo‘li bo‘yida joylashgan shahar IV asrgacha Farg‘ona vodiysidagi yirik savdo-iqtisodiy va madaniy markazlardan biri bo‘lgan.


Marhamat davrida aholi Farg‘ona vodiysining barcha yerlarini o‘zlashtirib, aholi manzillari, xususan, shaharlar soni yanada ko‘payadi. Bu davrga oid Kalamishtepa (Darvozaqirtepa), Sultonobod, Qo‘rg‘ontepa, Qilichqabr 2, To‘rtko‘l, Oqbura, Ko‘hna Quva yodgorliklari Farg‘ona vodiysining antik davri kichik shaharlari yoki shaharchalarining xabasidir.

Andijen shahridan 40 km. g‘arbda joylashgan Kalamishtepa (Darvozaqirtepa) manzilgoh uch qismdan iborat bo‘lib, II-III asrlarga oid. Manzilgoh arki to‘g‘ri to‘rburechak shaklga ega bo‘lib, atrofi mudofaa devori bilan o‘rab olingen va uning sirtida xandak mavjud.

Farg‘ona vodiysining tog‘ oldi hududida chorvador qabilalari yashagan. Antik davriga oid Vorux, Turatosh va Qorabuloq qabristonlarida mingdan ortiq qabrlar aniqlangan. Ular oddiy o‘ra, yorma va katakomba (lahat) qabrlardir. Ichki tomonidan xom g‘isht yoki tosh terib chiqilgan qabrlar, ya‘ni *sistalar* ham mavjud. Marhumlar tirkligida jamiyatda egallagan mavqeyiga qarab ma’lum kuzatuv buyumlari bilan qo‘sib ko‘milgan.

Shahar markazlarida ixtisoslashgan hunarmandchilikning to‘qimachilik, kulolchilik, metallarga ishlov berish, xususan, temirchilik, misgarlik va bronza

quyish va boshqa turlari rivojlangan. Mahalliy kon zaxirasiga asoslangan hunarmandchilik sohalari qishloq xo'jalik va binokorlik asbob-uskunalarini, uyro'zg'or buyumlari hamda harbiy qurol-yarog'larni yasashga ixtisoslashgan.



Shurabashat davri soppollar

Bronza quyish ustaxonasining o'rni Farg'ona vodiysining ko'pgina manzilgohida aniqlangan. Topilgan kam sonli metall buyumlari temir, bronza va misdan ishlangan. Har xil metaldan yasalgan uy-ro'zg'or, xo'jalik buyumlari va qurol yarog'larning kam sonli nusxasi saqlanib qolgan. Temir Korug'i manzilgohidan uzunligi 34 sm., eni 4 sm. keladigan qilichning pastki qismi topilgan.

Bu bosqichda tez aylantiradigan charxida devori yupqa qilib yasaqlan va yuqori haroratda pishirilgan sopol buyumlari paydo bo'ladi. Sopollarning sirtiga qizil angob surtilgan. Sopol buyumlarni yasashda ma'lum standartga, ya'ni andazaga qat'iy amal qiltingan.

Sopol buyumlar har xil katta-kichik kosalar, turli shaklga ega ko'zalar, vazalar hamda boshqa oshxonalar va xo'jalik idishlaridan iborat. Sopol buyumlarining sirtiga ikki xil, ya'ni tirmab va rang bo'yoyqlarda naqshlar chizilgan. Naqshlar geometrik shakllar, o'simliklar, xususan, daraxt, ot, qushlarning tasviridan iborat.

Savdo-iqtisodiy munosabatlari yaxshi rivojlangan. Hunarmandchilik ishlab

chiqarishi, savdo-sotik, xususan, Buyuk Ipak yo'li orqali xalqaro savdo rivojlangan. Moddiy topilmalar orasida Xitoy va Hindistondan keltirilgan buyumning ko'pgina namunasi uchraydi. Farg'ona vodisining xalqaro savdo yo'li bo'yida joylashganligi antik davri jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotida muhim o'rinni tutgan.

Farg'ona vodisi O'rta Osiyoning antik davri yirik tarixiy-madaniy viloyatlaridan biri bo'lib qolmasdan, davlat tashkilotiga ega o'lka hisoblangan. Ko'hna Sharqning Xitoy kabi yirik imperiyasi harbiy qo'shinlariga qarshi tura oладиган Davan davlatining iqtisodiy va harbiy salohiyati anche yuqori bo'lgan. Mamlakatda antik davrining ikkinchi bosqichida urbanizatsiya jarayonlari chuqurlashib, shaharlar rivojlanishi bilan birga utarning soni ko'paygan. Shaharlar ishlab chiqarish va savdo markaziga aylangan.

**Xorazm.** Xorazmning antik davri tarix to'g'risidagi qisqacha ma'lumotlar yunon-rim mulliflari asarlarida saqlangan. Xorazm mil. avv. IV asr boshlarida ahamoniylar davlatidan ajralib chiqib, mustaqil siyosat yurita boshlagan. Antik davri mualiflarining asarlarida Xorazm shoh Farasman (Arrian) yoki Fratafern (Kursiy Ruf)ning Aleksandr Makedonskiy bilan kelishib, mamlakat mustaqilligini saqlab qolganligi to'g'risidagi ma'lumotlar saqlangan. Xorazmning selevkiylar tarkibiga kirganligi to'g'risida ma'lumotlari uchramaydi.

Mil. avv. II asr oxiri-I asr boshlariga oid Xan sulolasi yilnomasida (*Syan Xan shu*) keltirib o'tilgan Kanguy davlatiga tobe bo'lgan beshta viloyatlardan biri *Yuegyan* mulkini tadqiqotchi olimlar Urgench (Xorazm) bilan qiyoslaydilar. Xorazmshohlar to'g'risida ayrim ma'lumotlar sosoniyarlarning III-IV asrlarga oid paxlaviy bitiklarida keltirilgan. Beruniy keltirgan ma'lumotlarga ko'ra 305 - yilda Xorazm afg'iyilar sulolasi tomonidan mustaqil boshqarilgan.

Qadimgi Xorazmning antik davri madaniyatini o'rganilishi ishlari dastlab 1936-1937-yillarda Ya.G'ulomov va T.Mirg'iyozovlarning tadqiqotlari bilan boshlangan. 1937-yilda S.P.Tolstov rahbarligidagi Xorazm arxeologik-

etnografik ekspeditsiyasi (XAEE), keyinchalik O'zRFA Qoraqolpag'iston arxeologiyasi bo'lini tomonida olib borilgan keng qamrovli arxeologiya tadqiqot ishlari natijasida o'lkaning qadimgi davr madaniyati yaxshi o'r ganilgan.

Xorazmning S.P.Tolstov tomonidan 1) kanguylar (mil. avv. IV asr-mil. I asr), 2) kushonlar (mil. II-III asrlar, 3) kushon-afrig'iy (mil. III-V asrlar) bosqichlaridan davlashtirish tizimi o'z ahamiyatini saqlab qolgan.

Amudaryoning quyi oqimi hududlarida o'r ganilgan arxeologiya yodgorliklarining vazifasi jihatdan bir necha turlari ajralib turadi. Yirik shahar markazlari, istehkom-qal'alar, ishlab chiqarish manzillari, uy-ko'rg'onlari va diniy inshootlar.

Xorazmning arxeologiya yodgorliklari, xususan, ko'hna shaharlari tuzilishiga ko'ra O'rta Osiyoning boshqa hududlarinikidan farq qiladigan jihatlari bilan ajralib turadi. Bu yerdagi qo'hna shahar uchun aniq o'lchamli qal'a atrosida aholi uy-joy va ishlab chiqarish inshoot qismilar joylashgan qismilari to'liq shakllanmagan tuzilish xos.

Amudaryoning quyi oqimi hududidagi arxeologiya yodgorliklarning tuzilishiga jihatdan bir necha turi ajralib turadi. Yirik shahar markazlari, qal'a-istehkomlar, ishlab chiqarish inshootiga ega manzillar, uy-ko'rg'onlar va diniy inshootlar. Xorazmning antik davri manzilgohlari tadrijiy jihatdan arxaik, kanguy-yunon va kushon davrlariga oid.

Xorazm shaharlari tashqi tuzilishi jihatdan O'rta Osiyoning boshqa o'lkalari shaharlardan farq qilgan. Xorazm shaharlari uchun boshqa joylarda bo'lganidek uch qismli tuzilmasi xos emas. Xorazm shaharlar aniq o'lchamli qal'adan iborat bo'lib, uning atrosida aholi uy-joylari va ishlab chiqarish qismi joylashgan shahriston qismi kam hollarda mavjud bo'lgan.

Xorazmda mil.avv. IV-III asrlarda shahar va qal'alar soni ko'payadi. Ulardan Xiva, Xazorasp, Ko'hna Uaz, Kandumqal'a, Bozorqal'a, Oqchaxonqal'a, Guldursunqal'a manzilgohlar o'rnda shaharlar faoliyat

yuritgan. Yarbekirqal'a, Qavatqal'a, Zamaxshar, Shaxsanam qabi manzilgohlar o'rnilida faoliyat yuritgan shaharlar ham mana shu davrda shakllangan. Milodiy III-IV asrlarda esa boshqa shaharlar shakllangan. Umuman antik davrida Xorazm o'lkasida sal kam yigirmaga yaqin shahar vazifasini bajarga aholi manzillari faoliyat yuritgan.

Amudaryoning chap sohilida arxaik davrda faoliyat yuritgan Xazorasp, Xiva shaharlar antik davrida rivojlanib, ahamiyati yanada o'sadi. Ushbu shaharlar Xorazm davlatining antik davri iqtisodiy va madaniy taraqqiyotida muhim o'rin tutgan. Ularning antik davri shaharsozlik xususiyatidan darak beradigan arxeologik ma'lumotlar keyingi davr imoratlari tagida qolib ketganligi sababli yaxshi o'rganilmagan.

Xorazmning eng qadimgi va yirik markazlaridan biri Xazorasp qo'hna shahri hisoblanadi. Ko'hna shahar arxaik davrda shakllanib, antik davrida yanada rivojlangan. Qo'hna shaharning hozirgi paytda Devsolgan tepaligida sal kam kvadrat (280x294 m.) shaklida saqlangan qal'aning o'rni o'rganilgan. Qal'a mustahkam mudofaa devori bilan muhofaza qilingan. Devorda bir necha bor qurilishlar oshirilib, rivojlangan bosqichida umumiyligi qalinligi 10 metrdan iborat bo'lgan. Mudofaa devoridan tashqarida o'ziga xos qalqon vazifasini bajarga qo'shimcha devor ham qurilgan va ular oralig'idagi joy asosiy devorga bузib kiruvchi moslamalarining kirishiga to'sqintlik qilish uchun qum to'kilgan.

Xorazmning qadimgi shahar markazlaridan bir Ko'hna Xiva antik davrida yanada rivojlangan. To'g'ri to'rt burchak shakldagi (650x450 m.) tarhiga ega bo'lgan shaharning qadimgi davrdagi maydoni 26 gektardan iborat bo'lib, qal'in mudofaa devori va yarim aylana burjlar bilan muhofaza qilingan. Shahar arki (maydoni 2 ga.) g'arbiy devori yaqinida joylashgan. Shahar mavqeyi jihatdan Amudaryoning chap sohili hududidagi ikkinchi yirik madaniy va iqtisodiy markazni tashkil etgan.

Amudaryoning o'ng sohili hududida antik davri shaharlarining o'mi Oqchaxonqal'a (Qozoqliyetganqal'a), Bozorqal'a, Guldursunqal'a, Qirqqizqal'a

va boshqa yodgorliklarning o‘rnida saqlanib qolgan. Eng yirik shahar markazi Oqchaxonqal'a manzilgohi o‘rnida faoliyat yuritgan. Beruniy tumani hududida joylashgan ushbu manzilgoh kvadratsimon shaklda. Umumiy mudofaa devoriga ega bo‘lgan qadimgi shaharning maydoni 50 ga. dan iborat bo‘lib, yuqori va quyi qal'a qismlardan tashkil topgan. Quyi qal'a kvadratsimon shaklli 50 ga. dan iborat joylashishi dunyo tomonlariga mos keladi. Ikki qator (6 metr.) mudofaa devorlariga ega bo‘lgan. Devor mudofaa burjlari, jangavor shinaklar, xandak va “proteyxizm” yoki bermalar bilar kuchaytirilgan.

Quyi qa'aning shimoli-g‘arbiy burchagida kvadrasimon shaklidagi 11 ga. maydonni egallagan yuqori qal'a joylashgan. Yuqori qal'a ham quyi qal'a qurilish usulida barpo etilga alohida mudofaa tizimiga ega bo‘lgan. Bu yerda maxsus tag kursi ustida qurilgan imorat, atrofi alohida mudofaa devori ega bo‘lgan imoratlar joylashgan.

Yodgorlikning quyi qatlamidagi ashyoviy manbaflar so‘nggi arxaik davriga oid bo‘lib, mil.avv. IV asrda shahar milodiy IV asrlarga oid soppollar majmuasi, antropomorf va zoomorf shaklli haykalchalar bo‘lib, budda, ehtimol bodxisatva haykalchalaridan iborat. G‘ishtlarda tamg‘alar uchraydi. Bu yerdan qisman so‘nggi arxaik davri soppollari uchraydi.


Aqshaxonqal'a manzilgohining to‘rt tomonida darvozalar o‘rin olgan. Darvozalar adashtirma devor yo‘l va qo‘shtincha devor bilan mustahkamlangan. Unda “yuz ustunli ibodatxona”, undan janubroqda tomonlari 43x43 metrdan iborat shoh saroyining o‘rnini aniqlangan. Uning devorlariga chizilgan rasmlar orasida shohona kiyim, boshida toji bilan tasvirlangan shaxsnинг tasvirlari, yozuv namunalari ham ahamiyatlidir.

*Qadimgi shaharning quyi qal'a qismi kvadratsimon shaklda dunyo tomonlariga qaratib qurilgan. Qal'a ikki qator (6 m.) mudofaa devor bilan o‘rab olingan. Mudofaa devori burj, shinaklar va xandak bilan kuchaytirilgan. Devor bilan xandak o‘rtasida “proteyxizm” yoki “berma” qoldirilgan.*

Quyi qa'aning shimoli-g‘arbiy chekkasida kvadrasimon shaklidagi 11 ga.

maydonda yuqori qal'a joylashgan. Yuqori qal'a ham quyi qal'adagi usulda qurilgan alohida mudofaa devori bilan o'rabi olingan. Uning ichkarisida ikkita qurilish imorati joylashgan. Ulardan biri maxsus tag kursi ustida qurilgan, ikkinchisi esa atrofi mudofaa devori bilan o'rabi olingan inshooldan iborat.

Yodgorlikning quyi qatlamida aniqlangan topilmalarining kamchiligi so'nggi arxaik davriga, ko'pchilik qismi antik davriga oid. Topilmalar sopol buyumlari, antropomorf va zoomorf shaklli haykalchalar, xususan, budda, ehtimol bodxisatva haykalchasi va boshqa buyumlarni tashkil etadi. Imoratlarini qurishda ishlatalgan g'ishtlarning sirtida turli xil belgilarni chizilgan.



Ko‘hna shaharning to‘rt tomonida darvozalar mavjud. Darvozalar qo‘shimcha devor bilan mustahkamlangan. Uning ichkarisida “yuz ustundi ibodatxona”, undan janubroqda shoh saroyi (tomonlari 43x43 m.) joylashgan. Saroyning devorida suratlар galareyasi o‘rin olgan. Chizilgan rasmlar orasida shohona kiyimi va boshida toji bilan o‘ng tomonga qarab turgan kishining tasviri alohida ahamiyatga egadir. Oqchaxonqa‘l a Qadimgi Xorazmning boshqa manzilgohlaridan tashqi tuzilishi va ichki tuzilmasi murakkabligiga ko‘ra ancha farq qiladi. Oqchaxongal’ning mahobatli saroy va ibodatxonasi o‘xshagan imoratlar antik davriga oid boshqa manzilgohlarda uchramaydi. Tadqiqotchi mutaxassis olimlar Xorazmning antik davri poytaxtiga asosiy da‘vogar manzilgoh ekanligini e’tirof etishgan. Mil. avv. IV asrning boshida Xorazm ahamoniylar davlatidan ajralgandan so‘ng mamlakat poytaxtiga aylangan.

Amudaryoning o‘ng schiliida joylashgan Tuproqqa‘l a manzilgohi antik davrining rivojlangan bosqichiga oid. Manzilgohdan saroy ibodatxonalar va uyjoy imoratlarining o‘rnii ochib o‘rganilgan. Loydan yasalgan haykalchalar, xususan xorazmshohlar va ularning ajdodlari tasviri tushirib ishlengan haykalchalar va devorlardagi rang-tasvir namunalari Xorazmning qadimgi davr boy san‘at namunalaridan dacak beradi. Bu yerda sopoqlar sirtiga bitilgan yozuv namunalarini bir tomonдан qadimgi Xorazm yozuvini ikkinchi tomondan esa xo‘jalik xususiyatlarini o‘rganishdagi muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Quroq yarog‘ yasash ustaxonasi esa davlatning kuchli harbiy qudratga ega ekanligidan dalolat.

Tuproqqa‘l a manzilgohi Qadimgi Xorazmning antik davri poytaxti bo‘lganligi to‘g‘risidagi qarash mavjud edi. Oqchaxonqa‘l a manzilgohi tuzilishi va shaharsozlik xususiyatiga ko‘ra mamlakat poytaxti maqomiga davogarlik qilsa, Tuproqqa‘l a uning yaqinida joylashgan hukumder qarorgohi bo‘lishi mumkin.

Xorazmda I-IV asrlarda juda katta qurilish ishlar amalga oshirilgan. Mamlakatda davlat hokimiyyati qudratining kuchayishi natijasida yangi

istehkomlar qurilib, eskilarida ta'mirlash ishlari olib boriladi. Ayrim qal'alarning mudofaa devori ta'mirlangan, boshqa bir qal'alarning eski devori o'rnida yangisi barpo etiladi. Hazorasp, Devkesgan, Xivadagi Tuprokqal'a va boshka ayrim qal'alarning mudofaa devorlari qaytadan qurilgan. Bu davrda qal'alarning tarhi kanguylar davridagi holatida saqlangan, ularning umumiy manzarasi keskin o'zgartirilgan. Xususan, mudofaa devorlarining tag devorlari baland ko'tarilib, asosiy devor tik ko'tarilgan holda qurilgan.

Ayrim qal'alarning mudofaa devorini ta'mirlash bilan birgalikda, eski devorlar buzib tashlanib, yangi devorlar barpo etiladi. Hazorasp, Devkesgan, Xivadagi Tuprokqal'a va boshka ayrim qal'alarning mudofaa devorlari o'rnida yangisi barpo etilgan. Bu davrda qal'alarning umumiy tarhi kanguylar davridagi holati qoldirilib, ularning umumiy manzarasini keskin o'zgarib yuborgan. Xususan, mudofaa devorlarining tagdevorlari baland ko'tarilib, asosiy devori tik qurila boshlandi.

Bu davrda Xorazm me'morchiligidagi aylana shaklda qal'alar barpo etish an'anasi e'tibor pasayib ketadi. Aylana shakldagi qudratli devoriga ega bo'lgan qal'alar o'zining I-III asrlarda mudofaa vazifasidan voz kechganligi kuzatiladi.

Qadimgi savdo yo'llarida mustahkam mudofaa tizimiga ega bo'lgan Kaparas, Qal'aijq, Ko'nauaz va boshqa qal'a-shaharlar qurilgan. Qal'a-shaharlar ma'lum bir sug'orish tarmog'i atrofidagi o'troq dehqonchilik qishloqlarining o'rtasida joylashgan bo'lib, ular mazkur hududning ma'muriy markazi va harbiy istehkom vazifasini bajargan.

Jamoat inshootlari, shu jumladan mahalliy aholining qadimgi diniy



*Bild: Aus der Sammlung des Museums für Islamische Kunst Berlin*

qarashlar bilan bog'liq ibodatxonalar Qo'yqirilganqal'a, Qal'aliqir 2, Shovot Tuproqqa'si, yelxaras, Gyaurqal'a kabi yodgorliklarda o'z aksini topgan.

Qo'yqirilganqal'a yodgorligida doira shaklli minorasimon me'moriy inshoot (diametri 42 m.) joylashgan. Inshootning atrofi 9 ta to'g'ri to'rt burchak burj bilan kuchaytirilgan mudosaa devori bilan o'rab olingan. Devor qoldiqlari 8 m. balandlikda saqlanib qolgan. Inshoot mil. avv. IV-milodiy 1 asrlarga oid bo'lib, *ibodatxona-ohsabratoriya* vazifasini bajargan.

Ibodatxonaning asosiy zallarida mahalliy ma'budalarning haykalchasi topilgan. Topilmalar orasida haykal shaklidagi ossuariylar va soppollar sirtiga bitilgan yozuv namunalari muhim o'ringa ega. Sopollardagi yozuv namunalari ibodatxona xo'jalik hisobini yuritish bilan bog'liq. Majmua xonalarining birida yirik xumlar joylashgan. Ular ibodatxona majmuasining xo'jalik qismi hisoblangan.

Xorazm aholisi dehqonchilik xo'jaligini rivojlantirib, sug'orish tizimini muntazam takomillashtirib borganlar. Dehqonchilikda bug'doy, arpa, tariq va poliz ekinlari ekilgan. Bog'dorchilik, xususan, uzumchilik yaxshi rivojlangan. Sug'orma dehqonchilik yuritadigan hududlarda dehqon jamoasi ko'proq qoramol boqishgan. Sariqamish atrofi hududida yashovchi aholi xo'jaligida qoramol va yilqichilik rivojlangan. To'qimachilikda paxta, jun va ipak tolalaridan turli maiolar, gazlama, gilamlar, chodirlar to'qilgan hamda kigiz bosilgan.

Xorazniliklarning g'oyaviy hayotida antik davri zardushtiylik diniy e'tiqodlari saqlanib qoladi. Marhumlarning suyaklari solingan ostadon qabristonlar aniqlangan. Turli xil shaklga ega ostadonlar topilgan.

Qadimgi Xorazm sopollari asosan kulolchilik charxi va qisman qo'lda yasalgan. Sopollarning sirtiga asosan oqish, qizg'ish, qizg'ish-jigar rangli angeb surtilgan. Ayrim sopollarning sirtiga naqshlar chizilgan. Sopol buyumlari xum, xumcha, kosa, ko'zalar, mustaxara, oshxona idishlarida ibrat. Loydan yasalgan kam sonli ritonlar topib o'rjanilgan. Xumbuztepa Qal'aliqir, Qo'yqirilganqal'a

yodgorliklarida ritonlarning ot va afsanoviy hayvon boshli tasviri tushirilgan namunaлari topib o'рганилган.

O'rta Osiyoning o'ziga xos tarixiy o'lkalaridan biri sanalgan Xorazm antik davrida o'ziga xos madaniyat an'anasi va xo'jalik xususiyatiiga ega bo'lgan o'lka hisoblanadi. Xorazmning antik davri iqtisodiy va madaniy taraqqiyotida o'lkanning unumdon tuprog'i va turli xil menerallarga boy Amudaryo suvi muhim o'srin tutgen. O'lkanning iqtisodiy salohiyati antik davri urbanizatsiyasi jadallahishining muhim omil hisoblangan.

#### **Muvzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:**

1. O'rta Osiyoda antik davri etno-madaniy jarayonlari haqida ma'lumot bering?
2. O'rta Osiyoda ellen madaniyatining xususiyatlarini yoritib bering?
3. O'rta Osiyoda hind madaniyatining xususiyatlarini bayon qiling?
4. O'rta Osiyoda antik davrida qanday madaniy yutuqlarga erishilgan?
5. O'rta Osiyoning antik davri ijtimoiy-iqtisodiy hayotida qanday o'zgarishlar sodir bo'lgan?
6. Xorazmning antik davri jamiyat taraqqiyoti xususiyatini izohlang?
7. Qoyunchi madaniyatini tafsiflang?
8. O'rta Osiyoning antik davri shaharsozlik xususiyatlarini bayon qiling?

## **IV. Bo'lim**

### **O'RTA ASRLAR**

#### **I. Bob. ilk o'rta asrlar davri**

*Kalit so'zlar: mulklik, davlatlar, mulkiy munosabat, yer egaligi, hunarmandchilik, ishlab chiqarish.*

*O'rta Osiyoning ilk o'rta asrlar davri umumiy tavsifi.* O'rta Osiyo hududida ilk o'rta asrlarda ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va siyosiy hayotida muhim o'zgarishlar sodir bo'ladi. Antik davrining yirik imperiyalaridan biri bo'lgan kushonlar davlati ichki ziddiyatlar va sosoniylarning bosib olishishi natijasida inqiroziga uchraydi. Shimoliy o'lkalarni o'z ta'sirida ushlab turgan Kanguy imperiyasiining kudratini susayib, tarkibidagi mulkliklar o'rniда mahalliy davlatlar qaror topadi.

Umuman III-V asrlarda O'rta Osiyo hududida uzuksiz davom etgan siyosiy inqirozlar va taboro kuchayib borayotgan yer egaligi munosabatlari mintaqada feodal tarqoqlik jarayoni kuchaytirib yuboragan edi. Alovida mulkliklarining mustaqil boshqarish yo'lidagi harakati kichik davlatlarning vujudga kelishiga olib keladi. O'rta asr yozma manbalarida O'rta Osiyo hududida V-VI asrning boshida 15 ta, VI asr o'rta asrning esa 21 ta mustaqil siyosat yuritgan kichik davlatlar faoliyat yuritganligi qayd qilingan.

O'rta Osiyoning o'troq dehqonchilik vohalariiga birinchi ming yillikning boshida ko'chmanchi chorvador qabilalarining kirib kelishi (kidariylar, xioniylar, eftaliylar) o'lkanning iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga o'zinining salbiy ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi.

Inqiroz holati jamiyatning asosiy bo'g'ini hosoblangan shahar markazlari taraqqiyotida yaqqol namoyon bo'ladi. Mintaqadagi ayrim shahar markazlariда hayot butunlay to'xtagan bo'lsa, boshqa bir yirik markazlarning faoliyatini susayib, hududi qisqarib ketadi. Bunday holatni yirik shaharlar (Marv, Afrosiyob, Qanqa va boshqa larda) misolida kuzatish mumkin.

V asming o'rtajarida o'lkada sosoniylar davlati hukmronligiga barham herib, O'rta Osiyoning janubiy yerlarini, Afg'oniston, Shimoliy Hindiston va Sharqiy Turkistonning bir qismini o'ziga bo'y sundirgan Eftalitlar davlati mintaqaning siyosiy hayotida katta iz qoldirgan. Eftalitlar davrida mintaqada markazlashgan davlatning qaror topishi natijasida ma'lum siyosiy barqarorlikning vujudga kelishi jamiyat taraqqiyotiga ijebiy ta'sir qiladi. Bu jarayon ayniqsa Turk hoqonligi davrida ko'proq namoyen bo'ladi. Hoqonlik davrida Uzoq Sharqdan Vizantiyagacha bo'lgan katta bududda siyosiy inqiroz hukm surgan davrida to'xtab qolgan tashqi savdo aloqalari qayta tiklandi. Buyuk Ipak yo'lidagi xalqaro savdoning nazorati turk hukmdorlari tasarrufiga o'tgandan keyin tashqi savde munosabati barqarorlashadi. Ilk o'rta asrda Buyuk Ipak yo'lida olib borilgan xalqaro savdo so'g'dlik savdogarlari asosiy o'rinnutgan. So'g'dlik savdogarlar yettisuv va Xitoyda ko'plab savdo faktoriyalariga ega bo'lar.

Xalqaro savdo munosabatlarining kuchayishi o'z navbatida hunarmandchilik ishlab chiqarish taraqqiyotining yanada yuksalishiga tutki bo'ladi. Yirik shahar markazlarida ixtisoslashgan hunarmandchilik ishlab chiqarish jamlanib, ularning savdo-iqtisodiy salohiyati yanada o'sadi. Hunarmandchilik taraqqiyoti tog'-kon ishlarining jadallahishi, metallar qazib olish ko'laming kengayishiga olib keladi. O'rta Osiyoning barcha tog'-kon ishlab chiqarish tumanlarida foydali qazilmalarni o'zlashtirish ishlari jadallahadi. Ayniqsa, bu sohada Choch-Iloq konlari yetakchi o'rinni egallagan. Agar ilk o'rta asrning dastlabki bosqichlarida metallurgiya ishlab chiqarishi kon qazib olinadigan hududlar yaqinida to'piangan bo'lsa, keyingi bosqichlarida yirik shahar markazlarida rivojlangan.

Ilk o'rta asrlar davri yer egaligining chuqurlashib borishi jamiyat hayotidagi ijobjiy o'zgarishlarning muhim omili edi. Bu birinchi navbatda aholi yashaydigan manzilgohlarning tuzilishi, qurilish shakllari, usullari va boshqa texnologik o'zgarishlarida namoyon bo'ladi.

Bu davrda aholi soni ko'payib, irrigatsiya tizimining takomillashishi ekin maydonlari kengayib, yangi yerlarning o'zlashtirilishiga olib keigan. O'rta Osiyoning o'troq dehqonchilik vohalaridagi tog'oldi hududi ham o'zlashtirila boshlangan. Qishloq xo'jaligi o'z taraqqiyotining yuqori darajasiga chiqadi. Bog'dorchilik xo'jaligi ham rivojlanadi.

Yer egaligi munosabatlarining chuqurlashuvi va aholi sonining ko'payib borishi aholi manzilgohlari manzarasini keskin o'zgartirib yuborgan. Dehqon jamoasining oddiy qishloqlaridan tortib, bir qismi mustahkam mudofaa devori bilan muhofaza qilingan qishloqlar, saroylar, qasrlar, qo'rg'onlar, qo'rg'onchalar va ko'shklar barpo etila boshlaydi. Bunday aholi manzillarining maxsus 3-5 m. tag kursi ustida joylashgan qismi mustahkam mudofaa devori bilan muhofaza qilinib, burjlar va shinaklar bilan kuchaytirilgan.

Yirik yer egalari tomonidan o'zlashtirilgan ekin dalalarining yuqorisida sug'orish inshootini nazorat qilib turish uchun mo'ljallangan qo'rg'on va qasrlar barpo etila boshlaydi. Yozma manbalarda o'troq dehqonchilik vohalarida, ayniqsa, yirik shaharlarning atrofida bir necha yuzlab shunday aholi manzillari bo'lganligi to'g'risida ma'murat keltirilgan.

Mulkiy munosabat sohasida ro'y bergan o'zgarishlar moddiy madaniyatga ham ta'sirini o'tkazib, muhim ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Bu holat qurilish va me'morilikda ko'proq namoyon bo'ladi. O'zgarishlar imoratlarning qurilish usuli, ayrim me'moriy yechimlarida namayon bo'ladi. Kichik xonalar va tor yo'lakchasifat xonalarning temini yopishda gumbaz usuli keng qo'llanila boshlaydi. Bu usulidan eshilning yuqori qismini birlashtirishda ham foydalaniлади. Imoratlarni qurishda xom g'ishtdan keng foydalaniлган. Pishgan g'ishtdan faqat xonalarning poliga yotqizishda foydalaniлган.

Mahobatli imoratlar, davlatmand kishilarning uy-joyining devorlarini dunyoviy, diniy va afsonaviy mazmunga ega rang-tasvir lavhalari, ganch va yog'och o'ymakorlik bezaklari bilan jihozlash ommayivylashadi. Xonalarning ustunlari va ravoglarni turli geometrik naqshlar, o'simlik va ularning mevasining

shaklini tushirish usuli ko'payadi. Shuningdek, ganchkorlikda o'simliklar va ularning mevasi, baliq, qushlar shakli tushirilgan.

O'rta Osiyoning VIII asr tarixi arablarning o'lkani istilo qilishi va mahalliy aholining ularga qarshi harakatlaridan iborat. Arablarning bosqinchilik harakatlari mahalliy madaniyat an'analarining inqiroziga va ma'lum muddatli susayishga sabab bo'ladi. O'rta Osiyoning keyingi davr madaniyat taraqqiyoti islam dini maskurasi asosida rivojlanadi.

*Shimoliy Xuroson.* Janubiy Turkmaniston hududi ilk o'rta asrlar davrida Eron sosoniylariga bo'ysungan, VII asr o'rtalarida Arab xalifaligi tarkibiga kirgan. Sosoniylar davlati harbiy-ma'muriy jihatdan to'rtta hududdan iborat bo'lgan. Ulardan biri Xuroson hududiga hozirgi Eronning shimoli-g'arbiy qisimi va Janubiy Turkmaniston yerlari kirgan. Shimoliy Xurosonni tashkil etgan Janubiy Turkmaniston Marv, Marvrud, Badgis va Saraxs viloyatlari joylashgan. Kopetdagning g'arbiy chekkasidagi Gurgan vohasi Xuroson tarkibida bo'lganligi to'g'risida aniq fikr bildirish qiyin.

Shimoliy Xurosonning ilk o'rta asrlar davri yodgorliklari shahar markazlari, dehqonchilik qishloqlari, yer egalarining ixcham qasrlari, uy-qo'rg'onlari va diniy inshootlardan iborat. Yirik shahar markazlaridan Ko'hna Marv, Saraxs, Hisrovqal'a shaharlari va Durnali, Chongli va Uli Kishman kabi shahar turidagi manzilgohlar faoliyat yuritgan.

Axreologik ma'lumotlarga qaraganda sosoniyalar hukmronligi davrida Gyaurqal'a inqirozga uchrab, ba'zi joylari tashlandiq holiga kelib qoladi va shaharlarda aholi soni kamayib ketadi. Parsiya davrida barpo etilgan mudofaa devorida ta'mirlash ishlari olib borilib, VII asrda inqiroz bartaraf etilgan. Shaharda obodonchilik ishlari olib borilib aholi uy-joy imoratlari ko'payadi va hunarmand kulollar mahallasi paydo bo'ladi.

Shahar to'rt tomonida kirish darvozaga ega bo'lgan. Shahar arkisi Erkqal'aga shahristondan maxsus ko'tarma yo'lakcha-pandus orqali kirilgan. Arkda arablar bosqinigacha faoliyat yuritgan qal'a-saroy, arsenal va zindon va

boshqa imoratlarning o'rni aniqlangan. Shahar mudofaa devorining tashqarisida joylashgan qal'a-qo'rg'oni shaklidagi imoratning o'rni Marv hukmdorining qarargohi bo'lishi mumkin.

Arab xalitaligining O'rta Osiyoning markaziy viloyatlariga amalga oshirgan harbiy harakatlari bevosita Marv shahridan boshlangan. Murg'ob vohasi xalifalik tarkibiga kiritilgandan so'ng Marv shahri xalifalik noibining ma'muriy markazi aylanadi.

Marv vohasida antik davrida shakllangan Durnali, Chongli va Uli Kishman yodgorliklari o'rniда shaharlar faoliyat yuritgan. Ular vohaning hunarmandchilik, savdo va madaniyat tariqqiy etgan muhim markazlari edi. Saraxs vohasida shu nomdagi shahar, Kopetdog' oldi hududida Hisrovqal'a shahri faoliyat yuritgan. Ushbu shaharlar ikki qismidan iborat bo'lgan. Ular Parsiya davrida paydo bo'lib, ilk o'rta asrda yanada rivojlangan.

Shimoliy Xuroson aholisining asosiy mashq'uloti dehqonchilik bo'lgan. O'troq dehqonchilik vohalarida sug'orma dehqonchilik va tog' oldi hududida falmi dehqonchiligi rivojlangan. Irrigatsiya sohasida suv manbaining tanqisligi sababli kichik suv omborlaridan foydalilanilgan. Suv omborining o'rni Marv vohasi va Kopetdag oldi hududida saqlanib qolgan. Dehqonchilikda asosan dukkakli ekinlar: bug'doy, arpa, jo'xori, no'xat, loviya, mosh va poliz ekinlari ekilgan. Kunjut va zig'ir kabi yog' o'simliklari yetishtirilgan. Texnik ekinlardan paxta va kanop ekilgan. Bog'dorchilik yaxshi rivojlangan.

Hunarmandchilik ishlab chiqarishining kulolchilik, metallarga ishlov berish, zargarlik, to'qimachilik, suyakka va toshga ishlov berish kabi sohalari rivojlangan. Ilk o'rta asrlarning barcha bosqichiga oid sopol buyumlari yaxshi o'rganilgan. Gyaурqal'adan 10 dan ortiq aylana shaklli ikki xonali xumdonlar aniqlangan. Dastlabki bosqichga oid sopollarining sifati ancha past bo'lgan, ular yaxshi pishirilmagan. Sopol buyumlar asosan noksimon, tuxumsimon, sharsimon shaklli tor va keng bo'g'izli ko'zalar hamda chuqr likopchalardan iborat. V-VII asrlarda sopol buyumlarining sifati oshadi. Sopollar obdon

tindirilgan loydan yasalgan va yuqori haroratda pishirilgan. Ular ko'zalar, vazalar hamda tuvaksimon shalli chuqur idishlardan iborat bo'lib, sirtiga ko'kintir va och sariq angob surtilgan.

Marvning ilk o'rta asrlar davri amaliy san'ati koroplastikaning ahamiyati yuqori bo'lgan. Koroplastika san'atida ayol ma'budasining haykalchasini yasash muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Haykalchalar qolipda yasalgan. Ilk o'rta asrning boshida antik davrida urf bo'lgan ayol ma'budasining bir turi - "*ona-ma'buda*" bosh kiyimi va qo'llarida oyna ushlab turgan holatda tasvirlangan. Boshqa bir turdag'i "*qiz-ma'buda*"sining haykalchalari bosh kiyimsiz, sodda ishlangan.


VI-VII asrlarda koroplastika san'ati o'zining ahamiyatini yo'qota boshlaydi. Uning o'rmini qo'lda sodda qilib yasalgan antropomorf, xususan, erkak, otliq va ot tasviridan iborat haykalchalar egallagan. Ot tasvirlangan haykalchasing sirtiga osmon jismlari: quyosh, oy va xoch belgilari tushirilgan. Bunday tasvirlar o'rta asrlar davri aholisining koinot to'g'risidagi dunyoqarash tushunchalari aks ettirgan. VI-VII asrlarda davri zoomorf, antropomorf, o'simlik va yozuvlar tushirilgan bullalar keng tarqalgan.

Shimoliy Xurosonning ilk o'rta asrga oid yodgorliklariida buddaviylik, zardushtiylik va xristianlik diniga oid ibodatxonalar o'rganilgan. Bu arablar istilosigacha aholi o'tasida bir nechta dirlarga e'tiqod qilganligidan dalolat beradi. Hatto, Marv ilk o'rta asrda manixeylik diniy ta'lilotining markazi bo'lgan.

**So'g'd.** O'rta asr xitoy yozma manbalarida So'g'dning chegarasi Chu daryosidan Boysun tog' tizmalarigacha yerlarni egallagani va o'lkadagi 8 ta mulklik to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. So'g'd hududi antik davridagi kabi ilk o'rta asrda Shimoliy So'g'd (Samarqand), Janubiy So'g'd (Qashqadaryo) va G'arbiy So'g'd (Buxoro) qismlarga ajratish mumkin.

**Shimoliy So'g'd.** Shimoliy So'g'd hududi Zarafshon daryosining yuqori oqimi, ya'ni Samarqand viloyati va Tojikiston Respublikasi Panjikent tumani

hududi kiradi. Zarafshonning yuqori oqimida ilk o'rta asrlar davriga xos barcha turdag'i arxeologiya yodgorliklari mavjud. Ko'hna shahar xarobalari nisbatan yaxshi o'rganilgan yodgorliklardir. O'lkada ilk o'rta asrlar davrida o'sizdan ortiq shahar va shaharchalar faoliyat yuritgan. Ulardan Afrosiyob va Panjikent ko'hna shaharlari yaxshi o'rganilgan.



Afrosiyob Samarqandning ilk o'rta asrlar davri eng yirik shahar markazi. V-VI asrlarda shaharning maydoni  $75 \text{ ga.}$  ga qisqarib, ikki qator mudofaa devori bilan o'trah olinadi. VII asrga kelib shaharning antik davridagi qudrati qayta tiklanadi. Arablar istilosi davrida mahalliy aholi shaharning tashqarisiga ommaviy chiqarib yuborilib, shahar hayotida turg'unlik jarayoni kechadi.

VIII asrning ikkinchi yarmida aholining qaytib kelishi shaharning yanada



Chag valyfus-sidabari

o'sishiga olib keladi. Bu darda Samarqand to'rt qism: ark, ichki, tashqi shahar va rabodlardan tashkil topib, hududi antik davridagiga nisbatan bir necha barobariga kengayadi.

Zarafshon daryosining yuqori oqimi hududida Ko'hna Panjikent shahri xarobalari saqlanib qolgan. Manzilgoh ark, shahriston, shahar atrofi qismlaridan


iborat. Shahar arki o'rnida imoratlar qurilib, V asrda atrofi mudofaa devori bilan o'rab olingan. V asr oxiri-VI asr boshida shahar maydoni kengayib, yangi mudofaa devori barpo ettigan va umumiyligi maydoni 13,5 ga. yetagan.

Shaharning arkida sun'iy qurilgan tepalik ustida mahalliy hukmdorning hashamatli saroy majmuasi joylashgan. Saroy xonalari mazmunan boy rang-tasvir va yog'och o'ymakorlik naqshlari bilan bezatilgan. Arkdan chuqur jarlik bilan ajralib turgan shahriston qismida zinch joylashgan uy-joy imoratlarining asosiy ko'pchilik qismi shaharlik zodagonlarga tegishli bo'lган. Yog'och ustunlarga asoslangan keng ko'lamlı xonalar devorlari diniy va dunyoviy mazmundagi rang-tasvirlar bilan bezatilgan. Uylardan birining devorlarini bezab turgan tasvirlar orasida birinchi qatordagi so'g'dlik zadagonlarning kundalik

hayotidan lavhalar, jang tasvirlari, bazm ko'rinishlari, ikkinchi qatorda esa otliq askarnaing ajdar o'tasidagi kurash tasviri diqqatiga sazavor bo'lib, xalqimizning botir qahramonlari to'g'risidagi rivoyatlar bilan bog'liq tasvirlar bo'lishi mumkin.

Shahar ichkarisida ikkita ibodatxonalar majmuasi joylashgan bo'lib, ularning har biri






ichki va tashqi hovlidan tashkil topgan. Asosiy ibodat majmuasi ichki hovlida baland tag kursi ustida barpo etilgan. Ibodatxona odatda uch tomondan aylana tor yo'lakcha bo'lgan. Ibodatxonalar birining g'arbiy devorida haykalcha turishi uchun mo'ljallangan tokcha qoldirilgan. Ibodatxonada muqaddas olov doimiy yonib turgan. Ibodatxona devorlarini bezab turgan rang-tasvirlarning ko'plab namunalari aniqlangan. Ulardan afsonaviy va diniy mazmundagi xudolar, donatorlar, bazm marosimi va boshqa jarayonlar zo't mahorat bilan ishlangan.

O'rta asrlar davri hunarmandchilik ishlab chiqarishi va uning savdosi bilan hunarmandlarning o'zları shug'ullanishgan. Ko'chalar bo'ylab joylashgan kichik hunarmandchilik ustaxonalarda tayyorlangan mahsulotlari tashqarida bostirma ayvonlarida hunarmandlar tomonidan sotilgan. Bu yerdan temirchilar, zargarlar, shishasez va kulollar ustaxonalari aniqlangan. Hunarmandlar mahallasidan temirchilar, bronza ishlov berish va zargarlik ustxonalari aniqlangan. Shahar tashqarisida shaharlarning qabristoni joylashgan. U yerda e'rin olgan nauslarda ossuariylar aniqlangan. Ossuariylarda zardushtiyalar e'tiqodi bo'yicha dasn marosimlari bilan bog'liq bo'rtma tasvirlar aks ettirilgan. Panjikent shahri So'g'dning ilk o'rta asrlar davridagi yirik savdo-ishlab chiqarish va madaniyat markazlaridan biri bo'lgan.


**G'arbiy So'g'd (Buxoro).**  
So'g'dning g'arbiy qismida ilk o'rta



asrlar oid Buxoro, Poykent, Varaxsha va boshqa shahrlar rivojlangan. Ularning eng yirigi Buxoro shahrining maydoni 34 ga. ni (shundan 3,5 ga. ark) tashkil etgan. Shaharning mazkur davridan madaniy qatlamlari keyingi davr imoratlari tagida qolib ketgantligi sababli yaxshi o'rganilmagan.

Ko'hma Poykent Buxoroning ilk o'rta asrlar davri shahar markazlaridan biri. Poykent o'rnida mil. avv. III asrda aholi manzilgohi shakllanib, V asrda 13 ga. maydon egallagan joy mudofaa devori bilan o'rab olinib, shahriston qismi paydo bo'ladi. V asr oxiri-VI asr boshida shahar hududi kengayib, 20 ga. maydonni egallagan ikkinchi shahriston vujudga keladi. Poykent o'rta asr yozma manbalarida savdogarlar shahri sifatida tilga olingan.

Buxorodan 30 km. shimoli-g'arbda bo'lgan Varaxsha shahri tarixchi Narshaxiyning ma'lumotlariga ko'ra buxorxudotlarning qarorgohi bo'lgan. Me'moriy rejaviy tuzilishiga ko'ra uchburchak shaklidagi manzilgoh (may. 6,5 ga.) ashyoviy dalillarga ko'ra IV asrdan shahar tusini olgan. Arkdag'i imoratlari va mudofaa devorini ta'mirlash ishlari shu davrda olib borilib, Buxoro hukmdorlarining qarorgoh shahriga aylantiriladi.



Shaharda V asrda qayta ta'mirlash ishlari olib borilib, uning ark qismida ikkita yirik saroy majmuasi, ibodatxona va xe'jalik imoratlari barpo etiladi. Katta-kichik xonalardan tashkil topgan saroy majmuasi kishi diqqatini o'ziga jaib qiladi. Uning ayrim hashamatli xonalari mazmunan boy devoriy rang-tasvirlar bilan bilan bezatilgan. Ular diniy va afsonaviy mazmunga ega bo'lgan tasvirlardan iborat.

*Janubiy So'g'd*. Janubiy So'g'dning ilk o'rta asrlar davriga oid yozma manba ma'lumotlarida (fors, xitoy va arab) Kesh vohasidagi ayrim shahrlar

to'g'risida kam sonli ma'lumetlar saqlangan. Shopur I tuzdirgan mamlakatlar ro'yxatida Kas shahri tilga olinib, tadqiqotchilar tomonidan Kesh bilan qiyoslangan. Xitoy manbasi Shiy (*Beyshi*), Kyuy-sha yoki Kye-shuan (*Tanshu*) Kesh o'ikasi bilan qiyoslangan. Kesh shahri ilk o'rta aslarning dastlabki bosqichida hozirgi Kitob shahridagi Qalandartepa manzilgobida antik davri o'rniда faoliyat yuritgan. Keyingi bosqichda shahar g'arbga, hozirgi paytda "Qo'rg'on", deb ataladigan joyga ko'chiriladi.

Kesh vohada Chimko'rg'ontepa (40 ga), Kishmishtepa va Kamaytepa manzilgohlari o'ikating maqomini jihatdan poytaxtdan keyingi o'rinni egallagan shaharlar sanalgan.

*Naxshab vohasi*. Naxshab vohasi antik davridagi kabi Qashqadaryoning o'rta oqimi hududidagi yerlarni egallagan. Ilk o'rta asrlar davrida sug'orma dehqonchiilik yanada rivojlanib, yangi yerlar o'zlashtiriladi. Natijada o'troq dehqonchilik manzilgohlarining soni yanada ko'payadi. Ulardan shahar xarobalari muhim o'rin tutib, ular arxeologik jihatdan nisbatan yaxshi o'rganilgan. Antik davri shahar markazlari o'rniда hayat davom etishi bilan birgalikda yangi joyda shaharlar shakllanadi. Qarshi vohasidagi Naxshab, Kasba, Bazda, Gubdin va boshqa shaharlar to'g'risida o'rta asrlar davri arab va fors manbalarida qisman ma'lumetlar saqlangan.

Arab-fors manbalarida Naxshab, Xitoy manbalarida Nakshebolo nomi bilan qayd qilingan shahar yergo'rg'on manzilgohi o'rniда faoliyat yuritgan. Shahar antik davrida qurilgan uchinchi mudofaa devori ichkarisidagi 150 ga. joyda faoliyat yuritgan. Ko'hna shahar mustahkam mudofaa devori bilan o'rab olingan bo'lib, vohadagi yirik iqtisodiy va madaniy markazlardan biri bo'lgan. Manzilgehdan mahalliy hukmdorlarning saroyi, aholining turli tabaqasi vakillariga tegishli uy-joy imoratlari, ishlab chiqarish inshootlari, zardushtiylarning diniy inshootlari, xususan, daxma, ibodatxona va ixtisoslashgan ishlab chiqarish inshootlari joylashgan. VII asrning ikkinchi yarmida Turk hoqenligi va sosoziylarning qo'shma qo'shinlarining estalitlar

o'rtasida jangda shahar vayron etilib, hayot batamom to'xtaydi.

Shahar yerqo'rg'ondan taxminan 2 km. janubi-sharqda hozirgi Shulluktepa manzilgoh o'tniga ko'chib o'tgan. Shulluktepaning umumiyl maydoni taxminan 250 ga. maydonni egallagan. Manzilgeh baland ark, shahriston va rabod qismlardan tashkil topgan. Shahriston qismi arxeologik jihatdan yaxshi o'rGANILMAGEN. Mikrorelyefiga ko'ra shahristonda uy-joy imoratlari tig'is joylashgan. Shahriston ark va rabot qismlarida xandaklar bilan ajralib turadi.

Rabot qisrnida misgarlar, temirchilar, kulollar, shishasozlik ishlab chiqarish izlari saqlangan. Shulluktepa manzilgohi Qarshi vohasining ilk o'rta asrlar davri ma'muriy, savdo-ishlab chiqarish va madaniy markazi hisoblangan.

Shulluktepedan 30 km. Kasba, Bazda esa 40 km. janubiy-g'arb tomonda joylashgan. Ular taxminan milodning boshlarida shakllanib, ilk o'rta asrlar davrida vohaning iqtisodiy-madaniy markazlariga aylanadi. Kasba shahrining o'rnai hozirda 2 ga. maydoni Kasbitepa yodgorligi o'mida bo'lganligi taxmin qilinadi. Bazda esa, hozirgi Ko'hna Fazli yodgorligi o'rnidagi bo'lgan. Shahar ark (1.5 ga), shahriston (55 ga.) va rabod qismlaridan iborat. Shahar mo'g'illar istitosiga qadar faoliyat yuritadi.

Shuningdek, vohada Talisortepa (o'rta asrlar davri Gubdin shahri) ilk o'rta asrlar davrida 13 ga. hududni egallagan shahar ark, shahriston qismdan tashkil topgan.

So'g'd aholisining asosiy mashg'uloti qadimdan rivojlanib kelayotgan an'anaviy sug'orma dehqonchilikni tashkil etgan. Sug'orish tizimi yanada takomillashadi. Tog' oldi bududi o'zlashtirilib, ekin maydonlari kengaytiriladi. So'g'dda ilk o'rta asrlar davri hunarmandchilik ishlab chiqarishining barcha tarmoqlari: temirchilik, bronza ishlov berish, zargarlik, kulolchilik, to'qimachilik va boshqa turlari yaxshi rivojlangan. Panjikent, yerqo'rg'on, Shulluktepa va boshqa shahar xarobalari hunarmandchilik ishlab chiqarish inshootlari yoki ularning izlari saqlangan. Ko'chalar bo'ylab joylashgan hunarmandchilik ustaxonalarida tayyorlangan mahsulotlar, tashqaridagi

bostirma ayvonlarida ishlab chiqaruvchilarning o'zları tomonidan sotilgan.

Mug' tog'idiagi qasrdan topilgan so'g'd yozuvida bitilgan hujjatlarda paxta va jun mahsulotlaridan ishlab chiqarilgan matolar hamda ularning turlari to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan. Ko'ncchiik yaxshi rivojitanan. Hujjatlarning asosiy qismi aynan terilarga yozilgan.

So'g'dning IV-VI asrlar davri kuolchilik ishlab chiqarishida alohida hududlar uchun o'ziga xoslik saqlangan bo'lsa, VII asrdan boshlab barcha hududlarda ma'luni standartlarga amal qilina boshlaydi. Bu davrda metall idishlar paydo bo'lib, ularda xo'jalikda keng foydalaniлади.

Ilk o'rta asrlar davriga kelib xalqaro va mahalliy savdo aloqalari nihoyatda rivojlanadi. Buyuk Ipak yo'lli so'g'dliklar savdo sohasida O'rta Osiyoda yetakchilik qilishgan. Ular yettisuv va Xitoyda ko'plab savdo faktoriyalariga ega bo'lishgan. Tan imperiyasi qaydnomalarida keltirilga ma'lumotlarga qaraganda Dunxuan viloyatida joylashgan So'g'd manzillaridagi aholining asosiy qismi samarqandlik bo'lgan.

So'g'dning ilk o'rta asrlar madaniy hayotida tasviriyl san'at muhim o'rinnutadi. Afrosiyob, Panjikent va Varaxsha saroylari, zodogonlar uylari va ibodatxonalarning devorlari dunyoviy, diniy va afsonaviy mazmundagi rang-tasvirlar bilan bezatilgan. Tasvirlarda saroy va kishilarning kundalik hayotidan lavhalar, jang tasvirlari, bazm ko'rinishlari afsonaviy va diniy mazmundagi tasvirlar, xudolar, donatorlar va boshqa lavhalar zo'r mahorat bilan ishlangan.

**Ustrushona.** Turkiston tog' tizmalarining shimoliy qismidagi yerlar o'rta asr yozma (xitoy, arab, fors) manba ma'lumotlarida turli shakklardagi o'ndan ortiq nomlar bilan keltirilgan o'lkaning Ustrushona shaklidagi talaffuzi Mug' tog'idan topilgan so'g'd tilida bitiklarda aniqlangan. Turkiston tog' tizmasidan Nurota tog'iga qadar cho'zilgan hududni ishg'ol etgan yerlar o'rta asrlar davri Ustrushonasiga tegishli bo'lgan. Ilk o'rta asrlar davrida Ustrushona eftalitlar va Turk hoqonligi tarkibida bo'lib, afshinlar tomonidan mustaqil boshqarilgan alohida feodal davlatdan bo'lgan. Yozma manba ma'lumotlarida o'lkaning

o'ndan ortiq katta kichik shaharlar to'g'risidagi xabarlar keltirilgan.

O'lkaning ilk o'rta asrlar davri yodgorliklaridan nisbatan yirigi Tojikiston Respublikasi Se'sx tumanida joylashgan Qal'ai Qahqaha manzilgohi arxeologik jihatani yaxshi o'rganilgan. Bu yodgorlik Shahristonsoyning ikkala sohilida joylashgan uchta tepalikdan (Qal'ai Qahqaha I, II, III) iborat. Uning shahar sifatida shakllanishi VII-VIII asrlarga to'g'ri keladi. Yodgorlikning har bir qismi alohida mudofaa qilingan devorlarga ega. Bu manzilgoh Ustrushonaning o'rta asrlar yozma manbalarida qayd etilgan markaziy shahri Bunjikatga qiyoslangan.

Arxeologik qazishmalar davomida Qal'ai Qahqaha I yodgorligi Bunjikat shahrining o'rta asrlar davridagi arki bo'lib, bir qator ayrim joylarda esa ikki qator mudofaa devori bilan mudofaa qilingan. Bu qismi o'rta asrlar davri arab manbalarida qayd etilgan shaharning ichki madinasi to'g'risida ma'lumotlariga mos keladi. Qal'ai Qahqaha I ning sharqiy tomonidan maxsus tagkursi ustida bino qilingan hukmdorlar saroyi (18x12 m.) oolib o'rganilgan. Shaharning shimoliy devori va burjlari bo'ylab joylashgan ko'cha atrofida asosiy ibodatxona, ma'muriy jamoatchilik, savdo-hunarmandchiilik va uy-joy imoratlari joylashgan. Shaharning ikkinchi darvozasi joylashgan g'arbiy tomonida harbiy mudofaa majmualari joylashgan bo'lib, strategik ahamiyatini hisobga olib bu qismi qo'shimcha mudofaa devori bilan kuchaytirilgan.

Birinchi manzilgohdan janub tomonda joylashgan Qal'ai Qahqaha II bozirgi paytda to'g'ri to'rburchak shaklidagi tepalik 5 ga. hududda saqlanib, alohida mudofaza devori va burjlar bilan muhofalangan tashqi madinani tashkil etgan. Daryoning o'ng tomonida dastlabki ikki yodgorlik qarshisida alohida mudofaa tizimiga ega bo'lgan uchinchi tepalik o'tin olgan. Arxeologik jahatdan bu tepalik mudofaa devorining uch qurilish bosqichi qayd etilib, bu yerda ham bayot shahar bilan bir davrda boshlangan bo'lishi mumkin. Unda aboli uy-joylari, bog'-rog'lari bo'lgan. Bu yodgorliklar o'z davrida Ustrushona vohasining markaziy shahri Bunjikatning ark, shahriston va rabot qismlarini tashkil etgan.

Shaharning arkidagi mahalliy hukmdor saroyida yog'och o'ymakorligidan

keng foydalangan. Uning devorlari g'aroyi tasviri san'at na'munalarini bezab turgan. Devorlarining birida ikkita go'dakni emizayotgan bo'ri tasviri kishi diqqatini o'ziga tortib, Rimdag'i Ramul va va Rem afsonasini eslatadi. Bu lavhani N.N. Negmatov xristianlik mifologiyasi bilan bog'laydi. Shuni unutmaslik kerakki ilk Markaziy asrlar turkiy qavmlarning o'rta Osiyoga ommaviy siljigan davri bo'lib, turkiylar totemida bo'ri yuqori o'rinn egallashini unutmaslik kerak. Boshqa bir kichik xona devorida esa nayzadagi bayroqni ushlab turgan otliq va ikki boshli iblissifat jonzot tasvirlari chizilgan. Shuningdek, saroy xarobalarida uch boshli va to'rt qo'lli haykallar ham uchraysidi. Bular bevosita ustrushonaliklarning dunyoqarashi afsonaviy masifikuranning mujassaniligidan dalolat beradi.

O'ratega, Vagkara, Jizzax, Zomin kabi yangi shaharlari o'lkaning muhim iqtisodiy va madaniy markazlari bo'lgan. O'rategapaning ilk o'rta asrlar davridagi arki hozirgi shaharning shimoli-sharqiy chekkasida, ulkan tabiiy tepalik ustida joylashgan Mug'tepa manzilgohi o'rnida bo'lgan.

Jizzaxning dastlabki o'mi hozirgi shaharning janubi-sharqiy qismida joylashgan antik davrida faoliyat Qaliyatepa manzilgohi o'rnida faoliyat yuritgan. Bu davrida shahar o'lkaning muhim markazlardan biri sanaqgan.

Ustrushonaliklar xo'jaligining asosini sug'orma dehqonchilik va bog'dorchilik tashkil etgan. Shimoliy dasht va tog'oldi hududida esa chorvachilik rivojlangan.

Tasviri san'atning rang-tasvir turiga oid namunalar Qal'ai Qahqaha arkida yaxshi saqlangan. Devorlarining birida ikkita go'dakni emizayotgan bo'ri tasviri Rimdag'i Ramul va Rem afsonasini eslatdi. Bu lavhani arxeolog N.N. Negmatov xristianlik dini afsonasi bilan bog'lagan. Lekin turkiy xalqlari tasavvurida bo'ri totemining muhim alhamiyat egaligini unutmaslik kerak.

Boshqa bir kichik xona devorida nayzadagi bayroqni ushlab turgan otliq va ikki boshli iblissifat jonzot tasvirlari chizilgan. Shuningdek, saroy xarobalarida uch boshli va to'rt qo'lli haykallar ham topilgan. Bu tasvirlar ustrushonaliklar

ongida afsonaviy dunyoqarash mafkurasing ustunligidan dalolat beradi.

**Shimoliy Toxariston.** Toxariston antik davri Baqtriyasi chegarasi doirasidagi shimoliy va janubiy qismlardan tashkil topgan yirik tarixiy-madaniy o‘lka. Toxariston to‘g‘risidagi dastlabki xabar 383 yilga oid Xitoy manbalarida Tuxola deb tilga olinadi. Uning hududi Baqtriya hududi deirasida bo‘lgan. Manbalarda keltirilishicha Toxariston 27 viloyatdan tashkil topgan bo‘lib ulardan 8 tasi Shimoliy Toxaristonda joylashgan. Shimoliy Toxariston hududida ilk o‘rta asrlar davriga oid madaniy qatlamlarga ega bo‘lgan 250 dan ortiq barcha turdagji arxeologik yodgorliklar aniqlanib, ularning ayrimlari yaxshi o‘rganilgan. Nisbatan yashshi o‘rganilgan yodgorliklar ko‘hna shaharlar bo‘lib, ulardan Eski Termiz, Budirach-Chag‘aniyon, O‘zbekontepa, Xosiyattepa, Kofirqal‘a, Xolbuk va boshqalardan iborat 30 ga yaqin shahar turidagi manzilgohlar qayd qilingan. Bundan tashqarqari qal‘a-qo‘rg‘onlar, qasrlar, uy-qo‘rg‘onlar, mudofaa devorning aylanasi 20 /i (8-10 km.) bo‘lganligi va unda 10 ta buddaviylik ibodatxonasi faoliyat yuritganligi keltirilgan.

Shimoliy Toxariston hududidagi shaharlardan Termiz qadimdan yozma manbalarda Tarmita, Tami, Drmat, Tirmiz nomlari bilan tilga olingan. Ko‘hna shaharning o‘rta asrlar davri o‘rnii zamонави shahardan g‘arbda antik davridagi o‘rnida, 10 ga. maydonidagi sun‘iy tepalikda saqlanib qolgan. Xitoy manbalarida shahar mudofaa devorning aylanasi 20 /i (8-10 km.) bo‘lganligi va unda 10 ta buddaviylik ibodatxonasi faoliyat yuritganligi keltirilgan.

Termiz shahrining nisbatan keyingi davr holati to‘g‘risidagi ma’lumotlar arab va fers manbalarida uchraydi. Ularning ma’lumotida shaharning ko‘handiz, madina va rabod qismalaridan iborat bo‘lganligi qayd qilingan.

Ilk o‘rta asrning oxirida shaharning maydoni kengayib, 35 ga. dan iborat birinchi hudud shaharning madina qismini, 175-180 ga. dan iborat ikkinchi hudud esa rabod qismalarini tashkil etgan. Yozma manbalarda shaharning rabod qismida bozor va turli hunarmandchilik mahallalari joylashganligi keltirib o‘tilgan. Rabotda kulollar, shishasozlar va temirechilar ustaxonalarining o‘rnii aniqlangan.

Surxon vohasining ikkinchi yirik shahri Chag'oniyon xitoylik budda dini ziyoratasi Syuan Szyan (630 yillar) ma'lumotida "Chigoyenna" nomi bilan tilga olingan. Uning ma'lumotida shaharning aylanasi *10li.* (4-5km.) va unda 5 ta budda manastri mavjudligi qayd etilgan. Afrosiyob xarobalarida VII asrning oxirlariga oid devoriy suratlarda tasvirlangan elchilar orasida chog'aniyorlik vakil ham bo'lgan.

Chag'oniyon shahri hozirgi Denov shahridan 6 km. janubiy-sharqda Qizilsuvning Surxondaryoga quyilish joyida Ko'hna Budrach o'rniда bo'lgan. Bu yerda joylashgan Oqqabretpa ark, Dunyotepa esa shahriston qismlarini tashkil etgan. Ark qismida kushonlar davridayoq 20 ga. maydonda shahar shakllanadi. Ilk o'rta asrlar davrida shahriston maydoni o'sib, 50 ga. joy mudofaa devori va xandak barpo etiladi. Yodgorlikning ark qismidagi aniqlangan me'moriy inshootlar ilk o'rta asrlar davri Chag'oniyon hukmdorlarining saroyi bo'lgan.

Shimoliy Toxariston kichik mulkliklaridan birining markazi bo'lgan Kattatcpa (Xosiyattepa (may. 20 ga.) yodgorligi ham arxeologik jihatdan o'r ganilgan. Manzilgoh ikki qismdan iborat bo'lib, mudofaa devoriga ega bo'lgan. Devorlar yarim aylana va to'g'ri to'rthurchak burjlar va jangavor shinaklar bilan kuchaytirilgan. Ark qismida mahalliy hukmdorlar ibodatxonasi va dasfinasi joylashgan. Manzilgoh tadqiqotchilar tomonidan keyingi davr arab manbalarida qayd qilingan Kuftan mulkligining markazi Xushvara shahri bilan qiyoslangan.

Tojikistonda Kofirnahr va Vaxsh daryo vohalari hududida shahar shakliga ega bo'lgan manzilgohlaridan biri Kofirqal'a (maydoni 13 ga. ga yaqin) manzilgohi antik davrida shakllangan. Kvadrat shaklga ega bo'lgan manzilgoh devori, xandak, proteyxizm, minora va shinaklardan tashkil topgan mudofaa tizimiga ega bo'lib, markaziy ko'cha shaharni ikkiga ajratib turgan. Shaharga elli davrida asos solingan. Shahar mudofaa devorining ichkarisida aholi turar joy imoratlari joylashgan. Shahar atrofida aholi turar joylari va ishlab chiqarish

inshootlari o'rin olgan. Kofirqal'a Vaxsh vohasining ilk o'rta asrlar davri markaziy shahri hisoblangan.

O'lkanning boshqa bir yodgorliklari Bolaliktepa, Kuyovqo'rg'on, Yumaloqtepa manzilgohlari ilk o'rta asrlar davri davlatmand yer egaslarining ko'shki va qasrining o'mni bo'lgan. Bu yodgorliklarda markaziy o'rinni muhtasham qabulxona va mehmonxonalar egallagan. Mahobatli xonalar dunyoviy mazmunga ega rang-tasvirlar, haykalchalar, yog'och va ganch o'ymakorlik bezaklari kabi san'at namunalari bilan bezatilgan.

Shimoliy Toxariston xo'jaligi dehqonchilik va chorvachilik bo'lgan. Shabarlarda hunarmandchilikning turli sohatari: temirchilik, kulolchilik, shishasozlik, zargarlik, to'qimachilik, ko'ncilik rivojlangan.

Mahalliy tog'lardagi kon zaxiralari hunarmand ustalarini zaruriy xomashyo bilan ta'milagan. Ilk o'rta asrlar davrining keyingi bosqichida Pomir, Hisor tog'tizmalari metall konlarini qazib olish ko'lami kengayadi. Boysun tog'tizmasidagi konlarda metall eritish o'choqiali va ilk o'rta asrlarga oid boshqa moddiy manbalar aniqlangan. Konlardan temir, mis va boshqa metallar qazib olingan.

Xitoy yozma manbalarida xitoyliklar shisha tayyorlashni toxaristonliklardan o'rganishgani keltirilgan. Bolaliktepa va Munchoqtepa (Tojikiston) yodgorliklaridan ko'k va havo rangdagi kichik shisha buyumlari (flakonlar) va qisman xo'jalik buyumlari topib o'rganilgan. VIII asrning oxiridan boshlab shishasozlik O'rta Osiyoning boshqa hududiga ham keng tarqala boshlaydi.

O'lkaning ilk o'rta asrning dastlabki bosqichdagi sopolari antik davridagi kabi nafis shakli va yuqori sifatini saqlab, yanada mukammalashadi. Bu davrdagi sopol buyumlarining sirtiga o'yib chizilgan va yepishtirilgan naqshlar bilan bezash odat tusiga kirgan. Shimoliy o'lkalarga xos qo'sh baldoqli sopolar tarqaladi. Keyingi bosqichda qo'lda yasalgan sopol buyumlar soni nisbatan ko'payib, shakli o'zgarib boradi. VII-VIII asrlarda yanada nafis va sifatl

sopollar yasalgan va ularning sirtiga tushirilgan naqshlar murakkablashgan.

Shimoliy Toxaristonda buddaviylik dini saqlanib qoladi. Syuan Szyan ma'lumotlarida Termiz va Chag'anyon shaharlaridagi bir necha budda ibodatxonasi to'g'risida ma'lumot keltirgan. Eski Termizdagi antik davri buddaviylik ibodatxonalarini faoliyatini davom ettirgan. Shimoliy Toxaristonning ilk o'rta asrlar davri diniy imoratlari qutish usuli Janubiy Tojikistonda joylashgan Kofirqal'a va Ajinatepa ibodatxonalarida o'z aksini topgan. Old tomonida ayvonga tutashgan markaziy xonaning uchta tomonida aylanasi bo'ylab yo'laklar bilan tutashgan. Ibodatxona devorlariga diniy mavzudagi rang-tasvirlar chizilgan, budda haykallari va haykalchalari bilan bezatilgan.

Ajinatepa (100x50 m.) buddaviylik monastr bo'lib, kvadrat shaklldagi ikkita yonma-yon joylashgan hovli majmuasidan tashkil topgan. Imorat aylanma yo'lakcha, asosiy zal, toat-ibodat va yashash xonalaridan tarkib topgan. Ulardan birining hovlisida stupa va yo'lakchalaridan birida esa 12 m. balandlikdagi budda haykali aniqlangan. Manastr ichkarisidagi xonalarning devorini rang-tasvir namunalarini va haykalchalar bezab turgan.

Bolaliktepa va Hayrobodtepa yodgorliklaridan doimiy muqaddas olov yonib turgan yirik sopol idishlar topilgan. Shimoliy Toxariston aholisi orasida otashparastlik diniga sig'inuvchilar ham bo'lganligidan dalolat beradi.

Shimoliy Toxaristonning ilk o'rta asrlar davri madaniyati dunyoviy mazmunga ega bo'lgan. Bu davrda koroplastika va rang-tasvir san'ati rivojlangan. Kuyovqo'rg'on ko'shidan V-VIII asrlarga oid haykalchalar topib o'rganilgan. Loydan yasalgan kichkina haykalchalarning ustidan mayin loy va ganch yuritilib, turli rang-bo'yoqlar bilan bo'yalgan. Haykalchalarda aks etgan kishilar tashqi qiyofasiga ko'ra bir-biriga o'xshamaydi. Haykal toroshlik san'atida antik davri an'ansi davom etib, o'zida so'nggi gandxara va sasoniyalar madaniyatining ta'siri sezilib turadi.

Tasviriy san'atning boshqa bir turi bo'lgan rang-tasvir namunalarini Bolaliktepa va Tavka yodgorliklarida o'rganilgan. Bolaliktepa devoriy suratlari

nufuzli oilaning bazni marosimlari aks ettirilgan. Undagi kishilar o'tirgan va tik turgan holatda tasvirlangan. O'tirgan kishilar qo'lida qadah ushlab turibdi, ularning orqasida esa bazni kuzatayotgan xizmatkorlar tasviri berilgan. Xonaning boshqa bir devordagi suratlarda xonodon egasining oila a'zolari, boshqa bir lavhada esa mayxo'tlik qilayotgan erkak-ayollar tasviri chizilgan. Tavka yodgorligi tasviriy san'at namunalari ov jarayonining aks ettirilishi bilan bog'liq. Unda yugirib borayotgan suvoriyalar va ularning ohu va quyonlarni ov qilish manzarasi jonli ifodalangan.

**Xorazm.** Xorazmning ilk o'rta asrlar (IV-VII) davri afrig'iylar sulolasi hukmronlik qilgan davrga to'g'ri keladi. Bu darga oid mavjud arxeologik yodgorliklarning ko'pchilik qismini, qishloqlar va kam sonli shahar turidagi yodgorliklar tashkil etadi. Xorazm ilk o'rta asrlarning boshlarida ma'lum inqiroz davrini boshidan kechiradi. Yirik kanallar sug'oradigan kichik sug'orma dehqonchilik mikrovohalari suvsizlanishi natijasida o'zlashtirish susayib ayrim hollarda bo'shab qoladi. Antik davri Oqchaxonqal'a, Tuproqqal'a, Xiva va kabi yirik shahar markazlarida hayot sustlashib, ayrim hollarda tashlandiq holga kelib qoladi. Bu davrdagi shaharlaridan Tuproqqal'a antik davri o'mida faoliyat yuritadi. IV-V asrlar Ayoqal'aga yaqin joyda hayot jounlanib, 25 ga. hududda shaharcha vujudga kelgan. Boshqa shaharlarda ham ma'lum tushkunlikni boshidan kechirgan holda hayot davom etadi.

VI-VIII asrlar davri shaharlari to'g'risida yetarli ma'lumotlar mavjud emas. Eski shaharlarda (Xozorasp, Xiva va boshqalar) hayot davom etadi. Nisbatan aniq ma'lumotlar so'nggi davr Yozma manba ma'lumotlarida keltirilgan. Markaziy asr mualliflari (Tabariy, Belazuriy va Ibn al Asama) manbalarida keltirilgan ma'lumotlarda Xorazmning bu davrdagi poytaxti shahri VII-VIII asrlarda Qiyot (Al-Fir) uch qismdan iborat bo'lган. Uiar zichiangan tuproqdan barpo etilgan umumiy mahofaza devoriga ega bo'lган.

Eski shaharlarda (Xozorasp, Xiva va boshqalar) hayot davom etadi. O'rta asr yozma manba ma'lumotlari va kam sonli arxeologik ma'lumotlarga

qaraganda Xazorasp Xorazmning ilk o'rta asrlar davri yirik ishlab chiqarish va madaniyat markazi bo'lgani.

Mizdaxkan manzilgohi Xorazmning o'rta asrlar davridagi yirik shaharlaridan birining o'tni hisoblanadi. Maydoni kichik bo'lgan yodgorlikda arxeologik qazishmalar amaqlga oshirilmagan. Uning yonidagi mazkur davrga oid qabriston qisman o'rganilgan, xo'los.

Burgutqal'a manzilgohi (maydoni 6 ga. dan ortiq) ikki qismli ilk o'rta asr shahri xarobasi. Ko'hna shahar mudofaa devori bilan o'rab olingan. Ark baland sahni ustida qurilgan ma'muriy bino, minorasifat baland inshoot- *donjon* o'rini olgan. Shahriston qismida aholi uy-joy imoratlari joylashgan. Ko'hna shahar Xorazmning VI-VII asrlardagi markazlaridan biri bo'lgan.

Xorazm vohasining VI-VIII asrlar davriga oid shaharlari to'g'risida yetarli yozma ma'lumotlar mavjud emas. Nisbatan aniq ma'lumotlar so'nggi davr yozma manba ma'lumotlarida keltirilgan. O'rta asr mualliflari (Tabariy, Belazuriy va Ibn al Asama) manbalarida keltirilgan ma'lumotlarda Xorazmning VII-VIII asrlardagi poytaxti shahri Qiyot (Al-Fir) uch qisimdan iborat bo'lgan. Ular zichlangan tuproqdan barpo etilgan umumiy muhofaza devoriga ega bo'lgan.

Qishloq turidagi manzilgohlarining soni nisbatan ko'pchilikni tashkil etadi. Ular asosan deqon jamoasi uy-joy imoratlaridan tashkii topgan qishloqlarning xarobasidir. Dehqonchilik qishloqlarining aksariyat qismi mustahkam mudofaa devoriga ega uy-qo'rg'onlar va qasrlardan iborat.

Ilk o'rta asrning dastlabki bosqichida vohaning moddiy madaniyatida pasayish kuzatiladi. Xorazmning bu davri sopol buyumlari erxaik davri usulida qo'llda yasala boshlaydi. Sopol buyumlarning loyiga xos-xashak, shamot va qum qushiladi. Sopollarni pardozlash va qizil rangdagi angoblar bilan qoplash an'anasi yo'qolib, ko'kish-kul rang nusxalari ko'payadi. Bu davrda So'g'd va Sirdaryoning o'rta oqimi hududi kulolchiligidagi o'xshashliklar kuzatiladi.

VI asrdan boshlab sopol buyumlarning sifati yaxshilanib borada,

kulolchilik charxida yasalgan sopol buyumlari miqdori ko'payadi. Bu davrda qo'lida tovoqlar, qozonlar, yirik lag'anlar va xumlar yasalgan. Kulolchilik charxida bir bandli, ko'p hollarda bo'g'izi tor ko'zalar va kosalar yasalgan. Ayrim sopol buyumlariga to'g'ri yoki to'lqinsimon o'yma naqshiar solingan.

Xorazmliklarning g'oyaviy hayotida antik davri zardushtiylik diniy e'tiqodi saqjanib qoladi. Dastlabki davr ostodonlari antik davridagi kabi xilma-xillikni saqlab qolgan. VI asrdan boshlab ostodonlari ma'llum andazaga qat'iy amal qilinib, to'rburchak shaklda yasaładi. Ostodonlar asosan loydan, qisman tosh va alebastrdan ishlangan. Ostodonlar sirtiga marhum ismi-sharifi va uning ruhiga bag'ishlangan ezgu tilaklar bitilgan. Ayrim ostodonlarning sirtiga marhumga aza taish odatlar bilan bog'liq bo'tma tasvirlar solingan.

*Choch-Iloq*. Ilk o'rta asr davri xitoy manbalarida Shi, Chjeshe (Chjesi) nomlari bilan tilga olingan Chech-Iloq o'lkasi Chirchiq, Kalas va Ohangaron vohalari bududdini egallagan. VI asrning boshlarida Chochdan Iloq mustaqil mulklik sifatida ajralib chiqadi.

Toshkent vohasi ilk o'rta asrlar davri arxeologik jihatdan Qovunchi III (IV-VI asrlar) va Mingo'rik (VI-VIII asrlar) majmularidan tashkil topgan. O'lkada ilk o'rta asr davriga oid 300 dan ortiq arxeologiya yodgorliklar qayd qilingan. Ular ko'hna shaharlar, shaharchalar, katta-kichik dehqonchilik qishloqlari, diniy inshootlar, tog'-kon yodgorliklari va qabr-qo'rg'onlardan iborat. Vohadagi ilk o'rta asrlar davriga oid yodgorliklarning 32 tasini Yu.F.Buryakov shahar sirasiga kiritgan.

Vohada ilk o'rta asrda antik davri shaharlarining yanada rivojlanishi bilan birga yangi shahar markazlari vujudga keladi. Ayniqsa, bu jarayon iqtisodiy ahamiyatiga ega bo'lgan savdo yo'llari chorrahalar va metallurgiya ishlab chiqarishi hududida jadal kechgan. Bu davrda Kanka, Shaxruxiya, Mingo'rik, Eski, Toshkent, Ko'hna Chinoz, Oqqo'rg'on, Kavardan, Kindiktepa, Xonobed, Ulkanto'ypepa, Imloq, Obliq, Qulota, Dalvarzintepa, Shoxjuvartepa va boshqalar shaharlar vohaning iqtisodiy va madaniy markazlari edi.

Ilk o'rta asrlar davrining dastlabki bosqichida Qanqa manzilgohi o'rnida rivojlangan shaharning o'lka shenarlar orasidagi yetakchilik mavqeyi saqlanib qoladi. Lekin bu davrda Qandara ham O'rta Osiyoning boshqa yirik shaharlarida bo'lgani kabi inqizat jamiyatini kuzatilgan. Vohada ilk o'rta asrlar davrining dastlabki bosqichlariga Qanqa manzilgohining yetakchilik mavqeyi saqlanib qoladi. Ilk o'rta asrlarining dastlabki bosqichlarida uchinchi shahristonning janubi-sharqiy qishig'i o'zlashtirilib, ixtisoslashgan ishlab chiqarish inshootlari barpo etiladi. Te minan birinchi ming yillikning o'rtalarida O'rta Osiyoning barcha shaharlarida kuzatilgani kabi Qanqa ko'chna shahri inqiroz davrini boshidan kechrib, maydoni keskin qisqarib ketadi. Yodgorlik ichki tomonidan ikkinchi shahriston doirasida 45 ga. maydondagi huddudni o'rabi olgan yangi mudofaa devori barpo etiladi. VII-VIII asrlar davrida shahar yirik savdo va ishlab chiqarish markaziga aylanzi. Antik davrida o'zlashtirilgan ikkinchi shahristondagi savdo-ishlab chiqarish qismi yanada rivojlanadi. Arxeologik qazishma ishlarida sakkizta ixtisoslashgan hunarmandchilik sohalari faoliyat yuritganligi aniqlangan. Temirchilik, misgarlik, kulolchilik kabi hunarmandchilik turlari yetakchilik qilgan. VIII asr boshlarida 1 ga. hududni egallagan karvonsaroy barpo etiladi. Bu davrda ishlab chiqarish shahar tashqarisi tomon kengayib, nol o'q qismi shakllana boshlaydi. Undan VII-VIII asrlar davrida faoliyat yuritgan kulolchilik xundonlarining o'rnini aniqlangan. VII asr boshida shahar abolisining mukammaliy hokimiyaiga qarshi norozilik harakatidan so'ng Qanqa Cheehning ma'muriy markazi maqemini yo'qotib, poytaxt Mingo'rikga ko'chiriladi. Lekin, vohadagi asosiy savdo-ishlab chiqarish markazi sifatidagi yetakchilik mavqeyini saqlanib qoladi.

Mingo'rik yodgorligida antik davri faoliyat yuritgan shahar ilk o'rta asrlarda taraqqiy etadi. Shahar tili, shahriston qismlaridan tashkil topgan topgan bo'lib, atrofi qalim devorlarini mudofaa etilgan. Xitoy manbalarida Shi shahrining 10 li.(4-5 km.) masofasiagi mudofaa devorlari to'g'risidagi xabar keltirilgan. Mudofaa devorini o'rgani, jasayonida uning o'ttasida yo'lakcha va

tashqi tomonidan to'g'ri to'rthurchak shaklli mudofaa burjlari aniqlangan. Devor va burjlarda shinaklar qayd etilmagan. Mudofaa va qarshi hujum devorning yuqori qismidan turib amalga oshirilgan bo'lishi kerak.

Shaharning ark qismidagi imoratlar majmuasi gumbaz shaklli torxonalaridan iborat. U yerdagi saroy majmuasi mahalliy hukmdorlarning hashamli qabulxonasi, yashash, ibodat va xo'jalik qismlaridan tashkil topgan. Shahristonning asosiy qismi zamonaviy qurilishlar band bo'lishiiga qaramay uning markazida qalin devor bilan barpo qilingan ko'p xonali uyning o'rni, kullochilik va temirchilik ustaxonasining o'rni ochib o'rganilgan. Shahar VIII asrning birinchi yarmida arabga qarshi kurash natijasida talafot ko'rib, ma'muriy markaz sifatidagi ahamiyatini yo'qotadi. Shahar hozirgi eski shaharda o'rniغا shakllanadi.

Toshkent vohasining tarkibiy qismini tashkil etgan Ohangaron havzasi Iloq o'lkasini tashkil etadi. Qulay tabiiy sharoit va resurslarga boy bo'lgan Iloq ilk o'rta asrning boshgacha Choch davlati tarkibida faoliyat yuritgan, VI asrda mustaqil davlat sifatida ajralib chiqqan. O'llkaning o'rta asr yirik shahar markazlaridan biri Tunket shahri hisoblangan. M.ye.Masson shaharni Olmaliq shahridan 12 km. shimoliy-sharqda joylashgan Imloq manzilgobi bilan qiyoslagan. Keyinchalik A.Asqarov Suyirlitepa manzilgohida tadqiqot ishlarini olib borib, Tunketning shahrini o'rniда ayna mana shu manzilgohda bo'lgan, deb hisoblaydi. Imloq manzilgobi o'rniда faoliyat yuritgan shahar antik davridagi metalsozlikka ixtisoslashgan hunarmandlar qishlog'i o'rniда shakllangan. Manzilgoh Iloqning yirik konlari yaqinida joylashlashgan. Ilk o'rta asrlar davrida shaharga aylangan manzilgohning umumiyy maydoni 17,5 ga. ni tashkil etadi. Shimoliy tomonida beshburchak shakidagi 5 ga. joyda joylashgan. Ark darvozalarinig biri shahristonga, ikkinchisi rabodga olib chiqqan. Arablar bosqinchiligi davrida shaharni qamal qilishi natijasida mudofaa devorlari qisman vayron etilib, keyinchalik qayta ta'mirlangan.

Toshkent vohasida yirik shahar markazlaridan Xonabod, Ulkanto'ytepa,

Tukket, Kindiktepa va boshqa shahar turidagi manzilgohlari vohaning ilk o'rta asrlar davri urbanizatsiyasi taraqqiyotida muhim o'rin tutgan.

Chilonzor Oqtepasi yodgorligida joylashgan ilk o'rta asr ibodatxonasi muhim ahamiyatga ega inshoot hisoblanadi. U baland sahni ustida paxsa va xom g'ishtdan qurilgan. Atrofi mustahkam mudofaa devori bilan o'rab olinib, burchaklari burjlar bilan kuchaytirilgan. Burjlarda jangavor shinaklar joylashgan. Ibodatxona xarobasidan xonalarning birida doimiy yonib turgan muqaddas olovdan qolgan kul saqlangan. Mazkur inshoot arablar bosqinigacha chochliklarning shahar tashqarisidagi asosiy diniy-g'oyaviy markazi hisoblangan.

O'troq dehqon aholisining asosiy mashg'uloti sug'orma dehqonchilik va bog'dorchilikni tashkil etgan. Manzilgohlar va shahar xarobalaridan donli ekinlarning urug'i topib o'rganilgan. Ziroatchilikda bug'doy, arpa, tariq, no'xat, bog'dorchilikda uzum va mevali daraxtlar ekilgan. Sug'oriladigan ekin maydonlari kengayib, sug'orish tizimi takomillashib, dehqonchilik xo'jaligi jadal rivojlanadi. Sug'orish tarmoqlaridan yuqorida joylashgan, o'zlashtirilmagan yerlarga chig'iriq orqali suv chiqarilib, ekin maydonlari nihoyatda kengayadi.

Hunarmandchilik ishlab chiqarishda metallurgiyaning ahamiyati o'sib borgan. Ayniqa Toshkent vohasining Turk hoqonligi tarkibiga kirgandan so'ng halqaro savdo yo'lidagi mavqeining kuchayishi, Chotqol-Qurama tog'i kon ma'danlariga bo'lgan talabning oshishiga olib kelgan. Bu jarayon o'z navbatida metallurgiya ishlab chiqarish yuksak darajada rivejlanishinin muhim omillaridan biri sanalgan. Toshkent vohasi ilk o'rta asrda chetga turli metallar yetkazib beruvchi markaz bo'lib qolmasdan, xalqaro bozor talabiga javob beradigan sifatlari mahsulotlar ham ishlab chiqarilar edi. Metallardan birinchi navbatda ish qurollari, uy-ro'zg'or anjomlari va qurol yarog'lar yasalgan.

Manzilgohlardan o'rroq, ketmon, omochning so'qasi topilgan. Uy-joy imoratlari va qabrlardan bir tig'li pichoq, et abzalining metalldan yasalgan turli

qismlari, to'g'ri to'rt burchak va aylana shaklda yasalgan ayil to'g'alari, temirdan yasalgan bandli paykonlar topilgan. Paykonlarning shakliga ko'tra to'rt qirrali kvadrat, to'rt qirrali to'g'ri to'rtiburchak, to'rt qirrali o'qsimon, uch qirrali o'q uchi shaklli, o'lehami kichkina uch parrakli turlari ajralib turadi. Zeb-ziynat buyumlari bronza va kumushdan bezirim uzuk va mongoloid qiyofasidagi erkak kishining yuzi qismi aks ettirilgan oltin nishon.

Ilk o'rta asrlar davrining ilk bosqichida kulolchilik buyumlari antik davri uslubida yashash an'anasi davom etadi. Ikkinci bosqichida sopol buyumlarning turi ko'payadi. Sopol buyumlari asosan oshxona va xo'jalik buyumlardan iborat. Kulolchilikda charxdan keng foydalanila boshlaydi. Qizil bo'yoq berilgan va biroz sayqallangan kul rangli tusli qoraygan sopollar tarqaladi. Sopol idishlarning ko'pchiligi tuxansimon shaklli xumlar va xumchalardan iborat. Og'zi keng bir va ikki qulogli gorshoklar ham mavjud. Ayrimlarining bandida hayvon, xususan, buqaning boshiga o'xashatish shakl yopishtirilgan. Ikki qulogli qozonlarining loyiga yirik qum qo'shilgan. Sopollarining sirtiga to'g'ri chiziq, to'lqin shaklli rang bo'yoqda oqizilgan naqshlar, bosma, yopishtirilgan (buqa yoki qo'y shoxi) shaklli naqshlar solingan.

Dafn inshootlari lahat va yorma qabrlardan iborat. Marhumlar yon tomoni bilan yotqizib, dafn qilingan. Ko'pchilik dafn etilgan, ehtimol oilaviy dahma ham mavjud. Qabrda turli xil kundalik ehtiyoj va zeb-ziynat buyumlari hamda qurol yarog'lar mavjud. Ayrim qabrlardagi buyumlar o'g'irlangan. Qabrlardan tashqari marhumning etidan tozalangan suyaklar solingan ossuariylarni hauslarga dafn qilish odati ham tarqalgan. Qopqoq'iga ega bo'lgan ossuariylarning shaklli oval ko'rinishda bo'lgan. Ossuariylarning sirtiga yopishtirma, tirnab chizilgan, qirqib chiziilgan o'simlik va samoviy tasvirlar solingan.

Toshkent hududi O'rta Osiyoning ilk o'rta asrlar davri vohalari orasida iqtisodiy salohiyati yuqori o'fkasi sanalgan. Bu borada o'lkanning xalqaro savdo yo'lida joylashganligi va tabiiy mineral resurslariga boyligi muhim o'rinni

egallagan.

**Farg'ona.** Farg'ona vodiysi O'rta Osiyoning ilk o'rta asrlar davri yirik o'lkalardan biri. Xitoy yozma manbalarida (Beyshi, Tanshu) Farg'ona vodiysi hududi Lona (Polona) Boxan va Ninyuan nomlari bilan tilga olingan. Xitoylik sayyoh Syuan Szyan bergen ma'lumotlariga ko'ra Farg'ona vodiysida Turk hoqonligi istilosigacha yagona hukmdor boshqaruviiga ega bo'lmasdan bir nechta mustaqil mulkliklardan tashkil topgan.

O'lka ilk o'rta asrga oid 250 dan ortiq arxeologiya yodgorliklar qayd etilib, shundan 22 tasi shahar turidagi yodgorliklardir. O'lkaning yirik shaharlaridan Koson, Axsikent, Quva, Andijon, O'sh, O'zgan, Qo'qon kabi yirik shahar markazlari va Qo'rg'ontep, Oqbura kabi boshqa shahar hamda shaharchalar faoliyat yuritgan.

Farg'onaning Koson va Axsikent kabi yirik shaharlari o'lkaning shimo'liy qismida joylashgan. Koson mahalliy hukmdorlarning poytaxti va Turk hoqqonligining qarorgohi bo'lgan. Maydoni unchalik katta bo'limagan trapetsiya shaklidagi shahar mustahkam mudofaa devoriga ega bo'lgan. Mudofaa devorining burchaklari burjlar bilan kuchaytirilgan. Janubi-sharqiy tomonda trapetsiya shakliga ega bo'lgan shahar arki joylashgan. Shahar yaqinida oltiia minorali turk hukmdorlarining qarorgoh-qasri o'r'in olgan. A.N.Berenshtamp qurilish inshootlari aniqlanmagan qasr ichkarisida turk amaldorlarining chodiri joylashgan, deb hisoblaydi. Koson shahrining arkida ko'rinishdan doimiy olov yonib turadigan o'choqga ega bo'lgan olov ibodatxonasi mavjud bo'lgan. Ibodatxonadan cho'ziq shaklli o'choq o'r'in o'lgan sig'inish xonasi aniqlangan. O'choq devori va tagi olovda qattiq kuygan, tagida saqlanib qolgan oq kul muqaddas olov doimiy yonib turganidan dalolat beradi.

Farg'ona vodiysining ilk o'rta asrlar davri aholi manzillari orasida Axsikent mavqeyi va ahamiyati jihatdan ikkinchi shahar hisoblanadi.

Arxeolog A.N.Bernshtam shaharning shakllanishini Kushon davri bilan, taraqqiyotini esa VI-VII asrlar bilan belgilaydi. A.Anorboev esa mil. avv. II

asming boshlarida shakllangan deb hisoblaydi. Shaharning ilk o'rta asrlar davriga oid madaniy qatlamlari yaxshi o'rganilmagan. Yozma manbalarda hukmdor qarorgohi bo'lganligi qayd etilgan.

Farg'ona vodiysidagi ilk o'rta asrlar davri yirik shahar markazlaridan biri bo'lgan Axsikent shahri o'lkaning shimoliy qismida, Sirdaryoning o'ng sohilida Sharqiy Turkiston va So'g'dni karvon yo'li bo'yida joylashgan, bo'lib, u antik davridan shakllana boshlagan. Ilk o'rta asrlar davriga kelib mahalliy hukmdorlar markazi hisoblangan yirik shahar markazlaridan biriga aylanadi. Manzilgoh shahriston va uning ichkarisida joylashgan ark qismlaridan iborat. Shaharning har ikkala qismi mustahkam mudosaa devorlari bilan o'rab olingan va ularga tutashtirib qurilgan mudosaa burjlari bilan kuchaytirilgan. Bu shahar rivojlangan e'rta asrlar davri arab va fors mualliflari keltirgan manbalarda ark, madina va rabod qismlaridan iborat bo'lgan, deb keltiriladi. Hezirgi paytda umumiy maydoni 27 ga. hududni egallagan trapetsiya shaklidagi shahriston va uning shimoliy-g'arbida joylashgan ark qismlarining o'tni saqlanib qolgan. Keyingi yillarda bu yerda ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan arxeolog olim A.A.Anarboevning tadqiqotlari natijasiga ko'ra shahar rivojlangan o'rta asrlar davrida yuksalib va uning maydoni bir necha barobar kengaytirilganligiga kengaygan.

Axsikent Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani hududida Sirdaryo bo'yida joylashgan. Bernshtam shaharning shakllanishini Kushon davri bilan belgilaydi va taraqqiyotini 6-7 asrlar bilan belgilaydi. Shaharning 70 hektardan iborat maydoni saqlangan bo'lib, to'g'rito'rburchak shakliga ega. Uch qism: ark, shaxriston (Aksi I a, Aksi I b) va keng rabodlardan iborat. Anorboev Axsikentni mil. avv. II asming boshlarida shakllangan deb hisoblaydi. Shaharning ilk o'rta asrlar davri yaxshi o'rganilmagan. Yozma manbalarda hukmdor qarorgohi bo'lganligi qayd etilgan. Shaharning rivojlangan o'rta asrlar davri yaxshi o'rganilgan. Temir eritish va ularga ishlov berish yaxshi rivojlangan.

Quva ko‘hna shahri hozirgi shaharning sharqiy chekkasida joylashgan kvadratsimon shakldagi maydoni 12 ga dan iborat manzilgoh. Shimoli-sharqiy qismida balandligi 10 m. dan iborat ikki yarusli 2 ga maydonni egallagan ark qismi joylashgan. 7-8 metr baland joylashgan shahriston qismi uch tomon (shimol, janub va sharq) 1.5 km radiusdagi rabod qismi bilan o‘rab olingen. X asr manbalarida ark, shahriston va keng rabod qismiga ega bo‘lgan. Rabod qismida hukmdor saroyi, zindon va bozor joylashgan. Buzilib ketgan arkida masjid bo‘lgan. Tanga zarb qiladigan zarbxonasiiga ega bo‘lgan. Rabodda kulollar mahallasi bo‘lgan. G‘arbiy tomonida yuqori sisatl niqshli sopollar yasalgan. Qazishmalar jarayonida janubiy va shimoliy tomonlaridagi paxsadan barpo etilgan devor o‘rganilib, u pastdan 10 mctr qalinlikda va 5 metr balandlikda saqlanib qoigan. Mudofaa devori undagi ashyoviy daillarning guvohlik berishicha II-III asrlarda qurilgan. Bu devor shaharning barcha tomonlarini o‘rab olgan umumiy qaliligi 14 metrdan iborat. Devorning to‘rtta qurilish davri aniqlangan. Dastlab devor 5-6 metr qalinlikda va 5 metr balandlikda bo‘lgan. Tag qismi paxsa, tepasi yirik o‘lchamdagagi g‘ishtardan qurilgan, V-VI asriarga oid. Uchinchi devor tasmasimon paxsa va xom g‘ishtidan barpo etilgan. Bu devor VI-VIII asr boshlariga oid. U devor ham paxsa va xom g‘ishtidan barpo etilib, XIII asr boshlariga qadar faoliyat yuritgan. Manzilgohda hayot mil. avv. VI-V asrlarda boshlanganligini naqshli sopol idishlar orqali bilish mumkin. Dastlabki devorning tagidan shunday sopollar olishgan. Ko‘hna shahar madaniy qatlami 9 metrni tashkil etadi. Shaxristonning g‘arbiy va sharqiy tomonlarida mudofaa devorlari atrofida uy-joy va xo‘jalik imoratlarining o‘rnini saqlanib qolgan. Ayrim uylarning pastki qismiga pishgan g‘ishti yotqizilgan.

Ilk o‘rta asrlar davrida aholi zinch joylashgan. Uylarining o‘rtasida o‘choq devor bo‘ylab stupalar joylashgan. Tomi tekis yopilgan bo‘lib, yog‘och ustunlarga asoslangan. Ustunlarga o‘yib naqshlar berilgan. Ilk o‘rta asrlar davri shahar atrofi yaxshi o‘rganilgan. U shaharning g‘arbida joylashgan. Bu qismi tig‘is qurilgan kvartallardan tashkil topgan bo‘lib, o‘zaro kichik ko‘chalar bilan

ajratilgan. Uylar yashash va ishlab chiqarish xonalaridan tashkil topgan. Manzilgoh yaqinida budda ibodatxona majmuasi bo'lgan. VII asrda buzilgan. Arab manbalarida Quva ilk o'rta asrlar davrida taxt vorisining qarorgohi hisoblangan. Keyinchalik sharq bilan g'arbni bog'lab turadigan buyuk ipak yo'sidagi ikkinchi yirik shahar hisoblangan.

Mudofaa devorlari jamiyat urbanizatsiyasi jarayonining muhim omillaridan biri bo'lishi bilan birqalikda u yoki bu harbiy va siyosiy vaziyat to'g'risida fikr yuritish omili bo'lib xizmat qiladi. Axrarov VII asrlar bilan sanalagan bo'lsa, Bulatova birinchi devorni V-VII asrlar bilan sanalagan.

Quyi qatlamdag'i dastlabki mudofaa devori paxsadan, yuqori qismi yirik o'lehamli xom g'ishtdan barpo etilgan. Uning ustidan ikki metr qalinlikdagi yupqa devor barpo etilgan. Uchinchi devor tasmasimon paxsadan barpo etilgan. Bu davrda devorning qatinligi 4 metrga etadi.

Shahar xarobalari o'lkaning shimoliy qismida, Sirdaryoning o'ng sohilida saqlanib qolgan. Shahriston va uning ichkarisida joylashgan ark qismlaridan iborat ko'hna shaharning maydoni 70 ga. Antik davrida shakllangan manzilgoh ilk o'rta asrlar davriga kelib mahalliy hukmdorlar qarorgohi joylashgan yirik shahar markazlaridan biriga aylanadi. Ko'hna shaharni o'tab turgan mudofaa devor burjlar bilan kuchaytirilgan. Shahristonning shimoli-g'arbiy qismida joylashgan arki, chuqur xandak bilan ajratilgan.

Farg'onada vodiysining ilk o'rta asrlar davriga oid boshqa shahar markazi hozirgi Quva shahrining sharqiy chekkasida kvadratsimon shakldagi maydoni 12 ga. dan iborat manzilgoh o'mida faoliyat yuritgan. Manzilgohning shimoliy-sharqida 2 ga. maydonni egallagan ark joylashgan. Shahristonning uch tomonini rabod o'tab olingan. Shahar mudofaa devori II-III asrlarda qurilgan, umumiy qalinligi 14 m. Shahristonning sharqiy va g'arbiy tomonlarida mudofaa devori tashqarisida uy-joy va xo'jalik imoratlarining o'rni saqlanib qolgan. Ilk o'rta asrlar davrida shaharda uy-joylar ko'payib, aholi mudofaa devoridan tashqaridagi yerlar o'zlashtirgan. Qurilish imoratlar xom g'isht va paxsadan

barpo qilingan. Katta uylar yog'och ustunlarga yordamida tomi tekis yopilgan. Qurilish imoratlarinin ustunlarga o'yib naqshlar solingan.

Ko'hna shahar yaqinida budda ibodatxona majmuasi joylashgan. Ibodatxona VII asrda buzib tashlangan. Arab manbalarida Quva shahri ilk o'rta asrlarda taxt vorisining qarorgohi joylashganligi keltiriladi.

Farg'ona vodiysining xilma-xil landshaft va iqlimli sharoiti turli xil xo'jalik sohalarining rivojlanishini va har bir hududida o'ziga xes xo'jalik turining qaror topishini ta'minlagan. Sug'orish tarmog'iiga ega bo'lgan tekisliklarda sug'orma dehqonchilik, bahor va kuz fasilarda yog'ingarchilik ko'p yog'adigan tog' oidi hududida jalni dehqonchiligi rivojlangan. Bog'dorchilik va polizchik dehqonchilik asosiy tarmog'i hisoblangan. Toshloq yerli hududlar uzumchilikning rivojlanishi uchun qulay joylar hisoblangan.

Farg'ona vodiysining chitm o'tli janubiy qismida chorva mollari yozda boqiladigan yaylovni, Farg'onaning markaziy qismidagi yarim cho'l hududi esa qishki yaylovni tashkil etgan. Chorvachilikda kichik tuyoqli mollar yetakechilik qilgan. Qoramol va yilqichilik chorvador qabilalarning yordamchi chorvasi hisoblangan.

Farg'ona vodiysi O'rta Osiyoning metall ma'danlariga boy o'lkalardan biri hisoblanadi. Vodiyning temir, oltin va simob rudasiga boy bo'lgan konlari to'g'risida qadimgi va o'rta asrlar davri manbalarida qimmatli ma'lumotlar saqlanib qolgan. Farg'ona vodiysisidagi ma'dan konlari milodning birinchi asridan qazila boshiagan. Ilk o'rta asrlarda metallarga ishlov berish hunarmanichiligi yuksak darajada rivojlanib, ixtisoslashish jarayoni chuqurlashadi.

Bu davrda mahalliy temir rudalariga ishlov berish takomillashgan. Quroq yarog'lar, mehnat qurollari va uy-ro'zg'or anjomlari asosan temirdan yasalgan. Yodgorliklardan omoch so'qasi, bolta, pichoq va paykonlar topilgan. Paykonlar uch parrakli va uch qirrali yoki to'rt qirrali. Bir tig'li kalta xanjar, kalta va uzun qilichlar ham mavjud. Topilmalar orasida kichik xalqalardan to'qilgan sovutning

bo'lagi muhim o'rincini tutadi.

Vodiyning antik davri uchun xos sirtiga qizil angob surtilgan sopollari keskin kamayib, ularning o'rinda rangi oqish, ayrim hollarda sirtiga oqish angob surtilgan buyumlar ko'payadi. Sopol buyumlari kulolchilik charxida yasalgan. Sopol buyumlar orasida xumlarning salmog'i ko'proq. Xumlarning sirtiga tamg'a bositgan. Ikkinchisi o'rinda suv idish-ko'zalar o'rincini olgan. Ularning shakli va o'lchami har xil. Baldoq va jumrakii ko'zalar ko'pchilikni tashkil etadi. Sopol buyumlari orasida turli o'lchamli kosalar, qozon, tava va boshqa oshxonalarining kulolchilikdagi ahamiyati katta.

Farg'ona vodiysida birorta dunyoviy din yetakchi o'rinni egallamagan. Ibtidoiy diniy qarashlar, xususan, totemizm, fetishizm, ajodolar ruhiga sig'inish, butlarga sig'inish odatlariga xos alomattlar moddiy manbalarda o'z aksini topgan. O'rta asrlar davri muallifi al-Shaxristoniy Koson shahrida quyosh ibodatxonasi mavjud bo'lganligi to'g'risida ma'lumot keltirgan. Qabrlarning atrofiga tosh aylantirib terish quyosh kaiti bilan bog'liq odat bo'lib, O'rta Osiyo xalqlarida qadimgi davrdan mavjud. Bunday odat Farg'onaning ilk o'rta asrlar davriga oid ko'pgina yodgorliklarida uchraydi.

Ilk o'rta asrlar davrida Farg'ona vodiysida dafn inshootlarining to'rt xil turi tarqalgan. Qabr-qo'rg'on osti qabrlari, chuqur, yorma va lahat qabrlari; ustiyog'ecc to'sin bilan yopilgan chuquer qabrlari, yerostli dahmasi; yer ustida joylashgan mug'xona va nauslar. Qabr-qo'rg'onlarning soni boshqalariga nisbatan ko'proq. Ular asosan daryo bo'yalaridagi baland qayirlarda va ekin maydonlarining chetida joylashgan.

Farg'ona vodiysida O'rta Osiyoning ilk o'rta asrlar davri muhim o'lkalardan biri bo'lib, shahar madaniyati zaminida savdo-ishlab chiqarish va madaniyat yuksak darajada rivojlangan. Vodiyning qulay tabiiy sharoiti, suv zaxiralari boyligi, tog' va tog' oldi hududi yaylovları agrar ishlab chiqarish taraqqiyotining asosiy omil hisoblangan. Mahalliy kon zaxiralari hunarmandchilik ishlab chiqarishning rivojlanishini, o'lkaning Buyuk Ipak yo'li

bo'yida joylashganligi xalkaro savdo aloqalari taraqqiyotining muhim omillari hisoblan gan.

### **Muvzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:**

1. O'rta Osiyoning ilk o'rta asrlar etno-madaniy jarayonlarini izohlang?
2. O'rta Osiyoning ilk o'rta asr mulkiy munosabatlarni bayon qiling?
3. Ilk o'rta asrlar davri mulkiy munosabatlarning moddiy madaniyatga ta'sirini bayon qiling?
4. O'rta Osiyoning ilk o'rta asr metallurgiya ishlab chiqarish taraqqiyotini yoritib bering?
5. O'rta Osiyoning ilk o'rta asr madaniy taraqqiyotida qanday o'zgarishlar sodir bo'ladi?
6. O'rta Osiyoning ilk o'rta asr tashqi savdo munosabatlarini yoritib bering?
7. O'rta Osiyoning ilk o'rta shahar madaniyatli xususiyatlarini izohlang?
8. O'rta Osiyoning ilk o'rta asr diniy munosabatlari qanday kechgan?

#### **I. O'rta Osiyoning o'rta asrlar davri moddiy madaniyati**

*Kalit so'zlar: arabsk, shahriston, rabod, koshin, girth, islamiy, gumbaz, minora, maqbara, karvansaroy.*

**O'rta asrlar ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari.** O'rta Osiyoning arablar tomonidan bosib olinishi va xalifalik tarkibiga kirilishi VII-VIII asr ikkinchi yarmida ilk o'rta asrdan rivojlangan o'rta asrga o'tish davri hisoblangan. Bu davrda arablar bosqini jamiyat taraqqiyotida ma'lum turg'unlik, shahar madaniyatining inqirozi, mahalliy aholining an'anaviy g'oyaviy qarashlariga qarshai kurashi bilan tavsiflanadi.

O'rta Osiyonig IX-XIII asrlar bosqlariga oid tarixi chuqur siyosiy jarayonlar, ya'ni yirik feodal davlatlarning vujudga kelishi va ularning almashinushi bilan tavsiflanadi. IX asrning oxirgi chora gidan boshlab arab xalifaligidan mustaqil siyosat yurita bosqlagan toxiriylardan boshlab, mo'g'ullar

istilosiga qadar somoniylar, qoraxoniylar, xorazmshohlar, saljuqiyilar, g'aznaviyilar davlatlari faoliyat yuritgan. Siyosiy jarayonlar bevosita mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotga o'zining ta'sirini o'tkazgan.

Rivojlangan o'rta asrlar davrida yirik feodal davlatlarning qaror topishi bilan siyosiy barqarorlik, mintaqaning iqtisodiy yuksalishi va tashqi savdo aloqalarining yanada rivojlanishiga olib keladi. Savdo munosabatlarning yuksalishi, ixtisoslashgan hunarmandchilik ishlab chiqarishining o'sishini, bu holat o'z navbatida mahalliy ma'danlarni qazib olish hajmining ko'payishini talab etar edi. Siyosiy mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishining muhim omili hisoblanar edi. Boshqa tomondan esa yevrosiyoda qulay iqlim sharoitining qaror topishi ham mintaqada jamiyat taraqqiyotiga turtki bo'lgan.

**O'rta asr shaharlari.** Mustaqil feodal davlatlar, xususan, somoniylar sulolasи davrida mamlakatning iqtisodiy va madaniy hayotiga jiddiy e'tibor berilib, islohatlar o'tkazadi. Ayniqsa, shaharlarni obodonlashtirish ishlari jadallahadi. Shaharlar maydoni kengayib, ichki tuzilmalari murakkablashadi va yangi shaharlar paydo bo'ladi. O'rta Osiyoning barcha hududida shaharsozlik taraqqiyotida yangi o'sish davr boshlanib, shaharlar soni yanada ko'payadi.

IX asrdan boshlab O'rta Osiyoda yangi shahar markazlarining paydo bo'lishi va ilgaridan mavjud bo'lgan Marv, Samarqand va Buxoro kabi shaharlar jadal rivojlanadi. Shaharlar taraqqiyoti bevosita ichki va xalqaro savdoning rivojlanishini ta'minlaydi. O'z navbatida savdo yo'llarida rabotlar barpo etilgan va ularga sharoit yaratilgan.

O'rta asrlar davrda shaharlar ahamiyati, mavqeyi va maydoni jihatdan o'zaro farq qilib, arxeologik belgilariga ko'ra yirik, o'rta va kichik shakllari ajralib turadi. Shuningdek, shaharlarning uchta qismi (ark, shahriston va rabod) to'liq ajraladi.

Shaharlarning obodonchiligi, sanitariya va gigiyena holatlariga alohida

e'tibor berila boshlaydi. Shahar ko'chalarga tosh to'shaladi, ichimlik suvi va oqovalarda sopol quvurlardan foydalanila boshlaydi. Ishlab chiqarish inshootlari shahdan tashqariga, rabot qismiga ko'chiriladi.

O'rta arslar davri tarixiga oid yozma manba ma'lumotlari arab va fors mualliflari Istaxri (X asr o'rtalari), Muqaddasiy (X asr oxiri), Ibn Xavqal, Qudama va Ibn Xurdadbek asarlarida saqlanib qolgan. Yozma manba ma'lumotlari asosan geografik mazmunida bo'lgan. Manbalar O'rta Osiyo hududidagi shaharlar ro'yxati, joylashgan o'rni va ular oraliq'i to'g'risidagi masofa te'g'risida ma'lumotlar tafsilotidan iborat. Yozma manbalar matnlarida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy tarixi bilan bog'liq ma'lumotlar ham mavjud.

Buxoro shahri qadimgi o'rnida rivojlanadi. IX asrning o'rtalarida shahar yangi mudofaa devorlari bilan o'rab olinib, uning 11 ta darvozasi mavjud bo'lgan. Shahar arkida yangi qurilish inshootlari, xususan, saroy, devonlar saroyi va boshqa jameatchilik imoratlari barpo etilib, tashqi tuzilishi tubdan o'zgaradi. Buxero shahrining ark qismida 713-yili arablar dastlabki masjidni barpo etishadi. Biroz kechroq Registon maydonining shimoliy qismida nomozgoh, 795-yili jome masjidlari qurilgan. 919-yili unga tutashtirib O'rta Osiyoda dastlabki minora barpo etiladi. 1068-yilda minoraning yog'ochdan barpo etilgan tepa qismi yonib, pishgan g'ishtdan qayta quriladi. Yozma manba ma'lumotlarida keltirilgan ma'lumotlarning guvohlik berishiga ko'ra shahar atrof hududi keng bog'lar, davlatmand va mansabdor shaxslar uy-joy imoratlari bilan band bo'lgan.

Samarqand, ark, shahriston va rabod qismlaridan tashkil topgan O'rta Osiyoning yirik shahari bo'lgan. Shaharning asosiy qismi Afrosiyob o'rnida bo'lgan. Shaharning to'rt tomonida Kesh, Navbuxor, Buxoro va Xitoy darvozalari joylashgan. Janubdagagi Kesh darvozasi orqali yangi rabod tomonidan kirilgan. Buxoro darvozasi shimoliy qismida arka yaqin joyda bo'lgan. Arablar bosqiniga qadar Afrosiyobdan tashqarida devori qiyomat barpo etilgan bo'lib, uning 12 ta darvozasi bo'lgan. Samarqand shahri Somoniylar davlati poytaxti

bo'lgan davrda uchburchak madinaning g'arbida bir necha mahobatli qurilish inshootlari, xususan, saroy barpo etiladi. Ma'muriy markaz Buxoroga ko'chirilgandan so'ng qurilish ishlari to'xtaydi. Bog'dodlik geograf ibn Havqal (X asr) shahar madinasining tashlandiq holga kelib qolgani, aksincha rabod qismining rivojlanganligi to'g'risidagi yozib qoldirgan. Shaharning ichki qismini suv bilan ta'minlashda sopol quvurlar foydalanish, shahristonda joylashgan karvonsaroy, savdo-ishlab chiqarish inshootlari to'g'risidagi qimmatli ma'lumotlar ham kettirib o'tilgan. Shahar mo'g'ullar istilosida ko'p talafot ko'rib, uzoq muddat turg'unlik davrini boshidan kechiradi.

O'rta asr manbalarida birligina Toshkent vohasi hududida 50 dan ortiq shaharlar va shaharchalar ro'yxati keltirib o'tilgan. Istashriy bejizga Mavorounnahr va Xurosonda jome masjidlari (*masjid*-musulmon olamida shaharni belgilovchi asosiy alomat) sonining ko'pligi jihatdan Toshkentga teng keladigan o'lka uchramaydi, degan tarifini aytmagan. Muallif ma'lumotlarida "Choch va Illoq mudofaa devorlari bilan muhofaza qilingan, darvozalar, arklar, rabodlar, bozorlarga ega bo'lib, ariqlar oqib o'tadigan shaharlarga boy" o'lka sifatida ta'riflangan. Ulardan eng yirigi Binket, Xarashket, Benoket hisoblangan. Binket shahri vohaning ma'muriy markazi hisoblanib, uning chegarasi hozirgi Eski Jo'va hududidagi Chorsu bozori hududidan o'tgan. M.ye.Masson shahar rabodining muhofaza devorini kuzatib, shahristonning 16 ga. maydonini chegaralagan va rabodining chegarasi va mudofaa devorining o'rmini aniqlashga erishgan.

Toshkent vohasining yirik shaharlaridan biri Xarashket Buyuk Ipak yo'slidagi yirik savdo-ishlab chiqarish markazi sifatida faoliyat yuritgan. Umumiy maydoni 220 ga. dan iborat. Qanqaning bu davrdagi arki, uchta shahriston, rabod qismlaridan tashkil topib, uch xalqa mudofaa devorlari bilan muhofaza qilingan. Yodgorligining janubiy qismida taxminan 10 ga. maydondagi ixtisoslashgan hunarmandchilik ishlab chiqarish inshootlari, karvonsaroy va bozor shaharning vohadagi yirik savdo-iqtisodiy markaz.

bo'lganligini ko'rsatadi. Shahar mo'g'ullar istilosiga qadar (XII asr boshlarida) daryo o'zanining o'zgarishi sababli tashlandiq holga kelib xarobaga aylanadi.

Biyuk Ipak yo'lidagi yirik shaharlardan biri hisoblangan Benoket Sirdaryo kechivuda joylashgan. Bu shahar savdo yo'lidagi muhim ahamiyati yuqori bo'lib, mustaqil tanga chiqaradigan zarbxonasiga bo'lgan. Maqdisiy qoldirgan ma'lumotlarga ko'ra shahar ahotisi yuksak harbiy jasoratga ega bo'lganligi sababli shaharda muhofaza devorlari bo'lmagan. Hozirgi paytda Sirdaryo toshqinlarida shaharning asosiy qismi yuvilib ketishi barobarida ark butunlay nobut bo'lgan. Shahristonda qurilish imoratlaring o'rni, rabod qismida kulollar va shishasozlar ustaxonalari o'r ganilgan. Shahar mo'g'ullar istilosini davridagi to'rt kunlik qamal so'ng vayron qilinib, xarobaga aylanadi.

Termiz uch qismdan iborat shahri bo'lib, uning maydoni 500 ga. yetgan. Shaharning barcha qismi alohida mudofaa devorlariga ega bo'lgan. Shaharda termizshohlar saroyi, aholining uy-joy imoratlari, savdo-hunarmandchilik inshootlari va boshqa turdag'i imoratlarning o'mi aniqlangan. Termiz shahri XI-XII asrlarda taraqqiyotining yuqori darajasiga ko'tarilib, XIII asrda mo'g'ullar bosqini tusayli inqirozga yuz tutadi.

Qashqadaryoning asosiy shaharlar markazlari Nasaf, Koson, Kesh va boshqa shaharlari rivojlangan. Nasaf hozirgi Shulluktepa manzilgohida o'rnda faoliyat yuritgan. Shulluktepa yodgorligi ark, shahriston va rabod qismlaridan tashkil topgan.

Xorazmda Urganch, Xiva, Xazorasp shaharlari faoliyat yuritgan. Farg'onada vediysida Quva, Axsiken, Andijon, O'sh, Qo'qon va boshqa katta-kichik shaharlar bo'lgan. Umuman O'rta Osiyoning IX-XIII asrlarda shahar yuksak darajada rivojlanib, ular ma'lum davlat yoki viloyatning ma'mriy markazi bo'lish bilan birgalikda, savdo-iqtisodiy va madaniy markazlar ham bo'lgan. Bu davrda ularning har birida boy me'moriy obidalar qad ko'tariladi.

XIII asrning boshida Chingizxon boschchitigida mo'g'ul-tatarlar bosqinchiligi davrida ko'pgina shaharlar (Samarqand, Termiz, Benoket) vayron

qilinib, ba'zilari butunlay inqirozga uchragan bo'lsa, ba'zilari uzoq muddat tashlandiq holiga kelib qoladi. XIV asming boshlarida mintaqada ma'lum siyosiy barqarorlik hukm surib, Chig'atoj ulusi hukmron doirasi vakillari olib borgan obodonchilik ishlari natijasida ayrim shaharlar (Qarshi, Andijon) yangi joylarda qaytadan tiklanadi.

O'rta Osiyo shaharsozligi taraqqiyotining keyingi bosqichi Movaraunnahrda Sohibqiron Amir Temur hokimiyatining o'rganilish va temuriylar hukmronligi bilan bog'liq bo'lib, mo'g'ullar davrida vayron etilgan shaharlar qayta tiklanadi. Bu davrda nisbatan Samarcand va Shahrizabzning obodonchiligiga katta e'tibor qaratilib, asosiy qurilish ishlari mana shu ikki shaharda olib boriladi. Amir Temur farmoni bilan Toshkent vohasining Sirdaryo bo'yida joylashgan o'rta asr Benoket shahri qayta tiklanib, mustahkam muhofaza devori bilan o'rab olinadi va u Shohruhiya nomi bilan yuritila boshlaydi. Shuningdek, temuriylar davrida Hirot shahrida ham jiddiy qurilish ishlari olib boriladi. A.Navoiyning sayi harakatlari bilan ko'plab jamoatchilik imoratlari barpo etiladi.

So'nggi o'rta asrlar davri dunyo tarixida sodir bo'lgan muhim o'zgarishlar O'rta Osiyo mintaqasi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Buyuk geografik kashfiyotlar natijasida dengiz yo'llining ochilishi bilan Buyuk Ipak yo'li ahamiyatini yo'qotib, O'rta Osiye xalqaro savdo yo'lida, xalqaro taraqqiyot yutuqlaridan chetda qolib ketadi. Shuningdek, o'zaro taxt uchun kurash, beklarning mustaqil boshqarish yo'lidagi intilishlari, markaziy hokimiyatga bo'yusunmaslik o'lka taraqqiyotiga salbiy ta'sirini o'tkazadi.

***Me'morchilik.*** Arablar bosqini davrida O'rta Osiyoning shahar va qishloqlarida qurilish ishlari deyarli to'xtab qolgan. Qurilish IX asrning ikkinchi yarmidan boshlab yana jontana boshlagan va X-XII asriarda kuchaygan. Bu davrda mahalliy hokimiyat oldida avval shahar mudofaasini ta'mirlash va uyjoy, jamoatchilik imoratlari (bozor, karvon, saroy, sardoba), mahalliy amaldorlar uchun saroy, qasrlarni barpo etish vazifasi turar edi. Shuningdek,

mahalliy aholi uchun yangi imoratlar-machit, madrasa qurish talab qilinár edi. Buyuk shaxslar qabrlari ustiga maqbaralar barpo etish an'anasi kuchaydi.

Bu davr shaharlar ko'rkini mahobatlí me'morchilik inshootlari bezab turgas. Semoniylar davridan boshlab mahobatlí qurilish inshootlarini qurishda pishgan g'ishtlardan foydalanila boshlanishi imoratlarning mustahkamligini ta'minlash bilan birgalikda ularning ko'rksamligini ham oshirgan. Ma'lumki, IX asrdan shaharlarda diniy imoratlar: masjid, madrasa va maqbaralar barpo etish an'anaga aylanadi. Ularining old qismida bo'y cho'zib turgan peshtog'i va gumbaz shaklida yopilgan tomi ko'rkini yanada oshirgan.

Shaharlarning savdo va ishlab chiqarish markazi sifatidagi ahamiyatining o'sishi bilan tim va toqlar barpo etiladi. Ular me'moriy yechimi sodda va ixcham imoratlardan tashkil topib, tashqi tomoni unchalik mahobatlí bo'lмаган.

Semoniylar davri me'moriy obidalari ixcham va sodda me'moriy yechimiga ega bo'lgan bo'lsa, Qoraxoniylar, ayniqsa, temuriylar davri me'moriy obidalari yirik va salobatlí ko'rinishda bo'lib, ularning mahobatiga mos holda konstruksiyasi ham murakkablashadi. Shayboniylar davri me'morchiligidä asosiy e'tiborni ularning ahamiyati qaratgan. Bu dayrda ko'proq savdo-ishlab chiqarish va jamoatchilik inshootlari quriladi.

Umuman o'rta asrlar dariga oid imoratlari o'zida mavjud davlatning qudratini namoyon etadi. Agar somoniylar davrida qurilgan imoratlar kichkina va ixcham bo'lgan bo'lsa, qoraxoniylar davrida mahobatlí, Amir Temur davrida esa juda yirik bo'lgan. Sohibqiron Amir Temur bejiz Oqsaroy peshtoqiga "Qudratimizga shubha qilsang, qurgan imoratlarimizga boq", degan so'zlarni yozdirmagan.

IX asrdan boshlab qurilishda pishgan g'isht ishlatala boshlanib, X asrda keng joriy qilinadi. Pishgan g'ishdan qurilgan imoratlar nafaqat mustahkam balki, ularning tashqi qiyofasi ko'rkm va mahobatlí bo'lgan. Buxorodagi Ismoil Semoniy maqbarasi shunday qurilish inshootlaridan biridir. Maqbarani qurishda pishiq g'ishtdan turli usullarda foydalanilgan. G'ishtlar to'g'ri, ko'ndalang, yon

va qırıa tomonlari bilan terilib, ular o'ziga xos bezak hesil qiladi. Maqbaraning tashqi tuziliishi juda sodda. Kubik shaklidagi bino tomi gumbaz qilib yopilgan. Maqbara devorining tepasi qismida kichik arkalar ketma-ket joylashgan. Burchaklaridagi minorasimon ustunlar devorlariga biriktirilgan. Eshiklarining tepasi ham arkasimon.

Shuningdek, Arabota, Karmanada Said Bahrom Uzunda, Oq Ostonabobo, Termizda at-Termiziyy maqbaralari kabi me'moriy obidalari saqlanganki, ular qurilish usuli va bezalishiga ko'ra umumiy va o'ziga xos xususiyatlari bilan bir-biridan ajralib turadi. Ularning devorlari murakkab o'yma ganchli naqshlar bilan bezatgan. Bu davr me'morchilikda istimiy va girih uslubidagi naqshlar bilan bezash keng tarqaladi. Shuningdek, me'morchilikda devorlarning sirtini koshinlar bilan bezash keng qo'llanilib, ularda ko'k va yashil ranglardan foydalanilgan. Me'morchilik inshootlarini barpo etishda murakkab qurilish usullari (qubbalar, yoysimon arkalar, gumbazlar, peshtoq) keng qo'llanilgan.

Bu davrda shahar atrofi va tashqarisida qo'rg'onlar va qarorgohlar ham barpo etilgan. Ulardan biri Buxoro yaqinidagi Rabodi Malikdir. Hovli ichkarisi qisqa xonalar bilan o'ralgan. Devorlari ham g'ishtdan ko'tarilib, pishiq g'isbt bilan usti qoplangan. Tepasi asosi gumbaz bilan yopilib, atrofida kichik gumbazlar joylashgan. Hovli ichkarisida machit, hammom va boshqa xonalar ham mavjud.

VII-IX asrlarga oid masjidlar bizgacha deyarli etib kelmagan. Ulardan Buxoroda Diggaron va Mog'aki Attoriylar va boshqalar saqlangan. Ular asosiy katta xenadan iborat bo'lib, usti gumbaz qilib yopilgan. Masjidlarda aylana shaklidagi minoralar bo'lган. XII asrlarga oid Buxoroda Minorai Kalon, Vobkent va Jarqo'rg'on minoralari saqlanib qolgan. Ularning tashqi tuzilishi bir-birini takrorlamaydi. Dastlabki ikkitasi silliq holda ko'tarilgan bo'lsa, Jarqo'rg'on minorasi tagkursi ustida qator ustunsimon shaklda qurilib, tepada kichik arkalarga tutashgan. Tepa qismi davom ettilib, o'rtasi belbog'simon shaklni xosil qilgan.

Bu davning alohida shaxslar uchun maqbaralar qurish an'anasi kuchaydi. Maqbaraning ba'zilari to'liq pishiq g'ishtdan yoki xom g'isht aralashtirib qurila boshladi. Ularga gumbazli, ba'zan ravoqli qilib qurilgan.

Ulardan Marvda Sulton Sanjar, Xorazmda (Urganch) el Arslon va Takashlarning maqbaralari diqqatga sazovardir. El Arslon va Takash maqbaralari kvadrat shaklida bo'lib, tepasida baland gumbaz joylashgan. Ular o'ziga xos me'moriy uslubi va bezalish san'ati bilan ajralib turadi.

XIV asrning oxirda O'rta Osiyo me'morchiligi mo'g'ul-tatar bosqinidan so'ng o'zining yangi taraqqiyot bosqichiga kiradi. Me'moriy obidalarning gumbaz va qubbalar tuzilishi murakkablashadi. Me'morchilikdagi eng katta yutuqlardan biri, ularga beriladigan bezaklar va bo'yoqlar mazmunining boyligidan iborat. Koshinlar asosan ko'k, oq va havo ranglarda bo'lib, gumbazlarga asosan havo rang berilgan.

Bu davrga oid me'moriy obidalar ko'proq Samarqand va Shahrisabz shaharlari barpo qilinadi. Shuningdek Xorazmda ham mo'g'ullardan so'ng huvillab qolgan Urganch shahrida qurilish ishlari jonlanadi. Bu davrda Samarqandda Bibixonim, Go'ri Amir, Shohizinda, Shahrisabzda Oqsaroy va boshqa ko'plab me'morchilik inshootlari barpo qilinadiki, ular Sohibqiron Amir Temur davrida qurilgan boy me'morchilik namunalaridir. Shuningdek Ulug'bek davrida ham bir necha me'morchilik inshootlari barpo etiladi. Ulug'bek davrida Samarqand, Buxoro va Shahrisabz shaharlariда qudirgan madrasa va masjidlar diqqatga sazovardir.

Shayboniyalar davrida Samarqand shahrida qurilish to'xtamagan bo'lsada, qurilish inshootlarini barpo qilish Buxoroga (poytaxt ko'chirilgandan so'ng) ko'chadi. Buxoro shahri mudofaa devori bilan o'rab olinadi. Baxoro me'morchiligidagi, xususan, diniy imoratlar qurishda eski me'morchilik an'analari yangisi bilan uyg'unlashadi. Jamoatchilik imoratlarini qurishda yangi me'morchilik an'analaring ustunligi seziladi. Ayniqsa, imoratlardagi gumbazlarning xonalariga mos tushishi me'morlar izlanishining natijasidir.

Bu davrda ham jamoatchilik inshootlari; masjid, madrasa, xonaqoh, sardoba, karvonsaroy va boshqa qurilish inshootlarni qurish an'anasi kuchayadi. XVI asrning me'moriy bezaklari temuriylar davri an'anasi davom etsada, XVI asrning ikkinchi yarmidan so'ng eng sodda kam mehnat talab qiladigan bezaklardan keng foydalaniladi. Bu davrga oid Mir Arab madrasasi, masjidi, Kalon majmuasi, Abdullaxon madrasalari va boshqa me'moriy obidalar qurilgan. Shuningdek, Toshkentda Ko'kaldosh va Baroqxon madrasalari barpo etiladi.

XVII-XVIII asrlar davri me'morchiligi o'tgan asr an'analarining davomi sifatida rivojlanadi. Buxoro, Samarcand va boshqa shaharlarda ko'plab me'moriy obidalar barpo qilinadi. Ayniqsa, Xorazm me'morchiligi o'ziga xos yo'nalishda rivojlanib, Xiva shahrida pishiq g'ishtdan bir necha madrasalar barpo etiladi. XVII asr o'rtaida Urganch shahri hozirgi o'miga ke'chirilib bu yerda ham yangi qurilish inshootlari barpo qilinadi.

**Hunarmandchilik.** O'rta Osiyoning rivojlangan o'rta asrlar davri hunarmandchiligidagi, temirchilik, shishasozlik, to'qimachilik, kulotchilik va boshqalar muhim o'rinn tutadi. Temirchilik nafaqat shaharlarda balki qishloq joylarda ham ancha rivojlanib, undan mehnat qurollari, uy-ro'zg'or buyumlar, qulf-kalitlar bilan bir qatorda, shamdonlar, surmadonlar va boshqa antiqa buyumlar yasalgan. Temir buyumlar, quyish va bolg'alah usulida yasalgan.

Metalchilikning yana bir muhim tarmog'i misgarlik bo'lgan. Misgarlar nafis ko'zalar, qozonlar, shamdonlar yasalgan. Kulotchilik ishlab chiqarish nafaqat shaharlarda balki qishloq joylarda ham yaxshi rivojlangan bo'lib, arxeologik jihatidan yaxshi o'rganilgan. Shahar va qishloq xarobalaridan kulollar mahallalari, ustaxonalar va xumdonlarning o'mi ochib o'rganilgan.

IX-X asrlardan shisha ishlab chiqarish hunarmandchilikning asosiy tarmoqlaridan biriga aylanadi. Shishasozlik asosan shaharlarda rivojlanadi. Afrosiyob, Varaxsha va Nisolarning o'rta asrlar davri madaniy qatlamidan shisha buyumlar topib o'rganilgan. Ular shakl va bajmdagi uy-ro'zg'or

buyumlardan tortib, zeb-ziynat va parod-andoz buyumlarini tashkil etadi. Shishalarning asosiy ko'pchiligi rangsiz. Rangli shishalar ham mavjud bo'lib, ular asosan idishlarning sirtini bezashda ishlatalgan. Bu davr shishasozlari turli usuldan foydalangan, xususan, puflash yo'li bilan yupqa shishalar ishlab chiqargan. Puflash yo'li bilan idishlarga pardozi berish ham keng foydalanishgan. IX-X asrlarda puflash yo'li bilan deraza oynalari ham yasalgan. XI-XII asrlardashishaga bo'lgan talab yanada ortib, ishlab chiqarish sur'ati tezlashadi. Shuningdek, bu davrda rangdor shishalar soni ko'payadi.

O'rta asrlar davriga kelib kulolchilikda katta yutuq erishildi. Sopollarni naqshlar bilan bezash va ularni sirlash texnikasi o'zlashtiriladi. O'rta Osiyoda sirli sopollar VIII asrning ikkinchi yarmida ishqorli shaffof sirlar paydo bo'ladi. Sirning tagida naqshlar asosan uch xil rang-bo'yodan: sariq, ko'k va yashil ranglarda chizilgan. Yashil rangda tasvirning shakli chizib otingan, sariq va ko'k ranglarda yuzasi bo'yalgan. VIII asrning oxirida sirlangan sopollar soni ko'payib, janubiy hududlarning barcha shaharlarida ishlab chiqariladi. Sir ostiga asosan o'simlik tasvirlari, xususan, nayza bargli naqshlar chizilgan. Shuni alohida ta'kidlash joizki islam dinida jonli mayjudotni tasvirlash qat'iy man etilgan. Shunga qaramasdan qushlarning tasviri tushirilgan naqshlar uchrab turadi.

IX-X asrlarda ishg'orli, qalayli va yuqori sifatga ega bo'lgan qo'rg'eshinli sirlardan foydalanilgan. Idishlar tez aylantiriladigan charxda yasalib, turli rangli angobda jilo berilgan. Ichki yuzasiga turli xil rangda tasvirlar tushurilgandan so'ng, olovda pishirilgan. Undan so'ng esa sirlanib ikkinchi marta qayta pishirilgan. Bu davrda kulollar och ko'k, sariq va qoramtil jigar ranglardan keng foydalangan. Boshqa bir turli idishlar esa oq rangga bo'yalib, ustidan qora va jigar rangdagi yozuvlar bilan bezatilgan. Shuningdek, och ko'k va havo rangdagi sirlardan ham keng foydalanilgan. Naqshlar geometrik to'r, shtrix, chiziq, yulduzcha va aylana shakllar hamda o'simlik, barglar va boshqalardan iborat. Sopollarda hayvon va qushlarning tasviri tushirilgan naqshlar, hamda

shukrona va nasihat so'zları bitilgan yozuv naqshlar ham mavjud. XII asr oxiri XIII asr boshlariga kelib kulolchilik sifatining pasayishi sodir bo'ladi. Sirlari ko'kintir rangdagi dog'simon tusga kirib, naqshlar o'zining aniqligini yo'qotadi.

XIV asrning boshlariga kelib kulolchilik o'zining ilgarigi holiga qayta boshlaydi. Tagi qora bo'yoqda naqshlangan zangori rangdagi sirlar keng qo'llaniladi. XV asrlarda qora naqshlar va zangori rang sirlar an'anasi davom etib, o'zidan oldingi davrdagiga nisbatan sifati bir oz oshadi. XVI asrda idishlar esa oq va zangori bo'yoqlarga, asr oxirida esa to'q zangori bo'yoqqa bezatilib, naqshlari girih va islimiyl shakklardan tarkib topadi.

Umuman O'rta Osiyoning o'rta asrlar davri moddiy madaniyati jamiyat taraqqiyoti asosida rivojlariib brogan.

#### *Muvzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:*

1. O'ria Osiyoda o'rta asrda qanday ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar kechdi?
2. O'rta Osiyoda o'rta asr moddiy madaniyatida qanday yutuqlarga erishildi?
3. O'rta Osiyoning IX-XII asrlar me'morchilik taraqqiyoti xususiyatini yoritib bering?
4. O'rta Osiyoning XIV-XV asrlar me'morchilik taraqqiyoti xususiyatini yoritib bering?
5. O'rta Osiyoning Amir Temur va Temuriylar davri moddiy madaniyati taraqqiyotini izohab bering?
6. O'rta Osiyoning shayboniyalar davri moddiy madaniyat xususiyatlari nimalardan iborat?
7. O'rta Osiyoning o'rta asr kulolchiligining xususiyatlarni yoritib bering?
8. O'rta Osiyoning o'rta asr madaniyati taraqqiyoti omillari nimalardan iborat bo'lgan?

### **Glossariy:**

*Akinak* - ikki tomonlama tig'ga ega bo'lgan skiflar xanjari. Dastlabki namunalari bronzadan yasalgan.

*Akropol* - yunonlarning tepalik ustida barpo etilgan shaharining ark qismi.

*Allyuvij* - suv oqiziqlari natijasiда hosil bo'lgan qum aralash tuproq qatlami.

*Angob* - sopol idishlarning sirtini silliqlash maqsadida yupqa qilib surtilgan suyuq loy bo'lib, idishning nafisligini ta'minlash bilan birgalikda naqsh chizish uchun taglik vazifasini ham bajargan.

*Antropogenez* - *antropos*-odam, *genezis*-tug'ilish, paydo bo'lish, ya'ni odamlarning shakllanishi va rivojlanishi to'g'risidagi ta'lilot.

*Antropomorf*-(odamsifat)-qandaydir jonzot yoki odam shaklini ifodalovchi hayvon.

*Ark* - shaharning ichki qal'asi, markaziy yoki mahaltiy hokimiyat tashkiloti joylashgan qismi.

*Artefakt* - odamlar tomonidan yaratilgan narsa (predmet).

*Assimilyatsiya* - bir xalqning boshqasi bilan tili va madaniyatini o'zlashtirish orqali aralashib ketishi.

*Burj* - qadimgi va o'rta asrlar davri shaharlari mudofaa devorlari muhofazasini kuchaytirish maqsadida qurilgan minora.

*Garpun* - suyak va metaldan baliq ovlash uchun ishlatalgan qurol.

*Dolmen* -tik turgan toshlar ustidan tosh plitalar yotqizib barpo etilgan paleometal davri dafn inshooti.

*Dromos* - qabr-qo'rg'onlarga kirish uchun mo'ljallangan yo'lakcha. Ujar odatda qabr inshootini qurish jarayonida maxsus qurilgan yoki keyinchalik talonchilar tomonidan qazib kirilgan.

*Yorg'uchchoq* - o'simlik donlarini qo'lda maydalash uchun mo'ljallangan maxsus tosh, yoki qo'l tegirmoni. U pastida va tepasida don yanchadigan ikkita aylana toshdan iborat bo'lgan.

*Zikkurat* - zinasimon shaklli ibodatxona inshooti. Unda toat-ibodat ishlaridan

*Iashqari* qurbontlik qilish ishlari bajarilgan.

*Ingumatsiya* - marhumlarni yerga ko'mish yoki xilxonada saqlash.

*Interstadial* - muzlik oralig'i davrining issiq iqlimli bosqichi.

*Kata* - zardushtiylik dinida marhumlarni qish faslida saqlaydigan joy.

*Katakomba* - yon tomonida mayit quyish uchun mo'ljallangan xilxonasi ega qabr (lahat) qabr.

*Kenotaf* - mayitsiz qabr.

*Klekton* - tosh qurolliga ishlov berish usuli. Ashell davrida foydalanilgan.

*Kliver* - toshdan yasalgan qo'lboita. Ilk paleolit davrida ishlatilgan.

*Krematsiya* - marumiarni yoqib, kulini ko'mish usuli.

*Qabr-qo'rg'on* - qabr ustida tuproq, chim yoki toshdan baland qilib ko'tarilgan inshoot.

*Makrolit* - yirik tosh quroli.

*Malaxit* - tarkibida mis minerali bo'lgan yashil rangli tosh

*Megalit* - yirik tosh bloklaridan ishlangan qadimgi inshoot.

*Mikrolit* - chaqmoqtoshdan yasalgan trapetsiya, segment va uchburchak shaklli kichik o'lchamli tosh qurollari, odatda undan kamon o'qining uchi va kesuvchi qurol tig'i sifatida ishlatilgan.

*Monoxrom* -bir xil rangli bo'yoq.

*Naus* - otashparastlar xilxonasi

*Nekropol* - marhumlar shahri. Antik davri mozorlari shunday nomlangan.

*Nukleus* - tosh quroli yasash uchun bo'lakcha sindirib olishga mo'ljallangan o'zak yoki asos.

*Ossuariy* - zardushtiylik diniy odatiga ko'ra marhumning etdan tozalangan suyagini saqlash uchun mo'ljallangan sopol yashik. Ular odatda to'rburchak, aylana va boshqa shaklda loydan, ayrim hollarda toshdan yasalib, yuqorisida qopqog'iga ega bo'lgan.

*Oxra* - qizg'ish-jigar rangli tusga kirgan temir zangi.

*Paleobotanika* - qadimgi o'simliklarni o'rganuchi fan.

*Pandus* - shahar arkiga chiqadigan ko'tarma yo'lak.

*Polixrom* - har xil rangli bo'yoq.

*Rabod* - o'rta asrlar davri sharq shaharlaring shahriston atrofidagi savdo-ishlab chiqarish joylashgan qismi.

*Rabot* - savdo yo'llarida joylashgan istehkom, karvonsaroy.

*Riton* - mol shoxidan yasalgan idish. Qadimda loydan yasalgan.

*Stratigrafiya* - manzilgohlar va boshqa arxeologiya ob'ektlarida insoniyat hayoti faoliyatining aks etgan madaniy qatlam.

*Tigel* - olovga chidamli loydan metall yoki shisha eritish uchun mo'ljallangan idish.

*Xazina* - yer ostiga yashirib qo'yilgan qimmatbaho metallardan yasalgan zargarlik buyumlari, tangalar va boshqa buyumlar majmuasi.

*Sista* - ichki tomoniga tosh terib chiqilgan dasn inshooti.

*Chopper* - yirik qayroqtoshning bir tomoni sindirib, yasalgan tosh quroli.

*Chopping* - yirik qayroqtoshning ikki tomoni sindirib, yasalgan tosh quroli.

*Shamot* - o'tga chidamli pishirilgan loy yoki kaolin. Qadimgi va o'rta asrlarda sopoldan shomot sifatida foydalangan.

*Shahriston* - o'rta asrlar davri sharq shaharlaring muhofaza qilingan, aholi yashaydigan qismi.

*Shinak* - mudofaa devor va burjlarda dushmanga qarshilik ko'rsatish uchun mo'ljallangan maxsus tuynuk.

## Foydalilanlgan adabiyotlar ro‘yxati

### Darslik va o‘quv qo‘llanmalar:

1. History of civilizations of Central Asia Volume I. Unesco Publishing1992.
2. History of civilizations of Central Asia Volume II. Unesco Publishing1996.
3. Аванесова Н.А. Эпоха бронзы Средней Азии.Часть I. Самарканд. Изд. СамГУ, 1988.
4. Авдусин Д.А. Основы археологии М., «Высшая школа» 1989.
5. Аннаев Т., Шайдуллаев Ш. Сурхондарё тарихидан лавҳалар. Т., 1997.
6. Археология Зарубежной Азии. М., «Высшая школа» 1986.
7. Археология Средней Азии. Под. ред. С.Б.Лунина. Ташкент, 1986.
8. Археология. Под. ред. В.Л. Янина. М., «Изд. МГУ», 2006
9. Аскarov А.А., Жўракулов М.Ж. Энеолит ва бронза даврида Ўрта Осиё. Самарқанд, 1984.
- 10.Байпаков К.М., Таймагамбетов Ж.К. Археология Казахстана. Алматы, «Қазак университеті» 2006.
- 11.Добровольская М.В., Можайский А.Ю. Археология. М. МГПУ. 2012
- 12.Джуракулов М.Д. Аванесова Н.А. Историография эпохи бронзы Средней Азии. Учебное пособие. Самарканд: Изд.СамГУ. 1983.
- 13.Жўракулов М.Ж. Ўрта Осиё ибтидоий археологияси. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1984.
- 14.Кабиров Ж., Сагдуллаев А . Ўрта Осиё археологияси. Тошкент, “Ўқитувчи” 1990.
- 15.Мартынов А.И. Археология. М., «Высшая школа» 2006.
- 16.Рындина Н., Десятрова А. Энеолит и бронзовый век. Учебное пособие. М. 2002.

17. Сагдуллаев А.С. Қадимги Ўрта Осиё тарихи. Тошкент, 2004.

18. Эгамбердиева Н.А. Археология. Тошкент, 2011.

*Монографиялар:*

1. Аванесова Н.А. Бустан VIИскрополь доурбанистической Бактрии.
2. Албаум Л.И. Балалык-тепе. (к истории материальной культуры и искусства Тохаристана). Ташкент, «Фан», 1960.
3. Албаум Л.И. Живопись Афрасиаба. Ташкент, «Фан», 1975.
4. Алексеев В.П., Аскarov А.А., Ходжайов Т.К. Историческая антропология Средней Азии. Ташкент, «Фан» 1990.
5. Алимова Д.А., Филанович М.И. Тошкент тарихи. Тошкент, «Фан», 2009.
6. Анербоев А.А., Исломов У.И., Матбобоев Б.Х. Ўзбекистон тарихида Қадимги Фаргона. Ташкент, «Фан», 2001.
7. Аскarov А.А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. Ташкент, «Фан», 1977.
8. Аскarov А.А. Саналлитепа. Ташкент, «Фан», 1973.
9. Аскarov А.А., Ширинов Т.Ш. Ранняя городская культура эпохи бронзы Средней Азии. Самарканد, 1993.
10. Аскarov А.А., Абдуллаев Б. Джаркутан. Ташкент, «Фан», 1983.
11. Аскarov А. Энг қадимги шаҳар. Т.: «Маънавият». 2001
12. Аскarov А.А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. Тошкент, “” 2014.
13. Аскarov А.А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. Тошкент, “Университет” 2007.
14. Беленицкий А.М., Бентович И.Б., Большаков О.Г. Средневековый город Средней Азии. Л., «Наука» 1973.
15. Бичурин Н.Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. М.-Л., «Изд.Академия наук» 1950. Т. II.

- 16.Бонгард-Левин Г.М., Ильин Г.Ф. Индия в древности. М., «Наука», 1985.
- 17.Брей У., Трамп Д. Археологический словарь. М., «Прогресс» 1990.
- 18.Буряков Ю.Ф. Генезис и этапы развития городской культуры Ташкентского оазиса. Ташкент, «Фан», 1982.
- 19.Буряков Ю.Ф. Историческая топография древних городов Ташкентского оазиса (Историко-археологический очерк Чача-Илака. Ташкент, «Фан», 1975.
- 20.Буряков Ю.Ф. Канка и Шахрухия дрение города Чача и Илака на Великом шелковом пути. Таджикент, 2011.
- 21.Буряков Ю.Ф., Грицина А.А. На террасах Великой шелковой пути. Ташкент, 2000.
- 22.Буряков Ю.Ф. Горное дело и металлургия средневекового Илака Ташкент V- нач.XIII. М., «Наука» 1974.
- 23.Вайнберг Б.И. Этнография Турана в древности (VII до н.э. – VIII в. н.э.). М. “Восточная литература”, 1999.
- 24.Виноградов А.В. Неолитические памятники Хорезма. М., “Наука”, 1968.
- 25.Выдающийся памятники Узбекистана. Ташкент «Изд. Санъат журнали», 2013.
- 26.Горячева В.Д. Городская культура Тюрksких Каганатов на Тянь-шане (середина VI-нач. XIII в.) Бишкек, 2010.
- 27.Гуломов Я.Ғ. Хоразмнинг сугорилиши тарихи (қадимги замонлардан хозиргача). Тошкент, «Изд. Академия наук», 1959.
- 28.Гулямов Я.Г., Исламов У., Аскarov А. Первобытная культура и возникновение орошаемого земледелия в низовьях Зарафшана. Ташкент, «Фан» 1966.
- 29.Древнейшие государства Кавказа и Средняя Азия. Отв. ред. Г.А. Кошеленко. М., “Наука” 1985.

- 30.Древний и средневековый город Восточного Мавераннахра. Ташкент, «Фан», 1990.
- 31.Древний Мерв. //Тр.ЮТАКЭ. Т. XIX. Ашхабад, 1989.
- 32.Дуке Х. Бурглюкская культура. Ташкент, «Фан», 1979.
- 33.Луке Х. Тяябугузское поселение бурглюкской культуры. Ташкент, «Фан», 1982.
- 34.Еленик Я. Большой иллюстрированный атлас первобытного человека М., 1982.
- 35.Заднепровский Ю.А. Древнеземледельческая культура Ферганы. МИА. М-Л., «Изд. Академия наук», 1962. Вып.118.
- 36.Заднепровский Ю.А. Ошское поселение. К истории Ферганы в эпоху поздней бронзы. Бишкек, «Мурас», 1997.
- 37.Исаков А.И. Саразм. (К вопросу становления раннеземледельческой культуры Зеравшанской долины раскопки 1977-1983 гг.Душанбе, «Ирфон» 1991.
- 38.Исамиддинов М.Х.Истоки городской культуры Самарканского Согда. Самарканд, 2002.
- 39.Исламов У.И. Обиширская культура. Ташкент, «Фан» 1980.
- 40.Исламов У.И. Пещера Мачай. Ташкент, «Фан» 1975.
- 41.Исламов У.И., Крахмаль К.А. Палеоэкология и следы древнейшего человека в Центральной Азии, Ташкент, 1995.
- 42.Итина М.А.История степных племен Южного Приаралья /I - нач. I тыс. до н.э. // Тр. ХАЭЭ. – ТомX. М., «Изд. Академия наук», 1977.
- 43.Итина М.А.Раскопки стоянок тазабагъябской культуры // МХЭ. – Вып. IV. –М., «Изд. Академия наук», 1960.
- 44.Кузьмина Е.Е. Арии-путь на юг. М.-Сиб., «Летний сад» 2008.
- 45.Кузьмина Е.Е. Классификация и периодизация памятников Андроновской культурной общности. Актобе, 2008.
- 46.Курбансахатов К.Энеолит Анау. Ашхабад, «Ылым», 1987.

- 47.Қадимги Көн-Шахрисабз тарихидан лавҳалар. //Масъул мұхаррір А.С. Сағдуллаев. Тошкент, "Шарқ" 1998.
- 48.Ламберг-Карловски К., Саблов Дж. Древние цивилизации. Ближний Восток и Мезоамерика. М., «Наука» 1992.
- 49.Левина Л.М. Этнокультурная история Восточного Приаралья. I тысячелетие до н.э.- I тысячелетие н.э. М., "Восточная литература", 1996.
- 50.Лисицына Г.Н. Орошаемое земледелие эпохи энеолита на юге Туркмении. М., «Наука», 1965.
- 51.Лопекова О.Локальная вариабельность в культуре и хозяйстве Джейтунских племен. Ашхабад. ылым, 1988.
- 52.Лунина С.Б. Города Южного Согда в VIII-XII вв. Ташкент, «Фан», 1984.
- 53.Мамедов М. Древняя архитектура Бактрии и Маргианы. Ашхабад, 2003.
- 54.Массон В.М. Алтын-Депе. Труды ЮТАКЭ. Л., "Наука", 1981. Т. XIX.
- 55.Массон В.М. Древнеземледельческая культура Маргианы //МИА. № 73. М.-Л., 1959.
- 56.Массон В.М. Первая цивилизация М., «Высшая школа» 1989.
- 57.Массон В.М. Поселение Джейтун // МИА. Л. 1971. - № 180.
- 58.Массон В.М. Средняя Азия и Древний Восток М.-Л., "Наука", 1961.
- 59.Матбабаев Б.Х. К истории культуры Ферганы в эпоху раннего средневековья. Тошкент., "Tafakkur" 2009.
- 60.Матбабаев Б.Х., Машрабов З.З. Древний и средневековый Азияжан. Ташкент, «SHARQ» 2011.
- 61.Матюшин Г.Н. Археологический словарь. М., "Учеб. лит.", 1996.
- 62.Мезолит СССР. Археология СССР. – М., "Наука", 1982.

- 63.Мурадова Э. А. Поселения архаического Дахистана. Ашхабад, “Ылим”, 1991.
- 64.Мухаммаджонов А.Р. Зарафшон водийсининг сугорилиш тарихи (қадимги даврдан то XX асрларнг бошларигача) . Тошкент “Фан” 1972.
- 65.Мухаммаджонов А.Р. Қадимги Бухоро. Тошкент., “Фан” 1989.
- 66.Мухаммаджолов А.Р. Қадимги Тошкент. Тошкент, “Фан” 1988.
- 67.Палеолит СССР. Археология СССР. – М., “Наука” 1984.
- 68.Пидаев Ш.Р. Қадимий Термиз. Т., “Фан” 2001.
- 69.Пидаев Ш.Р. Сирли күшонлар салтанати Тошкент, “Фан” 1990.
- 70.Пугаченкова Г. А., Ртвеладзе Э. В. Северная Бактрия-Тохаристан. Очерки истории и культуры. Древность и средневековье. Ташкент, “Фан” 1990.
- 71.Пугаченкова Г.А. Шедевры Средней Азии. М., 1986.
- 72.Пугаченкова Г.А., Ртвеладзе Э.В. и др. Дальверзинтепе – кушанский город на юге Узбекистана. Ташкент, “Фан” 1978.
- 73.Рахмонов Ш.Р. Тавка (к истории древних таможенных сооружений Узбекистана). Ташкент, 2001.
- 74.Сагдуллаев А.С. Қадимги Ўзбекистон илк ёзма манбаларда. Тошкент “Ўқитувчи”, 1996.
- 75.Сагдуллаев А.С. Усадьбы древней Бактрии. Ташкент, “Фан”, 1987.
- 76.Сарианиди В.И. Древние земледельцы Афганистана. М., 1977.
- 77.Сарианиди В.И. Древности страны Маргуш. Ашхабад “Ылым”, 1990.
- 78.Сарианиди В.И. Маргуш. Древневосточное царство в старой дельте реки Мургаб. Ашхабад, 2002.
- 79.Сарианиди В.И. Поселение и некрополь Тиллятепе. М., «Наука», 1989.
- 80.Сетон Ллойд. Археология Месопотамии М., «Наука» 1984.

81. Средней Азии в эпохи камня и бронзы. М.-Л., “Наука”, 1966.
82. Средняя Азия и Дальний Восток в эпоху средневековья. Средняя Азия в раннем средневековье. // Год общ. ред. акад. Б.А. Рыбакова М., «Наука» 1999.
83. Сулейманов Р.Х. Древний Нахшаб. Проблемы цивилизации Узбекистана VII в. до н.э.- VII в. н.э. Самарканд-Ташкент, «Наука», 2000.
84. Сулейманов Р.Х. Нахшаб унитилгани тамаддун сирлари. Тошкент, «Маънавият», 2006.
85. Толстов С. П. Древний Хорезм. М., «Изд. МГУ», 1948.
86. Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. М., «Изд. Академия наук», 1962.
87. Толстов С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации. М., «Изд. Академия наук», 1948.
88. Тошкент воҳаси археологияси (муаллифлар жамоаси). Ташкент, 2010.
89. Филанович М.И. Древняя и средневековая история Ташкента в археологических источниках. Ташкент., «Узбекистан» 2011.
90. Филанович М.И. Ташкент. Зарождение и развитие города и городской культуры. Ташкент, 1983.
91. Хлопин И.Н. Историческая география южных областей Средней Азии (Античность и ранее средневековье). Ашхабад, «Ылым», 1983.
92. Хлопин И.Н. Геосурская группа поселений эпохи энеолита. М.-Л., «Наука», 1964
93. Чайлд Г. В. Древнейший Восток в свете новых раскопок. // пер. с анг. М.Б. Граковой-Свиридовой. М., Изд. “Иностранной литературы”, 1956.
94. Шайдуллаев Ш.Б. Северная Бактрия в эпоху раннего железного века. Ташкент, 2000.

95. Шахрисабз. Минг йиллик мъроси, Тошкент, «Шарқ». 2002.

96. Энеолит СССР. Археология СССР. – М., «Наука», 1982.

*Eslatma:* Darsliknining foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida faqat darslik, o'quv qo'llanma va monografiyalar ro'yxati keldirildi. Ulardan tashqari O'MMT, O'zbekiston tarixi, O'zbekiston arxeologiyasi, Arxeologik tadqiqotlar, "Sovetskaya (Rossiyskaya) arxeologiya", VDI, KSIA, KSIIMK kabi ilmiy jurnallarda nashr qilingan ilmiy maqola materiallaridan keng foydalanilib, ularning egallaydigan hajmini inobatga olib ro'yxatini keltirishni lozim topmadik.

## MUNDARIJA:

<b>KIRISH.....</b>	<b>3-11</b>
<i>Birinchi bo'lim. TOSH DAVRI.....</i>	<i>12-69</i>
I. Bob. Paleolit.....	12-32
II. Bob. Mezolit.....	33-47
III. Bob. Neolit.....	48-69
<i>Ikkinci bo'lim. PALEOMETAL DAVRI.....</i>	<i>70-131</i>
I. Bob. Eneolit.....	70-87
II. Bob. Bronza.....	88-131
<i>Uchinchi bo'lim. TEMIR DAVRI.....</i>	<i>132-228</i>
I. Bob. Iik temir.....	132-178
II. Bob. Antik davri.....	179-228
<i>To'rtinchi bo'lim. O'RTA ASRLAR.....</i>	<i>229-272</i>
I. Bob. Iik o'rta asrlar.....	229-260
II. Bob. O'rta asrlar.....	261-272
Glossariy.....	273-275
Adabiyotlar re'yxati.....	276-283

## ОГЛАВЛЕНИЯ:

<b>ВВЕДЕНИЯ.....</b>	<b>3-11</b>
<i>Первый раздел. КАМЕННЫЙ ВЕК.....</i>	<i>12-</i>
69	
I.Глава. Палеолит.....	12-32
II.Глава. Мезолит.....	33-47
III.Глава. Неолит.....	48-69
<i>Второй раздел. ЭПОХИ ПАЛЕОМЕТАЛЛА ДАВРИ.....</i>	<i>70-</i>
131	
I.Глава. Энеолит.....	70-87
II.Глава. Бронза.....	88-131
<i>Третий раздел. ЖЕЛЕЗНЫЙ ВЕК.....</i>	<i>132-228</i>
I.Глава. Ранний железа.....	132-178
II.Глава. Античность.....	179-228
<i>Четвертый раздел. СРЕДНИЙ ВЕК.....</i>	<i>229-</i>
272	
I.Глава. Раннесредневековые.....	229-
260	
II.Глава. Средний век.....	261-272
<b>ГЛОССАРИЙ.....</b>	<b>273-275</b>
<b>СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ.....</b>	<b>276-283</b>

## **CONTENTS:**

<b>Introduction.....</b>	<b>3-11</b>
<b>The first section. Stone age.....</b>	<b>12-69</b>
I. Chapter. Paleolith.....	12-32
II. Chapter. Mesolithic.....	33-47
III. Chapter. Neolithic.....	48-63
<b>The second section. Epoch paleometal.....</b>	<b>70-131</b>
I. Chapter. Eneolit.....	70-87
II.Chapter. The Bronze age.....	88-131
<b>The third section. Iron age.....</b>	<b>132-228</b>
I.Chapter. Early Iron age.....	132-178
II.Chapter. Antique era.....	179-228
<b>The first section. Middle ages.....</b>	<b>229-272</b>
I.Chapter. Earle middle ages.....	229-260
II.Chapter. Middle ages.....	261-272
<b>REFERENCES.....</b>	<b>270-283</b>

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**O'RTA OSIYO ARXELOGIYSI**



Muallif:

Ibragimov R.Z.

Mas'ul muharrir:

Sagdullaev A.S.

Taqrizchi: Abdullaev


**“Asian Book House” nashriyoti**

**Toshkent - 2020**

**Nashr litsenziyasi: AA № 0005, 27.03.2019-yil**

Bichimi 60x84 1/8. Ofset qog'ozda nashr etildi. Bosma tabog'i 18.  
Adadi 200 nusxa. Buyurtma № 15. Shartnoma raqami №2.

“Asian Book House” nashriyoti, “print center” bosmaxonasi,  
Yashnobod tumani, Aviasozlar ko'chasi, 1-uy.



ABH